

# O‘ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA

Uchinchi kitob-albom



“O‘ZBEKISTON”  
TOSHKENT – 2022



Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy G'alabani ta'minlashga ko'pmillatli O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Bugungi tinch va ozod, farovon hayotga erishish yo'lida fidoyi ota-bobolarimiz namoyon etgan mardlik va jasoratni el-yurtimiz hech qachon unutmaydi.

**Shavkat Mirziyoyev,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

# **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining**

## **Q A R O R I**

### **9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushi davrida ko‘rsatgan jasorati, bukilmaz irodasi va matonati, insonparvarlik fazilatlari avlodlar uchun muqaddas xotira va odamiylikning yuksak namunasi bo‘lib qolmoqda. Bugungi tinch va osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimizning yorqin xotirasini yod etib, ularning ezgu ishlarini munosib davom ettirish – tinchlikni buyuk ne‘mat deb biladigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Butun dunyoda millionlab insonlarning qurbon bo‘lishiga sabab bo‘lgan, mislsiz yo‘qotishlar, talafot va musibatlar olib kelgan Ikkinchi jahon urushi bashariyat tarixidagi eng dahshatli, qonli qirg‘in bo‘lganini, oradan qancha yillar o‘tsa-da, ezgu niyatli dunyo ahli hech qachon unutmaydi. Jang maydonlarida fashizmga qarshi mardona kurashgan 2 millionga yaqin o‘zbekistonliklarning 500 mingdan ziyodi halok bo‘lganini xalqimiz aslo yodidan chiqarmaydi.

Ko‘pmillatli tinchliksevar O‘zbekiston xalqi uchun fashizm ustidan g‘alaba qozonilgan 9-may sanasi avvalo Xotira va qadrlash kuni sifatida aziz va mo‘tabardir. Biz uchun xotira insonning insonligini anglatadigan tushuncha, uni o‘tmish va istiqbol bilan bog‘lab turadigan buyuk ruhiy-ma‘naviy qudratdir. El-yurt tinchligi va ozodligi uchun kurashgan mard va jasur insonlar xotirasini yod etish orqali biz Vatan uchun jonini fido etgan qahramon ota-bobolarimizning nomlarini sharaflash, ularga yuksak hurmat ko‘rsatishni tushunamiz.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini ulug‘lash” g‘oyasi asosiy o‘rin egallaydi. Ushbu tamoyil ham xotira va qadrlash tushunchasi bilan uyg‘un va hamohang bo‘lib, xalqimizning azaliy ezgu orzu-intilishlariga to‘la javob beradi.

Mamlakatimizda 9-may umumxalq bayrami – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashga

munosib hissa qo‘shgan barcha mehnat va urush faxriylariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xotirasini ulug‘lash maqsadida:

1. Quyidagilar:

9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh (A. Aripov):

dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning **“Inson qadri ulug‘ – xotira muqaddas”**, **“Mardlik va jasorat – hamisha barhayot”** shiorlari ostida o‘tishini, uch avlod uchrashuvlarini, madaniy-ma’naviy tadbirlar, targ‘ibot aksiyalari, tasviriy san’at ko‘rgazmalari, ijodiy kechalar, tanlovlar, ommaviy sport musobaqalarini tashkil etsin;

Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisi, front orti mehnat faxriylari, shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a‘zolariga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish maqsadida tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar rahbarlari hamda harbiy qism komandirlari tomonidan ushbu toifadagi shaxslarni qutlash uchun ularning yashash joyiga tashrif buyurish hamda ular ko‘rsatgan mardlik va jasoratning ahamiyatini keng aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida tushuntirish va targ‘ib qilish bo‘yicha madaniy-ma’rifiy va vatanparvarlik tadbirlarini tashkil qilsin;

yolg‘iz va kam ta‘minlangan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining turar-joyi va uy xo‘jaliklarini ta‘mirlash, obodonlashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofotini tantanali ravishda topshirsin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ularni parvarish qilish maqsadida tibbiy bilimlarga ega xodimlarni (shartnoma asosida) biriktirgan holda, doimiy ravishda patronaj xizmatini tashkil qilsin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining istaklari asosida ularni respublika hududidagi sanatoriylarga bepul yuborishni tashkil etsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda:

viloyat, shahar va tumanlarda bayramga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqsin va amalga oshirsin;

ko‘cha va maydonlarning Xotira va qadrlash kunining ma’no-mazmunini ifoda etadigan plakat va stendlar bilan bezatilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Toshkent shahrida 2022-yil 9-may kuni soat 21:00 da Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan bayram salyutini tashkil qilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi Milliy gvardiya bilan birgalikda tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan hamda bayram salyutlari tashkil etiladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, Xotira va qadrlash kuni bayramini nishonlash bilan bog‘liq barcha ommaviy tadbirlar O‘zbekiston Respublikasiga koronavirusning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasi tavsiyalari asosida amalga oshiriladi.

7. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga bayramga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlarni, ushbu qaror ijrosini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, shuningdek, mavzuga oid teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar tayyorlab efirga uzatish, maqolalar e’lon qilish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyev**

2022-yil 29-aprel





AZIZ JONLARINI  
TINCHLIK VA OZODLIK  
UCHUN FIDO ETGAN  
QAHRAMON  
YURTDOSHLARIMIZNI  
ONA VATAN HECH  
QACHON UNUTMAVDI!

# QAHRAMON OTA-BOBOLARIMIZ



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘iga tashrif buyurdi.

Harbiy orkestr ijrosida “Xotirlash kuyi” yangradi. Davlatimiz rahbari “Matonat madhiyasi” yodgorlik majmuasiga gulchambar qo‘ydi.

Bu majmua Ikkinchi jahon urushida besh o‘g‘lidan ayrilgan Zulfiya aya Zokirova, uning sadoqatli kelinlari va yetim qolgan nabiralari xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan. U xal-

qimizning urushdagi yo‘qotishlari, tinchlik uchun kurashi timsoli sifatida bog‘ markazidan o‘rin olgan. Shu ma’noda “Matonat madhiyasi” urushda o‘z bolasidan, o‘z yoridan judo bo‘lgan barcha onalar, barcha ayollar sharafiga o‘rnatilgan muazzam obidadir.

Bog‘da Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ham jam bo‘ldi. Prezidentimiz ular bilan suhbatda xalqimizga tabriklarini yo‘lladi.





# JASORATI OLDIDA TA'ZIM QILAMIZ



– Bugun ushbu G'alaba bog'ida turib, muhtaram faxriylarimizni, butun xalqimizni qutlug' ayyom bilan chin qalbimdan tabriklayman. Bunday damlarda qahramon ota-bobolarimiz xotirasini yodga olib, ularning jasorati oldida ta'zim qilamiz. Ularning tinchlik va ozodlikka bag'ishlagan serqirra hayot yo'li kelgusi avlodlar uchun o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan buyuk merosdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari bu maskan urush oqibatlarini, tinchlik qadrini yodga solishini ta'kidladi.

– Bugun dunyo tahlikali bo'lib borayapti. Har daqiqa sinovli bo'layapti. Bu bizga ham ta'sir qiladimi? Albatta ta'sir qiladi. Lekin xalqimiz hayotiga shu ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralar ko'ryapmiz. Mehnatimiz bilan, birdamligimiz bilan, Xudo xohlasa, bu sinovlardan ham o'tamiz, – dedi Prezident.

Vazirlik va idoralar, jamoatchilik vakillari ham majmua poyiga gullar qo'ydi.



## PREZIDENT NURONIYLARNI ZIYORAT QILDI



Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-may kuni Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari holidan xabar oldi.

Avval Toshkent shahrining Olmazor tumani-da istiqomat qilayotgan Abbas ota xonadoniga borildi.

Abbos ota Appanov 1924-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1942-yil fevralda Smolensk shahriga urushga borib, keyinchalik Belarus, Polsha, Germaniyada bo‘lgan shiddatli janglarda ishtirok etgan. 1946-yilda yurtimizga qaytgan Abbas ota uzoq yillar Achaobod mahallasidagi umumta’lim maktabida nemis va ingliz tili fanidan saboq bergan, boshlang‘ich sinflar uchun “Nemis tili” darsligini ham yozgan.

Bu insonning tinchlik yo‘lidagi xizmatlari munosib baholanib, ko‘plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

– *Sizlarni ko‘rib, yaqindan gaplashay, hol-ahvol so‘rab, sihat-salomatlik tilay deb o‘zim keldim. Avvalo, sizni, siz orqali barcha urush qatnashchilarini, xalqimizni bayram bilan tabriklayman. Hamisha sog‘-salomat bo‘lib, duogo‘yimiz bo‘lib, yoshlarimizga namuna bo‘lib yurishlaringizni tilayman,* – dedi Shavkat Mirziyoyev.

– *Allohning inoyati, davlatimizning g‘amxo‘rligi va mehribonchiligidan mana shunday yoshlarga yetib yuribmiz. Sizga ham Allohdan madad, xalqimiz manfaati yo‘lidagi*





*ishlaringizga baraka tilayman. Hurmat uchun rahmat, – deya minnatdorlik bildirdi Abbas ota.*

*– Sizlar bu hurmatga sazovorsizlar, – dedi Prezident. – Keksalarni e'zozlash ulug' qadriyatimiz. Biz buni davom ettirayapmiz. Yoshlarimiz ham bilsin, bundan o'rnak olsin.*

Pir-u badavlat boboning farzandlari ham nafaqada. Bugun 21 nafar nabira, 55 nafar evara va 7 nafar chevra bilan umrguzaronlik qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Yashnobod tumanida yashayotgan Fyodor Fedin xonadonida ham bo'ldi.

Fyodor Semyonovich 1927-yilda Rossiyaning Mordoviya o'lkasida tug'ilgan.

1944-yilda armiyaga chaqirilib, urushda aloqachi va instruktor vazifasini bajargan. Minsk shahri yaqinidagi janglarda ishtirok etgan. Urush tugaganidan so'ng, bir necha yil Xitoyda xizmat qilgan. 1949-yilda Toshkent shahriga kelib, aviatsiya zavodida ishlagan. Ko'plab mehnat mukofotlarini qo'lga kiritgan. Turmush o'rtog'i bilan birga ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazgan.

Prezidentimiz ushbu faxriylarning salomatligi, yashash sharoitlarini so'radi. Bugungi tinchlikka qo'shgan hissasi, ko'p yillik samarali faoliyati uchun ularga minnatdorlik bildirdi.





Davlatimiz rahbari Mirzo Ulug‘bek tumanida yashovchi Akmal ota Akromovni ham ziyorat qildi.

Akmal ota 1924-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1941-yilda maktabni tamomlab, mashinasozlik zavodida ishlagan. 1942-yildan urushda qatnashib, qattiq yarador bo‘lgan.

Yurtimizga qaytgach, savdo, oziq-ovqat sanoati sohalarida mehnat qilgan. Nafaqa yoshida Toshkent shahar Urush va mehnat faxriylari jamiyati raisi, “Nuroni” jamg‘armasining shahar bo‘limi rahbari lavozimlarida faoliyat yuritgan.

– *Urushda qatnashib, qahramonlik ko‘rsatib, urushdan keyin davlatimizga juda ko‘p xizmat qilib, farzandlarni, nevaralarni tarbiyalab, mana shunday mo‘tabar yoshga yetganingiz juda katta baxt-kamol. Sizlarning hayotingiz, har bir gapingiz bizga maktab. Ilohim, sog‘ligingiz mustahkam, umringiz yanada uzoq bo‘lsin. Yoshlarimizga sizlarning yo‘lingizni, umringizni bersin,* – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Akmal ota ham barcha urush faxriylari nomidan davlatimiz rahbarini tabrikladi.



---

---

## SO‘ZBOSHI

### **Muhtaram o‘quvchi!**

Ma‘lumki, bugungi kunda Vatanimiz tarixini xolis va haqqoniy o‘rganish, jumladan, Ikkinchi jahon urushi va u keltirib chiqargan mislsiz yo‘qotishlar, urushda erishilgan buyuk G‘alabaga O‘zbekiston xalqining qo‘shgan munosib hissasini aniq hujjatlar asosida ko‘rsatish, fashizmga qarshi janglarda qatnashgan ming-minglab yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, yosh avlodni mardlik, Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan 2020-yili 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan

g‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida muhtasham G‘alaba bog‘i yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Davlatimiz rahbarining maxsus qaror va farmoyishlari asosida Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga O‘zbekiston xalqining qo‘shgan munosib hissasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, yangi tarixiy fakt va ma‘lumotlar asosida ko‘plab monografiya va kitoblar chop etilmoqda.

Xabaringiz bor, 2020-yili buyuk G‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston” nashriyotida “O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi” nomli kitob-albom o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi. Ushbu xayrli ish yaxshi an‘anaga ay-



langan holda, 2021-yil 9-may – Xotira va qadrlash kuni arafasida “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” nomli ikkinchi kitob-albom nashrdan chiqarildi. Ushbu kitob-albomlardan respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning arxiv va muzeylar fondlarida, urush qatnashchilari va ularning oilalarida saqlanayotgan, hali ko‘pchilikka noma‘lum bo‘lgan noyob ma‘lumotlar, nodir tarixiy faktlar o‘rin oldi.

Taqdim etilayotgan mazkur uchinchi kitob-albomda ham O‘zbekiston xalqining shonli tarixi, yengilmas irodasi, mardligi va matonati, bemisl jasorati va qahramonligi haqida hikoya qiluvchi yangi fakt va ma‘lumotlar jamlangan.

Kitobning “Mangu jasorat namoyoni”, “Askar xatlari”, “Yangi arxiv hujjatlari”, “Front ortidagi matonat”, “Xalqimizning abadiy yodida”, “Minnatdorlik tuyg‘ulari” kabi bo‘limlaridagi ma‘lumotlar bilan tanishar ekansiz, urushning butun fojia va ko‘rguliklari ko‘z o‘ngingizda namo-

yon bo‘ladi. Beixtiyor qalbingizda bugungi tinch va osoyishta kunlarimizga nisbatan shukronalik tuyg‘ulari mavj uradi, sokin va musaffo osmon ostida, osoyishta va xotirjam zaminda yashash chinakam baxt-saodat ekanini yana bir bor yurakdan his etasiz.

O‘zbek xalqining shonli tarixi haqida hikoya qiladigan, zamondoshlarimiz, xususan, yoshlarimizni tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo‘lib, buyuk ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga da‘vat etadigan ushbu kitob siz, aziz o‘quvchilarimizni befarq qoldirmaydi, deb o‘ylaymiz.

Zero, xalqimizning urush yillarida ko‘rsatgan qahramonligi, urushdan qaytmagan ming-minglab yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasi, front ortida kechgan og‘ir va mashaqqatli hayoti biz uchun katta hayot maktabi, g‘urur va iftixor manbai bo‘lib, vaqt o‘tgan sayin bu o‘lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib boraveradi.










# MANGU JASORAT NAMOYONI





# BREST MUDOF AASIDA

---

*“Qahramon Brest qal’asi” yodgorlik majmuasi ilmiy kotibi Yelena Xarichkovaning qayd etishicha, 1940-yilning oktabrida Samarqand shahrining o‘zidan Brest oblastiga harbiy xizmatga chaqirilganlar soni 519 nafar bo‘lgan.*

*Fashistlar sobiq sovetlar hududiga qo‘qqisdan bostirib kirgan vaqtda harbiy xizmatda bo‘lgan ana shunday ming-minglab o‘zbekistonliklar mudofaa janglarida ishtirok etdilar.*



## Ahmad G'AFUROV

(1918–1987)

*Ahmad G'afurov, Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidan. Brest mudofaasi ishtirokchisi.*

*1985-yili II darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlangan.*

*Urushdan keyin o'qituvchilik qilgan.*

Adham Rahmatning “Brest lavhalari” (1966) kitobidan:

“Birdan shaharning g'arbiy tomonidan, Bug daryosining narigi yuzidan motorlarning qattiq guldurosi eshitila boshladi. Xavotirlanib yugurib kazarma ichiga kirdim, voqeani o'rtoqlarimga aytsam, ular: “Yotib uxla, xalaqit berma, chegarada taktika mashqi bo'lyapti”, deyishdi.

Ustki kiyimlarimni yechib, boshimni endi yostiqa qo'ygan edim, kuchli chinqiriq eshitildi. Ketidan kuchli portlash boshlanib, yer silkinib, uch qavatli binolar birin-кетин qulay boshladi. Son-sanoqsiz bombalar portlar edi. Men tanklar turadigan tomonga chopdim. Osmondan samolyotlar o'q uzardi. Kazarmadan esa soldatlar ichki kiyimda qochib chiqib boshladi, ulardan ba'zilari yugurib ketayotib guppa-guppa yiqilardi.

Parkda turgan tanklar ustiga misoli do'lday bomba yog'ilib, ko'p tank va mashinalarni ishdan chiqardi. Ishga yaraydigan tank va mashinalar ham buzuqlari orasida qolib ketdi. Tanklarning ko'pi esa kazarma ostida qolib, majaqlanib ketdi. Men tirik qolgan o'rtoqlarim bilan bir amallab uch tankni chiqarib oldim. So'ngra hech qanday koman-



dasiz Bug daryosi yoqasida o'zimiz uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan dotga bordik. Uch tankka ham men o'zim komanda berdim. Kim nima ish qilishini bilmas, hamma dovdirab qolgan edi.

Bizning o't ochish pozitsiyamiz Bug daryosi o'zani bo'yidagi davlat chegarasidagi bir balandlikka joylashgan edi. O'rtadan daryo oqardi. G'arbiy qirg'oq dushmanlarning, sharqiy qirg'oq bizning chegaramiz edi. Biz turgan tepalikning shimolidan ko'prik orqali nemislar chegarasiga o'tdilar, yo'lning shu tomonida chegara vishkasi bor edi...



Vaziyat og'ir bo'lishiga qaramay, men o'zimni yo'qotib qo'ymadim, ko'p qiyinchiliklar bilan tanklarni o'z vaqtida yetarli snaryad va o'qlar bilan ta'minlab qo'ydim. Uch tankda o'n kishigina edik. Gitlerchilar butun yo'lni to'ldirib, muzika ostida tantana bilan chegaramizga bostirib kela boshladi.

Biz esa poylab yotaverdik.

Dushman ko'priikka yaqinlashishi bilan uch tankdan baravariga o't ochdik. Shu vaqt chegarachilarimiz ham o't ochib yubordilar. Dushman chegaramizga bir necha marta bostirib kirgan bo'lsa-da, lekin uni har safar daf qilaverdik. U tobora quturib, yangi kuch tashlab daryodan o'tish payida bo'ldi, biz ham bo'sh kelmadik. Dushmanning kolonna bo'lib kelayotgan to'p-to'p mashinalarini yondirib yubordik. U birinchi bostirib kirishdayoq ikki yuzdan ortiq avtomashinasidan, har xil texnikasidan ayrildi, qanchadan qancha soldat va ofitserlaridan judo bo'ldi...

Nihoyat, biz daryo ko'prigini portlatib yubordik. Shundan keyin dushman tanklari ochiq joyda qolib ketdi. Shu fursatdan foydalanib, dushmanning ko'pdan ko'p soldat va ofitserlarini qirib tutdek to'kdik. Ko'prikning naryog'ida dushmanning o'liklari qalashib yotardi...

Ammo bizga hech qayerdan madad yo'q, hech bir qism bilan aloqamiz yo'q edi. Buning ustiga snaryad va o'qlarimiz ham tugay deb qolgan, oziq-ovqatimiz ham sob bo'lgan edi. Chegarachilar ixtiyorida ham hech narsa qolmagandi.

Shu vaqt dushmanning orqa tomonidan yangi kuchlar yopirilib kelib, butun front bo'ylab daryodan o'ta boshladi...

Shunda men o'ylab-o'ylab, nihoyat, orqaga chekinishga buyruq berdim. Ammo shu vaqt dushmanning bir necha tanki biz tomonga



*Ahmadjon G'ofurovning Brest mudofaasi  
30 yilligi munosabati bilan taqdirlangan  
esdalik medali, 1971-yil*

qarab bostirib kelaverdi. Biz tepalik sirtidagi pastlikka o'tib olib, yo'lga tushib, ancha yurganimizdan so'ng, to'satdan komandirlarimizdan birini uchratib qoldik. Men unga bo'lgan voqeani batafsil gapirib berdim. U shahar atrofida bir necha tank turganini va tezda borib o'shalarga qo'shilish to'g'risida buyruq berdi...

Men tankchilar bilan qisqa suhbat o'tkazib, ularga vazifani to'liq tushuntirdim. So'ngra





xilvat bir joyni topib, o'sha yerda tanklarni yaxshilab niqoblab turdik.

Oradan ko'p vaqt o'tmay uzoqdan dushman mashinalari ko'rinib qoldi. Mashinalar kolonnasi birdan to'xtadi. Shu on biz ularga qarata qattiq o't ochdik. Dushmanning o'q-dori ortilgan mashinalari olov ichida qoldi, gitlerchilardan esa bir necha yuz kishi halok bo'ldi. Ammo dushman, talafot ko'rishiga qaramay, chumoliday yopirilib kelaverdi. Biz bo'lsak, dushman kuchlariga qarshi kurasha-kurasha Berezina daryosi tomon yo'l oldik.

Yo'lda bir tankimiz havodan bo'lgan bombardimon natijasida kuyib ketib, tank ichidagi jangovar do'stlarimiz ham qahramonlarcha halok bo'ldi. Chekinish vaqtidagi shiddatli janglardan so'ng snaryad va o'qlarimiz hamda yoqilg'imiz tamom bo'ldi. Tanklarimiz ishdan chiqdi. Dushman qo'lga tushmasligi uchun tanklarni portlatib tashlashga majbur bo'ldik. Nihoyat Berezina daryosiga ham yetib keldik.


Dushman esa ikki yoqdan bostirib kelmoqda edi. Daryo ko'prigi yondirib yuborilgandi. Daryo yoqasiga besh yuz kishicha to'planib qoldik, daryodan o'tishning hech iloji yo'q edi. Suzib o'taman deb ko'p soldatlar cho'kib ketdi. Chunki daryoning eni sakkiz yuz metr dan ortiq edi. Shu on qo'lida quroli bor bir yuz ellik kishini elliktadan uch guruhga bo'lib rota tashkil qildik. Vzvodlarning biriga men komandirlik qildim.



Dushmanning bir gruppasi soldati daryo yaqinidagi tepalikdan turib bizni o'qqa tutib qoldi. Ammo biz chaqqonlik bilan harakat qilib, tepalik yonbag'riga bekinib o'q uza boshladik. O'n besh kishidan iborat granata otuvchilar tepalikdagi chuqurga joylashib olgan gitlerchilarga ustalik bilan yaqinlashib borib, granata uloqtira boshladi. Natijada tepalikdagi fashistlar hammasi qirib tashlandi. Biz ham anchagina talafot ko'rdik. Afsuski, ko'pgina jangovar do'stlarimiz tepalik atrofida halok bo'ldi".







## PARTIZAN QIZ

Belorus partizanlarining lagerlari hozirgi kunda afsonaviy tarixga ega bo'lib qolgan Brest qal'asining sharq tomonidan yigirma kilometrcha naridagi asriy o'rmonlar o'rtasiga joylashgan edi...

Kechki payt partizanlar keng o'rmon ichidagi sayhon bir joyda osmon gumbazining charaqlagan yulduzlari ostida gulxan yoqib, dam olishardi. Belorus, ukrain, polyak, slovak, yahudiy va hatto venger qo'shiqlari jaranglardi. Bu joylar uchun mutlaqo notanish bo'lgan o'zbek qo'shig'i ham eshilib qoldi. Shu narsa ajablanarli ediki, bu qo'shiqni... soldat emas, xushovoz, nozikkina bir qiz kuylardi...

– Uning mohir razvedkachi ekanligini, nishonga to'g'ri otishini, otda yurishini bir ko'rsangiz edi, – deb shivirladi allakim...

U serquyosh O'zbekistonda tug'ilgan. Urushdan biroz oldin Brestga o'z onasi bilan kelgan ekan. Chunki otasi shu yerda harbiy qismda ishlarkan. Brest qal'asi garnizoni portlashlar va alangalardan larzaga kelgan bir paytda otasi qal'a mudofaasi vaqtida qahramonlarcha halok bo'libdi. Onasi ham dushman kalxatlari osmondan yog'dirib turgan bombalar ostida qolib ketibdi.

Shunday qilib, o'n to'rt yoshli qiz dushman egallab olgan territoriyada qolib ketibdi. So'ngra urushgacha o'z uyini berib turgan xotin Shirinni Brest yaqinidagi o'z singlisinikiga oborib qo'yibdi.

Shirin u yerda ro'zg'or ishlariga qarashib yursa-da, lekin ich-ichidan alamzada bo'lib fashistlardan o'ch olish yo'llarini qidirar edi.





U ko'p urindi, harakat qildi, nihoyat, xalq qasoskorlari bilan aloqa bog'lashga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin bir necha marta qiyin va xatarli topshiriqlarni ado etgach, partizanlar oldida ishonchni oqladi.

Shu kundan boshlab bu qizning sharafli yo'li boshlandi. Partizanlar joylashgan o'rmonga kirib, ularning bazasini qidirishga uringan politsiyachilarni otib tashlashda, fashistlar joylashgan yerlarga razvedkaga borib, qimmatli ma'lumotlar olib kelishda, yashirin tashkilot uchun dori-darmonlar topishda ajoyib mardlik namunalarini ko'rsatdi...

1942-yil bahorida dori-darmon va bint yetishmay qoldi. Nima qilish kerak? Kimga murojaat etish lozim? Bu sohada yordam bergan har bir kishini fashistlar so'zsiz otib tashlaydi yoki gestapoda qiynoqqa soladi-ku!

Shunday bo'lishiga qaramay, Shirin bu xavfli vazifani o'z zimmasiga oldi. U dushman bosib olgan Brest shahriga yashirincha borib, sobiq qo'shnisi – keksa vrachdan dori-darmonlarni o'z vaqtida olib keldi...

Kunlardan bir kuni yana shunday nozik va murakkab topshiriqni bajarib yurgan Shirin keksa vrach bilan shahar bozoridan chiqib kelayotganida, politsiyachilar oblava boshlagandilar. Belarus xalqi orasidan chiqqan ba'zi sotqin politsiyachilar yoshlarni ushlab mehnat birjasiga yuborar edilar. U yerdan esa ularni uzoq Germaniyaga, fashistlar katorgasiga haydardilar.

Mana shunday xavf-xatarli daqiqada oblavadan qutulish uchun hech bir umid yo'q

edi, ammo Shirinning favqulodda farosati bunda ham yana ish berib qoldi.

– Ko'krakka taqib yuradigan to'garakchani menga tez bering (gitlerchilar okkupatsiya qilgan territoriyadagi yevreylar ko'kraklariga, orqalariga to'q sariq va qizil lattadan qilingan to'garak belgi taqib yurardilar) va menga yevrey tilida biror narsa deb so'zlang, – dedi Shirin o'z hamrohiga. Keksavrach unga yevrey tilida so'zlay boshladi, Shirin ham unga o'zbek tilidan bir nimalar deb javob berdi. Ular shunday “quyuq suhbatlashib”, qora shinel kiygan ikkita politsiyachi oldiga yaqinlashib qoldilar.

– To'xta, hujjat ko'rsat! – deb o'shqirdi politsiyachilardan biri ularga qarab.

– Ko'rmayapsanmi, bular yevreylar-ku, – dedi ikkinchi politsiyachi sherigiga qarab. – Qara, ular o'z tillarida allanima balolar deyishyapti, tushunib ham bo'lmaydi. Mayli, biz ularni tez kunda borsa kelmasga jo'natamiz!

Bu so'zlarni ular orqada qolib ketgan politsiyachilarning og'zidan eshitgan edilar.

Partizanlar dori-darmonni belgilangan muddatda oldilar. Turli millatga mansub bo'lgan xalq qasoschilaridan ko'pining hayoti saqlab qolindi.

Shirin partizanlarga dori-darmon topib kelishdan tashqari, janglarda yarador bo'lgan xalq qasoschilarining joniga oro kirib, ularga dori ichirar, yaralarini bint bilan bog'lab qo'yar, og'ir yaradorlarni ovqatlantirar, maxorka chektirar, yuvintirardi...

Shirinning familiyasini bilmasak ham, u haqida yozishga qaror qildik.

**Adham RAHMAT,**  
*yo'zuvchi*





**YURTDOSHLARIMIZNING  
MOSKVA UCHUN  
JANGLARDAGI JASORATI**

---

---

## Ikrom JALILOV (1922–2003)

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I.V. Panfilov Olmaota shahrida O'rtasiy Osiyo askarlaridan iborat 316-diviziyani tuzdi. Uning tarkibida Toshkent piyoda askarlar bilim yurti va O'rtasiy harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan 180 ofitser bor edi.

316-o'qchi diviziya Volokolamsk yo'nalishida Dubasekovo razyezdi yaqinida olib borgan mardonavor jangda dushmanga jiddiy zarba berib, fashistlarning mudofaani yorib kirishiga yo'l qo'ymadi.

Diviziya tarkibida o'zbekistonlik jangchi Ikrom Jalilov dastlab vzvodga, keyinchalik rotaga komandirlik qildi.

Birinchi bor leytenant Ikrom Jalilov jangga 1941-yil oktabrida kirdi. Mana, frontning old chizig'i...

Leytenant o'z vzvodini birinchi bo'lib hujumga boshladi. Vzvod ham zanjir hosil qilib, oldinga qarab yura boshladi. Fashistlar esa dushmanni o'ziga yuz metrga yaqinlashtirdi. Keyin hammasi boshlandi...

O'q va mina otishmalari, bosh uzra otilyotgan snaryadlar...

Ma'lum lahzaga vzvod yotib olib, jimib qoldi. Dushman payt poylardi. Shunda leytenant I. Jalilov hujumni boshladi, barcha birdek harakat qildi...

Qo'mondon I.V. Panfilov halok bo'lganidan keyin diviziyaga 8-gvardiya diviziyasi nomi berildi.

Keyinchalik diviziyaning 1075-o'qchi polk komandiri, iste'fodagi gvardiya polkovnigi I. Karpovning xotirlashicha, "Kryukovo



*stansiyasi yonidagi g'isht zavodi balandligi uchun janglar shiddatli bo'ldi. 1941-yilning 3, 4, 5-dekabr kunlari bu balandlik bir necha bor qo'ldan qo'lga o'tdi. Leytenant I. Jalilov bu janglarda mardlik va jasorat ko'rsatdi. U jangchilarga qat'iyat va mohirlikni namoyon etdi. Vzvod mudofaani saqlab qoldi. U o'z jangchilarini hujumga boshladi".*

Darhaqiqat, 1941-yil 5-dekabrda Moskva ostonalaridagi jangda burilish pallasi boshlangan edi. Ayni shu janglardagi mardligi uchun uni 2-batalyon 5-o'qchi rotaga komandir etib tayinlashdi.

1942-yil yanvarida Moskva ostonalaridagi jang gitlerchilarning Ikkinchi jahon urushidagi birinchi yirik mag'lubiyati va "Yashin tezligidagi urush" rejasining ro'yobga chiqmasligini ko'rsatdi.



1942-yilning 20-fevralida Xolmskoy yoʻnalishidagi hujum janglaridan birida I. Jalilov yarador boʻldi. U uzoq muddat Vladimir va Ijevsk shaharlaridagi gospitallarda davolandi. Ogʻir jarohat tufayli Ikrom Jalilov bir umrga nogiron boʻlib qoldi va safga qayta olmadi.

U keyinchalik I darajali Vatan urushi ordeni, “Moskva mudofaasi uchun”, “Jasurligi

uchun”, “Germaniya ustidan qozonilgan gʻalaba uchun” medallari bilan taqdirlandi.

I. Jalilov jangohdan qaytishi bilan Toshkent davlat yuridik institutiga oʻqishga kirib, uni 1946-yili tamomladi. Keyin ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, 1961-yilda yuridik fanlari nomzodi, 1971-yilda fan doktori unvonlariga erishdi.

**Dilshod ABERKULOV,**  
tarix fanlari nomzodi

За ранения  
Все графы заполнять полностью.

## Наградной лист

1. Звание, фамилия, имя и отчество Гв. лейтенант ДЖАЛИЛОВ Икрам

2. Должность, часть и настоящее время Повелен II группы  
(только для военнослужащих)

3. Место учета (райвоенкомат) место работы и должность МОСКОВСКИЙ РВК г. ТЕМУКОВ  
Студент I курса Темуковского Института.

4. Год рождения 1922 5. Национальность узбек 6. Партийность ЧКЗКП  
с 1948 г.

7. Участие в Отечественной войне Участник Отечественной войны  
Северо-Западного и Западного фр. с 18.8-1942 по 30.3-1943 г.

8. Ранения и контузии Тяжело ранен в левую руку  
(указать ранения и контузии)

9. С какого времени в Красной Армии с 18.8-1942 по 27.8-1942 г.

10. Именной наград орден "За оборону Москвы" и За победу над  
Германией

11. Постоянный домашний адрес (предоставленного и награжденному) и адрес его семьи

Представляется к ордену "Отечественной войны II степени"  
(в каком порядке или порядке)

Примечание: в графах 1-11 указываются данные личного боевого подвига или заслуг (если они подтверждены документально, либо свидетельствами и свидетельскими показаниями) и краткая служебная или производственная характеристика (в зависимости от содержания).

Примечание: обязательно указать фамилию, имя, отчество, звание, ранения и должности, дату вступления в состав какой армии и куда, в составе какой армии, фронта, армии, дивизии, полка участвовал на фронте, в какой должности и с какого по какому времени.

Лейтенант ДЖАЛИЛОВ Икрам является участником Отечественной войны против немецко-фашистских захватчиков на Северо-Западном и Западном фронтах в составе 1075 с.п. в гв. лейтенантской стр. дивизии с 18.8-1942 по 30.3-1943 г. в должности командира стр. взвода и стр. роты стр. полка.

30 февраля 1943 г. в наступательных боях за деревню и деревня Пустынки-Игорки Калининской области получил тяжелое ранение осколком пули в левое предплечье.

Службу ранено имеет осколком кости левого предплечья, осколком в левый палец и травмирование обрывками костей левой руки.

К представлению в районный военкомат /свидетельство о боевом подвиге/ 27 августа 1943 г. на основании статьи 77 и 78 Гр.К. пр. 1942-43 г. признан награжден в высшей степени.

В результате ранения в левое время назначен II группы.

Является студентом I курса Темуковского института имени полковника Харматова И.И.

За участие в Отечественной войне и заслуги в получении ордена представляю гв. лейтенанта ДЖАЛИЛОВА Икрама к ордену "Отечественной войны II степени".

М.П. Районный военкомат  
Икрам Д.И. (Рубинштейн)

*I. Jalilovni Vatan urushi ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*

## Qobil qori SIDDIQOV (1916–1943)



1941-yil iyun oyining o'rtalarida Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, To'ychi hofiz va yana bir necha o'zbekistonlik san'atkorlar Yaltadagi "O'zbekiston" sanatoriyasida dam olmoqda edilar.

Dengizda dovul ko'tarilgan, jala yog'moqda, tashqariga chiqishning iloji yo'q, dera-zalar zich yopilgan. To'fonning osmono'par to'lqinlari shiddat bilan ketma-ket bostirib kelar va baland qirg'oqlarga shunday zarb bilan urilardiki, go'yo dengiz osmonga ko'tarilgandek, kishining vahmini keltirardi. Suvning rangi ham go'yo ko'mirdek qora-yib ketgan, dengiz tubidagi ming yillik bal-chiqlar qo'zg'algan, hammayoqni badbo'y hid bosib ketgandi.

Sanatoriyada ishlovchi shu yerlik keksalar: *"Dengizning bunday holatini hech ko'rma-ganmiz, ammo dengizning bu daraja bezov-taligi yaxshilik alomati emas"*, deb tashvishlanishardi.

Chindan ham, oradan 5–6 kun o'tar-o'tmas, urush boshlangani to'g'risida xabar tarqaldi. Barcha qatori ular ham uyga qay-tish taraddudiga tushishdi. Amallab Moskva poyezdiga bilet olib, yo'lga chiqishdi.

Temiryo'llar harbiy ehtiyojlar uchun ke-cha-yu kunduz band. Mamlakat ichkarisiga ko'chirilgan zavodlar, ishchilar, oddiy xalq tinimsiz oqib kelardi. Poyezd ikki kunlik yo'l-ni o'n olti kunda bosib o'tib, nihoyat Moskva vokzaliga kirib keldi.

Imomjon Ikromov Yaltadan chiqayotga-nida Moskva konservatoriyasida o'qiyotgan shogirdi Qobil qoriga telegramma berib qo'ygandi. Qobil qori ularni vokzalda ku-tib olib, mehmonxonaga joyladi. Ular uchun Toshkent poyezdiga bilet ham olib qo'yan ekan.

Ertasiga Qobil qori kech soat oltalarda mehmonxonaga keldi. Ko'pchilik shahar aylanishdan hali qaytmagandi. Faqat O'zbe-kiston san'at tashkilotchilaridan bo'lgan Zubayda opa ismli ayol shu yerda ekan. Unga *"kech soat o'nlarga tayyor bo'lib turinglar, sizlarni olib ketgani mashina keladi"*, deb ta-yinladi. So'ng, sizda gapim bor, deb Imom-jon Ikromovni olib ko'chaga chiqdi, u yerda uzunchoq yengil avtomobil kutib turardi. Mashina bir zumda chog'roq restoranlardan biriga olib borib qo'ydi. Rus haydovchi yigit



Ustaning jomadoni bilan Qobil qorining kichkinagina tugunchasini olib vokzal tomon ketdi.

Qobil qori ikki kishilik kechki ovqat buyurtirgan ekan. *“Ikki kundan beri faqat seni ko‘ramiz, qolganlar qani?”* – deb so‘radi Usta.

*“Ular Toshkentga jo‘nab ketganlariga ancha bo‘ldi, – deb javob berdi Qobil qori. – Men ham ishlarimni bitkazib ketmoqchi bo‘lib turgandim, bu yerdagi ba‘zi “maydagap”lar orqamizdan g‘iybat boshlab qolishdi. Emishki, biz, qo‘rqoqlar, yaxshi kunlarda yonlarida bo‘lib, xavf-xatar kelishi bilan qochib qolarmishmiz. Chidolmadim, ko‘ngilli bo‘lib frontga yozildim. Bularga o‘zbek qanday bo‘lishini ko‘rsatib qo‘ymoqchiman. Hozir Moskva atrofidagi harbiy bazalardan biridamiz. Boyagi avtomobil ham o‘sha bazaga tegishli.*

*Imomjon aka, siz menga otamdeksiz. Mendek bir havaskorga ajoyib ashulalar o‘rgatib,*

\* \* \*

O‘tgan asrning 10–20-yillarida Shayxontohur va Hastimom Eski Toshkentning eng gavjum markazlaridan bo‘lgan. Qator masjid-u madrasalar, tabarruk qadamjolar, gavjum bozorlar bu maskanga alohida fayz bag‘ishlagan. Aynan shu maskanda unib o‘sgan Qobiljon zehnli, quntli, tirishqoq bola edi. U hali maktabda o‘qib yurgan chog‘laridayoq Qur‘oni karimni yod olgan. Ovozi-ning qo‘ng‘iroqdek jarangi, shirin va ta‘sirli qiroati odamlarni o‘ziga rom qilardi. Inchin, qori nomini unga el-yurt bergan.

Qobil qori Siddiqov 1929-yili Toshkent Rus yosh tomoshabinlar teatri qoshida ochilgan, bo‘lajak O‘zbek yosh tomoshabinlar teatri uchun aktyorlar tayyorlovchi o‘quv studiyasiga qabul qilinadi. Yigitchaning ashulaga bo‘lgan layoqatini sezgan studiya rahbarlaridan biri Afandixon Ismoilov o‘sha davr

*elga tanitdingiz. Sizdan o‘rgangan mumtoz navolar teatrdagi ijodim uchun katta maktab bo‘ldi. Farhodni, Majnunni ijro etdim. Bu yerda – konservatoriyada ham o‘z o‘rnimga ega bo‘ldim. Hammasi uchun rahmat, ustoz, mendan rozi bo‘ling. Alloh nasib qilsa, urushdan omon chiqsam, uchrasharmiz. Bo‘lmasa diydor qiyomatda”.*

Shogird shunday deb jimib qoldi. Qobil qori ham, Usta ham yig‘lardi...

Shunda Usta o‘zini tutib olib: *“Sen faqat o‘zinggagina emas, butun o‘zbek san‘atiga tegishlisan, senda katta iqtidor bor, bekorga senga imtiyoz berilmagan, shu bois, o‘zingni asrashga majbursan, biz bilan birga poyezdga chiqaver, seni O‘zbekiston asraydi”*, dedi. Qobil qori bir so‘zli edi, ko‘nmadi. *“Arslon izidan, yigit so‘zidan qaytmas”*, deb javob qildi. Chunki uning tomirlarida erkparvar, mard va jasur o‘zbek qoni oqardi...

o‘zbek musiqasining yirik namoyandalari-dan bo‘lgan bastakor Imomjon Ikromovdan Qobil qorini eshitib ko‘rishni so‘raydi.

Usta yigitchani tekshirib ko‘rgach, uning barcha registrlarda birdek go‘zal jaranglovchi kuchli va yorqin ovoz, noyob musiqiy qobiliyat egasi ekanini tushunadi. Shu tariqa Qobil qori Imomjon Ikromovga shogird tushadi.

Ustoz uni o‘zi ishlaydigan Radio milliy ansambliga olib keladi va u avval xorda, so‘ng O‘zbek ansamblida ishlay boshlaydi.

Kunlarning birida yosh jurnalist va shoir G‘iyosiddin Soatiy o‘zining *“Yorni oynakdin qarang...”* radifli g‘azalini bastakorga taqdim qiladi.

Bu haqda Imomjon Ikromov shunday eslab o‘tgan edi:

*“G‘azal o‘zbek mumtoz adabiyoti an‘analari asosida yozilgani, unda Navoiyning “Far-*

hod va Shirin” dostoni qahramonlari nazarda tutilgani, Farhod va Majnunlardagi kabi yuksak ma’noli ishq kuylangani diqqatimni tortdi. G’azalning yettinchi bandidan tashqari barchasi menga yoqdi. Oxirgi bandeda g’azalning umumiy hazin kayfiyatiga zid bo’lgan ruhiyat bor edi. Shu bois, uni qisqartirdim.

G’azal menga ilhom bag’ishladi. Ashulaning kuyi juda tez pishdi. Uni shogirdim Qobil qoriga o’rgatdim. Ashula yaxshi chiqdi, uni badiiy kengashga ko’rsatdik. Ammo ashulaning nomi hanuz yo’q edi. Shunda o’sha paytlar radio xoriga bosh bo’lgan Abdulhaq Sultonov: “Imom aka, kuyingiz juda so’lim bo’libdi, uning nomini “So’lim” deb qo’ya qolaylik”, dedilar. Bu nom hammaga ma’qul bo’ldi.

Ashulani 1933-yilda o’tkazilgan respublika ko’rigiga tavsiya etishdi. Qobil qori ijrochi, men kuy muallifi, G’iyosiddin Soatiy shoir sifatida ko’rikning bosh sovrini sohiblari bo’ldik. Ashu-

la ikki bor — 1935 va 1939-yillarda bir necha million nusxada plastinka bo’lib chiqarildi. Ashulaning plastinkaga yozilgan variantidan o’zimning ko’nglim to’lmagan. Sababi, komissiya a’zolari o’ychanroq tempda yaratilgan ashulani tezroq-sho’xchanroq bo’lsin, deb turib olganlar. Keyinchalik ashula 1958-yili Orif Alimaxsumov ijrosida magnit lentasiga yozilganda, ko’nglimdagidek bo’lgan...”

Ko’p o’tmay Qobil qori O’zbek davlat musiqali (keyinroq opera) teatriga solist-vokalist bo’lib qabul qilindi. Teatrda qisqa muddat ichida to’rtta yirik opera va musiqali drama spektakllarida bosh qahramonlar (Farhod, Qodir, Qays, Jo’ra) partiyalarini ijro etib, mutaxassislar va tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo’ldi. U 1940-yili Moskva konservatoriyasi qoshidagi O’zbek opera studiyasiga muvaffaqiyatli qabul qilindi.

\* \* \*

1943-yilning yoz oylarida urushdan yara-dor bo’lib qaytgan bir askar bastakor Imomjon Ikromovni so’rab O’zbekiston radiosiga keladi. O’shanda Imomjon Ikromov Respublika radiosi Milliy ansamblining badiiy rahbari edi.

Imomjon Ikromov efir yaqinligi bois, pay-sallamay darhol eshikka chiqadi. Qo’ltiqta-yoqli bir askar postdagi militsioner bilan gaplashib turardi.

Askar Imomjon Ikromovni ko’rishi bilan oq unga tomon quchoq ochib intildi. “Tanidim, tanidim, tanidim-a, ustoz! Siz Imomjon aka bo’lasiz, shundaymi-a, domla! Tavba, xuddi Qobil qori chizgan qiyofa-ya! Keling, ustoz, keling, birinchi topshiriqni bajaray”, degancha, go’yoki o’z otasini quchgandek, Imomjon Ikromovni bag’riga oldi.

Ustozni allaqanday vahima bosdi. “Qobil qoridan kelibdi, anchadan beri undan xabar yo’q edi, ishqilib, yaxshilik bo’lsin-da”. Ular kursilarga omonatgina o’tirdilar. Usta unga savol nazari bilan tikildi.

Nihoyat, askar gap boshladi: “Aka, Qobil qori siz haqingizda ko’p gapirardi. Ashulalaringizdan Qobil qorining xonishi orqali bahramand bo’lganman, deyarli ikki yil front zahmatlarini birgalikda tortdik. Shu yil boshida Qobil qori og’ir yaralandi. Men uni sudrab panaroqqa oldim. Qobil qori sekin: “Xudo xohlasa, omon qolsang, Toshkentga yetgandingda vokzaldan to’g’ri radioga bor, uzoq emas. U yerda senga ko’p bor gapirganim Imomjon akani so’ra. Ustozimni men uchun mahkam quchoqla. Ustozga ayt, nuridiydam qizalog’imning peshonasidan men uchun



*o'pib qo'ysinlar", deb shivirladi. So'ng qaddini bir oz ko'tarishimni so'radi. "Nega hammayoq suv quygandek jimjit?" – dedi. Vaholanki, o'shanda atrof to's-to'polon, snaryadlar yomg'irdek yog'ar, yerni o'g'irdagi dondek yanchib, ezg'ilayotgandi. Qobil qori osmonga tikilib qoldi, so'ng yaxshi ko'rgan ashulasi "So'lim"ni boshladi: "Yorni oynakdin qarang, noz uyquda yotganmikan..." Yurtimizni sog'inganimizda u shu ashulasini aytardi,*

*biz qo'limizdan kelgancha jo'r bo'lardik. Qobil qori jimib qoldi. Sezdimki, bu uning so'nggi nafasi edi..."*

Askarning hikoyasidan o'sha atrofda turganlarning ko'zlari namlandi. Sal narida gapga quloq solib turgan mashhur xonanda Mavludaxonim chidolmay ho'ngrab yubordi.

Ha, bu chindan ham o'zbek san'ati uchun katta yo'qotish edi. Qobil qori endigina yigirma yetti yoshga kirgandi...

**Hamidjon IKROMOV,**  
*san'atshunoslik fanlari nomzodi,*  
*professor*





## UNI FARHOD DER EDILAR



*Atoqli o'zbek shoirasi Zulfiyaning Qobil qori Siddiqov xotirasiga bag'ishlangan  
"Uni Farhod der edilar..." dostonining birinchi nashri. 1943-yil*

*O'z hushiga kelgandan keyin  
U boshini ko'tardi sekin.  
Atrofiga bir tashlab nazar,  
Tirik jondan ko'rmadi asar.*

*Ko'zin olmay qaradi uzoq:  
Unga tanish jonajon tuproq –  
Ukraina yeri bepoyon  
Boqar edi ma'sum, mehribon.*

*Allaqayda gumbirlaydi to'p,  
Uzoqlarda o't yonadi ko'p.  
Chekinarkan dushman beomon  
O't qo'yganin angladi shu on.*

*Intiladi oldinga tomon,  
Lekin buloq kabi oqqan qon  
Imkon bermas olg'a yurishga,  
Dushmaniga o'qin uzishga.*

*Ko'ragini o'pirgan olov  
Azob berdi unga beayov.  
Yosh yuragi hayot istaydi,  
Qoni qasos tomon qistaydi.*

*Ammo, mana, qarshidan o'lim  
Unga qarab, ushla, – der, – qo'lim.  
Og'ir azob sezib o'zida  
O't chaqnadi yoniq ko'zida...*

*Jangchilarni ko'rdi boshida,  
Komandirin ko'rdi qoshida:  
– Men o'limdan aslo qo'rqmayman,  
Lekin yashamoqni istayman...*


*Mana, turar qarshimda o'lim  
Lekin qo'shiq tilaydi ko'nglim...*

**ZULFIYA,**  
1943-yil 26-mart





# **STALINGRAD JANGIDAGI QAHRAMONLIKLAR**



---

---

## Sobirjon OXUNJONOV

(1919–2012)



General-leytenant Sobirjon Oxunjonov Ikkinchi jahon urushida qatnashib, jang-gohlarda mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, front maydonlaridan omon chiqib, Vataniga qahramon sifatida qaytgan yurtdoshlarimizdan biri hisoblanadi.

Sobirjon Oxunjonov 1919-yil 10-oktabrda Toshkentning Sebzor mahallasida ishchi oilasida tug'ildi. Bolaligidan turmush sinovlariga duch keldi, onasidan erta ajralib, otasi qo'lida tarbiya topdi.

Toshkentdagi 22-o'rta maktabni tamomlagach, hayotini harbiy soha bilan bog'lagan S. Oxunjonov 1940-yilda harbiy piyodalar bilim yurtini tamomladi va mashaqqatli mehnati hamda kasbiga bo'lgan sadoqati tufayli vzvod va rota komandirligidan general-leytenantlikkacha bo'lgan yo'lni sharaf bilan bosib o'tdi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Oxunjonovlar xonadonidan to'rt kishi frontga chaqiriladi.



Katta akasi Shukurjon Oxunjonovning Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan bir kun avval nikoh to'yi bo'lib o'tgan edi. To'yning ertasiga urush boshlangani to'g'risida xabar kelishi bilan u tengdoshlari qatori frontga jo'natiladi va artilleriyachilar safida 1943-yilning avgustida Belorussiyada qahramonlarcha halok bo'ladi.

O'rtancha akasi Shokirjon Oxunjonov esa 325-alohida gvardiya minomyotchilar divizioni "Katyusha" raschotining (*raschot* – artilleriya avtomati, pulemyot, raketa tizimi va boshqalarga xizmat ko'rsatadigan kichik to'liq shtatli harbiy qism) komandiri sifatida 1943-yil mart oyida Rjev shahri ostonalarida bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan.



Ахунджонов Шакир -  
брат, 1914 г. р. <sup>хоида</sup> ~~и~~ Ко-  
мандаир 325 гвардейской Мех  
башарен «Камышан», погиб в  
боях под г. Ржев, Калинин-  
ское направление; захоронен  
1941 года.

*Sobirjon Oxunjonovning surat uchun yozgan sharhi. S. Oxunjonov oilaviy arxividan*



Ukasi No'monjon Oxunjonov Lvov shahri yaqinidagi janglardan birida 1944-yil 15-iyulda halok bo'lgan.

Keyinchalik Sobirjon Oxunjonov shunday xotirlaydi:


*"Bilmadim, kimning baxtiga, balki jangda halok bo'lgan uch jigarbandining dog'ida adoyi tamom bo'lib, ularning ham umrini menga qo'shib berishini Yaratgandan astoydil so'ragan otamning iltijosi inobatga o'tdimi, haytovur, men Moskva ostonalaridan to Berlin-gacha bo'lgan janglarda qatnashib, bir necha bor yarador bo'lib, davolanib, ajalim yetmagan ekan, shu kunlarga yetib kelganimga shukrlar qilaman. Ayniqsa, Volga bo'yidagi janglar, o'zbekistonlik yigitlarning ko'rsatgan jasoratlari sira yodimdan chiqmaydi".*

S. Oxunjonov 1940-yilda Toshkent piyoda askarlar harbiy bilim yurtini tamomlab, Ikkinchi jahon urushining bir necha front maydonlaridagi jangovar harbiy harakatlari-da ishtirok etdi. U 1941-yilning 1-avgust kuni Belgorodning Zalesse qishlog'ida 30 kursantning komandiri sifatida ilk marta jangga kirdi.

Kiyev mudofaasida ishtirok etib, 1941-yilning oktabrida yengil yarador bo'ladi. Yarador bo'lib qaytgan S. Oxunjonovni 100 kishilik 94-alohida o'qchi brigadasining 94-avtomatchilar rotasiga komandir etib tayinlashadi. Farg'ona, Namangan va Marg'ilon shaharlaridagi harbiy tayyorgarlikdan so'ng, S. Oxunjonov komandirligi ostidagi 94-alohida o'qchi brigadasining 94-avtomatchi-

94-alohida o'qchi brigadasining qo'mondonlik-ofitserlar tarkibi ro'yxatiga olingan jurnalda S. Oxunjonov haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi, 1907-fond, 2-ro'yxat, 3-yig'majild





**S. Oxunjonovni Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi**

lar rotasi 1942-yil 18–20-avgust kunlari Fargʻonadan toʻgʻri frontga yuborildi.

S. Oxunjonov Moskvada jangovar mashqlarda ishtirok etgach, Stalingrad frontiga yetib keldi. U safdoshlari bilan birgalikda Don qirgʻogʻidagi Serafimovich platsdarmida 1-gvardiya armiyasi, soʻngra 3-armiya tar-

kibida 278, 266-oʻqchi diviziyalar, 59-gvardiya oʻqchi diviziyasi va boshqa harbiy qismlar bilan hamkorlikda shiddatli janglarda ishtirok etdi.

S. Oxunjonov boʻlgʻusi general Fayzulla Norxoʻjayev bilan bir safda jang qilgani ham alohida tarix.



НАГРАДНОЕ ЛИСТ

286

1. Фамилия, имя и отчество - АУНДЖАНОВ Сабир Сабирович.
2. Звание - гвардии майор. 3. Должность, чин - помощник начальника оперативного отдела штаба 3 Гв армии. Представляется за орден "ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА I СТЕПЕНИ"
4. Год рождения 1918. 5. Национальность - узбек. 6. Партийность - член ВКП/б/.
7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и Отечественной войне - в Отечественной войне с 1941 года.
8. Имеет ли ранения и контузии в Отечественной войне - одно легкое, и одно тяжелое ранение.
9. С какого времени в Красной Армии - с 1938 года.
10. Каким РКК призван - кадровый офицер. *80/11.10.43*
11. Чем ранее награжден - орденом "КРАСНОЕ ЗНАМИ", "КРАСНАЯ ЗВЕЗДА", медаль "ЗА ОБОРОТУ СТАЛИНГРАДА".
12. Постоянный домашний адрес (после увольнения) и награждения и адрес его семьи -

тов. АУНДЖАНОВ в период наступательной операции кто-воот. ВЕРЛУНА выполнял обязанности начальника направления 2ТК и 3 ГПА.

К Порученной работе относился добросовестно и с полной ответственностью. Всегда был в курсе боевых действий частей корпуса и танковой армии.

Вотими в частях в войска выполнял ответственные задания командования, контролировал выполнение боевых приказов и строевой работой способствовал успешному разгрому противника. В период Дрезденской операции принимал непосредственное участие в оформлении рапортов командира и в обработке оперативных документов по планированию боя.

В ходе операции обеспечивал связь со соседними частями, правдиво информировал о положении соседей.

За свою самостоятельную работу тов. АУНДЖАНОВ заслуживает Правительственной награды орденом "ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА I СТЕПЕНИ."

НАЧАЛЬНИК ОПЕРОТДЕЛА ШТАБА 3 ГВ АРМИИ  
Гвардии-полковник

/С.И.М.А.Ч.И./

"3" июня 1946 года.

*S. Oxunjonovni Vatan urushi ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*

Uning matbuot nashrlarida e'lon qilingan xotiralari orqali mayor F. Norxo'jayev rahbarligidagi artilleriya divizioni va Mamatqul Mustafoyev, Mo'ydin Dadaboyev, Ismoiljon To'xtasinov boshliq batareyalarning to'plari dushman qarshiligini yengib, Pervomaysk,

Ilyinka, Selivanovka, Glubokiy, Kamensk, As-taxovka, Mixaylovka kabi stansiya va shahar-larni egallashda qahramonlik ko'rsatganlikla-ri to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng S. Oxunjonov turli lavozimlarda faoliyat





ko'rsatib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etdi.

1946-yilda maxsus topshiriq bilan Xitoyda bo'lib qaytgach, 1946–1947-yillarda Turkiston harbiy okrugi shtabining tezkor tayyorgarlik, umumiy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i yordamchisi, 1947–1951-yillarda Surxondaryo viloyati Boysun tumani harbiy komissari, 1951–1952-yillarda Surxondaryo viloyati harbiy komissarining o'rinbosari, 1955–1958-yillarda Turkiston harbiy okrugining Olmaota shahrida joylashgan 203-piyoda diviziyasining havo mudofaasi boshlig'i, 1958–1964-yillarda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan 80-gvardiya o'quv motoo'qchilar diviziyasining 55-gvardiya motoo'qchilar polki komandiri, 1964–1967-yillarda Farg'ona

viloyati harbiy komissari, 1967–1971-yillarda O'zbekiston Respublikasi harbiy komissarining o'rinbosari, 1971–1986-yillarda fuqaro mudofaasi respublika shtabi boshlig'i, boshlig'ining o'rinbosari kabi lavozimlarda faoliyat yuritdi.

Sobirjon Oxunjonov 1973-yilda general-mayor, 1980-yilda general-leytenant, 1982-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 1989-yilda esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi unvonlari bilan taqdirlandi.

S. Oxunjonov nafaqaga chiqqach, qizg'in jurnalistik faoliyat bilan shug'ullandi. Davriy matbuot nashrlarida uning Ikkinchi jahon urushi va unda ishtirok etgan o'zbekistonlik jangchilarning qahramonliklari to'g'risida ko'plab xotiralari, shuningdek, "O'zbekiston fuqaro muhofazasiga 50 yil to'ldi" (Toshkent, 1982), "Fuqaro muhofazasi tizimidagi sanitariya otryadi" (Toshkent, 1982), "Hozirgi bosqichda O'zbekiston fuqarolik mudofaasi" (Toshkent, 1983), "Ulug' Vatan urushidagi g'alabaning olamshumul ahamiyati" (Toshkent, 1985) kabi kitoblari nashr etildi.

U o'n besh yil mobaynida respublika televideniyesida ham "Mardlik – mangulik" nomli ko'rsatuvning boshlovchisi hamda muallifi sifatida samarali mehnat qildi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, general-leytenant Sobirjon Oxunjonov O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Mo'g'uliston Xalq Respublikasi, Chexoslovakiyaning qator orden va medallari bilan taqdirlangan.

General-leytenant Sobirjon Oxunjonov 2012-yil 13-aprel kuni 92 yoshida vafot etdi.

**Erkin RAJAPOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*





## Abdulla AYUPOV (1923–2022)

Abdulla Ayupov 1941-yilda Toshkent davlat pedagogika institutining ikkinchi kursini tugatdi. O'sha yili 22-iyunda urush boshlanishi munosabati bilan oliy o'quv yurtlarida o'qish 1-sentabrdan emas, 1-avgustdan boshlandi...

Keling, shu o'rinda Abdulla Ayupovning o'sha davrga oid xotiralarini keltirib o'taylik:

– 2-avgustda o'qishga bordim. Dars o'rniga harbiy komissariatdan odamlar kelib, o'g'il bolalarga murojaat qilib: “Sizlar o'z xohishingiz bilan frontga boraman, deb ariza yozinglar”, deyishdi. So'ng arizalarni yig'ib olib, qo'limizga chaqiriq qog'ozini berib ketishdi.

Ertasiga harbiy komissariatga bordik. Ular “Sizlarni harbiy o'qishga yuboramiz. Kutinglar, o'zimiz chaqirib olamiz”, deb uyga jo'natib yuborishdi.

Nihoyat, 26-avgust kuni bir guruh oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, aspirantlar va talabalardan iborat kishilarni Olmaotadagi harbiy bilim yurtiga olib borishdi. Biz bu yerda o'qib ofitser bo'lishimiz kerak edi. Har kuni 12 soatlab darslar, mashg'ulotlar bo'lardi.

Afsuski, o'qishni oxiriga yetkazish nasib etmadi. 1941-yil oktabr oyining boshlarida kechasi trevoga e'lon qilinib, hammamizni poyezdda Toshkent vokzaliga olib kelishdi va Chirchiqdagi harbiy lagerga piyoda olib borishdi.

U yerda bir hafta ichida O'rta Osiyodagi barcha bilim yurtlari kursantlarini to'plab, bitta brigada tuzishdi va unga “Tridtsat pyataya otdelnaya udarnaya kursantskaya Stalinskaya brigada” deb nom berildi.



Shundan so'ng, Moskva mudofaasiga, ya'ni frontga jo'natishdi.

Vagon to'la soldatlar, yotishga joy yetishmaydi. Stansiyalarda vagon eshigi ochilmaydi. Bu soldatlar qochib ketishmasin, deb ko'rilgan chora edi, shekilli. Eshelon Qozog'istonning qaysi bir bekatida to'xtaganida, bizga issiq kiyim (paxtali shim, telogreyka, shapka va botinka) va issiq ovqat berildi. Shu ahvolda Moskva shahriga yetib bordik.

Ko'p qavatli binoga olib kirib ovqatlantirishdi. Hammomga tushdik. Kechasi, endi bir issiq uyda mazza qilib uxlaymiz, deb tursak, trevoga





*e'lon qilib, qo'limizga miltiq va ikki butilkadan "zajigatelnaya smes" berib, Volokolamsk yo'nalishidagi frontga piyoda olib borishdi.*

*Izg'irin, sovuq -30 daraja. Osmon qip-qizil, keyin bilsam, bu yonayotgan qishloqlarning shu'lasini ekan. Osmondan samolyotlar ketma-ket bomba tashlayapti. Gumburlagan to'p ovozlari va pulemyotlarning tirillashi eshitilib turibdi. O'sha davrda fashistlar Moskvaga yaqinlashib qolgan edi.*

*28-noyabrda biz okoplarga joylashdik. Okoplar o'sha yerlik aholi tomonidan qazib qo'yilgan ekan. Bu frontning ikkinchi liniyasi ekan. Na issiq ovqat bor, na ichishga narsa. Chelakda kasha olib kelinadi, u muzlab qolgan uchun bolta bilan chopib, bo'lib yeymiz. Non ham muzlab qolgan bo'ladi. Ikki kundan keyin oyoqqa piyima (valenka) va podshlemniki*

*olib kelib berishdi. Shu yerning o'zidayoq bir necha do'stlarimiz yaralandi...*

*6-dekabrda fashistlarga qarshi hujumga kirishdik. Batalyon komandiri bizni to'plab: "Kim yaxshi urishsa, quyoshli O'zbekistonni qayta ko'radi, kim yomon urishsa, o'z yurtini boshqa ko'rolmaydi", degan so'zlar bilan gapini tugatdi.*

*Hujumga o'tib, bir qancha qishloqlarni ozod qildik.*

*Adashmasam, Pavlov degan qishloq uchun bo'lgan jangda oyog'imdan yaralandim. Med-punktga olib borishdi. Valenkani ochib qarashsa - oyoq qip-qizil qon, shishib ketgan. Bir guruh yaradorlar bilan yuk mashinasi kuzoviga poxol solib yotqizishdi va Moskvadagi bir gospitalga olib borishdi.*

*Shifokorlar, hamshiralar kecha-kunduz ishlashardi. Ular yaradorlarga birinchi yor-*



dam berib, front orqasidagi boshqa gospital-larga jo'natishardi. Meni ham oyog'imdagi yara bitavermagach (chunki oyog'imni sovuq urgan ekan), boshqa gospitalga yuborishdi. Oka daryosi yonidagi Pavlovo degan shaharda bir maktab binosida joylashgan gospitalda uzoq davolandim.

1942-yil 20-martda gospitaldan tuzalib chiqib, harbiy komissariatga bordim. U yerda komissiya men bilan suhbatlashib, Sormovo shahridagi tankchilar maktabiga o'qishga yubordi. 6 oy o'qib, tank haydovchisi bo'lib chiqishim kerak edi. Ammo uch oy o'qiganimizdan so'ng, bizni Sormovodagi tank zavodiga yuborishdi.

Men yig'uv sexida ishladim. Ishchilar brigada bo'lib ishlashadi. Brigadir – bir keksa odam, a'zolari 12–14 yoshdagi bolalar. Hech kim sexdan hech qayerga chiqmaydi. O'sha yerda uxlab, so'ng yana turib, ishlay beradi. Ovqatni ham shu yerda yeyishadi. Shunday sharoitda kecha-kunduz ish davom etaveradi.

Ko'p o'tmay, o'zimizga tank tanlab olib, qurol-yarog'larni jamlab, eshelonga ortdik. 1942-yil 26-avgustda Stalingrad frontiga yetib kelishimiz bilan jangga kirishga to'g'ri keldi.

Janglarning birida tankimning zanjiriga snaryad tegib uzilib ketdi, tank yurolmay qoldi. Uni tuzatib olib chiqish kerak. Bir tomondan dushman, orqada o'zimiznikilar, tankdan chiqding, deguncha ota boshlaydilar. Uch kun butun ekipaj tankni qo'riqlaymiz. Uchinchi kecha batalyon komandirining yordamchisi boshqa tank bilan bizni tortib olib chiqdi. Ekipaj tankni tashlab chiqib ketmagani uchun bizga 2000 sovet rublidan mukofot berishdi.

Men u pulni polevaya pochta orqali uyga yubordim. Uydagilar pulni olib juda tashvishga tushishgan ekan. Chunki frontda



halok bo'lganlarning oilasiga voyenkomat yordam puli yuborar ekan. To mendan xat kelmaguncha uydagilar adoyi tamom bo'lgan ekanlar.

Keyingi jangda tankka snaryad tegib yana boshladi. Komandir "tankdan chiqinglar", deb buyurdi (u juda dovyurak ofitser edi). Men oldingi lukni ochib chiqa boshlashim bilan tankda snaryadlar portlay boshladi. Boshimdagi shlem tushib ketib sochlarim kuya boshladi. Qumli okopga tushib o'zimni o'nglab oldim. Ammo ekipajning boshqa a'zolari tank ichida qolib halok bo'ldilar...

Men brigadaning sanchastida davolanib chiqdim. Shundan so'ng 19 yoshimda ikki chakkamdagi sochlar oqardi. Shu bois, "Urushda sochim oqargan", deb hazillashib qo'yaman.

1942-yil noyabr oyida Stalingrad jangida, Kalach degan yerda nemislarning 330 ming





*soldatini qurshab olishda ishtirok etgan tankchilar tarkibida men ham bor edim.*

*Stalingrad jangidan so'ng, Kursk–Oryol (dugasidagi) yoyida bo'lgan tank janglarida ishtirok etdim. Kursk–Oryol operatsiyasi muvaffaqiyatli tugagach, meni va yana uch kishini Michurinsk shahriga o'qishga yuborishdi. U yerda o'qishni tugatmasdan, Moskva oblasti-*

*ning Lyublino shahriga oliy ofitserlar maktabiga instruktorlikka jo'natishdi.*

*Keyin Kostroma degan shaharda bo'ldim. 1945-yil mart oyida qismimiz frontga yuborildi. Varshavani ozod qilish jangidan boshlab Breslau shahrini olishdagi janglarga qatnashdim.*

*Nemis shaharlaridan birida zaharli moddalar, kimyoviy snaryad va bombalar ishlab chiqaradigan zavod bor ekan. U o'rmonda shunday joylashtirilganki, osmondan turib ham payqash qiyin edi. Shu zavodni qisqa muddatda buzib, Rossiyaga olib ketishga buyruq berildi. Bir qancha harbiy qismlar shu ishga jalb etildi.*

*Yuklarni poyezdga olib borib ortishga yuk mashinalar bor, lekin shofyorlar yetishmaydi. Barcha mashina haydashni biladiganlarni, jumladan, meni ham shu ishga jalb qilishdi. Zavod mexanizmlarini buzib olishga odam yetishmaganidan shofyorlarni ham buzish ishlariga jalb qilishdi.*

*Zavodda zaharli moddalar bo'lgani uchun protivogaz kiyib, bir soat ishlab tashqariga chiqasiz, bir stakan sut ichib, dam olib, yana ishga tushasiz, deyishdi. Men ham shu kiyimlarni kiyib olib, sexda trubalarni bo'shata-yotgan edim, narvon sirpanib ketib, yiqilib tushdim. Rezina kiyim yirtilgan, protivogaz ochilib qolgan. Meni sanitarlar hovliga olib chiqib, rezina kiyimlarimni yechishdi, men suv bo'lib terlagan ekanman. Bahor payti edi, shamollab qolibman. Zaharlanish ham qo'shilib, gospitalga yotqizishdi.*

*9-may kuni urush tamom bo'lganini hamshiradan eshitdim. Men o'sha vaqtda 40 gradus isitma bilan juda og'ir ahvolda gospitalda yotgan edim. Meni doktorlar bir general-medikka ko'rsatishgan edi, u "Bu kasalni izolatorga olinglar, har uch soatda penitsillindan ukol qilinglar", deb buyurdi. Bir ayol kapitan-vrach*

mendan tez-tez xabar olib turdi. Uch kundan so'ng isitmam tushib, tuzala boshladim. O'sha davrda penitsillin endi qo'llanila boshlangan edi.

1945-yilning iyul oyida gospitaldan chiqib, o'z qismimga borsam, kazarmalar bo'm-bo'sh. Bizning qismni Uzoq Sharqqa, Yaponiya urushiga jo'natib yuborishgan ekan.

To'g'ri qo'shinlar markaziy guruhi shtabiga bordim. Bir generalga duch kelib qolibman, u mendan nima maqsadda kelganimni so'radi. Men bo'lgan voqeani gapirib beruvdim, o'zing qayerliksan, deb so'rab qoldi. Toshkentlik ekanligimni eshitib, "e, yurtdosh" deb hol-ahvol so'radi.

U general-mayor Vershinin ekan, Yalang'ochda joylashgan harbiy maktabning boshlig'i bo'lgan ekan.

U o'zbeklarga nisbatan juda iliq so'zlarni aytib, "Xohlasang men seni o'zimga shofyor qilib olaman", deb qoldi. Men rozi bo'ldim. Venaga yaqin Baden degan shaharda o'sha generalning xizmatida bo'ldim.

General ko'p gazeta-jurnallar olardi. Ularning hammasini o'qirdim.

Bir kuni general "Pravda" gazetasini olib kelib, "Suyunchi ber, avval talaba bo'lganlarni demobilizatsiya qilish to'g'risida farmon chiqibdi", desa, suyunganimdan generalni quchoqlab olibman. General: "Men seni ofitser qilib olardim, lekin o'qishing ancha joyga borib qolgan ekan", dedi.

Bir haftadan keyin general: "Men bilan yur!" – deb generallar do'koniga olib bordi va bir katta jomadon xarid qildi va oila a'zolaringga bittadan sovg'a ol, deb buyurdi. Noqulay bo'lsa ham, ota-onam, ukam va singlimga bittadan sovg'a tanladim. Bir jomadon to'ldi, pulini generalning o'zi to'ladi. U juda ajoyib, mehribon inson edi. Meni o'z mashinasida Bu-

dapeshtga olib borib, Ukraina tomon ketayotgan yo'lovchi poyezdiga do'sti bilan qo'shib kuzatib qo'ydi.

Poyezd Yassi shahriga yetib kelganida, generalning do'sti meni O'rta Osiyo yo'nali-shida ketayotgan demobilizatsiya qilinganlar esheloniga o'tkazib, xayrlashdi. Eshelon juda sekin yurar, biror tupikka kirib, 3 kun to'xtab qolar edi. Soldatlarga faqat quruq payok berilar, issiq ovqat berilmasdi. Uyga qaytayotganlar o'zi bilan olgan narsalarni yeyishar, stansiyalarda sotiladigan narsalardan xarid qilib, o'zlarini siylar edilar.

Xullas, bir oy deganda, demobilizatsiya qilinganlar esheloni Toshkentga yetib keldi. Bu 1945-yil 12-noyabr kuni edi.

Men Aris stansiyasidan uyga telegramma bergan edim. Lekin ancha kutdim, hech kim ko'rinmadi. Shu payt, "Eski shaharga boradiganlarga yuk mashinasi bor, o'tiringlar", deyishdi. Men "Demak, telegrammani olishmagan shekilli" deb mashinaga o'tirdim. Mashina eski Jo'vaga kelganda, benzin tamom bo'lib to'xtadi.

Yuklarimni tushirib, 8-dorixonaning ayvonchasida "endi uyga qanday yetib olsam ekan", deb tursam, Saida kelinoyimning otasi meni tanib qolib, oldimga kelib quchoqlashib ko'rishdi va yuklarimni ko'tarishib, uygacha olib borishdi.

O'sha paytda dadam Chorsu bozoridan narsalar xarid qilib, uyga qaytayotgan ekan, kimdir ularga hozir o'g'lingiz uyga ketdi, deb xabar qilibdi. Dadam qo'lidagi narsani ko'chada qoldirib, uy tomon chopibdi. Uyga kirib kelyapman, orqamdan bir gala tanish-bilish, hatto begona odamlar ham men bilan uyimizga kirib kelishdi. O'sha davrda urushdan omon qolib uyga qaytish – hamma uchun bayram bo'lardi. Kimlar xursand, kimlar yig'lagan.

*Bizning 12-tupikda 8 ta xonadon bo'lib 13 kishi frontga ketgan, shundan faqat 6 kishi sog'-omon qaytgan, xolos. Hamma bilan ko'rishdim. Ahmad ukam meni kutib olgani chiqqan ekan, meni topolmay uyga kirib keldi. Lekin yana bir ukam Mirg'iyos ko'rinmadi. So'rasam, hamma jimib qoldi. Nihoyat, ammam u 17 yoshda vafot etganini yig'lab gapirib berdi. Juda-juda xafa bo'lib ketdim...*

*Xullas, 4 yil-u 4 oy armiyada urush davrida xizmat qilib, uyga qaytish nasib etdi. O'sha davrda 22 yoshga to'lgan edim...*

Abdulla Ayupov Ikkinchi jahon urushidagi jangovar xizmatlari uchun Qizil Yulduz, II darajali Vatan urushi ordenlari, "Moskva mudofaasi uchun", "Stalingrad mudofaasi uchun", "Jasurligi uchun", "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" va boshqa o'nlab yubiley medallari bilan mukofotlandi.

Ona yurtiga qaytgan Abdulla Ayupov o'qishini davom ettirdi. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning tarix fakultetini 1949-yili tamomlab, aspiranturada o'qish barobarida, o'qituvchilik ham qila boshladi. Dotsent, professor bo'ldi, 30 yil davomida falsafa kafedrasining mudiri bo'lib ishladi. Universitetda falsafa fakultetini tashkil qilishda bosh-qosh bo'ldi. Domla shu mo'tabar ilm dargohida 65 yil ishladi.

Uzoq yillik samarali mehnatlari hisobga olinib, Abdulla Ayupov "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni hamda "Birinchi darajali mehnat faxriysi" nishoniga sazovor bo'ldi.

**Azamat SUYUNOV,**  
jurnalist

## **Bu xotiralar bizga saboq bo'ladi**



*Dadamning urush haqidagi xotiralarini biz farzandlar juda ko'p marotaba eshitar edik. Negadir vaqt o'tgan sari bu xotiralarning yangi qirralari namoyon bo'lmoqda. Balki yoshlik davrimizda ba'zi hodisalarga unchalik e'tibor bermagandirmiz.*

*Bu xotiralar biz farzandlar uchun qanday qiyinchiliklar bo'lmasin, tushkunlikka tushmay ularni yengib o'tish, hayotning har bir daqiqasidan unumli foydalanib, bilim olish, kasbni egallash, irodani shakllantirish namunasidir.*

*Dadamning urushdan keyingi hayoti ham eng oliyjanob kasb – yosh avlodga bilim berishga bag'ishlangan bo'lib, bu sohada ham bizga halollik, o'ziga talabchanlik, shogirdlarga mehribonlik va odamiylik namunasi hisoblanadi.*

**Shavkat AYUPOV,**  
O'zbekiston Qahramoni, akademik



## Homidjon O'ZGANOV (1925–2021)

*“1942-yilda Yo‘ldosh Oxunboboyev Farg‘onada o‘zbek diviziyasini tuzdi. Diviziyaga erkak va ayollarni oldi. 17 yoshda edim o‘shanda. Jangga kirishdan avval bizni obdon tayyorlashdi, o‘qitishdi. Jang qilish uchun ko‘nikmaga ega bo‘ldik. Pulemyotchilikka o‘qidim. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lajak askarlarni ichimizdan tanlab, frontga olib ketishdi. Hali-hanuz yodimda. Frontgacha vagonda 40 kishi ketganmiz”, deb xotirlaydi Homidjon ota.*

Homidjon O‘zganov 1942-yili Leningrad frontida, keyin Stalingrad uchun janglarda ishtirok etdi. Jangning boshidayoq dushman qo‘shinlari to‘g‘ridan to‘g‘ri Stalingrad frontining asosiy mudofaa chizig‘igacha yetib bordi.



Ayovsiz jang davom etardi. 28-iyulda “Bir qadam ham ortga chekinilmasin!” degan buyruq qabul qilindi. Fashistlarga qarshilik ko‘rsatish kuchayib borganidan, dushman yana qo‘shimcha tank armiyasini jalb etdi. Tanklar, samolyotlar va to‘plar bu vayronalarni himoya qilayotgan odamlarga qarshi hujumga o‘tgan edi.

Qish kirishi bilan fashist kuchlari ko‘cha urushlariga chalg‘ishdi. Charchashdi. Qizil Armiya askarlari yashirin tarzda shimoliy va sharqiy hududlarda jam bo‘lib, birdaniga hujum bilan dushmanning oltinchi armiyasining ta‘minot yo‘llarini kesib qo‘ydi. Vaqt o‘tishi bilan Parijni ishg‘ol qilgan mashhur oltinchi armiya qo‘shinlari ochlikdan va sovuqdan yer tishlay boshladi.



“Urushning sovug’i qattiq bo’larkan. O’lganlarni qishda ko’mdirmagan. O’liklarga birov qaramagan. Odamlar uvol bo’lib ketdi. Haqiqiy qirg’inbarot janglar bo’ldi. Biz ana shunday kunlarni boshimizdan o’tkazdik”, deb so’zlab bergan edi Homidjon ota.

Ikkinchi jahon urushi tarixida Stalingrad jangining ahamiyati katta. Bunday katta yo’qotishlarni boshdan kechirgan fashistlar urushdagi ustunlikni boy berdi.

Bundan tashqari, Qizil Armiyaning muvaffaqiyati Gitlarga qarshi kurashayotgan boshqa davlatlar armiyalarini ilhomlantirdi.

Homidjon O’zganov 1945-yili Yaponiya bilan bo’lgan urushda Baykalorti fronti tarkibida 5-o’qchi polkida oddiy askar bo’lib, bir qancha davlatlarni ozod etishda qatnashdi. Urushdan keyin ham to’rt yil harbiy xizmatda bo’ldi.







Homidjon ota O'zganov II darajali Vatan urushi ordeni, "Yaponiya ustidan qozonilgan g'alaba uchun", "1941–1945-yillardagi Ulug' Vatan urushining 60 yilligi" va "Jasorat" medallari sohibi edi.

2017-yili mamlakat rahbariyati tomonidan urush qatnashchilari qatorida Homidjon ota ham haj ziyoratiga yuborildi. Ikki bor muborak haj ziyoratida bo'lib qaytgan hoji ota 2021-yilning 4-mayida vafot etdi.

U kishi bir suhbatda shunday degan edi: *"Urush yillarida mashaqqatli mehnat va azob-uqubatdan boshqa narsani ko'rmagan odamlarning ko'pchiligi qayg'u-alam girdobida jon berdilar. U kunlar endi qaytib kelmasin"*.

Ha, barchamizning tilagimiz shu: u kunlar endi aslo qaytmasin!

**Anvarjon ALIYEV,**  
*"O'zarxiv" agentligi mas'ul xodimi*



---

---

## Hakim USMONXO‘JAYEV

(1916–2005)



Hakim Haydarovich Usmonxo‘jayev armiyada xizmat qilayotganida, o‘z faoliyatini harbiy sifatida davom ettirishni istaydi. U bir yillik harbiy kursni tamomlagach, bo‘linmaga komandirlik qiladi.

1939-yili Hakim Usmonxo‘jayev 2-Leningrad Qizil bayroqli artilleriya bilim yurtiga o‘qishga kiradi. O‘sha vaqtda u bilim yurtida o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan yagona kursant edi. U 1941-yilning yozida leytenant unvoni bilan bilim yurtini tamomlaydi.

1941-yili 22-iyun kuni fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga bostirib kirganida, Hakim Usmonxo‘jayev Leningrad shahrida edi.

U birinchi bor Leningrad atrofidagi Sinyavino tepaliklarida jangga kirdi. H. Usmonxo‘jayev komandirlik qilayotgan vzvod Leningrad shahri mudofaasi bo‘yicha jangovar harakatlarni olib borish uchun Leningrad fronti operativ guruhiga kelib qo‘shildi. U “Katyusha” gvardiya minomyotini birinchilardan bo‘lib boshqardi. Tarkibida H. Usmonxo‘jayev vzvodi bo‘lgan divizion o‘zining bo‘rondek olovi bilan dushmanning jonli kuchi va harbiy texnikasini ayovsiz qirdi. Bu esa, qo‘mondonlik tomonidan o‘qchi, tank qismlari va bo‘linmalariga belgilangan jangovar vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minladi. Mazkur janglardagi ishtiroki uchun Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi.

1942-yil yozida divizion aloqa boshlig‘i, katta leytenant Hakim Usmonxo‘jayev Stalingrad shahri mudofaasida qatnashdi. U Stalingrad bo‘zag‘alarida, kuzatuv punktidan shaharga hujum qilish uchun kelayotgan dushmanning 7 tanki va 200 ga yaqin piyoda askarlarini payqab qoladi. Mo‘ljalni aniq olib, dushman tanklari va piyodalariga olti quroldan birdaniga o‘t ochishga topshiriq beradi. Natijada, 2 tank va 70 ga yaqin fashist askarlari va ofitserlari yo‘q qilinadi, qolganlari sarosimaga tushib qoladi. Shu bilan raqib hujumi bartaraf etiladi.

Stalingrad atrofidagi janglardan birida Hakim Usmonxo‘jayev oyog‘idan yarador bo‘ldi. Shifokorlar uning oyog‘idagi o‘qni chiqara olishmadi. Umrining oxiriga qadar o‘q jangchi oyog‘ida qoldi. Ayni shu yaradorlik sababli, unga tibbiyot ekspert komissiyasi xulosasiga ko‘ra “2-guruh Ulug‘ Vatan urushi nogiron”ligi berildi.

1943-yil 8-yanvarida sovet qo'mondonligi Germaniya armiyasi qo'mondonligiga taslim bo'lish ultimatumini qo'ydi. Lekin Germaniya reyxkansleri, fyureri va Qurolli Kuchlar oliy bosh qo'mondoni Adolf Gitler buyrug'i bilan ultimatum rad qilindi. Shundan so'ng sovet qo'shinlari hujumga o'tib, kun oxirida dushman himoyasini ba'zi uchastkalarida 6–8 kilometrgacha yorib o'tdi va uning qurshovini siqib bordi. Natijada dushman 1943-yil 26-yanvar kuni janubiy va shimoliy qismga bo'lindi. Uning janubiy qismi 31-yanvarda yakson etildi. 6-fashist armiyasi qo'mondoni, feldmarshal Fridrix Vilgelm Ernst Paulyus o'z shtabi bilan mag'lubiyatini tan oldi va asirlikka tushdi. Shimoliy qism ham 2-fevralda qarshilik harakatlarini to'xtatdi. 91 ming nemis askarlari asirlikka olindi, 5700 ta o'q asbob-uskunalari, 1300 ta minomyotlar 1600 ta tank va boshqa harbiy texnikalar qo'lga kiritildi. Stalingradni ozod qilishdagi janglardagi ishtiroki uchun H. Usmonxo'jayev Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi.

1943-yilning yozida divizion komandiri, gvardiya kapitani Hakim Usmonxo'jayev Kursk jangida ham ishtirok etdi. Yozning dim tunida kuzatuv punktida hech kim uxlagani yo'q. Hamma old tomonda gitlerchilarning zirhlangan diviziyalari hal qiluvchi hamlaga tayyorgarlik ko'rayotganini bilardi. Qo'shin razvedkasi dushman guruhlarini o'rganib, "Tigr" deb atalgan og'ir tanklar bilan ta'minlangan dushman polki joylashuvini aniq belgilab oldi. Diviziya jangga tayyor. Hamma komandani kutardi.

Mana, Kursk yoyi fronti bo'ylab uzoq kutilgan komanda berildi. Qo'mondonlik qarshi tayyorgarlikka ega kuchli artilleriya bosimi bilan dushman diviziyasi tomonidan tayyorlanayotgan hujumdan oldinroq harakat qilishga

qaror qildi. Frontdagi barcha to'plar o't ochdi. Snaryadlar tanklar o'rtasini yorib kirdi, olov quyuni maqtalgan "tigrlar" minoralarini barbod qildi, yuqori haroratdan zirhlar alangalandi. Zarba joylarida tutuni chiqqan temirlar qoldi. Olov hujumi tugaganida, nemis zarbdor polki yo'q bo'lgan edi.

Kursk jangi – H. Usmonxo'jayev jangovar tarjimayi holidayi muhim epizodlardan biri hisoblanadi. U *"dabdurustdan va mardlarcha hujum natijasida dushmanni yirik mag'lubiyatga duchor qilganligi uchun"* III darajali Kutuzov ordeni bilan taqdirlandi.

1944-yilda divizion komandiri, gvardiya kapitani Hakim Usmonxo'jayev Leningrad mudofaasida, dushman qamalini yorib o'tish va nemislarni tor-mor keltirishdagi ishtiroki uchun Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi.

Keyin Kareliyadagi fin qo'shinlarini tor-mor keltirishda, Narv hujum operatsiyasi, Boltiqbo'yida nemislarni tor-mor keltirishda, Tallin hujum operatsiyasida ham qatnashib, jonbozlik ko'rsatdi.

Qo'mondonlikning polk shtab boshlig'i Hakim Usmonxo'jayevga bergan tavsifida shunday so'zlar yozilgandi:

*"Janglar davomida gvardiya kapitani Usmonxo'jayev o'zini qat'iyatli, dadil va jasur ofitser sifatida ko'rsatdi. Jangovar holatning qiyin sharoitlarida shtab ishini to'g'ri va aniq tashkil eta oldi. Polkda razvedka va aloqa uzluksiz ishlab turdi. Polkning jangovar bo'linmalari tizimli tartibda va o'z vaqtida o'q-dorilar, yonilg'i bilan ta'minlandi. Shtab ishi yaxshi tashkil etilgani tufayli polk qo'mondonlikning barcha jangovar topshiriqlarini aniq va muntazam bajarib bordi. Bu bilan u umumqo'shin bo'yicha yirik muvaffaqiyatlarga erishishga katta hissa qo'shdi".*

1945-yil yanvaridan polk shtabi boshlig'i, gvardiya kapitani H. Usmonxo'jayev Polshada nemislarni tor-mor keltirishda, Visla-Oder hu-



jum operatsiyasida, Oder daryosi platsdarmini kengaytirishda, Berlin hujum operatsiyasida ishtirok etdi.

Qo'mondonlikning Hakim Usmonxo'jayevga bergan tavsifidan:

*“Oder daryosining g'arbiy qirg'og'idagi (Germaniya) dushmanning mustahkam mudofaasini yorib o'tish janglarida hamda keyingi shiddatli hujumlarda o'rtoq Usmonxo'jayev mardlik va jasorat hamda harbiy mahoratini namoyon etdi. 1945-yil 16-aprelida platsdarmda dushmanning mustahkam mudofaa chizig'ini yorib o'tishda, 1945-yil 25-aprelda Reyxenvalde aholi punkti, 1945-yil 1-mayda Frizak shahri uchun janglarda polk komandiri belgilagan mo'ljaldagi rejani aniq amalga oshirdi, olovni va polk ortini qat'i-yat bilan boshqardi”.*

Hakim Haydarovich Usmonxo'jayev Berlinni zabt etishda ishtirok etgan. Berlinda butun qolgan reyxstag ustunlaridan biriga 28 yoshli polk shtab boshlig'i, gvardiya mayori H. Usmonxo'jayev shunday deb yozdi: *“Bizga dush-*

*manlar kelmasligi uchun Toshkentdan Berlingacha keldim”.*

Berlin hujumida ishtirok etgani uchun H. Usmonxo'jayev II darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi.

1941-yil urushning ilk kunlaridan 1945-yil G'alaba kuniga qadar gvardiya mayori Hakim Usmonxo'jayev fashist bosqinchilariga qarshi jangovar harakatlarda faol ishtirok etib, nemis qurolli kuchlari so'zsiz taslim bo'lishiga o'z hissasini qo'shdi.

H. Usmonxo'jayev Kutuzov, Qizil Bayroq, shuningdek, uch martadan Vatan urushi va Qizil Yulduz ordenlari, shuningdek, “Jangovar xizmatlari uchun”, “Stalingrad mudofaasi uchun”, “Varshava ozod etilganligi uchun”, “Berlin zabt etilganligi uchun”, “1941–1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun”, “1941–1945-yillar Ulug' Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun” jangovar medallari bilan taqdirlandi.

Ushbu orden va medallar uning Leningrad, Stalingrad, Kursk, Finlyandiya, Kareliya, Desna, Minsk, Dnepr, Polsha, Germaniya kabi jangovar yo'llarni mardonavor bosib o'tganidan dalolat beradi.

1945-yilda urush tugashiga qaramay, H. Usmonxo'jayev maxfiy xizmat safariga yuboriladi. Mazkur maxfiy safar haqida eng yaqinlari – yosh turmush o'rtog'i, ota-onasini ham xabardor qilish huquqiga ega emasdi. Shunday qilib, u 1946-yilda Sinzyan–Uyg'ur muxtor viloyatiga harbiy bo'linma tarkibida Gomindan hukumatiga qarshi mahalliy aholi kurashida ishtirok etish uchun jo'natiladi.

Urushdan keyingi yillarda Hakim Usmonxo'jayev 20 yildan ortiq vaqt davomida qo'mondonlik va shtab lavozimlarida armiya xizmatida faoliyat olib bordi. Xorazm va Samarqand viloyatlari harbiy komissari bo'lib ishladi. Frunze nomidagi Harbiy akademiyada oliy harbiy ma'lumotga ega bo'ldi. Gvardiya polkovnigi unvoniga sazovor bo'ldi. *“Men o'zimni faqat harbiy kadr xizmatidan iste'fodaman, deb bilaman. Lekin askar harbiy qasamyodida aytilganidek, so'nggi nafasimgacha Vatanimga xizmat qilaman. U bir marta va bir umrga qabul qilinadi”*, deb ko'p bora ta'kidlagandi iste'fodagi gvardiya polkovnigi H. Usmonxo'jayev.

U bir necha yillar davomida Urush faxriylari komiteti Toshkent seksiyasi komissiyalaridan birini boshqardi. Komissiya poytaxt va Toshkent viloyatidagi maktablar va bilim yurtlarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbi-



yalash borasida faol ishlar olib bordi va hukumat mukofotlari bilan taqdirlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining uch medali, Polsha Respublikasining uch mukofoti va boshqa mukofot, diplom hamda faxriy yorliqlar bilan rag'batlantirildi.

*“Meni ko'pchilik baxtli odam deb hisoblaydi, – degan edi Hakim Usmonxo'jayev o'z xotiralari, – o'ylaymanki, shunday bo'lsa ham kerak – men sakkiz o'n yillik yashadim! Menga uch davrni bosib o'tish yo'li berildi – bolalik, yoshlik va qarilik. Ko'pchilik bu yoshlargacha yetib kelmadi. Urush va qatag'on millionlab hayotlarni olib ketdi. Ularni yodda tutmoq zarur. Ko'plab do'stlarim urushda halok bo'lishdi, ko'piga taqdir og'ir sinovlarni yubordi. Bu bari meni chetlab o'tdi. Menga Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishdek uzoq, baxtli hayot berildi!”*

**Muxtor NAZIROV,**  
*falsafa doktori (PhD)*



# **ORYOL- KURSK YO'NALISHIDAGI JANGLAR**



---

---

## Qayumjon KARIMOV

(1917–1970)

1939-yili harbiy xizmatga chaqirilgan vaqtda Qayumjon Karimov Namangan viloyat teatrida rassom bo'lib faoliyat yuritayotgan edi. U o'sha vaqtda ham Toshkent, ham Moskvada mashhur rassomlardan saboq olgan edi. Q. Karimov I. Surikov nomidagi Moskva Badiiy akademik institutida tahsil olish davomida nemis tilini o'rganadi. U harbiy xizmatga Moskva oblasti Naro-Fominsk shahriga yuboriladi, Sovet-fin urushida qatnashadi. Keyin Moskvada siyosiy xodimlar kursini muddatidan avval tamomlaydi.

1941-yil Elnyaning ozod etilishida ishtirok etadi. Jang boshidayoq rota, vzvod, aloqa batalyoni komandirlari halok bo'ladi. Shunda polk komandiri siyosiy xodim Qayumjon Karimovga aloqa batalyoniga komandirlik qilishni topshiradi.

Fin urushidan keyin ikkinchi bor oyog'idan yarador bo'lgan jangchi sanitar batalyonida qisqa muddatda davolanadi va 20-oktabrda 5-tank brigadasining aloqa batalyoni komandirligiga tayinlanadi.

6-dekabrda Moskva uchun qarshi hujum harakatlari boshlandi. Bu haqda keyinchalik Q. Karimov shunday xotirlagan edi: *“Bizning brigadamiz ayni markazda edi, juda og'ir bo'ldi, nemislar ham jang qilishni bilishardi. Jangovar harakatlarni olib borish bilan birga, aloqani ta'minlash oson ish emas. 9-dekabrda bizning asosiy kuchlarimiz Solnechnogorskka yaqinlashdi, 12-dekabrda hududga kirib bordi. Qaqshatqich janglar, og'ir yo'qotishlar... Aloqa polki boshlig'i halok bo'ldi, uning o'rniga meni tayinlashdi, keyin Bryansk frontiga yuborishdi”*.



Moskva uchun jangda nemislar 150–200 kilometr g'arbga chekindi. Asosiy janglar janubda, Leningrad tomonda olib borilardi, qishdan keyin nemislar ham o'zini tiklay boshlagan edi.

1942-yil 1-mayida Q. Karimov Bryansk frontidagi qismlardan biriga yana siyosiy rahbar etib tayinlanadi. Safga aloqa bilim yurtini tamomlagan ofitserlar kelib qo'shilayotgani ham bunga sabab bo'lgan edi.

Qolaversa, urush holatida armiyada odamlar bilan ishlash, sog'lom muhitni saqlab qolish oddiy vazifa emasdi. Uni hamma ham eplay olmasdi.

Qayumjon Karimov Stalingraddan keyin Kursk yo'nalishidagi janglarda ham ishtirok



Все графы заполняются полностью

# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

1. Фамилия, имя и отчество Каримов Каюмджан  
 2. Звание майор 3. Должность, часть командир 296 стрелкового батал  
на связи 132 стрелковой полковой-варшавской дивизии Краснознаменной армии Суворова  
 Представляется к ордену "Красное Знамя"  
 4. Год рождения 1917 5. Национальность узбек 6. Партийность Член ВКП(б) с 1942 г. № 1217314  
 7. Участие в гражданской войне, последующие боях действия по защите СССР, Отечественной войне (где, когда) в Отечественной войне с нем. фашист. на фронте:  
Севдарижское направление; в Западном; в Брянском; Минском; и т. Украинском; в Белорусском  
 8. Имеет ли ранения и контузии в Отечественной войне имеет три ранения: контузия  
ранения одно - в 1941 г. под г. Сивск - в 1942 г. под г. Стрелецкая  
 9. С какого времени в Красной Армии с сентября 1939 года 10. Каким РВК призван Ашхабадский РВК Узбекской ССР 11. Чем ранее награжден орден "За боевые заслуги"  
 12. Домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи

В апреле 1945 года, в боях по расширению плацдарма на р. Одр, майор Каримов в сложных условиях наступления, под артиллерийскими и пулеметными обстрелами противника, не щадя своих сил и жизни, лично сам руководил новобранной командой пиний через реку, благодаря чему обеспечил командование бесперебойной проволочной связью.

призван узбекской связи и своеобразием устройства победоносного  
 В апреле 1945 года, в боях по расширению плацдарма на р. Одр, майор Каримов в сложных условиях наступления, под артиллерийскими и пулеметными обстрелами противника, не щадя своих сил и жизни, лично сам руководил новобранной командой пиний через реку, благодаря чему обеспечил командование бесперебойной проволочной связью.  
 За проявленные в боях храбрость и мужество, за умелую организацию и отличное боевое руководство подразделением артиллерийской связи удостоен награждения

Орден Красное Знамя.  
 29 апреля 1945 г.  
 Командир 296 стрелкового батальона Варшавской дивизии Краснознаменной армии Суворова (д.б.и.)  
 майор Осипов (И. Осипов)  
 согласен:  
 командир штаба 132 стрелковой полковой-варшавской дивизии Краснознаменной армии Суворова (д.б.и.)  
 подполковник Козырев

Q. Karimovni Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



etdi. 1943-yil 8-martda Markaziy frontning 132-o'qchi diviziya 296-alohida aloqa batalyoni shtab rotasi komandiri Q. Karimov aloqa uzellari faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilib, jangovar sharoitda qo'mondonlikning harbiy qismlar bilan aloqasini uzluksiz ta'minlab, qo'shin muvaffaqiyatiga ko'mak bergani munosabati bilan "Jangovar xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandi. Shundan so'ng, u diviziyaning 712-o'qchi polkida aloqa boshlig'i etib tayinlandi.

*"Shaxsiy tarkibni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazdim, barcha uzellar ishlashga tayyorligini tekshirdim, qo'l ostimdagilarni doim nazoratda ushladim, obyektlar mudofaasi va hujumga tayyorgarlik ko'rar edim"*, deb eslaydi Qayumjon Karimov o'z xotiralarida.

1943-yil 4-iyulda razvedka "tillar"ni olib keldi: ofitser va askar. Komandir diviziya shtabidan tarjimon kelishini kutmay, ularni surishtirishni Q. Karimovga topshiradi. Askar sapyorligi hamda ertalabki hujum uchun mina maydonlarida yo'l ochish bilan shug'ullanganini bildiradi. Shu zahoti bu ma'lumot diviziya komandiriga yetkaziladi.

5-iyulga o'tar kechasi soat 2.30 da qarshi hujum boshlandi. Dushman kutmagan edi, biroq tezda o'zini o'nglab oldi va rejasi bo'yicha hujumni boshladi.

*"Yoz, jazirama, nemislar tanklarni kiritdi, aviatsiya bombardimon qila boshladi. Kursk jangi boshlandi... Shuncha tajribam bo'lsa-da, menga ham aloqani doimiy ushlab turish qiyin bo'ldi: bir vaqtning o'zida jangovar harakatlarda qatnashish, boshdagi kaska qizib ketmoqda, terlagan kiyim, chang, shamol, yong'inlar... kunduz va kecha almashib qolgandek, menda katta yo'qotishlar bo'ldi, komandirga bu haqda ko'p ham gapirmayman, barcha mudofaada bo'lganidan keyin u ham qayerdan odam olsin"*.

Shunday qilib, Qayumjon Karimov 1943-yilning 5-10-iyul kunlari Trosnyanskiy rayonidagi Gnilets qishlog'i atrofida dushman hujumini qaytarish janglarida havodan bombardimon qilinishiga qaramay, artilleriya va minomyot olovlari oralab aloqa yo'lidagi uzilishlarni tikladi. Qarshi hujumga olib kirgan bo'linmasi dushmanning 100 tacha askar va ofitserini yo'q qildi. Bu jangdagi jasorati uchun u 8-avgustda Qizil Yulduz ordeniga munosib deb topildi.

Xarkov ozod qilindi. Kapitan Q. Karimov diviziyaning 20-alohida aloqa rotasiga komandir etib tayinlandi va Dnepr daryosini kechib o'tish uchun bo'lgan janglarda ishtirok etdi.

1943-yil 20-sentabrda u II darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi. So'ngra Belorussiya hududidagi janglarda qatnashdi. 1943-yilning 5-10-iyul kunlarida bo'lgan janglarda bir necha bor aloqaning muhim yo'nalishlariga o'zi boshchilik qilib, qat'iyat ko'rsatdi va jasorati uchun u 22-iyulda I darajali Vatan urushi ordeni bilan mukofotlandi. 28-iyulda Brest ozod qilinganidan keyin diviziya Polshani ozod qilish janglarida ishtirok etdi. 1944-yil 7-dekabrda unga mayor harbiy unvoni berildi.

1945-yil 15-20-yanvar kunlari 296-alohida aloqa batalyoni komandiri Q. Karimov Varshava shahrining shimoli-g'arbidagi dushman mudofaasini yorib o'tish janglari va Visla daryosini kechib o'tishda uzluksiz aloqani ta'minlagani uchun ikkinchi bor I darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlanadi.

Polshadan keyin diviziya Berlin yo'nalishida janglarni davom ettirdi. 1945-yil 16-aprelda dushmanning artminomyot va pulemyot otishmalari ostida o'zi Oder daryosi orqali kabel simlarini yotqizishga rahbarlik qilib,



aloqani ta'minladi. Bu jasorati uchun G'alabadan keyin Qizil Bayroq ordeniga munosib deb topildi.

*“Nihoyat Reyxstag olindi, esdalik dastxatlarini yoza boshladik. Men “Mayor Karimov Kayumjan, Namangan”, deb yozib qo'ydim. Reyxstagning ikkinchi qavatini yurtdoshim – katta leytenant Isoqov batalyoni oldi, uni Lenin ordeni bilan taqdirlashdi”.*

Urush tugadi. Moskvada G'alaba paradi bo'lib o'tgandan keyin, Mudofaa vazirligi Berlindan 20 nafar o'zbek ofitserini chaqirtirib oladi. Ular orasida Qayumjon Karimov ham bor edi. Ularga yoshlarning harbiy tayyorgarligi bilan shug'ullanish vazifasi qo'yiladi.

Shu tariqa rassom sifatida faoliyatini davom ettirish orzusida bo'lgan Qayum-

jon Karimov harbiy sohada turli rahbarlik lavozimlarida ishladi. Jumladan, u Namangan, Farg'ona va Qoraqalpog'istonda harbiy komissar bo'ldi.

Polkovnik Qayumjon Karimov urush yillarida Farg'ona viloyatining hissasi yuzasidan tadqiqot olib bordi, 1970-yili urush qahramonlari haqidagi “Farg'ona shunqorlari” kitobi chop etildi.

Qayumjon Karimov 1944-yili “Moskva mudofaasi uchun” medali, 1945-yili “Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun”, “Varshava ozod etilganligi uchun”, “Berlin zabt etilganligi uchun” medallari bilan ham taqdirlangan edi.

**Zafarjon MASHRABOV,**  
*Mudofaa vazirligi  
Markaziy arxivi boshlig'i*





---

---

## No'monjon G'ULOMOV (1912–1977)

1943-yilning yozida Kursk yoyida, Proxorovka stansiyasi ostonalarida Qizil Oktabr sovxozi uchun bo'lgan janglarda 31-tank brigadasi 277-tank batalyonining kichik leytenanti No'mon G'ulomov mislsiz jasorat ko'rsatdi.

Rota komandiri sifatida shaxsan o'zi oldingi safda harakat qilib, fashistlarga o'q yog'dirib, 2 tank, 3 ta tankka qarshi qurilmani, 2 ta harbiy yuki bor avtomashina hamda dushmanning 100 ga yaqin askar va ofitserlarini yo'q qildi.

Tanki yonib ketganda, u pastki lukdan chiqib, boshqa tankka o'tib, jangni davom ettirdi. Uning tanki majaqlangan holda yotardi. Shu sababdan N. G'ulomovni halok bo'lganlar ro'yxatiga ham kiritib qo'yishgan edi. U oyog'idan yaralangan holda maydonda yotardi. Hamshira qiz kelib yaralarini bog'ladi.

Jangdagi jasorati uchun N. G'ulomov Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi. Unga leytenant unvoni berildi va tank brigadasida shtab aloqasiga mas'ul ofitser bo'ldi.

1944-yili Boltiqbo'yi mamlakatlarini ozod qilish janglarida faol ishtirok etib, o'z hayotini xavf ostiga qo'ysa-da, qo'mondonlik punktini aloqa bilan ta'minladi. Natijada qo'mondonlik nafaqat jang vaqtlarida o'z bo'linmalariga zarur ko'rsatmalarni yubordi, shu bilan birga, Germaniya bilan davlat chegarasi va Boltiq dengiziga chiqishiga imkon berdi. Mazkur hududdagi janglarda faol ishtiroki uchun II darajali Vatan urushi ordeni bilan mukofotlandi.



1945-yili yanvar-fevral oylarida Polsha va Sharqiy Prussiya hududidagi janglar davomida katta leytenant N. G'ulomov hujum operatsiyalarida aloqa uzluksizligini ta'minladi. Qo'mondonlik punktiga dushman tomonidan hujum qilinganida, uning o'zi o'nga yaqin gitlerchini yo'q qildi. Jasorati uchun N. G'ulomov I darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi.

Shtettin shahri bo'sag'alaridagi shiddatli janglardan birida uning tanki yondirildi va N. G'ulomov uchinchi bor yarador bo'ldi. O'n bir marta jarrohlik operatsiyasidan keyin hayotga qaytdi.

**Kozimxon SA'DULLAYEV,**  
*falsafa doktori (PhD)*

# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

1. Фамилия, имя и отчество Г У Л Я М О В Югман
2. Звание младший лейтенант 3. Должность, часть командир роты 277 танкового батальона 31 танковой бригады
- Представляется к награде орденом "Красная звезда"
4. Год рождения 1912 5. Национальность узбек 6. Партийность канд ВКП/У
7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и отечественной войне (где, когда) с 1.4.43 года-юго-западный фронт.
8. Имеет ли ранения и контузии в отечественной войне не имеет.
9. С какого времени в Красной Армии с 1941 года 10. Каким РВК призван Кировским гор. ташкент.
11. Чем ранее награжден (за какие отличия) не награждался.
12. Постоянный домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи

## I. Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг

тов. Гулямов, работая командиром танковой роты Т-70 отлично подготовил свою мат. часть к боевым действиям на тяжелых условиях марша роты в полном составе прибыл на исходные позиции, и в боях за СВХ. Красный Октябрь тов. Гулямов проявил себя храбрым, умелым руководителем своей роты, лично сам уничтожил два танка, три пг. дбь автомашин с военным грузом и до 100 солдат-офицеров пр-ка, личным примером увлекал экипажи, выдвигаясь вперед и в упор расстреливая фашистов



Заявляю о награждении младшего лейтенанта тов. Гулямова Югман орденом Красной звезды"

Командир 277 танкового батальона  
Капитан Самоилов

14 июля 1943 года.

*Handwritten signature in red ink.*

Командир (начальник)

(звание)

194 г.

Д Л Я П О Д Ш И В К И

*N. G'ulomovni Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*



Все графы заполнять полностью

106

# НАГРАДНЫЙ ЛИСТ

Фамилия, имя, отчество **ГУЛЯЮВ ГИТА**  
 Звание **Полковник** Офицер связи штаба  
**31 танковой Кировоградской дважды Краснознаменной и ордена**  
**Суворова бригады**  
 Предоставляет ордену **"ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА 1 СТЕПЕНИ"**

1. Родился **1912** Узбек Член ВКП/б/

2. Участие в Великой Отечественной войне: с **25.8.43-20.6.44 г.** - **2 Украинский фронт, с 20.6.44 по 20.12.44 г.** - **1 Прибалтийский и 3 Белорусский фр., с 20.12.44 г.** - **2 Белорусский фронт.** 23.7.43 тяжело и 23.10.43 легко

3. С какого времени в запасе **1934-37, с 1941** 10. Категория РККА  
**Октябрьским РКК г.Ташкента**

11. Чем ранее награжден **Орден "КРАСНАЯ ЗВЕЗДА" - гр. 31 ТБр И. 08/н от 18.8.43 г. и орден "ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА 2 СТЕПЕНИ" гр. 5 ГТА № 0150/н от 25.10.44 г.**

12. Поступил на службу **в РККА** в возрасте его семьи

### 4. Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг

На протяжении всех боев бригады на территории **ПОЛЬШИ** и Восточной Пруссии с **15.1** по настоящее время, тов. **ГУЛЯЮВ** показал себя бесстрашным, находчивым и тактически грамотным офицером связи. Все поручаемые задания исполняет точно и в срок, что дает возможность бригаде точно знать обстановку и своевременно принимать соответствующие решения.

В районе **ЭЛЬВИНГА** в сложной обстановке наступательного боя постоянно держал связь с частями бригады, тем самым помогал командованию в правильном решении задачи и нанесении удара противнику по его слабым местам. Образцово была поставлена информация.

Во время нападения противника на **КП** бригады сам принимал участие в отражении атаки, истребив при этом **10** десятка гитлеровцев.

За образцовую организацию связи и информации в боях, личное мужество и отвагу, достоин награждения орденом **"ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА 1-Я СТЕПЕНИ"**.

**НАЧАЛЬНИК ШТАБА 31 ТАНКОВОЙ КИРОВОГРАДСКОЙ  
 ДВАЖДЫ КРАСНОЗНАМЕННОЙ И ОРДЕНА СУВОРОВА  
 БРИГАДЫ**  
**МАЮР** /МАЛЯВИН/

" 5 " февраля 1945 г. *М. М. М.*

Командир (начальник) \_\_\_\_\_ (подпись)

*N. G'ulomovni Vatan urushi ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*





# **DNEPR DARYOSI BO‘YLARIDA**



---

---

## Inoyat NAVRO‘ZBOYEV

(1918–1999)

Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l shahrida tug‘ilgan Inoyat Navro‘zboyev XX asrning 30-yillarida do‘konda savdo bilan shug‘ullanar va qiynalayotgan qishloqdoshlariga mahsulotlarni qarz havola qilib berib yuborar, ozgina bo‘lsa-da, atrofdagilarga yordam berishga harakat qilardi.

Ayovsiz qiynchiliklar bilan kechgan 1937-yilda ana shunday “yordam” qimmatga tushdi va do‘kondan kamomad chiqqandan keyin, u sakkiz yilga ozodlikdan mahrum etildi. Inoyat Navro‘zboyev jazo muddatini Samarqandda o‘tay boshladi.

1941-yili yozida I. Navro‘zboyev urushga jazo muddatini o‘tayotgan joydan jarima batalyoniga yuboriladi. Jangda u yarador bo‘ladi va Inoyat Navro‘zboyevdan jazoning qolgan muddati olib tashlanadi.

U oldingi saflarda jang qilish istagini bildirgach, bir oylik komandirlar kursida o‘qiydi. So‘ngra Voronej fronti 52-armiya 254-o‘qchi diviziya 933-o‘qchi polk pulemyotchisi sifatida jangga kiradi. Janglarda olti marta yarador bo‘ldi.

1943-yil 2-oktabr soat 23.00 da bir guruh pulemyotchi jangchilar Dnepr daryosini kechib o‘tish bo‘yicha topshiriq oldi.

Ular tomonidan dushman platsdarmining egallanishi batalyonning daryodan o‘tishiga imkon beradi. Pulemyotchilar daryoni o‘tib, qirg‘oqqa chiqib olishdi. Dastlab dushman pulemyotidan o‘q otildi, keyin fashistlar avtomatlar bilan ular tomon o‘rmalab kela boshladi.

Inoyat Navro‘zboyev stanokli pulemyotidan ularga qarata o‘q yog‘dirdi. Bir qan-



cha fashist halok bo‘ldi, qolganlari yaradorlarni ham tashlab chekina boshladi. Yarim soatdan keyin dushmanning boshqa bir qismi hujumga o‘tdi. Biroq pulemyotchilarning qat‘iy qarshiligi tufayli ular ham ko‘p yo‘qotish bilan ortga chekinishga majbur bo‘ldi. Ikki soat ichida fashistlarning to‘rt hujumi qaytarildi va endi boshqa bo‘linmalar va moddiy qismlar daryodan o‘tishi mumkin edi.

3-oktabr kuni “Za Sovetskuyu Rodinu” front gazetasining adabiy xodimi, podpolkovnik D. Pislyakov kapitan A. Goredov boshchilik qilgan batalyonga kelganida tranzheyada I. Navro‘zboyev bilan uchrashadi.

*“Inoyat: “Kombat bizning harbiy bo‘limga Dneprdan birinchi bo‘lib o‘tishni topshirgan*



169

Все графы заполнить полностью

# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

100 450

1. Фамилия, имя и отчество Нурозбойев Умар
2. Звание пулеметчик 3. Должность, часть пулеметчик 933  
отрядного полка 254 стрелковой дивизии 52 армии
- Представляется к Званию Герой Советского Союза
4. 1918 5. Национальность узбек 6. Партийность чл ВКП(б)
7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и отечественной войне (где, когда) частник Отечественной войны с 1941. Северный фронт и с 5.9.1943. Волжский фронт
8. Имеет ли ранения и контузии в отечественной войне Ушиб в правую
9. С какого времени в Красной Армии 1941 10. Каким РВК признан полковником РВК, Самаркандской области
11. Чем ранее награжден (за какие отличия) представлен к ордену Красная звезда
12. Постоянный домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи Самаркандская область, Юнтонарский район, пос. "Таштотан" по ул. Нурозбойева Назом

## I. Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг

Бесстрашный воин, пулеметный артиллерийский пу-  
леметчик 2.10.1943, переправившись через Ангар в районе турки,  
он стоял в составе пулеметной роты, отвечая за весь  
рубеж, прикрывая отход переправу друзей, награжденный орденом  
Ангара и материнской почтой. В ночном бою 17.10.1943, за дер-  
звастие он смело двинулся вперед и уничтожил боевые  
устройства противника, вместе с расчетом и верными соратни-  
ками авиационными бомбами своего пулемета сжегало две  
танки и простреливая фронтальную броню в результате боя  
расчет уничтожил 42 фашиста, 30 немецких солдат и офицеров  
на поле боя, а также захватил оружие.  
Многократные победы, победы в боях с врагом.  
Такой образ воителя героического типа вывел  
бюро для ордена от фронтальной.  
За храбрость, решительность и героизм, проявленные в боях  
при форсировании Ангары и решительный плацдарм на правом  
берегу, достоин звания Герой Советского Союза.

28. Октября 1943г.

Командир (начальник) Звезда Награжденный

ДА Я ПО Д Ш И В К М

I. Navro'zboyevni Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



edi”, deb soʻzini boshlagan vaqtida suhbatni “Hujumga!” degan buyruq boʻlib yubordi. Shu vaqtning oʻzida dushman samolyotlaridan bir nechtasi bostirib kelib, bizlar yotgan okoplarni oʻqqa tutdi. Batalyon jangchilari dushman samolyotlariga qarshi hujumga oʻtdi.

Katta serjant Navroʻzboyev oʻrmon tomondan birdan paydo boʻlgan dushman samolyotini pulemyotidan nishonga oldi. Pulemyot oʻqi dushman samolyotining yoqilgʻi bakiga tekkan boʻlsa kerak, u quyuq tutun chiqarib yaqin atrofga qulab tushdi. Jang harakatlarini nazorat qilib turgan diviziya komandiri, polkovnik Butenko koʻp vaqt oʻtmay batalyon komanda punktiga yetib keldi. Shu yerda Inoyat Navroʻzboyevga Qizil Yulduz ordenini topshirdi. Buni u Rjev uchun janglarda koʻrsatgan jasorati uchun olgan edi”.

1943-yil 17-oktabrida Ukrainaning Kreshchatik qishlogʻi uchun janglarda 42 fashist, dushmanning 3 oʻq otish nuqtasi, oʻq dori ombori yakson qilindi, yuki bor avtomobil ishdan chiqarildi. Dushmanning minomyot pozitsiyasi egallandi. Natijada muhim tayanch punkti fashistlardan tozalandi.

Ushbu jangdagi jasorati uchun Inoyat Navroʻzboyevga 1944-yil 22-fevralda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

1944-yilning 17-avgust kuni uning boshchiligidagi vzvod Yassi shahri atrofidagi tepalik uchun jang olib borib, dushmanning sakkizta hujumini qaytardi. Dushman tanklari yana hujum qilib, I. Navroʻzboyevning toʻpi portladi. Uning oʻzi esa osmonga koʻtarilib tushganida, tanasi tuproqning tagida qoldi. Safdoshlari uni oʻldi deb oʻylashdi. U hali hayot edi.

Tuproq bilan koʻmilib qolgan jangchini sanitarlar chiqarib olishdi. U olti oy davomida davolandi. Keyin Tambov pulemyot bilim yurtidagi ofitserlar kursida oʻqidi. 1945-yili oʻqishni tamomlagach, Turkiston harbiy okrugida bir oz muddat xizmat qildi.

Inoyat Navroʻzboyev urushdan keyingi yillarda xalq xoʻjaligining turli jabhalarida rahbar lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Zaxiradagi katta leytenant Inoyat Navroʻzboyev 1999-yili Ellikqalʼada vafot etdi. U “Gʻalaba bogʻi” yodgorlik majmuasida joylashgan “Mangu jasorat” monumenti qahramonlaridan biri hisoblanadi.

**Gulmurat ALLAMURATOV,**  
*tadqiqotchi*



---

---

## Yunus FOZILOV

(1915–1977)



Yunus Fozilov 1941-yil 27-dekabrda Fargʻonadan harbiy xizmatga chaqirilib, 1942-yilning 1-mayigacha 95-alohida oʻqchi brigadada ish yuritish boʻyicha mudir va gʻaznachi boʻlib faoliyat olib bordi. Keyin Toshkent piyoda askarlar bilim yurtida tahsil oldi.

Yunus Fozilov 1942-yil sentabrda Olmaotada 32-zaxira oʻqchi diviziyasining 118-zaxira oʻqchi polkida oʻqchi vzvodi komandiri lavozimida xizmat qila boshladi.

1943-yilning fevralida u Turkmanistonning Tejen shahrida 1-liter zaxira oʻqchi polkida oʻqchi rota komandiri etib tayinlandi.

Y. Fozilov zaxira polklardagi harbiy xizmati davomida Harakatdagi armiya uchun yuzlab, minglab jangchilar tayyorladi.

U 1943-yil iyunidan 1-Ukraina fronti 60-armiya 280-oʻqchi diviziya 1035-oʻqchi polk oʻqchi vzvodi komandiri sifatida Kursk janglarida qatnashib, Konotop, Nejin, Ostyor, Baxmach, Sumi, Chernigov shaharlarini ozod qilishda ishtirok etdi.

24-sentabrdan 25-sentabrga oʻtar kechasi katta leytenant Y. Fozilovga oʻn avtomatchi bilan Dnepr daryosini kechib oʻtib, dushman tomonga razvedkaga borish haqida topshiriq berildi.

 мотря на ураганный огонь противника с земли и воздуха Курбанов проявля-  
 ет инициативу: одну группу он направляет на переправу для отвле-  
 чения внимания противника, а с другой группой, опытных бойцов быстро  
 форсирует реку. Переправившись на правый берег он умело организовал  
 бой и захват береговых преградных и речных противника, этим самым  
 обеспечив переправу всего полка. Стремительным ударом батальон ворвал-  
 ся в немецкие траншеи, откуда после жаркого, рукопашного боя враг был  
 выбит. Выйдя противника с береговых укреплений Курбанов стремитель-  
 ным ударом овладел высотой 94,3 и перерезал шоссе и дорогу, что  
 севернее деревни Хрустали Свешено.  
 Противник потерял значительный пункт реки Нарва прикрывавший под-  
 ступ к Варшаве и границам с Пруссией, три раза предпринимая ожесточе-  
 ные ночные контратаки, на следующий бесстрашный и смелый командир  
 Курбанов противник каждый раз оказывался обратным, с большими для  
 него потерями. Особенно яростно была контратака на рассвете 6.9.44 года  
 с участием большого количества пехоты, танков и бронетранспортеров в про-  
 тивника. Говарид Курбанов артиллерийско минометным огнем отрезает не-  
 мацку пехоту от танков и ведет бой на уничтожение ее. Одновременно со-  
 зрел артиллерия 40 мм. пушек и прямой артиллерией умело органи-  
 зовал бой с танками противника он при своей обороне. В результате  
 2-х часового боя противника был брошен огнем. Курбанов со сво-  
 ей батареей и прямой артиллерией подбил 6 немецких танков и  
 4 бронетранспортера, уничтожил только убитыми до 100 немецких солдат и  
 офицеров захватил в плен 12 немецких солдат и разбил 10 пулеметных то-  
 чек противника. Три взломанных танков с экипажами Курбанов смело уда-  
 ром опрокинул противника и сдвинул его наискось к мосту в 4 км.

A. Qurbonov Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga tavsiaya etilgan taqdirlash varaqasi

194

В этом бою группа бойцов Курбанова захватила исправный немецкий танк.

За умелое командование в бою, личное героическое и отважное поведение командира Курбанова в достоин присвоения звания Героя Советского Союза.

Командир 133 Гвард. стр. Гвардейской арт. Красногвардейского полка Гвардейская артиллерия 11.9.44 года. *Курбанов* / "Герой" /

Достоин присвоения звания Героя Советского Союза



*Командир 44 Гвард. стр. Гвардейской арт. Красногвардейского полка Гвардейская артиллерия*

*В. Ю. Алексеев*

*12 сентября 1944 года*

Достоин правительственной награды - *Звание Героя Советского Союза*

КОМАНДИР 108 СТРЕЛКОВОГО КОРПУСА ГЕНЕРАЛ-МАJOR

*А. И. Алексеев*

*(АЛЕКСЕЕВ)*

*13 сентября 1944 г.*



Достоин присвоения звания "ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА".

КОМАНДУЮЩИЙ 65 АРМИЕЙ ГЕНЕРАЛ ПОЛКОВНИК БАТОВ

*10/20*

ЧЛЕН ВОЕННОГО СОВЕТА ГЕНЕРАЛ МАJOR РАДЕЦКИЙ

*16* " 9 сентября 1944 г.

*Г. И. Радецкий*

Присвоено звание Героя Советского Союза с вручением ордена Ленина и медали "Золотая Звезда"

Указ от 24.3.45 г

П Р И К А З



№	Фамилия, имя и отчество	Полное имя	Должность и специальность	Период войны	Год рождения	Шифр назначения уровня	Виды ПДД применяемые в войну и после войны в армии	Когда и на какой службе был	Где на службе	Сведения о наградах	
										Наименование награды	Где и когда получена
7	Корофалов Александр Иванович Ир. 000001 N 146809	Секрет Секрет	К.П. Секрет. Ф.д. П.В. Секр.	21 Август 1944	1941	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
8	Раушанов Сергей Николаевич Ир. 000001 N 145702	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1918	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
9	Караев Василий Григорьевич Ир. 000001 N 146909	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1922	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
10	Колбаса Иван Иванович Ир. 000001 N 146820	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1910	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
11	Хузайратов Абдулхалик Ир. 000001 N 99165	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1915	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
12	Самойлов Иван Иванович Ир. 000001 N 147254	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1925	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	
13	Сидоров Василий Григорьевич Ир. 000001 N 170224	Секрет Секрет	К.П. Секрет. П.В. Секр.	21 Август 1941	1921	Удостоен С.П. Удостоен С.П.	Род. 1908 П.В. Секр.	1941 1.2.45	В.В. Секр. Секрет	Секрет Секрет	

44-gvardiya Qizil Bayroq o'qchi diviziyasining 1945-yil 28-yanvardan 8-fevralgacha ofitserlar tarkibida halok bo'lganlar ro'yxati. Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi, 33-fond, 11458-ro'yxat, 709-yig'majild



Ana shunday murakkab va o'ta qiyin sharoitda batalyon komandiri A. Qurbonov taktik ayyorlik ishlatdi. Dushmanning ko'ziga daryoning ma'lum bir qismidan go'yo batalyon jangchilarini kechib o'tayotgandek qilib ko'rsatdi. O'zi esa asosiy kuch bilan boshqa kechuvdan o'tib Kornevek qishlog'ini egalladi. Komandirning taxmini o'zini oqladi. Daryoning qarama-qarshi qirg'og'ida kichik talafot bilan muhim platsdarm qo'lga kiritildi.

Ammo bu hali jangovar harakatlarning boshlanishi edi, xolos. Gvardiya mayori Qurbonov hujumni yanada rivojlantirib, dushmanning qirg'oqda joylashgan nuqtalarini ham ishg'ol qilishga buyruq berdi. Chunki shunday qilinsa, polkning asosiy qismi daryodan kechib o'tishi uchun imkoniyat yaratilar edi.

Dushman himoya chizig'ining ichkarisiga kirib borar ekan, batalyon jangchilari bosqinchilarning pozitsiyalariga qaqshatqich zarbalar berdi.

Bundan tashqari, son jihatidan tengsiz bo'lgan qo'l jangida gitlerchilarni transheyalardan quvib chiqarib, 91,3 raqamli muhim tepalikni egallashdi. Sivesheno qishlog'ining shimoli-sharqidagi shossenini to'sib qo'yishdi. Varshava hamda Shimoliy Prussiya chegarasiga olib chiquvchi, Narev daryosi bo'yidagi muhim tayanch nuqtalaridan kutilmaganda

ajralish nemis qo'mondonligini sarosimaga solib qo'ydi.

Oqshom tushishi bilan dushman qarshi hujumga o'tadi. Bosqinchilar qo'ldan boy berilgan pozitsiyalarini yana qaytarib olishga jon-jahdi bilan urinar, ammo ularning barcha harakatlari zoye ketardi. Belorussiya yerlarida dushmanga qaqshatqich zarbalar bergan qo'shinlar shu tariqa Polsha hududiga kirdi.

Urushning olovli yo'llarida Ahmadjonga turmush o'rtog'i Mariya va besh yashar qizi Tamaraning maktublari dalda bo'lardi. Ular g'alabaga ishonardilar. Ammo jasur komandir A. Qurbonovga uyga qaytish nasib etmadi, u g'alabaga bor-yo'g'i ikki oy qolganida, 1945-yilning 6-fevral kuni qahramonlarcha halok bo'ldi.

A. Qurbonov Polshaning Shinix qishlog'i yaqinidagi harbiylar qabristoniga izzat-ikrom bilan dafn qilindi.

Narev daryosini kechib o'tishda ko'rsatgan ulkan jasorati uchun gvardiya mayori Ahmadjon Qurbonovga vafotidan so'ng, 1945-yil 24-martda Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvon berilgan.

Ahmadjon Qurbonov G'alaba bog'i yodgorlik majmuasida joylashgan "Mangu jasorat" monumenti qahramonlaridan biri hisoblanadi.

**Adham HAYITOV,**  
*jurnalist*



---

---

## Abdusattor ESHONQULOV (1916–1997)

O‘zbekistonlik ilk harbiy uchuvchilardan biri Abdusattor Eshonqulov o‘n sakkiz yoshida O‘rta Osiyo davlat universitetining Ishchi fakultetini (rabfak) tugatdi va Toshkent to‘qimachilik kombinatida to‘quvchilik ishi bo‘yicha usta yordamchisi lavozimida ishlay boshladi.

1937-yilda u harbiy xizmatga safarbar etildi. Armiyadagi temir intizom va tartib unda harbiylikka mehr uyg‘otdi hamda uni Volsk shahrida joylashgan harbiy-texnik aviatsiya bilim yurtiga o‘qishga kirishga undadi. 1939-yilda ushbu bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan yosh ofitser xizmat faoliyatini Lipetsk shahridagi oliy aviatsiya malaka oshirish kurslarida boshladi.

Havoga ko‘tarilgan samolyotning har bir muvaffaqiyatli parvozi unga ko‘rsatilgan sifatli texnik xizmat bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ham, Abdusattor Eshonqulovning zimmasiga nihoyatda qiyin, lekin mas‘uliyatli vazifa yuklatilgan edi. Uning bilimi, mahorati va ko‘nikmalari ko‘plab yosh aviatexniklarning o‘z kasbini chuqur o‘rganishlarida muhim o‘rin tutdi.

1941-yilning ana shunday jo‘shqin mehnat davom etayotgan kunlarida fashistlar Germaniyasining sobiq Sovetlar hududiga bostirib kirishi minglab vatandoshlarimiz qatori Abdusattor Eshonqulovni ham jang maydoniga undadi.

Urush boshlangan dastlabki paytda Germaniya armiyasining aviatsiyasi son jihatdan Ittifoq aviatsiyasiga nisbatan besh baravar ustunlikka ega edi. Shuning uchun ham



urushning dastlabki oylarida SSSR aviatsiyasida juda katta yo‘qotishlar kuzatildi, harbiy uchuvchilarga bo‘lgan talab keskin ortdi.

Voronej shahridagi qiruvchi aviatsiya polkida texnik-leytenant unvonida samolyot mexanigi bo‘lib harbiy sohada xizmatini davom ettirayotgan o‘g‘lon ana shunday og‘ir sharoitda uchuvchilik kasbiga yo‘naltirildi va u 1942-yilda Voronej shahridagi uchuvchilarni dastlabki tayyorlash bo‘yicha oltinchi aviatsiya maktabini tugatdi.

1943-yilda A. Eshonqulov Balashov shahridagi uchuvchilar harbiy aviatsiya bilim yur-

498

321 23.5.45

*[Handwritten signature]*  
Вх. 023108  
16.5.45

**НАГРАДНОЙ ЛИСТ**

Внимание, имя и отчество - **Ишанкулов Абдусаттар**  
военное звание - **Старший лейтенант**  
отличность - **Командир звена 32 Штурмового Авиацнон-ного Германского ордена Суворова полка**

Представляется к присвоению звания **"Герой Советского Союза"**  
"....."

Год рождения - 1916г. **2. Национальность - узбек**  
С нового года в КА - 1937г. **4. Партийность - чл. ВКП/б/ с 1944г.**  
Участие в боях/где, когда/ **Отечественная война с 1944г.**  
Имеет ли ранения и контузии **Имеет**  
Чем ранее награжден  
в 12 успешных боевых вылетах ор. **"Красная Звезда"** пр. М 00/d 7.7.44  
в 27 - " - " - " ор. **"Красное Знамя"** пр. М 041/И 20.9.44  
в 34 - " - " - " ор. **"Отечественная война-1ст."** пр. М 008/d  
призван РВК признан **Фрунзенским РВК** от 14.12.44 4 ВА  
остоянным командиром взрас- **Г. Дячелца, Воронежская об., улица Ворожкова**  
**том М. 9. Жена Анна Александровна.**

**Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг.**

Ст. лейтенант Ишанкулов принимает активное участие в боевой работе 32 ШАГОСП по разгрому немецких оккупантов с февраля месяца 1944г.

За этот период боевой работы в полку произвел **100 успешных боевых вылетов** на самолета ИЛ-2 - на штурмовку узлов сопротивления, артиллерийских батарей, железнодорожных станций, военных переправ, скопления танков, автомашин и живой силы пр-ка.

За **73 успешных, удачных боевых вылетах**, с нанесением больших потерь всем видам боевой техники и живой силе пр-ка, за мужество и отвагу в бою награжден тремя орденами: **"Красная Звезда"** за 12 успешных боевых вылета, **"Красное Знамя"** за 27 успешных боевых вылетов, **"Отечественная война-1степени"** за 34 успешных боевых вылета.

Продолжая боевую работу в полку произвел еще 27 успешных боевых вылетов в качестве ведущего на штурмовку переднего края оборонительных отходящих войск и техники на уничтожение окруженной группировки немецких войск, проявляя при этом личную инициативу находчивость.

**За весь период боевой работы группа штурмовиков под командованием Ст. лейтенанта Ишанкулова не имела потерь ни одного самолета.**

награжден орденами - 17 человек, медалями 20 человек.

За весь период боевой работы группа штурмовиков под командованием Ст. лейтенанта Ишанкулова не имела потерь ни одного самолета.

*A. Eshonqulov Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*



tini ham o'qib tugatdi va 28 nafar bitiruvchi uchuvchilar bilan birgalikda III darajali Suvorov ordenli 62-Grodno shturmchi aviatsiya polkida zveno komandiri bo'lib jangovar xizmatini davom ettirdi. 2-Belorussiya fronti 4-havo kuchlari armiyasining 233-hujumkor aviatsiya diviziyasi tarkibidagi ushbu polk dushman qo'shinlariga, uning texnikasi va ta'minotiga katta zarar yetkazdi.

Smolensk uchun bo'lgan janglarda Abdusattor Eshonqulov IL-2 samolyotida birinchi jangovar parvozini amalga oshirdi.

Buni u keyinchalik shunday xotirlagan edi:

*“Sakkizta IL-2 samolyotidan iborat eskadrilya belgilangan yo'nalishda uchib borib, dushman ustiga bombalar yog'dira boshlagan bir paytda, samolyotga o'rnatilgan katyusha reaktiv snaryadlarining portlashi-yu, zenit to'plarining o'q yog'dirishidan jangga berilib, chamasi 100 kilometrcha masofada dushman ortiga kirib borganimni ham payqamay qolibman.*

*Shunda o'qchi radist Hamid Azamatovning “Orqaga qaytish kerak, dushmanga qarab ket-yapmiz!” – degan ovozi zo'rg'a anglab, qaytishni boshladim. Shu vaqt bizga qarab kelayotgan fashistlarning ikkita qiruvchi samolyotini o'qchi-radist Azamatov bilan chalg'ita boshladik. Dushman uchuvchilari ham tajribali va usta uchuvchilar ekanligi ularning samolyot boshqarishidan ma'lum edi.*

*Mogilev – Orsha yo'nalishi bo'ylab uchib, samolyotimni katta tezlikda pastlata boshladim. Pastlikda o'rmon ko'rinib turardi, diqqat bilan qarab, o'rtada yo'lak borligini ko'rib qoldim va samolyotni tavakkaliga o'sha yo'lakka to'g'riladim. Samolyot qanotlari daraxtlarga tegar darajada pastlab uchdim, dushman uchuvchilari bizni ko'zdan yo'qotib*

*qo'ygani bois, ortga qaytishga majbur bo'lishdi. So'ngra chaqqonlik bilan samolyotni tepaga ko'tardim va o'zimizning aerodrom tomon ucha boshladim.*

*Eskadrilyadagi safdoshlarim bizni halok bo'lganga chiqarishgan ekan. Samolyotdan olingan jang fotosuratlarini safdoshlarim bilan birgalikda ko'rib chiqdim. Ularda dushman ustiga yog'dirgan bombalarimizning aniq nishonga urilgani va ular ko'rgan talafotlar barchasi ro'yi-rost tasvirlangan edi. Ana shu havo jangi uchun meni Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlashdi.*

*Bu jangdan so'ng dushman samolyotlari bilan yana 13 marta to'qnash keldim, lekin o'sha birinchi jangim xotiramda bir umrga muhrlanib qoldi”.*

1945-yilning 8-may kuni ham Berlin osmonidagi havo janglarida ishtirok etib, aerodromga kech qaytib kelgan Abdusattor Eshonqulov bir muncha muddat o'tgach avtomatdan otilayotgan o'q tovushlarini eshitib tashqariga yugurib chiqqan payti G'alaba to'g'risidagi xushxabarni eshitganida, o'zining janglarda ko'rsatgan jasorati, mardligi va Berlinni olish uchun bo'lgan janglardagi mardonavor ishtiroki uchun kelgusida Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishidan mutlaqo bexabar edi...

Abdusattor Eshonqulovni Qahramonlik unvoniga tavsiya etgan 4-havo armiyasi qomondonligi tomonidan 1945-yilning 23-may sanasidagi taqdirlash varaqasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

*“Katta leytenant A. Eshonqulov 62-hujumkor aviatsiya polkining jangovar harakatlarida 1944-yilning fevral oyidan boshlab ishtirok etib kelmoqda. Ana shu muddat ichida 100 dan ortiq jangovar parvozlarni amalga oshirdi.*



Участвовал в наступательных операциях на Оршанско-Витебском, Могилевском, Минском, Гродненском, Белостокском направлениях.  
 Образцы мужества и отваги показал при прорыве линии обороны пр-ва в р-не Остроленка и при взятии города и крепости Лимжа.  
 При уничтожении окруженной группировки гитлеровцев в собственном лагере в Глыне и в Данциге. В результате чередой своих тараскими налетами на уничтожение танков, артиллерии и живой силы пр-ва добил наземным поискам закончить уничтожение группировки.  
 Отличился при взрыве на промышленные объекты в тылу пр-ва и при взрыве скопления танковых колонн юго-западные Гомель.

В совершенстве овладел чередой ему оружием, в такте тактикой ведения самолетов ИЛ-2 в сложных метеоусловиях. Ведет в бой от 4-х до 6 самолетов ИЛ-2. Отлично владеет тактикой воздушного боя и турмонок против истребителей пр-ва, маневром противозенитного огня и приемами групп маневрировать по наземным целям. Ведит группы ИЛ-2 в бой независимо от метеоусловия, противостоит ИА и ИА пр-ва. Радиосвязью пользуется при всех видах боя.

Старший лейтенант Иванкулов - молодец, талантливы летчик-турмонок, с большими организаторскими способностями, большим боевым опытом, спокойный, скромный, в бой храбры, не раз производил выдающиеся тараские налеты на сильно укрепленные оборонительные рубежи пр-ва, вынося в их рядах панику, ужас, разрушения и смерть.

26 июля 1944 года противник сконцентрировал большие танковые колонны в р-не Сухари на уничтожение танковых колонн, две раза в составе 16 самолетов ИЛ-2 и 1 раз в составе 8 самолетов ИЛ-2 четкой воздушной группой. Несмотря на ожесточенный огонь из башен танков противозенитные ИА пр-ва было произведено по три атаке. В результате этих группами повреждено и уничтожено до 11 танков, из них 2 танка покомандо Ст. л-том Иванкуловым, и до 80 человек живой силы.

25 июля 1944 года группа в составе 8 самолетов ИЛ-2 была поставлена задача - нанести бомбо-турмонок удар по скоплению танков, пр-ва в р-не Огороднички. В выполнении поставленной задачи вылетел воздушным 2-й четвёрки. Группа внезапно появилась над целью и тремя заходами атаковала ее. В результате атаки было уничтожено 5 танков, 9 автомашин, до 40 человек живой силы пр-ва.

27 июля 1944 года в составе группы 4-х самолетов ИЛ-2, выполнив второй вылет на выполнение боевого задания, на уничтожение концентрированных танков и пехоты пр-ва в р-не Стары. При полете и цели ИЛ-2 целью пр-ва вел ураганный зенитный огонь до 5-ти батарей разного калибра. На втором заходе самолет Ст. лейтенанта Иванкулова был поражен огнем зенитной артиллерии пр-ва управление самолета усложнилось.  
Несмотря на это Ст. лейтенант Иванкулов, проявив смелость и отвагу, искусно маневрируя, между сплошными разрывами зенитных снарядов вместе с товарищами сделал третий заход, используя до максимума огневые возможности ИЛ-2 и прямыми попаданиями лично сам подбил 1 танк и две автомашины.  
 В результате тараского налета было уничтожено и выведено из строя 7 автомашин и до 80 человек живой силы.

11 августа 1944г. группа в составе 4-х самолетов ИЛ-2 в сложных метеоусловиях (обл. 10 бал. вид. 1 км.) вылетела на выполнение боевого задания по уничтожению скопления танков, артиллерии, автомашин и живой силы в р-не Гондаля. Несмотря на плохие метеоусловия группа совершила 2 точно вылета на цель, пробивая облачность и значительно-ави-

*Bu parvozlarda mobaynida katta leytenant, zveno komandiri Eshonqulov dushmanning 10 ta tankini, 69 ta avtomashina, 2 ta parovoz, 43 ta qurol-aslaha ortilgan tirkamalarini, daryolarda joylashgan kechuv joylar, texnika va tanklari jamlangan joylarini hamda besh yuzdan ortiq askar va ofitserlarini tor-mor etdi”.*

233-hujumkor aviatsiya polki komandirining 1944-yil 7-iyul sanasidagi 08/n raqamli buyrug‘i asosida uchuvchi leytenant Abdusattor Eshonqulov nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan janglarda jangovar topshiriqlarni namunali tarzda bajarishda ko‘rsatgan jasorati va 12 marta amalga oshirgan muvaffaqiyatli parvozi uchun Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi.

2-Belorussiya fronti 4-havo armiyasi qo‘mondonligining 1944-yil 20-sentabridagi 041/n raqamli buyrug‘iga binoan 27 ta muvaffaqiyatli parvozi uchun Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi.

Qo‘mondonlikning 1944-yil 14-dekabrda shaxsiy tarkibni taqdirlash bo‘yicha 064/n-sonli buyrug‘iga binoan 34 marotaba amalga oshirgan muvaffaqiyatli jangovar parvozi uchun III darajali Suvorov ordenli 233-hujumkor Grodno aviatsiya polki uchuvchisi, katta leytenant Abdusattor Eshonqulov I darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi.

Bulardan tashqari, *“katta leytenant Eshonqulov yana 27 ta jangovar parvozini chekinayotgan dushman qo‘shinlarining old qatorlarida joylashgan texnikasi, tanklari, qurol-yarog‘ va shaxsiy tarkibiga katta talafot yetkazgan holda eskadrilya yetakchisi sifatida amalga oshirdi. Bu jangovar parvozlarda u o‘zining mardligi, jasurligi va topqirligi bilan shaxsiy namuna ko‘rsatdi.*

*O‘zining butun jangovar faoliyati davomida katta leytenant Eshonqulov qo‘l ostidagi havo hujumkor aviatsiyasi uchuvchilari birorta ham samolyotni yo‘qotmasdan, jiddiy talafotlarsiz janglar olib borgan”.*

Shunday qilib, katta leytenant, o‘zbekning mard va jasur o‘g‘loni Abdusattor Eshonqulov 1945-yilning 18-avgusti kuni Oliy Kengash Prezidiumining Qaroriga binoan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi.

Abdusattor Eshonqulov jangovar harakatlarda o‘zining mardligi, botirligi bilan birga, yosh kadrlarning mehribon va talabchan ustoz sifatida ham tanildi. Bor bilim va mahoratini ishga solib, polkka endigina kelgan yosh uchuvchilarga jang sirlarini, qay tarzda parvozni betalafot amalga oshirishni batafsil o‘rgatib bordi. Abdusattor Eshonqulov boshchiligida jangovar parvozlarda ishtirok etgan 37 uchuvchi ham turli jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. U o‘z qo‘l ostidagi yosh kadrlarni yanada olg‘a borish va mardonavor jang qilish uchun ruhlantirar edi.

Uchuvchilik kasbini astoydil ardoqlagan qahramonimiz urushdan keyin Turkiston harbiy okrugi Harbiy havo kuchlari tarkibidagi qismlarda o‘z xizmat faoliyatini davom ettirdi.

1949-yildan boshlab harbiy-transport aviatsiyasida xizmat qilgan vatandoshimizning kelgusi faoliyati atom energetikasi sohasiga jalb etilgan mashhur olimlar I.V. Kurchatov, B.L. Vannikov va boshqa yetuk mutaxassislar nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.

1958-yilda esa Abdusattor Eshonqulovga yanada mas‘uliyatli vazifa yuklatildi. Endi u harbiy havo kuchlarining Qizil Bayroq ordenli ilmiy-tajriba institutining transport aviatsiyasida xizmat qila boshladi.



«хитро маневрируя в сплошных разрывах снарядов, презирая опасность группа сделала три захода на цель. В результате этой уничтожены и выведены из строя до 20 человек живой силы, 11 танков, до 15 автомашин.

15 августа 1944 года летушим второи четурки Самолетов ИЛ-2 выполнял боевое задание по уничтожению ш.эвэлочов пр-ка на ст. Рула. Цель прикрывалась сильным зенитным огнем, но несмотря на это правильно применяя против зенитни маневр, группа вышла к цели и двумя заходами атаковала ее. На первом заходе самолет Ст. лейтенанта Иванкулова был подбит. На подбитом самолете, который был трудно-управляем, используя свое искусство в технике пилотирования, сталел 2-й заход, перелет самолетя выше и прямыми попаданиями из РС и пулеметно-пушечным огнем вывел из строя паровоз и поджег 2 вагона. В результате смелого и героического полета - уничтожено и выведено из строя до 20 вагонов, разрушено стационарное здание, взорван склад с боеприпасами.

18 сентября 1944 года в р-не Дворки-Матюши пр-к концентрировал силы ко Перехола в концентрану, для уничтожения подхожащих сил пр-ка летушим второи парн четурки самолетов ИЛ-2 летушим летал выполнять боевое задание. По маршруту группу в турмонок атаковала пара истребителей пр-ка. Атаки истребителей были отбиты огнем воздушных стрелков. При подходе к цели группа встретила сильно-заградительный огонь. Несмотря на противодействие пр-ка группа южно и одновременно вышла на цель и с высоты 900 метров до 200 метров тремя заходами атаковала ее. В результате этой прямыми попаданиями бомб и РС уничтожено 3 бронеполюды артиллерии с присугой, до 10 танков, до 30 человек живой силы взорван склад с боеприпасами.

7 октября 1944 года в составе 2-х самолетов ИЛ-2, летушим летал выполнение боевого задания по уничтожению танков, артиллерии пр-ка в р-не Груши. Несмотря на сильный огонь зенитной артиллерии пр-ка группа вышла точно на цель и атаковала ее тремя заходами, уничтожив при этом 2 танка, 2 орудия полковой артиллерии, до 20 человек живой силы.

10 октября 1944 года группа в составе 4-х ИЛ-2 под командованием Ст. лейтенанта Иванкулова вылетела на уничтожение танков, автомашин и живой силы пр-ка в р-не Страховичи-Стари, маскируясь в облачности, группа турмонок внезапно появилась над целью. Удар был до того внезапным, что зенитная артиллерия пр-ка открыла огонь. Только после того, как истребители сбросили бомбы и ушли от цели, группой уничтожено 2 танка, 4 автомашин, до 20 человек живой силы.

19 марта 1945 года группе 4-х самолетов ИЛ-2 была поставлена задача - навест и бомбостурмокой удар по танкам и живой силе группировки пр-ка в р-не Шефарви в Гроку. В выполнении поставленной задачи Ст. лейтенант Иванкулов летушим группой сделал 3 вылета на заданную цель. Цель прикрывалась сильным зенитным огнем. Правильно применяя противозенитни маневр сталел по 3 захода атаковать цель. Этот день лично Иванкулова метко-оброшенными бомбами, обстрелом из РС и пулеметно-пушечным огнем уничтожила 5 полковых орудий с присугой, 25 автомашин, 5 танков, до 50 человек живой силы. Ст. лейтенант Иванкулов лично сам поджег 1 танк, 2 автомашин и уничтожил до 10 человек живой силы.

22 марта 1945 года была поставлена задача группе 8 самолетов ИЛ-2 в аэроиспытательном бомбо-штурмовом ударном соединении техники и живой силе пр-ка в г. Диния. По выполнению боевого задания пилотами 2-й четверки следовало 3 боевых вылета. При подходе к цели группа была встречена сильным зенитным огнем. Правильно применяя противозенитный маневр группа точно вышла на цель. С высоты 800 до 200 м вглубь заходами метко-оброшенными бомбами уничтожены: 2 орудия ЗА, 10 автомашин, до 40 человек живой силы.

25 марта 1945 года противники в р-не Хохатрисо, Кегитрисо сконцентрировали большие силы для нанесения контрудара по нашим передовым частям. Р-н сосредоточения техники и живой силы прикрывался сильным зенитным огнем и истребителями. Правильно применяя противозенитный маневр Ишанкулов уверенно пробил частями группу на цель. Вышла точно и своевременно на цель - атаковал ее с высоты 1000 до 400 метров с планирования двумя заходами. Прямыми попаданиями бомб и РС группой уничтожено 3 танка, 10 автомашин, до 40 чел. живой силы пр-ка и 2 орудия ЗА. Лично Ишанкуловым уничтожено 1 танк и 3 автомашины.

26 марта 1945 года в составе 8 ИЛ-2 пилотами второй четверки произвел 4 боевых вылета на уничтожения живой силы в Техники пр-ка Кавкми раз при попадании на цель Ишанкулов обрушил смертоносный груз бомб в логово врага. При выполнении боевых вылетов без учета потерь по 2-3 захода на цель. В этот день его лично произвело 4 вылета. В результате произведенных атак уничтожено 35 автомашин, 7 танков, 5 орудий полковой артиллерии, до 70 человек живой силы. Лично им самим уничтожено 2 танка, 3 автомашины, 1 орудие ЗА.

х у  
у

За 100 соаведенных успешных боевых вылетов Старшего лейтенанта Ишанкулова лично уничтожено: танков - 10, автомашин - 69, полковых паровозов - 2, переправа - 1, живой силы пр-ка до 500 человек.

За период боевой работы в полности командиром звена, под его руководством и командованием непосредственно в боях летчики пилотами произвели 260 успешных боевых вылетов и нанесли врагу следующие потери: танков - 31, автомашин с военным грузом - 138, полевых орудий - 78, полевых орудий - 47, зенитных орудий - 17, самолетов на аэродромах - 2, пулеметных точек - 9, минометов - 11, блиндажей - 3, складов с боеприпасами, горючим и продовольствием - 4, полных переправ - 2, железнодорожных вагонов - 93, живой силы пр-ка до 1500 человек.

Кроме этого нанесены большие повреждения танко-сборочным мастерским в тылу пр-ка.

За отличное выполнение боевых заданий командования имеет ряд благодарностей от Командующего 4 Воздушной Армии, от Командира 238 ШАИКД и командира полка.

Эффективность боевых действий Старшего лейтенанта Ишанкулова и его группы подтверждают истребители противотанковые, наземные поиски, экипировка штурмовиков и фото-снимки



19

## Вывод:

За отличное выполнение боевых заданий  
командования на фронте борьбы с немецкими захват-  
чиками и нанесением больших потерь врагу в авиаци-  
онной технике и живой силе врага, за мужество, отва-  
гу и неоднократно проявленный героизм в бою, за уме-  
лое руководство, за уничтожение окруженной группир-  
овки немецких войск в р-не Данциг -

Старший лейтенант Ишанкулов Достин

присвоения звания -

"герой Советского Союза"

--- КОМАНДИР 62 ШТУРМОВОГО АВИАЦИОННОГО  
 ГРАДОНЕБНОГО ОТДЕЛА СУВОРОВА ПОЛКА  
 ПОДПОЛКОВНИК *Смирнов* /СТАРОВОШОВ/

" 6 " *Апреля* 1945 года

2. ЗАКЛЮЧЕНИЕ ВЫШЕСТОЯЩИХ НАЧАЛЬНИКОВ:

За совершенные 100 боевых вылетов, за проявленное мужество, стойкость и героизм, при выполнении боевых заданий на уничтожение живой силы и техники и причиненный ущерб противнику - достойн высшей правительст-  
венной награды - присвоения звания ГЕРОИ СОВЕТСКОГО  
СОЮЗА.

КОМАНДИР 228 ШТУРМОВОЙ АВИАЦИОННОЙ ЯРЦЕВСКОЙ  
 КРАСНОЗНАМЕННОЙ ДИВИЗИИ -

ПОЛКОВНИК *Великий* /СМОЛОВИК/

" 25 " апреля 1945 года.

*Курган*  
*16.4.45*

20

ЗАКЛЮЧЕНИЕ КОМАНДУЮЩЕГО 4 ВОЗДУШНОЙ АРМИИ

Достоин присвоения звания

ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА



КОМАНДУЮЩИЙ 4 ВОЗДУШНОЙ АРМИИ  
ГЕНЕРАЛ-ПОЛКОВНИК АВИАЦИИ

ВЕРШИНИН

*Вершинин*

"18" мая 1945 года.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ ВОЕННОГО СОВЕТА 2 БЕЛОРУССКОГО ФРОНТА

Достоин присвоения звания

ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА

КОМАНДУЮЩИЙ ВОЙСКАМИ  
2 БЕЛОРУССКОГО ФРОНТА  
МАРШАЛ СОВЕТСКОГО СОЮЗА  
/РОКОССОВСКИЙ/

ЧЛЕН ВОЕННОГО СОВЕТА  
2 БЕЛОРУССКОГО ФРОНТА  
ГЕНЕРАЛ-ЛЕЙТЕНАНТ  
/СВЯБОТИН/

*Рокоссовский*  
*Свяботин*

"18" мая 1945 года.

*Тренировал 100 боевых экипажей  
на самолетах Ми-2 на Штурмовку  
при к 6 мая -*

Присвоено звание  
Героя Советского Союза  
заученным Орденом Отечественной войны  
1 степени и орденом "Золотая Звезда"  
Указ от 18.08.45г.



Xizmat faoliyati davomida u Lenin, Qizil Bayroq, ikki marotaba I darajali Vatan urushi, uch marotaba Qizil Yulduz ordenlari va boshqa ko'plab medallar bilan taqdirlandi.

Aviatsiya mayori, I darajali harbiy uchuvchi Abdusattor Eshonqulov 1960-yilning may oyidan zaxiraga bo'shatildi. Moskva viloyatining Lyuberets shaharchasida bir muddat yashaganidan so'ng, u ona shahri Toshkentga qaytib keldi.

Ko'plab jang-u jadallardan, qirg'inbarotlardan omon qaytgan vatandoshimiz nafaqada ham el-yurt ravnaqi, uning farovonligi uchun o'zining bor kuch-g'ayratini ishga

soldi. Ko'plab uchrashuvlar, ijodiy kechalarda qatnashib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ota-bobolari qo'lga kiritgan buyuk G'alabani ardoqlash, tinchlik deb atalgan ulug' ne'matning qadriga yetish, bir kasbga muhabbat qo'yib, yurt rivojiga hissa qo'shish kabi oliyjanob xislatlarni shakllantirish uchun hissa qo'shdi.

G'alaba bog'i yodgorlik majmuasidagi "Mangu jasorat" monumentida Abdusattor Eshonqulovning mahobatli haykali qad rostlab turibdi. Uning qahramonliklari haqidagi hikoyalar avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

**Zebo XOLBOYEVA,**  
*"Shon-sharaf" muzeyi xodimi*



---

---

## Hamid SARIMSOQOV

(1922–1997)

O‘zbekistonlik qaldirg‘och uchuvchilaridan biri Hamid Sarimsoqov 1936-yildan boshlab O‘rta Osiyo harbiy okrugi tarkibidagi Toshkent Qizil Armiya uyi qoshida tashkil etilgan Bolalar klubi snayperlar kurslariga qatnaydi va bu yerda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritadi. 1937-yilda Toshkentda o‘tkazilgan birinchi bolalar o‘q otish musobaqalarida faxrli ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Keyinchalik H. Sarimsoqov respublika va Ittifoq miqyosida, hatto, SSSR – Angliya jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xalqaro musobaqalarda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritib, o‘q otish sporti bo‘yicha snayper-instruktordarajasiga yetishdi.

Maktabning yuqori sinflarida uni uchuvchilik kasbi va planerlik qiziqtirib qo‘ydi. Shu tariqa H. Sarimsoqov o‘zini samo lochini sifatida ko‘ra boshladi. 1939-yilda u maktabni tugatib, Nikolayev shahrida joylashgan Levanevskiy nomidagi harbiy-dengiz aviatsiya bilim yurtiga o‘qishga kirish uchun hujjatlarini topshiradi. Ushbu bilim yurti o‘sha vaqtda butun Ittifoq miqyosidagi Harbiy dengiz aviatsiya uchuvchilarini tayyorlaydigan nufuzli o‘quv yurtlaridan biri bo‘lib, uning kursanti bo‘lish o‘zini aviatsiyaga bag‘ishlagan har bir yosh o‘g‘lon uchun ushalmas orzulardan biri edi.

Hamid Sarimsoqov ana shu bilim yurtiga a‘lo baholar bilan qabul qilindi.

Bilim yurtining ikkinchi kursini tugatgan kunining ertasiga, ya‘ni 1941-yilning 22-iyun sanasida urushga safarbarlik e‘lon qilindi va Hamid Sarimsoqov ham birinchi-



lar qatorida urushga jo‘natildi. Bilim yurtida dengiz aviatsiyasi va razvedkasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiganligini hisobga olib, uni dastlab shakllangan olti-yettita ekipajlar tarkibida Eysk shahridagi uchuvchilar tayyorlaydigan Harbiy dengiz aviatsiya bilim yurtiga zudlik bilan jo‘natishadi. Ularni bir hafta ichida tezuchar bombardimonchi samolyotlar uchun o‘qchi-radistlar etib tayyorlashadi.

1941-yilning 28-iyunidan Hamid Sarimsoqovning jangovar faoliyati boshlandi. Leningrad osmonidagi birinchi parvozi uning xotirasida bir umr muhrlanib qoldi. Sababi, dushmanning zenit o‘qlaridan ilma-teshik





*Shturman Hamid Sarimsoqov tomonidan dushman  
o't ochish nuqtalarini olgan suratli hisobot kartochkasi. 1943-yil 5-oktabr*

bo'lib ketgan samolyotining aynan u o'tirgan old qismi katta talafot ko'rgan edi. Samolyotni ta'mirlagan texnik H. Sarimsoqov o'z kabinasida qanday omon qolganiga hayron bo'lgani holda, uni Xudo bir asraganini aytib, "omadli" deb atadi va shu so'z uning bir umrlik hamrohiga aylandi.

Leningrad frontida H. Sarimsoqov avia-polki 1941-yilning noyabr oyigacha janglarni davom ettirdi. So'ngra ko'rilgan ko'plab talafotlar va yo'qotilgan samolyotlar sabab, uning polki mamlakat ichkarisiga harbiy-dengiz flotining birinchi zaxira avia-polkiga jo'natildi.

1942-yildan boshlab mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish harbiy izga yo'naltiril-

gani va front ta'minoti izchil amalga oshirilgani sababli, harbiy aviatsiyaga o'sha vaqt uchun mukammal bo'lgan PE-2 samolyotlari yetkazib berila boshlandi. Metall qoplama-li, boshqarishda yengil, manyovrligi yuqori bo'lgan bu samolyotlarning tezligi soatiga 500 kilometrdan ko'p va ular eng tezotar SHKAS, Berezin aviatsiya pulemyotlari bilan jihozlangani bois, dushman uchun haqiqiy dahshatga aylangan edi.

PE-2 samolyotlarida shturmanlar — o'qchi-bombardirlar vazifasini bajarishgan. Ular samolyotlarni boshqargan ekipaj komandiriga samolyotning tezligi, yo'nalishi va uchish davomida bir vaqtning o'zida dushman ustiga tashlanadigan bombalar-





*Leytenant Hamid Sarimsoqov siyosiy mashg'ulot o'tkazmoqda. 1944-yil*

ning aniq mo'ljalga borib yetishi uchun barcha harakatlarni qay tarzda amalga oshirish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berib borishgan hamda dushman samolyotlariga qarshi otishmalarni amalga oshirishgan. Bu esa insondan yuksak darajada mahoratli bo'lishni talab etardi. Hamid Sarimsoqov ana shunday mahorat va qat'iyat egasi edi.

1942-yil may oyida 1-aviaeskadrilyaning 29-aviapolki Boltiq floti harakatdagi kuchlari safiga qo'shildi. Ularning jangovar harakatlardagi asosiy faoliyati Volxov frontidagi jangchilarni qo'llab-quvvatlash, dushmaning jangovar kemalari, qayiqlari va bandargohlarini yo'q qilishdan iborat edi. Janglarda erishgan muvaffaqiyatlari va dushmanga yetkazgan katta talafotlari uchun 1-aviaeskadrilyaning, shu jumladan, 29-aviapolkning barcha ekipaj a'zolariga Volxov

fronti qo'mondonining minnatdorligi e'lon qilindi.

1942-yil iyun oyidan Boltiq flotida maxsus dengiz aviaguruhi tuzildi, uning asosiy vazifasi Lend-liz programmasi bo'yicha Shimoliy qutb orqali sovet hukumatiga Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya va Fransiya davlatlari tomonidan yetkazib berilayotgan harbiy texnika, qurol-yarog', oziq-ovqat va boshqa sanoat mahsulotlarini qo'riqlashdan iborat edi. Ushbu dengiz karvonlari Arxangelsk shahriga yetkazib berilgan va u yerdan barcha yo'nalishdagi frontlarga transport aviat-siyasi va temiryo'llari orqali tarqatilgan. Shu tariqa Hamid Sarimsoqovning Barentsevo dengizi ustidagi faoliyati boshlandi.

1942-yilning bahori va yozida fashistlar Germaniyasi o'z aviatsiyasini ikki baravari-ga kuchaytirdi. Buning oqibatida Shimoliy





qutbda havo janglari qarama-qarshi tomonlar o'rtasida yanada kuchayib ketdi. Shimolning ayozli sovuqlari, qor bo'ronlariga qaramasdan, xizmat davom etardi.

Hamid Sarimsoqovning keyingi faoliyati jangovar aviatsiya razvedkasi bilan bog'liq bo'ldi. Bu uchuvchidan nafaqat razvedka, balki dushmanning joylashuv pozitsiyalari va koordinatlarini aniq tasvirga olishni, shu bilan birga, jang olib borishga doim shay holatda turishni talab etardi.

Uning olgan aerofototasvirlari o'ta darajada aniqligi, dushmanning joylashuv nuqtalarini batafsil yoritib bera olgani bilan quruqlikdagi qo'shinlarga va aviatsiyaga katta yordam berdi.

Hamid Sarimsoqovning Barenshevo dengizidagi olib borgan jangovar faoliyati "Shimoliy dengiz uchuvchisi" ("Severomorskiy lyotchik") gazetasining 1942-yil sentabr

oyidagi sonlaridan birida "O'zbek xalqining o'g'loni" sarlavhasi ostidagi maqolada quyidagicha yoritib beriladi:

*"Sovet suvosti kemasi fashistlar tomonidan berilgan talafotlar oqibatida suv ostida harakatsiz qolgan edi. Tepadan esa nemislarning ikkita kateri nazoratda ushlab turar va vaqti-vaqti bilan chuqurlikka bombalar tashlab, uni suv ostida qolishga majbur etardi.*

*Suvosti kemasini qutqarish uchun ikkita samolyot jo'natildi, ularning oldingi qatordagisini o'zbek o'g'loni, shturman Hamid Sarimsoqov boshqarib borardi. Tezda belgilangan joyga yetib kelishdi va fashist katerlari ustiga bombalar yog'dira boshlashdi, katerlardan biri berilayotgan zarbalarga bardosh bera olmay qirg'oqqa qarab qochib qoldi, ikkinchisi esa qarshilik ko'rsatib, zenitlaridan samolyotga qarata tinimsiz ravishda o't ochib turdi. Lekin bizning jasur uchuvchilarimiz aniq bomba zarbalari bilan fashistlar kemasini qochishga majbur etdi va suvosti kemamizning eson-omon bazaga qaytib kelishini ta'minladi.*

*Jasur uchuvchi – shturman Sarimsoqovning dushman bilan to'qnashuvlari ko'p bo'lgan. Bir parvoz payti bizning bombardirovkachi samolyotlarimizga qarshi dushmanning 40 dan ortiq samolyotlari hujum qildi. Ana shu havo jangida Sarimsoqovning shaxsan o'zi fashistlarning bitta "ME-109" samolyotini urib tushirdi va 12 tonna suv sig'imiga ega kemasini aniq bomba zarbalari bilan cho'ktirib yubordi.*

*O'zbek xalqining jasur o'g'loni Hamid Sarimsoqov o'z mamlakatining baxti va g'alabasi uchun shunday jang qilmoqda. G. Sezarev".*

Ushbu ko'rsatgan jasorati uchun mard uchuvchimiz 1942-yilning 7-noyabr sanasida Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi.



## ИЗВЕЩЕНИЕ

Ваш сын. – мѣтеникъ  
муж, сын, брат, военное званиеСаримсоков Хамид Гафуров  
фамилия, имя и отчествоУроженец города Ташкент.  
область, район, деревня и селоВ БОЮ ЗА СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЕ ОТЕЧЕСТВО,  
ВЕРНЫЙ ВОЕННОЙ ПРИСЯГЕ, ПРОЯВИВ  
ГЕРОЙСТВО И МУЖЕСТВОПогиб при выполнении задания  
убит, умер от ранПохоронен Погиб в море 21.08.42.  
место погребенияНастоящее извещение является документом  
для возбуждения ходатайства о пенсии (приказ  
НКВМФ СССР № 325 от 16 июня 1941 г.).Командир части 26860  
(звание)

М. П.

Мохор: Вукмир Целарих

1944-yilda H. Sarimsoqov xizmat qilgan aviatsiya polki Janubiy frontga o'tkazildi. Sababi, endi shimoliy marshrut bo'ylab yuk tashuvchi karvonlar front chizig'i o'zgarгани tufayli dushmanning ta'sir doirasidan chiqqan edi. 1944-yilning iyun oyidan bosh-

lab 29-aviatsiya polki 13-aviatsiya diviziyasi tarkibiga kiritildi va uzoq masofali uchishlar asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Bu davrda Hamid Sarimsoqov polkka kelib qo'shilgan yangi yosh uchuvchilarga havo jangi sirlarini o'rgatish va tajribasini

oshirish borasida mashg'ulotlar olib bora boshladi.

1944-yilning 21-avgust kuni komandir Petr Mashirov, o'qchi-radist Mixail Shatalin va shturman Hamid Sarimsoqovdan iborat ekipaj jangovar topshiriq bo'yicha o'zining navbatdagi parvozigacha shaylandi. Hamid Sarimsoqov va uning safdoshlari uchun bu parvoz oxirgi ekanligi ularga ayon emas edi...

Ruminiyaning Konstansa bandargohini bombardimon qilish uchun soat 14.50da ularning "PE-2" samolyoti ikkita 250 kilogrammli FAB-250 bombalari bilan havoga ko'tarildi. Konstansa bandargohiga yetib kelishganida, shturmanning mahorati tufayli ikkala bomba ham o'ta aniqlik bilan fashistlar kreyseri ustiga tashlandi. Samolyot tepaga ko'tarilgan vaqtida ularga dushmaning to'rtta "Messerschmitt-109" samolyoti hujum boshladi.

Ekipaj o'qchi-radisti Mixail Shatalin va Hamid Sarimsoqovning "Berezin" pulemyotidan otilgan o'qlar dushmanning bit-ta samolyotini urib tushirdi. Lekin shu payt samolyotning tagidan pisib kelgan ikkinchi samolyot ro'paradan kelib o'q yog'dira boshladi.

H. Sarimsoqov dushman uchuvchisini kabinasidan yaqqol ko'rdi va unga qarata o'q yog'dirdi. Ammo o'zlarining samolyoti ham talafot ko'rib, katta tezlikda dengizga qulab tusha boshladi.

Kuchli zarbadan bir muddat hushini yo'qotgan Hamid Sarimsoqov oxirgi lahzalarda o'ziga keldi va ekipaj komandiri Pyotr Mashirov hamda o'qchi-radist Mixail Shatalinning halok bo'lganlarini ko'rdi.

U endi jon-jahdi bilan parashutda sakrash uchun harakat qila boshladi. Oraliq

masofa esa tobora qisqarib borar edi. Suv sathiga sakson metrcha masofa qolganda, u samolyotdan sakrashga ulgurdi va parashuti hali to'liq ochilmagan holda Qora dengiz qa'riga sho'ng'idi.


Xuddi shu holatni, ya'ni samolyotning dengizga qulab tushayotganini ko'rgan safdoshlari aerodromda bu uch botir o'g'longa atab motam saluti sifatida pistoletlaridan uch marotabadan havoga o'q uzishdi va shu tariqa o'zlarining ular xotirasiga bo'lgan hurmatini bajo keltirishdi...

Shu tariqa, 1944-yilning 21-avgust kuni 29-aviatsiya polki komandiri, mayor A.P. Setsorin Hamid Sarimsoqovning oila a'zolariga mash'um xabarnomani jo'natgan edi. Unda leytenant H. Sarimsoqov Vatan uchun bo'lgan janglarda o'z qasamyodiga sodiq qolgan holda, mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatib, jangovar topshiriqni bajarish vaqtida dengizda qahramonlarcha halok bo'ldi, deb yozilgan edi.

Omad bu safar ham unga kulib boqdi. Uch kun davomida ochiq dengizda och-nahor, cheksiz suv qa'rida qolib ketgan Hamid Sarimsoqovni 1944-yilning 24-avgust kuni Ruminiyaning Konstansa bandargohidan Bolgariyaning Varna shahriga ketayotgan fashistlarning qo'riqlash xizmati kemalari o'ziga chiqarib olishadi.

Qo'riqchi kema kapitani holdan toygan va madorsiz Hamid Sarimsoqovni Varna shahri komendantiga qoldirdi, komendant esa sovetlarga xayrixohlardan bo'lib chiqdi va asir olingan H. Sarimsoqovni 1944-yil 30-avgust kuni sovet elchixonasi vakillariga topshirdi.

Ana shu kundan boshlab Hamid Sarimsoqovning hayotidagi eng sinovli kunlar boshlandi. U qamoqqa olindi va asir tushgan har-



*Harbiy havo kuchlari shimoliy floti 29-aviatsiya polki tomonidan berilgan ma'lumotnoma. 1945-yil*

biy sifatida so'roqlar, qiynoqlar iskanjasida qoldi.

Dastlab 1944-yilning 7-sentabrida ularni, ya'ni sobiq mahbuslarning barchasini alohida vagonga joylashtirishdi va Bolgariya-Turkiya chegaralari orqali Sovet Ittifoqiga olib

kelishdi. 1944-yilning dekabr oyigacha Hamid Sarimsoqovning faoliyati bo'yicha tekshiruvlar olib borildi, uning haqiqatan ham uchuvchi ekani aniqlangandan so'ng, dushmanga asir tushgan sovet askari sifatida jarma batalyoniga safarbar etildi.



Samolarni zabt etgan o'g'lon, mohir uchuvchi endi jarima batalyonida 1945-yilning 3-yanvaridan 10-fevraligacha 27-alo-hida hujumkor batalyon tarkibida Vengriya poytaxti Budapesht shahrini fashist bos-qinchilaridan ozod etishda mardonavor jang qildi va ko'rsatgan jasorati tufayli uning leytenantlik unvoni va ofitserlik haq-huquqlari qayta tiklandi.

Bu haqda 27-alo-hida hujumkor batalyon komandiri, podpolkovnik Kolnashev Hamid Sarimsoqovga 1945-yilning 10-fevralida-gi 258-raqam ostidagi bergan ma'lumotno-masida qayd etib o'tgan.

U janglardan birida oyog'idan og'ir yara-landi, Vengriyaning Seged shaharchasida-gi 3635-evakuatsiya gospitalida uzoq vaqt davolandi. Jarrohlarning sa'y-harakatlariga qaramasdan, uning tanasida o'n ikki-ta oskolka bir umrlik hamroh bo'lib qolib ketdi...

G'alabadan keyin uch hafta o'tgach, u evakuatsiya gospitalidan qo'ltiqtayoqda chi-qib keldi.

Budapesht uchun bo'lgan janglarda ko'rsatgan jasorati uchun "Budapesht zabt etilganligi uchun" medali bilan taqdirlandi, ammo bu medalni u ofitser-uchuvchi bo'lib emas, balki oddiy askar-ofitser sifatida oldi.

Ana shu tariqa urushni yakunlagan o'z-bekning mard o'g'loni fashizm ustidan qo-zonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shdi. Shimoliy front harbiy havo kuchlari 29-aviat-siya polki 2-aviaeskadrilyasi komandiri, kapi-tan Tuganovning bergan tavsifnomasida kel-tirib o'tishicha, *"Hamid Sarimsoqov 1941-yil-ning 22-iyunidan 1945-yilning 8-mayigacha bo'lgan davrda urushda ishtirok etgan. 74 ta jangovar parvozni amalga oshirgan. Jangovar faoliyati davomida o'zini siyosiy jihatdan bi-*

*limdon, Vataniga sodiq, intizomli ofitser sifati-da namoyon etgan.*

*U Boltiq floti harbiy havo kuchlari tarkibida-gi 57-aviatsiya polki o'qchi-radisti lavozimida guruh tarkibida dushmanning 6 ta samolyoti, 11 tanki, 40 tacha avtomashinasini yo'q qildi.*

*Qora dengiz floti tarkibidagi 29-aviatsiya polki tarkibida esa shaxsan o'zi dushmanning 2 ta 20 tonnalik suv sig'imiga ega kemasini, 1 ta qo'riqlash kemasini cho'ktirib yubordi. 1 ta 6 tonnalik suv sig'imiga ega trauleriga talafot yetkazdi. Havo janglarida 2 ta "ME-109" ham-da 1 ta "ME-110" samolyotini urib tushirdi.*

*Guruh tarkibidagi jangovar parvozlarida esa 19 tonna suv sig'imiga ega 3 ta kema, 1 ta suvosti kemasi, 1 ta qog'oz ishlab chiqa-rish zavodi, 2 ta neft ombori, 7-8 ta bandargoh inshootlarini vayron qildi.*

*Janglarda ko'rsatgan jasorati va mardligi uchun Qizil Bayroq, I darajali Vatan urushi, Qizil Yulduz ordenlari va "Leningrad mudofaasi uchun", "Sovet Zapolyaresi mudofaasi uchun", "Germaniya ustidan qozonilgan G'alaba uchun" medallari bilan taqdirlangan".*

Tavsifnomada Hamid Sarimsoqov uchta samolyotni urib tushirgan, deb yozilgan, as-lida ularning soni to'rtta edi. Oxirgi samo-lyotini u o'zining so'nggi yetmish yettinchi parvozi payti, dushman kemasi ustiga bomba yog'dirib havoga ko'tarilayotgan paytida urib tushirgan va ana shu samolyot uchun unga Qizil Yulduz ordeni taqdim etilgan edi.

Uning o'zi bu narsadan mutlaqo bexabar edi, buni xizmatini yakunlab polkdoshlari bi-lan xayrlashgani borgandagina bildi.

Aslida esa urush davrida uchuvchilar tarki-bi, shturmanlar va o'qchi-radistlarni rag'bat-lantirish maqsadida shturmanlar uchun yet-mish beshta jangovar parvoz tufayli Qahra-mon unvoni berish belgilangan edi.

Urushdan so'ng Hamid Sarimsoqov 1946-yil oktabr oyigacha o'zi jangovar faoliyatini olib borgan 29-aviatsiya polkida xizmatni davom ettirdi, so'ngra tug'ilib o'sgan ona diyori O'zbekistonga qaytib keldi va Toshkent politexnika (o'sha davrda industrial) institutiga o'qishga kirdi. Lekin samoga bo'lgan mehr unga tinchlik bermasdi, kechalari u o'zini samolyot bortida ko'rar, tushlariga samolyotlar kirib chiqar va ichki tuyg'ulari uni yana va yana osmonlarga chorlar edi.

Shu tariqa 1948-yilda o'qishini Moskva aviatsiya institutiga ko'chirdi. O'qishni tugatganidan so'ng Toshkentga qaytdi va Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish zavodi konstruktorlik byurosiga konstruktorlikka ishga qabul qilindi. O'zining bor bilim va mahoratini qo'llagan holda, o'zbek aviatsiyasi rivojiga munosib hissasini qo'shdi. Ko'plab AN turidagi samolyotlarni ishlab chiqarish va iqtisodiyotga tatbiq etishda ishtirok etdi.

Dastlabki AN-22 samolyotlarini Toshkent aviatsiya zavodida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Mehnat faoliyati davomida doimiy ravishda fuqaro aviatsiyasi vazirligi hamda harbiy havo kuchlari tizimidagi tashkilotlarga borib, ulardagi samolyotlarning texnik holatini yaxshilash bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi.

1956-yilda Toshkent politexnika institutida samolyotsozlik fakulteti ochildi. Hamid Sarimsoqov fakultetning Samolyotlar konstruksiyasi va loyihalash kafedrasini mudiri sifatida kadrlar tayyorlashga o'zining munosib hissasini qo'shish bilan bir vaqtda, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ustida ishlar olib bordi. 1961-yilda Moskva aviatsiya institutida texnika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1975-yilda esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

So'ngra mashhur aviakonstruktor Antonovning konstruktorlik byurosida izlanishlarini davom ettirdi va Ittifoq miqyosida birinchi bo'lib AN-8 rusumidagi harbiy-transport samolyotlarida tezlatuvchi raketa qurilmasini joriy etish mexanizmini ishlab chiqdi. Moskva oblasti Dolgoprudniy shaharchasidagi mashinasozlik zavodi konstruktorlik byurosida faoliyat olib bordi.

Yetmish yoshidan so'ng H. Sarimsoqov shartli ravishda nafaqaga chiqdi, lekin o'z talabalarining kurs va diplom ishlari himoyasida doimiy ravishda qatnashib, o'zining maslahatlari va yordamini ayamadi.

Hamid Sarimsoqov yetmish besh yoshida Toshkentda vafot etdi. U o'zidan so'ng aviatsiya sanoatiga munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan ko'plab shogirdlar qoldirdi.

**Zebo XOLBOYEVA,**  
*“Shon-sharaf” muzeyi xodimi*



---

---

## Amirali SAIDBEKOV

(1920–1945)

Fargʻonalik Amirali Saidbekov 1939-yili harbiy xizmatga chaqirilib, Sovet–Fin urushida qatnashdi, kichik leytenantlar kursini tamomladi. 83-dengiz piyoda brigadasi 144-dengiz piyoda batalyoni tarkibida rota komandiri sifatida xizmat qildi. Urushda u birinchi kunlardan ishtirok etdi.

Shimoliy Kavkaz fronti 18-armiya 165-alohida oʻqchi brigadasi oʻqchi vzvodi komandiri A. Saidbekov Novorossiysk uchun janglarning old qatorida vzvodga boshchilik qilib, jasorat namunasini koʻrsatdi. Vzvodni 5 marotaba dushman dzotlariga qarshi hujumga olib kirdi. Kichik leytenant A. Saidbekov shaxsan oʻzi 42 nafar fashist askari va ofitserlarini yoʻq qildi, bu jasorati uchun Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi.

1944-yili 25-noyabr kuni 129-gvardiya oʻqchi diviziyasi 325-oʻqchi polki rotasi komandiri, gvardiya katta leytenanti A. Saidbekov Sobranse qishlogʻi atrofida dushmanga yaqinlashib, toʻsatdan hujum uyushtirdi. Jangda 10 ga yaqin gitlerchilarni yoʻq qilib, 2 tasini asir oldi.

Shaxsiy tarkib dastlab Nijniy Grabovetsni, undan soʻng tun qorongʻisidan foydalalanib, Fekishovseni talafotsiz egalladi. Biroq uning oʻzi shu jangda yarador boʻldi, lekin jang maydonini tashlab ketmadi. U bu jasorati uchun II darajali Vatan urushi ordeni bilan mukofotlandi.

1944-yil 23-dekabrda Chexoslovakiya hududidagi janglardan birida A. Saidbekov oʻz rotasini birinchi hujumga olib kirdi. Bu jangda 50 gitlerchi yoʻq qilinib, 4 nafari



asir olindi, 25 avtomat va miltiqlar qoʻlga kiritildi. Keyingi aholi punktida A. Saidbekov rotasi dushmanga toʻsatdan zarba berib, 5 pulemyot, 5 tankka qarshi qurolni oʻlja va 25 askarni asir qilib oldi. Bu jangda ham u yarador boʻldi, ammo safda oxirigacha boʻldi.

1945-yili 10-martida Drogomisl qishlogʻiga hujum uyushtirib, bir qancha uylarni ozod qildi. Toʻrtinchi qarshi hujumni qaytarib, mudofaa doirasini tashkil etdi. Dushman uning rotasini tiriklay olishga ahd qildi. Shunda u vzvodi bilan dushmanga yaqinlashib, uning hujumini oʻziga qabul qildi.

Xavfsiragan yoʻqotishlar boʻlmadi, qaytanga vzvod platsdarmni kengaytirib, qarshi



Все графы заполнять полностью.

126

НАГРАДНОЕ ЛИСТ

1. Фамилия, имя и отчество. Саидбеков. Амиррали
2. Звание. Младший лейтенант. Воинская часть. Командир взвода 3-го отдельного стрелкового батальона 10-й отдельной стрелковой бригады.
3. Представитель от. Армия. Красная Звезда.
4. Год рождения. 1920. 5. Национальность. Узбек. 6. Портковость. Ч.А. АКП(Б).
7. Участие в гражданском воине, послевоенных боевых действиях по защите СССР и Отечества в мирное время /где, когда /с 26.6.41 по 10.9.41. Западная фронт, в. в. 41 по 5.5.42. с. 24. 1942. Сев. фронт. Восточ. фронт. с. 2/4.
8. Имеет ли ранения и контузии в Отечественной войне. Не имеет.
9. О каких наградах в Красной Армии. 19.10.39г.
10. Член РКП (б) /член КПСР. Рабочий Ф.А.К.
11. Чем лично награжден /за какие отличия / Не награжден.
12. Проставить двукратный возраст представляемого к награждению и адрес его семьи.

Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг.

Таварчи Саидбеков в бою за Новороссийск будучи на передовой в первые дни боя командир десанта, показав себя смелым, мужественным и способным командиром Красной Армии. В бою непосредственно на передовой руководил своим взводом, показывая образцы мужества, сразу вел свой взвод в атаку на ДОТы противника. За все время пребывания на передовой лично уничтожил 49 вражеских солдат и офицеров.

Командир 30СБ-на  
 капитан  
 [Подпись]  
 " 9 " Января 1941 г.

A. Saidbekovni Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi

И Д Р А Д И О Н А С Т

1. Чина, имя и отчество - С А И Д Б Е К О В Амирли
2. Звание - гвардии старший лейтенант, чин - командир отряда  
КОВОЙ РОТЫ 025 Гвардейского стрелкового Краснознаменного полка 125  
Гвардейской стрелковой - иттирокой фронтальной бригады
3. Представлен к награде отчеством - ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА ВТОРОЙ МИРА
4. Год рождения - 1920 О. Имя отчества - Темиж
5. Партизанство - член КП/О/ с 1942 года
6. Участие в Отечественной войне - с 28.6.1941 года, - чин, центральные:  
Сталинградский, Воронежский, 1-й и 4-й Украинские фронты
7. Имеет ли ранения и контузы в Отечественной войне - ранен 28.6.1941 г.,  
12.8.1942 г., 1.1.1943 г., 28.9.43 г., 25.11.1944 года и эвакуир. в ШИ
8. С какого времени в арестован Арали - с 10.10.1944 года
9. Каким Р.А. призван - в авиационный Р.А.
10. Чем ранее награжден - "ОРАДН. СВ.", пр. 18 А и 05/н, 6.5.43 г., орд.  
"Отеч. война 1 степен.", пр. 18 А и 26/н от 20.4.1943 года
11. Источником доблестной жизни подполковника и награждения или это дело

1. Описание доблестной жизни подполковника и награждения или это дело

Умело управляя ротой в бою, добивался победы над противником, чем способствовал выполнению поставленной боевой задачи полком.

25.11.1944 года в районе с. Обзрянце, столкнувшись с противником - внезапно начал на него и овладел зап. окраиной. При этом лично уничтожил до 10 гитлеровцев и 2-х взял в плен.

Водушевляя своим личным состав своим примером, увлекал их за собой и преследуя неотступно врага занял с. Пальми Гробовец.

25.11.1944 года осуществив маневр и использовав темноту ночи, без потерь в личном составе овладел окраиной с. Факшиовце. В этом бою она ранен, но с поля боя не ушел до окончания операции.

Этим правительством военной награды орденом "ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА ВТОРОЙ СТЕПЕНИ"



Командир роты  
125 ГВАРДЕЙСКОГО СТРЕЛКОВОГО  
ПОЛКА  
1-й ГВАРДЕЙСКОГО КОРПУСА  
ВРАТА И ВЕНОР

*Рату*

= АИРСВИНО =

1.12.1944 года

A. Saidbekovni Vatan urushi ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

1. Фамилия, имя и отчество САИДБЕКОВ Александр
2. Звание Гражданский старший лейтенант Должность командир 2 отрядковой роты  
Гвардейского Стрелкового (дальнобойного) Станов Суворова и Гордана  
Хмельницкого Полка 129 Гвардейской Стрелковой дитомитской Краснознаменной  
Дивизии
- Представляется к награде  орденом "КРАСНОЕ ЗНАМО"
4. Год рождения 1920 года 5. Национальность Таджик
6. Партийность Член ВКП/С/ с 1942 года 7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и Отечественной войне (где, когда) \_\_\_\_\_  
с 23.6.1941 года. Отвигградский, -го-именный, Северо-кавказский,  
1 и 4 Украинские фронты
8. Имеет ли ранения или контузии в Отечественной войне Ранен 23.6.1941 г, 12.8.41 года  
1.1.42 г, 28.9.42 г, 25.11.44 года  попадает в плен
9. С какого времени в Красной Армии с 10.10.1938 года
10. Каким РВК призван Введенский РВК
11. Чем награжден (за какие отличия) орден "Отечественной войны I ст." пр. 13 Армии  
ОВ/н от 22.4.1942 года, орденом "КРАСНОЕ ЗНАМО" пр. 13 Армии 05/н от  
6.5.1942 года Отечественной войны 2 ст. пр. 053/н. Д.12.УУ.187 сс.
12. Постоянный домашний адрес представляемого и награждаемого и адрес его семьи \_\_\_\_\_

### Краткое, конкретное изложение личного подвига или заслуг

Проявил мужество и отвагу в боях с 10 по 12.8.1941 года, нанес врагу большие потери в живой силе и технике.

10 августа 1941 года вел свою роту умело и решительно воевая первым на октаину с. Дрогомысль и навязав бой превосходящим силами врага освободил несколько домов. Удерживая занятые рубежи отбил 4 контратаки, отступив, обтекал роту - угрожал полным окружением. Несмотря на это тов. САИДБЕКОВ организовал умело круговую оборону и удерживал свои позиции.

Противник в течении суток подбрасывал свежие и превосходящие силы с целью захватить живыми роту. Несл большие потери, в течении суток яростно кидался в контратаки.

Взяв завод решил обмануть противника и обходясь с ним принял весь огонь на себя, чем обеспечил успешные действия остальных. Опасаясь напрасных потерь в личном составе - все больше таскал пушчари и перешел на противоположную улицу, обманув тем самым неприятеля, который весь огонь артиллерии и минометов направил на прежнюю оборону роты. Не встречая сопротивления группа гитлеровцев пустовась в дома. Умело обогав их подвезв ена-запному нападению и захватили 10 пленных. Остальные бежали, на поле боя осталось до 21 гитлеровца убитыми.

К исходу дня прорвал кольцо врага и вышел с малыми потерями в расположение наших подразделений.

За сутки боя ротой уничтожены свыше 100 гитлеровцев и захвачены 10 плен-ных, которые были доставлены в штаблон.

Достоин Правительственной награды орденом "КРАСНОЕ ЗНАМО".

КОМАНДИР 225 ГВАРДЕЙСКОГО СТРЕЛКОВОГО  
КРАСНОЗНАМЕННОГО ОРДЕНОВ СУВОРОВА И  
ГОРДАНА ХМЕЛЬНИЦКОГО ПОЛКА  
ГВАРДИИ, МАЙОР = АЛЕКСЕВКО =

№ 1076  
21 3 '45

(Подпись)  
21.8.45

A. Saidbekovni Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



гер. совет

Вх. № 98243  
24.06  
78

Все графы заполнять полностью

## НАГРАДНОЙ ЛИСТ

ПОСМЕРТНО

36.08.1945

22.1.45

1. Фамилия, имя и отчество **САИДБЕКОВ Амир-Али**
2. Звание **Гвардии старш. лейтенанта**, должность **командир стрелковой роты 225 Гвардейского Стрелкового Краснознаменного Орденов Суворова и Богдана Хмельницкого Полка 124 Гвардейской Стрелковой Автомобильной Краснознаменной Дивизии**

Представляется к присвоению звания **«ГЕРОЯ СОВЕТСКОГО СОЛДАТА»** - **ПОСМЕРТНО**.

4. Год рождения **1920** 5. Национальность **Таджик**
6. Партийность **член ВЛКСМ с 1942 г.** 7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и Отечественной войне (где, когда) **с 23.6.1941 года. Аджар, Занкавский, Северо-Авхазский, 1 и 4 Украинские Фронта**
8. Имеет ли ранения или контузии в Отечественной войне **ранен 28.8.1941 г., 14.8.1941 г., 1.1.1942 г., 28.9.1943 г., 25.11.1944 г., ранен 8.4.1945 года и умер от ран.**
9. С какого времени в Красной Армии **с 10.10.1939 года**
10. Каким РВК призван **Львовским РВК.**
11. Чем награжден (за какие отличия) **орден «РОСНА ЗВЕЗДА» пр. 18 Армии, № 05/н от 6.6.1943 г., орден «ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА 1 СТЕПЕНИ» приказ 18 Армии № 08/н от 23.4.1943 г., орден «ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ВОЙНА 2 СТЕПЕНИ» пр. 107 Сд № 05/н от 11.12.1944 г., орд. «ОТЕЧ. ВОЙНА 2 СТ.» пр. 1 Гв. Армии № 029/н 10.2.45 г.**
12. Постоянный домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи

*Краткое, конкретное изложение личного подвига или заслуг*

Тов. САИДБЕКОВ в наступательных боях с немецкими оккупантами проявил подлинный героизм, смелость и решительность, беспредельную преданность Родине. Образцово исполняя долг перед Родиной, не считался ни с чем, подвергаясь опасности, личным примером воодушевлял бойцов и офицеров на беспримерные подвиги.

На пути его существовали преграды, во имя общего дела, во имя Родины - он умело и легко преодолевал все преграды, добиваясь победы над врагом с минимальными потерями в личном составе.

23.12.1944 года в районе с. Собрание первым поднял свою роту в атаку, вклинился в оборону противника, умело расширил плацдарм. Отбивая контратаки численно-превосходящего противника, смелым его сопротивление и ворвался в село Собрание. Предприняв смелый маневр, обходя врага с тыла и с ходу ворвался в с. Фешкино, отрезал группу противника. Отбивая простые контратаки, удерживал захваченные рубежи до подхода остальных подразделений и совместными ударами уничтожили ее. Его рота истребила до 50 гитлеровцев, взял 4-х пленных, захватил 5 ружий, 25 винтовок и автоматов, 8 окладов боеприпасов.

В районе с. Гнойно с наступлением темноты, преодолел болотистые места и зашел врагу в тыл и ударил внезапно с двух сторон. Используя тактику внезапности быстро овладел сев.-зап. окраиной, захватил 5 пулеметов, 15 пленных и 2 противотанковых орудий. Вудучи ранен - оставался в строю до выполнения поставленной задачи. 8.3.1945 года в районе с. Дрогомысль противник, укрепив свою оборону, оказывал сильное сопротивление. Обстреливая и приотреляя всю территорию - не давал возможности головы поднять.

Все каменные здания были приспособлены под пулеметные точки, что отрицательно отражалось на успехе в наступлении. Отсутствие дорог, обширные болотистые места - не давали возможности маневрировать артиллерии, ограничивало ее действие, почему продуктивность действий Плана и вся тяжесть боев перешла на пехоту.

/см. на обороте /.

A. Saidbekov Sovet Ittifoqi Qahramoni  
unvoniga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



tomondagi ko'chaga o'tib oldi. Dushman esa artilleriya va minomyotlar olovini rotaning avvalgi mudofaasiga yo'llayotgan edi. 10 ta fashist asir olindi, 21 tasining murdasi jang maydonida qoldi. Kun oxirida vzvod dushman halqasini yorib o'tdi.

Bu jangdagi jasorati uchun A. Saidbekov Aleksandr Nevskiy ordeniga loyiq deb topildi.

29-mart – 4-aprel kunlari uning rotasi dushmanning ko'plab askarlarini yo'q qilib, ularning texnikasini qo'lga kiritgan holda, Polshaning bir qancha aholi punktlarini ozod qildi. Pruxne temiryo'l stansiyasida rota dushmanni qurshab olib, ko'plab asirlarni qo'lga tushirdi.

8-aprel kuni Roguv, Dombrova aholi punktlari hududida dushmanning bir nechta hujumi qaytarildi. Shu jangda gvardiya katta leytenanti Amirali Saidbekov halok bo'ldi. U Polshaning Ribnik shahridagi harbiy qabristonda dafn etildi.

1945-yil 29-iyunda A. Saidbekovga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

Qahramon o'g'lonning haykali G'alaba bog'i yodgorlik majmuasidagi "Mangu jasorat" monumentida qad rostlab turibdi.

**Shuhrat YUSUPOV,**  
*polkovnik*



---

---

## Karim SULTONOV

(1924–1945)



Karim Sultonov o'n yetti yoshga to'lishi bilan o'z ixtiyoriga ko'ra frontga ketmoqchi ekanini ma'lum qiladi va Farg'ona viloyati Kuybishev tumanidan 1942-yil 26-avgustda harbiy xizmatga chaqiriladi. Juda qisqa vaqt ichida serjant Karim Sultonov 155-gvardiya o'qchi polkining 1-o'qchi rotasida jangovar va siyosiy tayyorgarlikni a'lo darajada o'tadi.

52-gvardiya o'qchi diviziyasi bo'lim boshlig'i, polkovnik V. Garyunov o'zining navbatdagi hisobotlaridan birida *“Karim Sultonovning jang maydonlarida quroldoshlarini qo'llashi va ularning olg'a borishlariga ko'maklashishi”* haqida aytib o'tadi.

Darhaqiqat, Karim Sultonov 1945-yilning 4-martida Polshaning Revenkale qishlog'i yaqinida kechgan jang paytida e'ti-

bordan chetda qolgan dushman pulemyoti rotaning oldinga siljish qanotida turganini va safdoshlari uchun katta xavf tug'dirishi mumkinligini payqaydi.

Revenkale qishlog'iga hujum paytida rota oldida ikkita minalar maydoni va pulemyot nuqtalari bor edi. Karim Sultonov pulemyotlarning birini yo'q qilish maqsadida mo'ljalga olib ota boshlaydi. Dushman pulemyotchilari javob o'ti ochadi va Karim Sultonov yarador bo'ladi.

Jangchi o'zining bor so'nggi kuchini to'p-lab, jarohatning og'rig'iga chidab, oldinga bir necha qadam tashlaydi va o'zi bilan dushman pulemyotini yopadi. Bir oz muddatga pulemyotning ovozi tinadi hamda bu – quroldosh do'stlari uchun dushman pozitsiyasini talafotsiz, qo'l jangi bilan egalashiga imkon beradi. Vatandoshimizning ko'rsatgan jasorati qisqa muddatda butun batalyonga ma'lum bo'ladi.

1-Belorussiya fronti 3-zarbdor armiyasi frontlari va vzvodlarida K. Sultonov o'limi uchun qasos olishga chorlovchi chiqishlar o'tkazildi. Gvardiyachilar o'z so'zlarida turdilar. Frayenvalde (hozirgi Xotsivel) shahri uchun kechgan janglarda 1-o'qchi rotasi shaharni butunlay qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

G'alaba bog'i yodgorlik majmuasiga Karim Sultonovning jiyani, hozirda Sirdaryo viloyatida yashayotgan Abduqodir Sultonov vatandoshimiz haqida ma'lumotlarga aniqlik kiritish bo'yicha murojaat qildi. Vatandoshimizga oid ma'lumotlarni

К. С. С. О. М. О. Ч.

Посмертно

НАГРАДНОЙ ЛИСТ.

1. ФАМИЛИЯ, ИМЯ, ОТЧЕСТВО: Султанов Карим Славович.  
2. ЗВАНИЕ: Гвардии Сержант. 3. ДОЛЖНОСТЬ, ЧАСТЬ: Командир  
Стрелкового взвода 155 Гвардейского Стрелкового Померанского полка,  
32 Гвардейской Стрелковой Дивизии - Берлинской Орденов Ленина, Суворова и  
Кутузова Дивизии.

ПРЕДСТАВЛЯЕТСЯ К Герою советского союза "Коммерт"

- 4. ГОД РОЖДЕНИЯ: 1924 года
- 5. НАЦИОНАЛЬНОСТЬ: Узбек
- 6. ПАРТИННОСТЬ: кандидат в члены ВКП(б) с 1944 года.
- 7. УЧАСТИЕ В ГРАЖДАНСКОЙ ВОЙНЕ И В ПОСЛЕДУЮЩИХ ВОЙНАХ ДЕЙСТВИЯ ПО ЗАЛИТЕ СССР.  
в гражданской войне не участвовал в Отечественной войне с 10.01.43.
- 8. ЕСТЬ ЛИ РАНЕНИЯ И КОНТУЗИИ: Тяжело ранен 21.01.43, Тяжело ранен 7.07.44 года.
- 9. С КАКОГО ВРЕМЕНИ В АРМИИ: с 6 сентября 1941 года.
- 10. КАКИМ ТЫМ ПРИЗВАН: Кандидатом в члены ВКП(б), Узбекской сою.
- 11. ЧЕМ РАНЕЕ НАГРАЖДЕН: Медалью "За отвагу", Медалью "За боевые заслуги"

12. ПОСТОЯННЫЙ ДОМАШНИЙ АДРЕС ПРЕДСТАВЛЯЕМОГО К НАГРАЖДЕНИЮ, ВЛИКАЮЩИЕ РОДСТВЕННИКИ И ИХ ДОМАШНИЙ АДРЕС МЕСТОЖИТЕЛЬСТВО.

КРАТКОЕ, КОНКРЕТНОЕ СОБЕРЕНИЕ Личного подвига или заслуг.

Во время наступательных боев за овладение городом Френсвальде - 1<sup>й</sup> Стрелковая рота, в районе Ревенкеле встретили ожесточенное сопротивление противника, имеющего здесь выгодный рубеж обороны. Основные точки противника, буквально поливая свинцом боевые порядки роты, срывая этим маневры, успех наступления. Особенно прижимая роту огонь прорывающего пулемета противника, место нахождения которого заметил командир отделения 3<sup>го</sup> стрелкового взвода - коммунист Султанов Карим Славович. т. Султанов, получив разрешение командира со своим отделением уничтожить пулеметный расчет находящийся на фланге, как и пробирался к взлету противника и стремительным рывком захватил амбразуру пулемета своей грудью, заставив пулемет замолчать.

Своим самопожертвованием, за счет сохранения жизни товарищей Султанов Карим дал возможность роты овладеть Ревенкеле и вернуться в Френсвальде с потерей роты 10 человек, из них 6 человек раненых.

ДОСТОИН. Карим Славович Султанов  
КОМАНДИР 155 ГВ. СТРЕЛКОВОГО ПОЛКА ГВАРДИИ ПОДПОЛКОВНИК: М. Ю. Козаев  
" 20 " И Ю Л Я 1945 года.



K. Sultonovni mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



ЗАКЛЮЧЕНИЕ СТАРШИХ НАЧАЛЬНИКОВ

Достоин присвоения звания "ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА"



КОМАНДИР 3-й ГВ. СТР. РИМСКО-БЕРЛИНСКОГО ОРДЕНОВ  
ДЕННИА, СМОЛОРОВА И КУТУЗОВА ДИВИЗИИ  
ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА ГВ. ГЕНЕРАЛ-МАJOR

/КОЗЛЫН/

*Козлин*

"25" июля 1945 года.

Достоин присвоения звания "ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА" ~~Посмертно.~~

*Награжден посмертно. Офицерский состав 12 Гв. СР.*

КОМАНДИР 12 ГВАРДЕЙСКОГО СРЕЛКОВОГО  
КРАСНОЗНАМЕННОГО КОРПУСА ГЕРОЙ СОВЕТСКОГО СОЮЗА  
ГВАРДИИ ГЕНЕРАЛ-ЛЕЙТЕНАНТ  
/ТРИГОРЬЕВСКИЙ/

*Тригорьевский*

"3" августа 1945 года

Приказом 12 гв. СКК № 050/Н от 8. августа 1945 года  
Награжден Орденом Отечественной Войны Первой Степени

Начальник ОК 12 ГВ СКК  
Гвардия Мажор *Исичев*

"9" августа 1945 года



to'plash jarayonida gvardiya serjanti Karim Sultonov 1945-yil 20-iyulda polk tomonidan Sovet Ittifoqi Qahramoni mukofotiga tavsiya etilgani hamda 1945-yil 8-avgustdagi buyruq bilan I darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlangani aniqlandi.

Shuningdek, jangchining yaqinlariga mazkur orden topshirilmagani ham ma'lum bo'ldi. Shu munosabat bilan "Shon-sharaf" davlat muzeyi tomonidan Karim Sultonov ordeni bo'yicha Rossiya Federatsiyasi Mu-

dofaa vazirligi Markaziy arxiviga so'rov yuborilishi rejalashtirildi.

Albatta, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi, esdan chiqadi. Lekin bu yorug' dunyoda ulug' bir haqiqat bor, u hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Ya'ni Vatan va xalq ozodligi, kelgusi avlodlarning baxt-u saodati yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot yashaydi.

**Barno ISAXOVA,**  
*"Shon-sharaf" muzeyi xodimi*



---

---

## Hasan SHAHOBOV

(1920–1995)



Namangan viloyatining Chust tumani Varzik qishlog'ida tug'ilgan Hasan Shahobov 1940-yili harbiy xizmatga chaqirildi. U harbiy xizmatni Tambov (Rossiya) viloyati Morshansk shahrida 488-korpusli artilleriya polkida boshlagan edi. Dahshatli urush e'lon qilinganidan so'ng, 29-armiyaning 644-korpusli artilleriya polkida xizmat qildi. Bu polk Klin va poytaxt Moskvani mudofaa qilar edi.

Bu davrda tirishqoq askar Tambov shahri yaqinidagi harbiy komandirlar kursida o'qidi va serjant unvonini oldi. Boshlangan urush esa yigitni chinakam harbiy sifatida ikki karra sinovdan o'tkazdi. Frontning oldingi saflarida jang olib borgan H. Shahobov

Berlingacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi.

1943-yilda u 15-artilleriya brigadasining 685-yengil artilleriya polkida G'arbiy front bo'ylab urushda qatnashdi. O'sha yili 1-Ukraina frontiga o'tkazilgan ushbu diviziyaning vazifasi Jitomir shahrini dushmanlardan ozod etish edi.

Belgilangan vazifa muvaffaqiyatli ado etilgach, qirg'inbarot olishuvlarda jasorat, mardlik ko'rsatganlar qatorida H. Shahobov ham Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlandi.

1944-yilning may oyida Polsha chegarasi bo'ylab urushni davom ettirdi. Peremishl, Jeshuv, Tarnuv va Vrotslav kabi shaharlar, umuman, Polshaning barcha hududini dushmandan ozod etishda qatnashdi. Bu jang maydonidagi qahramonligi tufayli Hasan Shahobovga 1944-yilning noyabr oyida ikkinchi marotaba Qizil Yulduz ordeni va katta leytenant unvoni berildi.

1945-yilning yanvar oyida jangchilar Germaniya chegarasi bo'ylab urushdi. Nihoyat, urush Germaniyaning o'zida ham davom etdi. Dushman har bir qarich yer uchun tinmay o'q uzar, ammo mard o'g'lonlar ham bo'sh kelmay, mudofaani yorib o'tar edi. Shu tariqa dastlab Germaniyaning Drezden shahri egallandi. Shuning barobarida dushmanning yo'lini to'sib, ular hujum qilmasligi uchun samarali choralar ko'rilar edi.

Shiddatli jangda batareya komandiri, katta leytenant Belov qattiq yaralandi va bu muhim vazifa Hasan Shahobovga topshirildi. U vazifaning uddasidan chiqish uchun bor





kuch-g'ayratini sarfladi. G'animga tinmay o'q uzildi, birorta dushman tanki o'tishiga yo'l qo'yilmadi. Dushman chekinishga majbur bo'ldi. Urush vaqtida H. Shahobov ikki marta yaralanib, davolandi. Mardligi, namunali va fidokorona sa'y-harakatlari uchun Hasan Shahobov II darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi.

Urush tugadi, katta leytenant H. Shahobov ona yurtiga qaytdi va xizmatni harbiy okrugda davom ettirdi. Keyin Namangan pedagogika instituti (hozirgi Namangan davlat universiteti) Tarix fakultetini bitirib, pedagog sifatida yoshlarga saboq berdi. Qator mas'ul

lavozimlarda uzoq yillar halol mehnat qildi. Turmush o'rtog'i bilan o'n nafar farzandni voyaga yetkazib, el koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyaladi.

Hozir Hasan Shahobovning yuz nafardan ziyod nevara va chevaralari turli sohalarda mehnat qilmoqda. Ko'plab nevaralar harbiy va huquqni muhofaza qilish idoralarida faoliyat yuritmoqda. Uning shijoati, qahramonligi bugun shogirdlari, farzand-u nabiralari, yurtdoshlari qalbida abadiy saqlanmoqda.

Zotan, insoniyatni fashizm zulmidan xalos etgan qahramonlar nomi va jasorati abadiydir.

**Dilshod RO'ZIQULOV,**  
*jurnalist*



## Davron NORMATOV

(1922–2004)

Bobom Davron Normatov 1922-yilning 15-avgustida hozirgi Navoiy viloyatining Navbahor tumanida tavallud topdi.

Uning ayni navqiron yoshida urush boshlanib, tengdoshlari qatori harbiy tayyorgarlikdan o'tdi. D. Normatov 1942-yilning 5-mayida 693-polk batalyon o'qchisi sifatida jangga kirdi.

1943-yilda uning otasi Normat Ernazarov ham Chelyabinskda o'q-dori zavodiga ishga jo'natildi.

*“Dushman urushga puxta tayyorgarlik ko'rib kirishgan. Ular shu darajada shafqatsizlik ko'rsatardiki, ularni ko'rib qahri qattiq insonga aylanib qolganimizni bilmay qolardik, – deya xotiralarini bayon etgandi bobom. – Dushman bir qishloqda hamma odamlarni otib o'ldirib, katta chuqur qazib, tank bilan bosib tashlagandi.*

*Eng dahshatlisi, ba'zi uylarni vayron qilib, mahalliy aholini tiriklayin devorga qoqib ketganlariga ham guvoh bo'lganmiz. Bunday holatni ko'rganimizda, fashistlarga nafratimiz chek-chegarasi bo'lmasdi. Har bir qarich tuprog'imiz uchun ulardan qasos olishga harakat qilardik. Biz doim ortga yo'l yo'q, faqat olg'a qadam bosish kerak, degan shior bilan jang qilardik.*

*Hech qachon avtomobillarda harakat qilmaganmiz, daryo, tog'-u toshlar, o'rmonlar kechib jang qilganmiz. Frontda fashistlarning ustida shinel, oyog'ida esa charm etik. Bizda qalin po'stin, oyog'imizda valenka, boshimizda telpak bo'lgan. Gitlerchilar kiygan kiyimlar ularni Rossiyaning izg'irinli sovug'idan saqlay*



*olmasdi. Izg'irin kunlarda qor tagiga kirib jon saqlardik. Chanqaganimizda kaftimizda qorni eritib ichardik, och qolsak, bir-birimizga bir burda nonni ilinardik.*

*Urushda odamzod har narsaga chidarkan. Ko'chalar bo'm-bo'sh, do'konlarda faqat shakar qolgan, noiloj telpagimizni shakarga to'ldirib, ochlikdan shakar yerdik. Och qoringa shakar yegan odam qaltiraydi, shakar odamning kuchini olib qo'yardi.*

*Qonli urush vaqtida ko'zim ilinganida tush ko'rganman. Tushimda oppoq kiyingan chol va kampir menga bir xum sut va ikkita non bergan. Uyg'ongach, o'zimni qorni to'qdek his qilib, go'yo kuchga to'lgandek jang maydoniga otlangandim.*



# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

253

- 1. Фамилия, имя и отчество Н А Р М А Т О В Д А Ъ Р А Н
- 2. Звание Красноармеец 3. Должность, часть Телефонист 3-й роты 1074
- Стрелкового Выборгского полка 314 Стрелковой Кингисеппской дивизии.
- Представляется ордену "КРАСНАЯ ЗВЕЗДА".
- 4. Год рождения 1927 г. 5. Национальность Узбек 6. Партийность беспартийный.
- 7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и отечественной войне (содержать) в отечественной войне с 1942 г.
- 8. Имеет ли ранения и контузии в отечественной войне РЖСН 25.8.42 г. 17.7.43г. 2.2.44г.
- 9. С какого времени в Красной Армии с 1942 г. 10. Каком РВК призван Карманским РВК, Бухарской области.
- 11. Чем ранее награжден (за какие отличия) медаль "за оборону Ленинграда" медаль "за отвагу" август 1944 г.
- 12. Постоянный домашний адрес представляемого и награжденного и адрес его семьи \_\_\_\_\_

## I. Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг

Во время боевых действий полка в районе Тарханы 30.3.45 г. Нарматов исключительно образцово обеспечил телефонной связью КП роты с КП батальоном. Под огнем противника в течении дня устоял 9 порывов и повреждений линии, тем самым способствовал общему успеху боя. За образцовое обеспечение телефонной связью в бою достоин награждения орденом "КРАСНАЯ ЗВЕЗДА".

КОМАНДИР 1074 СТРЕЛКОВОГО ВЫБОРГСКОГО ПОЛКА  
ПОДПОЛКОВНИК Мажосиф ТАРАСОВ

"9" апреля 1945 г.



*D. Normatov mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*

ЭВАКУАЦИОННЫЙ  
 БОСПИТАЛЬ № 1503

Кр. № 1242 с.п.  
 Норматов Давранш

23 окт. 1942  
 № 10/30

Гос. Д. Норматов Д.

29/10/42 22 октября  
 по поводу (писать по-русски) Краевого осколка  
 лобного перелома головы лезвием  
 ножа и нагноения менингеальной  
 оболочки, после огнестрельного  
 ранения лобной конечности.

Народный Комиссариат  
 Общественного Здравоохранения

Справка о ранении

В боях за Советскую Родину \_\_\_\_\_

Кр. № 1242 с.п.  
(Золотое Знамя Пожароопасности)

Гос. Норматову Давраншу  
(фамилия или отчество)

17/10/1942 г. был тяжело  
(тяжело, легко)  
 ранен осколком лезвия ножа и менингеальной оболочкой лобной конечности.  
(диагноз ранения)

Начальник госпит. (подпись)  
 Врач 2 ранга (подпись)

Зам. нач. госпиталя по  
 (подпись) По должности капитан (Гейзер)

D. Normatov yaradorligiga oid hujjatlar

1943-yil razvedkada fashistlarning shtab boshlig'ini qo'lga tushirdim va "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlandim. Ko'p nemislar rus tilini bilishardi.

Bir kuni qiziq voqea bo'ldi. Sovet askari kiyimini kiygan uch nafar fashist, biz sizlarning odamingiz, chegaradan o'tkazinglar, deganida, men dushman nayrangini payqab qolib, ulardan maxfiy kodni so'radim. Nemis javob berolmagach, fashistlarga qarata o'q uzdim. Ana shu hushyorligim uchun meni ikkinchi marta taqdirlashdi.

Janglarda uch marta, ikki oyog'im va bir qo'limdan yaralandim. O'ng oyog'imdan yaralanganda, hushsiz holda qorda qolib ketganman. Oyog'imdan sizib chiqayotgan qon etigimda muzlab qolgan, yordamchi kuchlar bizni topib olib qutqarishgan.

Bolgariyaning Sofiya shahri gospitalida hayotimni va oyog'imni saqlab qolishgan. Tuzalgandan so'ng yana jangga kirib ketdim. Bu shahar qalbimdan o'chmas joy olgan, shuning uchun qizlarimdan biriga shu shahar sharafiga Sofiya deb ism qo'ydik.

Og'ir qonli urushdan so'ng, nihoyat, 1945-yil 9-may kuni g'alaba haqidagi xushxabar tarqaldi. Yuragimiz quvonchdan, hayajondan to'lib-toshgan, Vatanimiz, uyimizga qaytish istagidan quvonchimiz cheksiz edi.

Afsuski, urushda navqiron yoshida juvonnarg bo'lgan ko'p do'stlarimiz g'alaba kunini ko'ra olmadi. Ularning ham yashashga haqqi bor edi.

1945-yil 25-mayda uyga qaytsam, onam va fot etganlariga 40 kun bo'lgan ekan. Onamdan judo bo'lgach, bor umidim bilan Chelyabinsk dagi o'q-dori zavodiga ishga jo'natilgan otamni kutdim. Afsuski, 1946-yilda otamning vafot etib, o'sha yerda dafn etilgani to'g'risida xat keldi.

Ota-ona sog'inchini qalqon qilib, jangga kirsang-u, g'alaba qozonganda ota-onangni boy bersang, og'ir botarkan. Birortasining ham ta'zijasida qatnasha olmasang, farzand bo'lib tobutini ko'tarolmasang, alam qilarkan.

Buning ustiga, yolg'iz o'g'ilman, ota-onamdan yodgorim yo'q. Bu men uchun juda katta yo'qotish edi..."

Urushdan so'ng bobom bir muddat ikki oyog'ini bosolmay, uydan chiqolmay qolgan. Oyoqqa turgunlaricha, qo'ni-qo'shnilari yordam qilishgan. Sekin-asta tuzalib, faol hayotga qaytgan.

U kishi 1948-yildan boshlab jamoa xo'jaligida brigadir bo'lib ishlagan. Robiya momom bilan birga besh nafar o'g'il va besh nafar qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi.

Biz avlodlar mana shunday mard va dovyurak bobolarimiz bilan hamisha faxrlanib yashaymiz.

**Nafisa AHMEDOVA,**  
Davron Normatovning nevarasi



---

---

## Tursunboy RO‘ZIBOYEV

(1922–1998)

“Vatan sharafi uchun” front gazetasining 1944-yil 1-iyunda chop etilgan 42-sonida dushmanga qarshi janglarda jangovorlik namunalarini ko‘rsatgan Tursunboy Ro‘ziboyev haqida ocherk berilgan. Kapitan T. Soatov qalamiga mansub ushbu maqoladan ayrim parchalar keltiramiz:

*“Vatan urushining birinchi kunidan buyon nemis-fashist kallakesarlariga qarshi mardona kurashayotgan Ro‘ziboyevning o‘ng ko‘kragiga ikkinchi darajali Vatan urushi ordeni, Qizil Yulduz ordeni, gvardiya nishoni, chap ko‘kragida esa “Jasurligi uchun” va “Jangovar xizmatlari uchun” medallari tovlanib turibdi...*

*Ro‘ziboyev yaqinda bo‘lib o‘tgan g‘olibona hujum janglarida ham hammani qoyil qoldiradigan jasorat namunalarini qayta-qayta namoyish qildi. Chekinayotgan nemislarni orqama-orqa quvib borayotgan eskadron bir kun qismdan ajralib, ancha mushkul ahvolga tushib qoldi. Eskadron bilan aloqa o‘rnatish oson emas edi. Chunki eskadronga boraverishda o‘qqa tutilmayotgan bir metr ham xatarsiz joy yo‘q edi...*

*Yuzlab ko‘zlar bag‘rini yerga berib ilgari siljiyotgan yigitga boqdi. Uning yon-verida, tepasida o‘qlar vizilladi. Lekin u o‘limni pisand qilmay ilgari siljib bordi. U faqat haddan tashqari toliqqandagina bir daqiqa nafasini rostlab olar va yana olg‘a bosar edi. U 800 metrlik masofani mana shu tarzda bosib o‘tdi. Gimnastyorkasining yengida, shimining tizza ko‘zida titilmagan joyi qolmadi. Qo‘lining barmoqlaridan tirqirab qon oqdi. Biroq Ro‘ziboyev bularning birontasiga ham e‘tibor qilmas edi. U o‘z*



*oldiga qo‘yilgan eng mas‘uliyatli topshiriqni sharaf bilan bajarganiga xursand edi”.*

Tursunboy Ro‘ziboyev 1922-yili Namanagan viloyati Uychi tumani Qizilravot qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. 1937-yilda shu qishloqdagi 5-maktabni bitirdi, Namanagan shahridagi Tibbiyot ishchi fakultetida tahsil olib, 1940-yili tamomladi. O‘sha yili ko‘ngilli ravishda armiya safiga qabul qilindi.

U 1940-yilning oktabridan 1941-yil fevraligacha Orlov harbiy okrugidagi 10-g‘arbiy otliq polkida xizmat o‘tadi. 1941-yilning fevralidan iyuliga qadar Kursk shahrida har-



biy siyosiy o'qishda bo'ldi. 1941–1942-yillarda Bryansk frontidagi 29-otliq diviziya bo'limida, 1942–1943-yillarda G'arbiy front 48-gvardiya otliq diviziyasida xizmat qildi, Bryansk, Kursk, Tula shaharlari mudofaasida qatnashdi. Shundan so'ng, 1-Ukraina fronti, 13-gvardiya otliq diviziya, 141-maxsus artilleriya polki safida bo'lib, Ukraina, Polsha, Ruminiya, Vengriyani ozod qilishda ishtirok etdi.

T. Ro'ziboyev 1946-yil iyulida harbiy xizmatdan bo'shagach, Namangan va Andijon viloyatlarida, respublika miqyosida turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bordi. Xususan, Andijon va Namangan shaharlari partiya komitetlarining birinchi kotibi, yangi tashkil topgan Namangan viloyati ijroiya komiteti raisi o'rinbosari, Namangan viloyat partiya komiteti sekretari vazifalarida ishladi. Faoliyati davomida ko'plab orden va medal-



1944-yilning dekabridan 1945-yil yanvarigacha Leningrad shahrida Oliy ofitserlar artilleriya maktabida o'qidi. O'qishni bitirgach, Turkiston Harbiy okrugi 220-alohida artilleriya polkida xizmatni davom ettirdi.

Jasur yurtdoshimizga 1942-yilning 6-noyabrida katta leytenant, keyinchalik polkovnik harbiy unvonlari berildi.

U 1943-yili yarador bo'lgan va 2-guruh urush nogironi edi.

lar bilan taqdirlandi. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan mukofotlandi.

T. Ro'ziboyev 1948–1950-yillarda Toshkent davlat pedagogika institutining Tarix fakultetida ham tahsil olgan edi. U sobiq Ittifoq Jurnalistlar uyushmasi a'zosi bo'lib, ko'plab gazeta va jurnallarda maqolalar e'lon qildi. Uning "Otalari jasorati" nomli kitobi Toshkent va Moskvada chop etildi.



Turmush o'rtog'i – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Tursunoy Hamidova bilan ikki farzandni tarbiyaladi.

Urush va mehnat faxriysi, xalqimizning ardoqli farzandi Tursunboy Ro'ziboyev Namangan shahrida 76 yoshida vafot etdi.

Ajoyib tashkilotchi, yetuk rahbar Tursunboy Ro'ziboyevning xotirasi avlodlar qalbida hamisha saqlanib qolajak.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**  
*tarix fanlari doktori, professor*



---

---

## Urayimjon SOTVOLDIYEV

(1920–1996)



Andijonlik Urayimjon Sotvoldiyev 1940-yilning sentabrida armiyaga o'tlanib, Ukrainada joylashgan 55-temiryo'l polkida xizmat qilayotgan bir paytda, mash'um urush boshlanadi. U. Sotvoldiyev o'z safdoshlari bilan frontga safarbar etiladi va Moskva ostonalarida, Smolensk yerlarida, Belorusiya va Ukrainada bo'lgan janglarda qatnashadi.

U 1944-yili 274-o'qchi Yartsevskiy diviziyasining 965-o'qchi polki tarkibida jangovar do'stlari bilan G'arbiy Bug daryosini kechib o'tdi. Navbatda Visla daryosi turardi.

30-iyul kuni u Polshaning Zvolen shahri janubi-sharqida joylashgan Gnezdkuv qish-

log'iga birinchilar qatorida kirib, bir necha fashistlarni yo'q qildi. U. Sotvoldiyevning qishloqni egallashdagi qahramonligi hisobga olinib, "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlandi.

Visla daryosini kechib o'tish uchun tuzilgan shturmchi guruhlardan birida U. Sotvoldiyev ham bor edi. Shturmchi guruhlar dushmanning e'tiborini o'ziga jalb qilib, boshqa bo'linmalarning daryodan o'tishiga imkon berardi. Guruh dushman qurollardan beto'xtov o't ochib turgan vaqtda, tun qorong'isida daryoni kechib o'tdi.

Urayimjon Sotvoldiyev dushman pulemyot nuqtalari tomon o'rmalab borib, granata



Вх. № 030178  
27.10.44.

№ 000817  
18.9.44

НАГРАДНОЙ ЛИСТ

1. Фамилия, имя и отчество Сайтывалдиев Ураим  
 2. Звание Рядовой 3. Должность, часть Служащий в артиллерии  
965 Сибирского полка 274 Сибирской Армейской дивизии  
 Представляется к присвоению звания: Герой Советского Союза  
 4. Год рождения 1920 5. Национальность Узбек 6. Партийность Чл.  
 7. Участие в гражданских войнах, последующих военных действиях по  
 защите СССР и отечественной войне / где, когда / с 16.08.44, Римск 10.10.44  
 8. Место или в плену и контрплену в отечественной войне  
 9. С какого времени в Красной Армии с 1940 10. Каким РВК призван  
Ангутанским РВК Ангутанской обл. УзССР  
 11. Чем ранее награжден / за какие отличия / Медалью "За отвагу"  
№ 3 по 965 Сп. А 037 / от 16.08.44. Указом А 22284 от 2.09.44  
Награда не вручена  
 12. Постоянный домашний адрес по состоянию на награждение и адрес  
 от семьи  
 13. Место рождения

1. Краткое, но конкретное изложение личного боевого подвига или  
звезда юги.

т. Сайтывалдиев под сильным артил. и минометным  
огнем противника, одним из первых переправился  
через реку Висла. В последующих боях участвовал  
на расширивших и закрепивших плацдармы на запад  
и на северу реки Висла. т. Сайтывалдиев активно  
участвовал с удивительным мужеством в  
контратаках противника, проявив отвагу, мужество и отвагу  
с Указ. лично от 12.10.44.

Указ. Сайтывалдиев присвоению звания  
Герой Советского Союза

Командир полка  
Тяжкобыт

*Handwritten signature*

И. Кортевич

Дошманни муқовилиги билан отечественной войны звания  
Герой Советского Союза

Командир 274 Сибирской Армейской дивизии  
Генерал-майор  
[Подпись]

Семидева В.А.



U. Sotvoldiyevni mukofotlashga tavsia etilgan taqdirlash varaqasi





irg'itar edi. Shu tariqa, Visla daryosining g'arbiy qirg'og'idagi platsdarmni kengaytirish uchun kechgan ayovsiz janglarda Urayimjon Sotvoldiyevning o'zi 17 gitlerchini o'ldirdi.

P. Frolov "Visladagi jasorat" maqolasi-da qayd etishicha, *"Erta bilan dushman o'z pozitsiyasini tiklash uchun qarshi hujumga tashlandi. Uch kecha-yu kunduz ayniqsa qattiq janglar bo'ldi. Ammo dushman o'z maqsadiga erisha olmadi"*.

U. Sotvoldiyevning taqdirlash varaqasida qayd etilishicha, u polk va o'qchi korpus tomonidan *"ko'rsatgan matonati, mardligi va jasorati uchun"* Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga tavsiya etilgan.

Urayimjon Sotvoldiyev 69-armiya Harbiy kengashining xulosasi bilan 1944-yil 26-sentabr kuni Lenin ordeni bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Jangovar xizmatlari uchun", "Varshava ozod etilganligi uchun", "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan Urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medallari bilan ham mukofotlandi.

Urushdan omon qaytgan va uzoq yillar Andijondagi "Texsnabneft" tashkilotida kranchi bo'lib faoliyat yuritgan Urayimjon otani eldoshlari hamisha yaxshi nom bilan xotirlaydilar.

**Kozimxon SA'DULLAYEV,**  
*falsafa doktori (PhD)*

---

---

## Maqsum XO'JAYEV

(1904–1991)



Doim band bo'lganimdan, ota-onam hayotligida ularning sermazmun hayoti, jumladan, urush bilan bog'liq tafsilotlarini surishtirishga ulgurmadim. Ularning vafotidan keyin yetarli e'tibor bermaganim uchun o'zimni aybdordek his qilardim. Ularning kamtarligi, o'z tarjimai hollarining achchiq va og'ir lahzalarini eslashni istamasliklari ham bor gap. Endilikda o'nglab bo'lmaydigan holatga duch kelganimda, rasmiy arxivlarga aniqlik kiritish uchun murojaat qilishga to'g'ri keldi. Aka-ukalarim bilan otamiz Maqsum Matmusayevich Xo'jayevning fashizmga qarshi qahramonona ishtirokini tasdiqlash uchun shu ishga kirishdik.

Avvalo, otamning tarjimai holiga oid bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tsam.

U kishi 1904-yilda Marg'ilonda tug'ilgan va o'smirlik vaqtlarida Toshkentga kelgan. Keyin Podmoskovyega – Reutov, Zaraysk, Ivanovo, Noginsk, Orexovo-Zuyevoga borib, to'quvchilik ishini egallagan. O'sha yerda partiyaga kirib, bir necha yildan keyin O'zbekistonga qaytib, yangi hayot qurish, ishlash uchun, jumladan, Farg'ona to'quvchilik kombinati qurilishida ishtirok etgan. Shuningdek, boshqa mas'ul ishlarda faoliyat yuritgan. Otam urush boshlanganidan keyin, 1941-yil 24-oktabrida harbiy xizmatga kirgan.

U harbiy kurslarni tamomlab, kichik leytenant unvonini oladi, maxsus qismlar tarkibida Eronda bo'ladi, keyin Stalingradga yuboriladi. 8-gvardiya armiyasi 29-gvardiya o'qchi korpusi, 74-gvardiya o'qchi diviziyasi 240-gvardiya o'qchi polkida xizmat qiladi. O'qchi vzvodi, keyinchalik, razvedkachilarning pulemyot vzvodiga komandirlik qiladi.

Biz bu tugal bo'lmagan ma'lumotlarni pamyat-naroda.ru sayti orqali oldik. Bizni ularning mukofotlari haqidagi ma'lumotlar alohida qiziqirdi. Mana aniqlaganlarimiz: "Jasurligi uchun" medaliga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasida quyidagilar qayd etilgan:

*"Xo'jayev Dneprning o'ng qirg'og'i uchun janglarda matonat, mardlik va vzvodni mohirlik bilan boshqara olishini ko'rsatdi. Uning boshchiligidagi vzvod bir necha bor hujumga dadil borib, dushmanning jonli kuchi va tex-*





*nikasiga katta zarar yetkazdi. O'rtoq Xo'jayev o'zi shaxsan gitlerchilarning 2 snayperi va 4 avtomatchisini qirdi. Jangda yaralandi. U "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlanishga munosib deb topildi.*

**1943-yil 2-noyabr.  
240-o'qchi polki komandiri,  
gvardiya podpolkovnigi Mojeyko".**

Qizil Yulduz ordeniga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasida esa uning jasorati qisqa bayon etilgan:

*"O'rtoq Xo'jayev nemis-fashist bosqinchilari bilan kurashda matonat, mardlik va vzvod janglarini mohirlik bilan boshqara olishini ko'rsatdi. 1944-yil 17-mayda Sherpen qishlog'i uchun bo'lgan janglarda u vzvodi bilan birin-*

*chilardan bo'lib aholi punktini yorib kirdi va janglarda muhim tayanch punktini mustahkam ushlab turgan gitlerchilar guruhini yo'q qildi. Bu jangda u shaxsan 8 nemis-fashist askarlarini yo'q qildi hamda yana ikkitasini asirga oldi. O'zi yarador bo'lgan jang oxirigacha vzvodga komandirlik qilishda davom etdi. O'rtoq Xo'jayev vzvodining harakatlari Sherpen qishlog'i egallanishini osonlashtirdi. Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlanishga munosib.*

**1944-yil 24-may.  
240-o'qchi polk komandiri,  
gvardiya mayori Shishkin".**

Taqdirlash varag'ining chap burchagiga shtab rahbariyatidan kimdir "Vatan. II darajali" deb viza qo'ygan. Shu tariqa otam II darajali Vatan urushi ordeni sohibi bo'lgan.

Mazkur ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida, otam haqidagi yana ikki yaqinimizning xotiralarini ham keltirish mumkin. Otamning katta nevarasi – o'g'lim Oybekning eslashicha, buvasi unga jangovar Qizil Bayroq ordeniga ham tavsiya etilgani, ammo hujjatlar shtabgacha yetib bormasdan, yo'lda uni olib ketayotgan aloqachi halok bo'lganini aytgan ekan.

Men Afg'onistonda bo'lganimda, umr yo'ldoshim Saodatxonni qo'llab-quvvatlash uchun otam o'z jangovar hayotidan bir voqeani aytib bergan ekan. Nemis harbiy qismiga razvedka hujumini amalga oshirish paytida vzvod keskin pulemyot olovi ichida qoladi. Shunda otam cho'ntagidan bir yoshli o'g'lining suratini chiqarib, uni o'pib bir umrga xayrlashgan ekan. Ammo, yelkasidan yarador bo'lsa-da, batalyon tomonga emaklashda davom etib, jon saqlab qolgan ekan.

1944-yili otam Polshada og'ir yarador bo'lib, nogironlik olganidan keyin uzoq da-





volanib, katta leytenant unvoni bilan Toshkentga qaytgan.

Urushdan so'ng, otam qo'ltiqtayoqda Vangaga xizmat qilishni davom ettirdi. U kishi uzoq yillar 17-uzumchilik xo'jaligini boshqarib, mamlakat qishloq xo'jaligi yutuqlariga munosib hissa qo'shdi va ko'plab mukofotlar

bilan taqdirlandi. Otam onam Muhabbatxon aya bilan birgalikda mendan tashqari yana besh farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Ularning bari jonajon O'zbekiston ravnaqi uchun vijdonan va sadoqat bilan mehnat qilishdi.

**A'lo XO'JAYEV,**  
*jurnalist, jamoat arbobi*

## **XOTIRLASH – HAYOT DEMAK!**

*Gvardiya razvedka guruhi qo'mondoni, katta leytenant  
Maksum Matmusayevich Xo'jayev xotirasiga bag'ishlanadi*

Nechun nasib etmaydi, evoh,  
Tirik chog'i farz etmoq ado,  
Bu hayotda bo'lganlar hamroh,  
O'tib ketar, dunyo bevafo!

Aytolmadim ezgu so'zimni  
Jangdan omon qaytgan otamga.  
Diydam qattiqmidi, o'zimni  
Kechirolmay, botaman g'amga.

Uch yildan ko'p – ajal komida  
Jang qildi u, qazidi xandaq,  
Issiq-sovuq, o'qlar ostida –  
Olg'a bosdi, dushman uzra haq!

Farzand burchin bajardi yovqur,  
Yurtga fido mardona o'g'lon.  
Harb ishida mohir-u jasur,  
El qatori bo'loldi qalqon.

Buyuk jangda. Stalingrad –  
O'z uyiday – qildi himoya.  
Mukofot, shon uchun emas, mard  
Jangga kirdi ozodlik deya.

U polyaklar Poznanin oldi,  
Yana orden berilgan oni,  
Ulug' jangda nogiron bo'ldi,  
Yaralandi ham tan, ham joni.

Yengilmadi g'azabga ko'ngli,  
Tashna edi yashashga, albat.  
Mehnat bilan bardavom yo'li,  
Elga berdi mehr-u muhabbat.

Yurtga xizmat qildi u halol,  
Oilasin sevdi va suydi,  
Irodasi bukilmay, alhol,  
Dovonlarga mard qadam qo'ydi.

Oddiy, kamtar insonlik nasib,  
Barchaga teng, bo'ldi oshno,  
Uzoq umr ko'rdi munosib,  
Hurmat topdi, sevildi, dono.

Shundoq, ammo so'nggi kungacha  
Unutmadi, unutilmadi,  
Safdoshtlarin, do'stlarin, qancha  
Jangdan uyga kim qaytolmadi.

U har yili G'alaba kuni  
Saqlar edi sukut, bosh egib.  
Ishonardi – xalq mangu yashar  
Faqatgina xotirlab, sevib!



---

---

## No‘monjon SHARIPOV (1925–1986)



Urush boshlanganida soat ustasiga shogird bo‘lib ishlayotgan o‘smir yigit No‘monjon Sharipov frontga borish uchun uch bor harbiy komissariatga murojaat qiladi. Har safar hali o‘smirligi uchun rad javobini oladi. Nihoyat, 1943-yil martida Buxoro shahar harbiy komissariati tomonidan armiya safiga chaqiriladi.

Dastlab, u zaxiradagi polkda kichik komandirlar maktabini tamomlaydi. 1944-yil yanvaridan harakatdagi armiyada bo‘lib, birinchi bor Pulkovo ostonasida jangga kiradi. 2-fevralda og‘ir yarador bo‘ladi va davolanganidan so‘ng 90-o‘qchi diviziyaning 173-o‘qchi polk pulemyot rotasi pulemyot raschotiga komandirlik qiladi.

U 1944-yil 10-iyunida “Leningrad mudofaasi uchun” medali bilan taqdirlandi.

N. Sharipov 1944-yil yozida Leningrad frontida Viborg hujum operatsiyasida ishtirok etadi.

1944-yil 14-iyunda Kannaksen qishlog‘i (hozirgi Leningrad oblasti Roshchino qishlog‘i) atrofida fin qo‘shinlarining ikkinchi mudofaa chizig‘ini yorib o‘tishda No‘monjon Sharipov birinchi bo‘lib hujumga o‘tadi va bo‘linma jangchilarini boshlab boradi. Keyin Rayvolan-Yoki daryosini kechib o‘tib, dushman xandaqiga bostirib kiradi va 2 qo‘l pulemyoti raschotlari hamda 10 ga yaqin askarlarini yo‘q qiladi.

Mazkur jangdagi jasorati uchun N. Sharipov 1944-yil 20-iyunda III darajali Slava ordeni bilan taqdirlandi.

1944-yil kuzida diviziya Estoniyani ozod qilish uchun bo‘lgan janglarda, Tartus hujum operatsiyasida ishtirok etadi. Keyin diviziya 2-Belorussiya frontiga yuboriladi.

N. Sharipov 1945-yil yanvaridan 2-zarbdor armiya tarkibida Mlava–Elbing operatsiyasida qatnashadi.

1945-yil 15-yanvarda Polshaning Sexanuv shahri janubi-sharqidagi Payevo-Shvelitse aholi punktlari uchun janglarda serjant No‘monjon Sharipovning pulemyoti o‘ti dushmanning stanokli pulemyotini va 15 tagacha gitlerchini yo‘q qildi. 16-yanvarda Konajevo-Skuje qishlog‘i uchun jangda u 2 stanokli pulemyot va 20 ga yaqin dushman askarlarini yakson qildi. Ushbu qahramonliklari uchun N. Sharipov 1945-yil



НАГРАДНОЕ ЛИСТ

Фамилия, имя и отчество: ШАРИПОВ НУМАН САДИЛАЕВИЧ  
Военное звание: Сержант  
Место службы, часть: Командир отделения стрелковой роты 173 стрелкового полка 90 стрелковой Ропшинской краснознаменной ордена Суворова дивизии

Предлагается к ордену:  
"СЛАВА III СТЕПЕНИ"

1. Год рождения: 1925 г.
2. Национальность: узбек
3. С какого времени состоит в Красной Армии: с 1943г.
4. Политическая принадлежность: беспартийный
5. Участие в боях /где, когда/: с 1943г. Ленингр. фронт
6. Имеет ли ранения и контузии: ранен 5.8.43г.
7. Был ли ранее награжден /за какие подвиги/: наград не имеет
8. Каким ГВК призыван: Бухарским ГВК Узбекской ССР
9. Постоянный домашний адрес представителя и награды или его семьи:

1. Краткое, конкретное именованное личное боевое подвиге или заслуг:

В бою 14.6.44г. в р-не дер. Каннаксен при прорыве второй оборонительной линии белофиннов, первым поднявшись в атаку, увлек за собой свое отделение, с помощью подручных средств, форсировал реку Райволян-йоок, преодолел надолбы, проволочные заграждения и минные поля противника и, ворвавшись в траншеи, уничтожил расчеты двух ручных пулеметов и 10 финнов.

Достоин правительственной награды - ордена  
"СЛАВА III СТЕПЕНИ"



АС.З.  
2.7.44г.

*N. Sharipovni III darajali Slava ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi*



7-fevralda II darajali Slava ordeni bilan taqdirlandi.

1945-yil 16-fevralda Polshaning Gross-Zibsau aholi punktida No‘monjon Sharipov o‘zining stanokli pulemyoti bilan dushmaning yirik kalibrli pulemyoti raschotini yo‘q qildi.

17-fevralda esa o‘sha joyda dushmaning qarshi hujumini qaytarishda 15 dan ortiq gitlerchilarni o‘ldirib, 3 ta pulemyotning ovozini o‘chirdi. Ushbu jangdagi jasorati uchun u I darajali Slava ordeniga tavsiya etildi.

Keyinchalik N. Sharipov polk tarkibida Dantsig shahrini ozod etishda qatnashdi.

U urushni Ryugen orolida yakunladi. Urush davomida u uch marta yarador bo‘ldi va ikki marotaba kontuziya oldi.

No‘monjon Sharipov bilan tashkil etilgan davra suhbatlaridan birida u Dantsig uchun

janglardan birida yarador bo‘lgani, uni front ortiga olib ketmoqchi bo‘lishganini xotirlaydi. Ana shu uchrashuvda ishtirok etgan Damir Yodgorovning xotirlashicha, No‘monjon Sharipov sanitarning gapiga ko‘nmasdan jang maydonini tashlab ketmagan va safdoshlari bilan uch kecha-yu uch kunduz o‘sha joyni qattiq mudofaa qilgan ekan.

Serjant N. Sharipov 1945-yil 29-iyunda I darajali Slava ordeni bilan taqdirlandi.

No‘monjon Sa‘dullayevich Sharipov urushdan keyin Buxoroga qaytdi. 1974-yili kooperativ texnikumida o‘qishni tamomladi, go‘sht kombinatida ishladi.

1985-yili zaxiradagi leytenant N. Sharipov I darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlandi.

**Muxtor NAZIROV,**  
*falsafa doktori (PhD)*



---

---

## Fatxulla PO‘LATOV

(1915–1985)

Fatxulla Po‘latov urushgacha respublikaning bir qancha maktablarida rahbarlik qildi. 1941-yilda o‘z ixtiyori bilan nemis-fashist bosqinchilariga qarshi hayot-mamot kurashiga otlandi.

Dastlab, Sibir harbiy okrugida kichik leytenantlar kursida ta‘lim olgach, 3-Belorusiya frontining 2-armiyasidagi 18-o‘qchi diviziyaning 53-o‘qchi polkida gvardiya pulemyot rotasiga komandirlik qildi.

U jang qilish bilan birga Sibir va Moskva harbiy okruglari qoshidagi siyosiy harbiy rahbarlar tayyorlash kurslarini bitirdi.

F. Po‘latov jang maydonida o‘zini mohir harbiy va siyosiy rahbar sifatida ko‘rsatib, gvardiya pulemyot rotasi komandiri, katta leytenant unvoni bilan Orshadan Vilnyusgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

1944-yil sentabr oyining oxirlarida pulemyot rotasi jangchilari qo‘mondonlikning Neman daryosidan kechib o‘tish haqidagi topshirig‘iga ko‘ra, dushman e‘tiborini asosiy zarba yo‘nalishidan chalg‘itish maqsadida razvedka-jang operatsiyasini tong otarda bajarishga kirishadi.

Fatxulla Po‘latov komandirlik qilgan pulemyotchilar rotasi Neman daryosi sohil-laridagi janglarda jasorat namunalarini ko‘rsatdi. Fashistlar jami katta-kichik o‘q otish qurollaridan o‘q yog‘dirib turgan sharoitda, Neman daryosi kechuvi 7 kun davom etdi. Daryoni kechib o‘tishda rota komandiri, katta leytenant F. Po‘latov chap oyo-g‘idan qattiq yaralanib, jarohatning nihoyatda og‘irligi sababli Moskva gospitaliga



jo‘natildi. U yerdan Toshkent shahridagi gospitalga yuborildi.

Jarohat ancha jiddiyligi sababli 3 oy yotib davolanadi. Keyin yana frontga ketadi.

Mohir jangchi 1945-yilda Moskva harbiy okrugidagi ofitserlar malakasini oshirish kursini bitirib, Uzoq Sharqqa harbiy maslahatchi sifatida Xitoy-Yapon urushiga jo‘natildi. U Uzoq Sharq okrugi qo‘shinlari safida, Baykalorti fronti tarkibida Xitoy Xalq Respublikasida militaristik Yaponiyaga qarshi kurashda, Xitoyni tashqi dushmanlardan xalos etishda faol qatnashdi.

Ikkinchi jahon urushi Fatxulla Po‘latov uchun 1946-yil mart oyida nihoyasiga yetdi. U ko‘ksi to‘la orden va medallar bilan O‘zbe-





1943-yil

kistonga, Toshkent shahriga, oilasi bag'riga qaytdi.

Jangohlarda u “Jasurligi uchun”, “Jangovar xizmatlari uchun”, “Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun” medallari bilan taqdirlandi.

F. Po'latov 1946-yildan boshlab, yana o'zi ishlagan Yangiyo'l tumani Erkin qishlog'i-dagi 15-o'rta maktabda direktor lavozimidagi pedagogik faoliyatini davom ettirdi. U 1956-yilda O'zbekistonda birinchi bo'lib,

“O'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi”ni tashkil qildi. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari tashkil qilinganidan 8–10 yil keyin O'zbekistonning boshqa tumanlarida ham “O'quv ishlab chiqarish markazlari” tuzilib, uning ish tajribasi keng quloq yozdi.

Fatxulla Po'latov – novator pedagog, iste'dodli rahbar, tashkilotchi, xalq e'zozlagan bag'rikeng inson, minglab shogirdlarning sevimli ustozlari sifatida avlodlar xotirasida qoldi.

**Zumratxon INOG'OMJONOVA,**  
*yuridik fanlar doktori, professor*





Senzi shahri. 1945-yil oktabr



---

---

## Faxri KAMOLOV

(1907–1966)



Ikkinchi jahon urushida ziyolilar bir qoʻlida qurol, bir qoʻlida kitob bilan jang maydonlarida Vatan sharafiga himoya qildilar. Ularning ayrimlari frontda halok boʻldilar, ayrimlari esa Vatanga qaytib ilm-fan va madaniyat yoʻlida xizmat qildilar. Tilshunos olim va lingvist Faxri Kamolov ana shunday insonlardan biri edi.

Faxri Kamolov 1907-yilda Janubiy Qozogʻistonning Soʻzak qishlogʻida tugʻildi. Otasining oʻlimidan soʻng dastlab bolalar uyida, keyin Turkiston shahridagi internatda dastlabki taʼlimni oldi.

Shundan soʻng, 1928-yilda Toshkentdagi erlar bilim yurtida oʻqib, 1934-yilda madaniy qurilish instituti va 1937-yilda Oʻzbekiston

til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasining lingvistika boʻlimini tugatdi.

F. Kamolov bu yerda eski oʻzbek yozuvi, fors, nemis va rus tillarini, shuningdek, eski turk yozuvlarini oʻrgana boshlaydi. U aspirant sifatida institut ilmiy ishlarida, shuningdek, boshlangʻich oʻzbek maktablari uchun ona tili darsliklari va oʻqituvchilar uchun oʻquv-metodik adabiyotlar tayyorlash ishlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Aspiranturani tugatgach, faoliyatini institutda davom ettiradi, shu bilan birga, Toshkentdagi oliy oʻquv yurtlarida pedagoglik ish olib boradi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganida yosh olim birinchilar qatorida frontga yoʻl oladi.

U 1942-yil 7-yanvardan 1946-yil 14-avgustgacha janggohlarda oddiy askardan mayor darajasiga qadar yoʻlni bosib oʻtdi. Avvaliga F. Kamolov 89-oʻqchi brigadasida oddiy askar, keyin Moskva yaqinidagi janglarda 90-alohida oʻqchi brigadasi tarkibida qatnashdi, keyin Stalingradda jang qildi.

3-Ukraina fronti tarkibida Ukraina, Moldova, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Avstriya orqali oʻtadigan urush yoʻllarida siyosiy oʻqituvchi, komandir, adabiyot xodimi, harbiy jurnalist, “Gʻalaba uchun” brigada gazetasining masʼul muharriri, 1943-yil sentabr oyidan Janubi-Gʻarbiy frontning oʻzbek tilidagi “Sovet jangchisi” gazetasining muharrir oʻrinbosari sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu gazetaning dala adresi (Polevaya pochta) 22107-A boʻlib, haftada ikki marotaba chop etilgan.



477

Все графы заполнить полностью

# НАГРАДНОЙ ЛИСТ

- 1. Фамилия, имя и отчество: КАМАЛОВ Захри
- 2. Звание: Майор 3. Должность, часть: заместитель редактора
- Фронтowej газеты "Советский воин" на узбекском языке
- Представляется к: ордену Красной Звезды
- 4. Год рождения: 1907 5. Национальность: Узбек 6. Партийность: Чл. ВКП/б/
- 7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях по защите СССР и отечественной войне (где, когда): на фронте с августа 1942 г.
- 8. Имеет ли ранения и контузии в отечественной войне: Не имеет
- 9. С какого времени в Красной Армии: С января 1942 г. 10. Каким РВК призван: Ташкентским
- 11. Чем ранее награжден (за какие отличия): Не награждался
- 12. Постоянный домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи: \_\_\_\_\_

## I. Краткое, конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг

Тов. КАМАЛОВ, кандидат филологических наук, имеющий ряд научных работ, будучи направленным на фронт в составе 90 отд. стрелковой бригады, третий год много и плодотворно работает сначала в бригадной газете, затем во фронтowej. Начавший работу в качестве рядового литературного сотрудника, т. Камалов является ныне заместителем редактора фронтowej газеты и успешно справляется с трудными делами газетчика - организатора, пропагандиста и агитатора.

Тов. Камалов заслуживает награждения его орденом КРАСНОЙ ЗВЕЗДЫ.

ОТВ. РЕДАКТОР ФРОНТОВОЙ ГАЗЕТЫ "СОВЕТСКИЙ ВОИН" -  
ГВАРДИИ ПОДПОЛКОВНИК

Л. Филиппов/.

*Л. Филиппов*

Командар (начальник): \_\_\_\_\_

(подпись)

194 г.

И  
К  
В  
И  
Ш  
Д  
О  
П  
Я  
Л

F. Kamolovni Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlashga tavsiya etilgan taqdirlash varaqasi



Faxri Kamol maqolalari o'zbek, tatar, qozoq, rus, ozarbayjon va arman tillarida gazeta sahifalarida doimiy ravishda chop etib borilgan. Uning maqolalarida o'zbek jangchilarining jasorati bilan birgalikda, front va front orti hayotining turli sohalaridagi yangiliklar ham yoritib borilgan.

Ushbu maqolalar, ocherk va xabarlar jangchilarning jangovar ruhini ko'tarishda katta ahamiyat kasb etgan. Buni 1945-yil 10-mart kuni gazeta mas'ul muharriri N. Filippov va mas'ul muharrir o'rinbosari Faxri Kamol nomiga jangchi Mirzajon Yuldashev tomonidan kelgan xatdan ham bilish mumkin.

Ushbu xat urushdan keyingi yillarda Faxri Kamolning shaxsiy arxivida va hozirda uning farzandlari tomonidan saqlanmoqda. Xat muallifi N. Filippov va Faxri Kamoldan "Sovet jangchisi" gazetasini doimiy ravishda uning dala pochtaga (Polevaya pochta 04468-F) jo'natib turishlarini iltimos qilgan.


Faxri Kamol o'z davrining ilmi va ziyoli kishisi sifatida urush davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni doimo tahlil qilib borishga, mavjud vaziyatga to'g'ri baho berishga harakat qilgan. Shuning uchun ham urush ketayotgan murakkab vaziyatlarda jahondagi harbiy harakatlarning borishi, sovet qo'shinlarining, xususan, o'zi xizmat qilayotgan 3-Ukraina frontining jangovar harakatlarini yozib borishga intilgan.

F. Kamolovning harbiy xizmatlari Qizil Yulduz ordeni va "Budapesht zabt etilganligi uchun", "Belgrad ozod etilganligi uchun", "Vena zabt etilganligi uchun", "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" jangovar medallari bilan taqdirlangan.

Faxri Kamolov ilm va ma'rifatni qadrlaydigan, boshqalarni ham doimo madaniyat va ma'rifatli bo'lishga undaydigan inson

edi. Farzandlarini ham bilim cho'qqilarini zabt etishga chorlab kelar edi. Xususan, buni uning frontdan turib qiziga yozgan xatida ham ko'rish mumkin.

Faxri Kamolov 1944-yil dekabr oyida qizi Dilbar Kamolovaga xat yozib, o'qish va yozishni yanada yaxshilashga da'vat qiladi, o'z qo'li bilan xat yozib, otasiga jo'natishini so'raydi. Ushbu xat hozirda Dilbar Kamolovaning o'g'li Elmurod Nazarovda saqlanmoqda.



*“Sovet jangchisi” gazetasi, 1943-yil 3-noyabr soni, Faxri Kamolovning shaxsiy arxividan*




*3-Ukraina frontining “Sovetskiy voin” gazetasi tahririyati*



*O‘zbek tilida chop etiladigan “Sovet jangchisi” gazetasi tahririyati xodimlari bilan*





Faxri Kamolovning uch qizi, bir o'g'li bor edi. Ushbu xat murakkab bir zamonda yozilganiga qaramay, mavzu jihatidan noyob va qadrlidir. Chunki butun jahonda barcha insonlarning fikri tirik va omon qolish, ochlik va boshqa balolardan himoyalaniish bilan band bir vaqtda Faxri Kamolov farzandlarini ilm va ziyoga da'vat qiladi.

Haqiqatan ham, ushbu xat nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamon uchun ham dolzarb va ahamiyatini yo'qotmagan. Shuning uchun ham ushbu xat Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi ijtimoiy tarmoqlarida keng jamoatchilikka e'lon qilindi. Xat o'quvchilar tomonidan iliq kutib olinib, ijobiy fikrlar bildirildi.

Faxri Kamolovning turmush o'rtog'i Shamsiya Kamolova ham front ortida samarali mehnat qiladi va 1945-yilda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "1941-1945-yillar Ulug' Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun" medali bilan taqdirlanadi.

Urush tugagandan so'ng, Faxri Kamolov o'z hayotini ilmiy va pedagogik ishlarga bag'ishladi. 1946-yil iyulda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, O'zbekiston til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari etib tayinlandi. 1952-yil mart oyidan 1966-yil umrining oxirgi kunigacha o'zbek tili sektorini boshqardi.

Faxri Kamolov Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'zbek tili grammatikasi, leksikologiya, o'zbek tili imlosi va grafikasi bo'yicha ko'plab ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratdi va shu sohaga oid fundamental asarlar yaratishda ishtirok etdi. Xususan, Faxri Kamolov muallifligi va hammuallifligida "Hozirgi zamon o'zbek tili", "O'zbek imlosi asoslari", "O'zbek tili grammatikasi asoslari" kabi fundamental ilmiy ishlar tayyorlandi.

**Oybek ABDIMO'MINOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*



10.03.45.2 Привет.

Взнос маму и Миговичи  
(Н) и Артиллерийский караульный  
полкда ислужитъ. Этимъ туркувичи  
менъ Мирзаконъ Толдошевдурман  
менъ сизъ (Советъ Мангаси) Газийта  
сикимъ Мабул мусадорир уртокъ  
Н. Филипповъ а вонъ уринбасари ф. Камал  
уртокъ карданъ менъ ит. Толдошевъ уртокъ  
сирайманъ менъ ит. [Полевая  
Почта 04568, ф.н] Шу адирисиме  
Шу Толдоридати Газийтаданъ Товаришъ  
турмовъ Ларингизиме сирайманъде  
Засивизатимъ наке

дегъ: Толдошеву: Толшев: Мирзаконъ



---

---

## Anvara MUHARRAMOVA

(1919–2009)



Anvara Abdullayevna Muharramova 1933-yilda Zebiniso maktabini, 1936-yilda Y. Oxunboboyev nomidagi tibbiyot texnikumini a'lo baholar bilan tugatdi va Toshkent davlat tibbiyot institutiga o'qishga kirdi. 1941-yilda oliygohni tugatib, o'z shifokorlik faoliyatini ushbu institutning asab kasalliklari klinikasida ordinatorlikdan boshladi.

1941-yilning dekabr oyida frontga safarbar qilindi. 1942-yil fevral oyidan to 1945-yil dekabrgacha 13-armiyaning 148-diviziyasi tibbiy sanitariya batalyonida jarroh bo'lib xizmat qildi.

1941-yilda Anvara Abdullayevnadan tashqari Muharramovlar oilasining yana uch farzandi urushga ketgan. Bular – akalari Vali va Iskander, shuningdek, 25 yoshida vafot etgan eng katta akasi – Abdurahmon Muharramovning yagona o'g'li Rafkat Muharramov urushga ketadi.

Ulardan faqat Iskander Muharramov (1912–1991) frontdan qaytgan. U Ukraina, Polsha, Chexoslovakiya va Germaniyani ozod qilishda ishtirok etgan. 1943–1944-yillarda Voronej frontining 121-o'qchi diviziyasida sanitar vzvodining komandiri, 1944–1946-yillarda 60-armiyaning 1-Ukraina fronti 148-o'qchi diviziyasining bosh feldsheri bo'lib xizmat qilgan. Ikki bor yaralangan va davolanib, yana jangovar safga qaytgan. Urushni katta leytenant unvonida yakunlagan.

Anvara Muharramova 1–4 - Ukraina frontlarida avvaliga mudofaa, so'ngra esa hujum operatsiyalarida faol ishtirok etdi. Yaralangan askarlarga tibbiy yordam ko'rsatib, ularning tezda davolanib, yana jangovar safga qaytishlarida, fashizmga qarshi kurashayotgan ofitser va jangchilarni omon qolishlarida jonbozlik ko'rsatdi.

O'zi ham urushda yaralangan va o'zi xizmat qilayotgan tibbiy punktda davolanib, tezda safga, jarrohlik stoliga qaytgan A. Muharramova urushni Belorussiya fronti tarkibida yakunladi. G'alaba kunini tibbiyot xizmati kapitani sifatida Praga shahrida kutib oldi.

Qizil Yulduz, II darajali Vatan urushi kabi orden va medallar urush boshlanganida endigina 23 yoshga kirgan yosh jarroh qizning bu sinovli yillarda ko'rsatgan jasoratining tasdig'idir.

A. Muharramova frontda o'z yaqinlari va institutdagi hamkasblari bilan xat yozishib turgan. Uning 1942-yil 12-iyunda urushga qadar o'zi faoliyat ko'rsatgan Toshkent



*Professor Genrix Mankus Toshkent tibbiyot instituti 3-kurs talabalari bilan birga. 1939-yil*

meditsina instituti Asab kasalliklari klinikasi professori L.Y. Shargorodskiyga yoʻllagan xati saqlab qolingan.

Xatda Anvara Muharramova frontdagi xizmati haqida shunday yozadi: *“Albatta, mening yagona ishim – (burchimni) bajarish, xalqqa – frontga xizmat qilish... Jarohatlariga ishlov berishda avvalo nervlarga ziyon yetkazmaslik haqida titrab-qaqshashim, qolgan jarrohlarning yosh nevropatolog ustidan “kulishlari”ga sabab boʻladi... Shunday vaziyatlar ham boʻldiki, men asab kasalliklari boʻyicha qoʻygan tashxislarim muvaffaqiyatli boʻldi...”*

Xatida u frontda xizmat qilayotgan boshqa hamkasblari haqida xabar berishni soʻraydi.

Anvara Muharramovaning urush davrida tutgan kundaligi saqlangan. Kundalik 1942-yilning 6-aprelidan, yaʼni 23 yoshga toʻlgan tavallud kunidan boshlanib, 1945-yil-

ning 12-yanvarida yakunlangan. Undagi ilk yozuvlar quyidagicha:

*“Hozirgina Livnadan Korotish qishlogʻiga yaralanganlar bilan birga chanalarda keldik. Yoʻlda birinchi bor harbiy toʻqnashuv sodir boʻldi, yaʼni nemis samolyoti bilan toʻqnash keldik. Mana front, qayerdadir portlagan snaryadlar ovozi eshitilyapti...”*

*Egninga paltoni ustidan shinel va quloqchin kiyganman...*

*Qishloq nemislar tomonidan vayron qilingan va yoqib yuborilgan, uylarning tomi ham, oynalari ham yoʻq...*

*Klinikadagi zoʻr sharoitdan keyin, bu yerdagi operatsiya xonasi va bogʻlov xonasi juda hayron qoldirdi...*

*Stalino qishlogʻiga ketyapmiz. Aholiga oʻzimning Oʻzbekistonim, urf-odatlarimiz haqida soʻzlab berganimda, katta qiziqish bilan tinglashadi”.*



Кому сестре Аниевой Розы Абдуллаевны  
 Адрес 43 ССР. ул. Лашкени, ул. Караматская.  
дом 411  
 Настоящим удостоверяется, что старший  
лейтенант Медицины Аухорратова  
Анвар Абдуллаев  
 за образцовое выполнение боевых заданий командования на  
 фронте борьбы с немецкими захватчиками и проявленные  
 при этом доблесть и мужество награжден:  
Медалью "за боевые заслуги" 25 февраля 1943г.  
 Начальник отделения части 68538  
 майор а-с (ПУПОНИН).

**ВРЕМЕННОЕ УДОСТОВЕРЕНИЕ**  
 Пред'явитель сего Военврач  
Мухорратова Анвар Абдуллаевич  
 (звание, фамилия, и  
 награжден приказом по 148 стр. див.  
13 армии № 235405 от 25.2.1943  
 ЗА ОБРАЗЦОВОЕ ВЫПОЛНЕНИЕ БОЕВЫХ ЗАДАНИЙ  
 КОМАНДОВАНИЯ НА ФРОНТЕ БОРЬБЫ С НЕМЕЦКИМИ  
 ЗАХВАТЧИКАМИ  
 Орденом, медалью "за боевые заслуги."  
 Орден, медаль за № 235405  
 Подпись вручающего Ушандин 198 стр. дивизии  
 (заняваемая должность и военное звание) генерал-майор  
И. Мищенко  
 (М. П.) 23. апреля 1 43 г.

A. Muharramova "Jangovar xizmatlari" uchun medali bilan taqdirlanganligi haqida vaqtinchalik guvohnoma hujjatlari. 1943-yil





Keyingi yozuv 1942-yilning 28-iyunida bitilgan: *“Ilk bor bombardimon qilinayotganini va yaralangan jangchilarimizni koʻrdim. Men uchun dahshat boshlanyapti, lekin oʻzim uchun tushunarsiz (holat). Orqaga, Troitsk qishlogʻiga chekindik. Yaradorlar koʻp. Bombardimon (davom etyapti). Baʼzi qoʻshilmalar oʻz pozitsiyasini oʻzgartiryapti. Qoʻrqinchli. Bu urush”*.

Keyingi yozuvlar juda qisqa boʻlib, voqealar maʼlumot tarzidagi bir necha jummalarda bayon qilingan.

Masalan, *“Qozon qishlogʻi. Qishloq yoqib yuborilgan. Dahshatli sovuq (25-yanvar 1943-yil)”, “yaralanganlar har doimgidan koʻp (26-yanvar 1943-yil)”, “yaralanganlar koʻp (11-fevral 1943-yil)”, “yaralanganlar koʻp... №4 forma kasallar paydo boʻldi (18-fevral 1943-yil)”, “Ish koʻp, shahar vayron qilingan. Yaralanganlar uncha koʻp emas (25-fevral 1943-yil)”* kabi.

Yoki *“Nemislarning yozgi hujumi. Medsanbat Gubkinoga qaytdi. Voronkalar juda koʻp. Palatkalarda joylashdik. Qishloqda hech narsa qolmagan... №4 forma kasallar paydo boʻldi (26-iyul 1943-yil)”, “Glebovo qishlogʻi. Aholi yoʻq. Nemislar tomonidan haydab ketilgan. Uylar va yoʻllar minalashtirilgan. ZIS portlab ketdi. Chebotaryov halok boʻldi. Yaralanganlar koʻp. Joylashgan joyimiz juda yomon (27-iyul 1943-yil)”, “4-avgust 1943-yil. Semenovka qishlogʻi. Aholining aksariyati qaytyapti. Biznikilar uchun bombardimon qilish murakkab boʻlyapti, sababi nemislar bizning grajdan aholi bilan birga chekinyapti. Ular dahshatli narsalarni gapirib berishyapti. Krominoni ozod qilishdi. Nemis lagerlaridan koʻp asir olingan yaradorlarni olib kelishdi. Hammalarida infeksiya, dizenteriya bilan ogʻrishgan. Bizdan aptekadagi Anya oʻzini osib qoʻydi...”* “16-av-

*gust 1943-yil. Titivo. Yaralanganlar koʻp. Somonxonada yashadik. Koʻp oʻzbek jangchilarni koʻrdim – Osiyodan qoʻshimcha kuch”*. “20-avgust 1943-yil. Shusherova. Qishloqda yongʻoq koʻp. Bu yerda Portyanko oʻzini otib qoʻydi. Barcha ayollar palatkada yashadik. Sharoitimiz yomon, suv yoʻq”. “19-sentabr 1943-yil. Chernigov viloyati... kasal yotibman. Chernigov uchun jang ketyapti. Issigʻim baland. Qarashga odam yoʻq. Olga Buravka halok boʻldi”.

Kundalikdagi keyingi yozuvlar ham juda qisqa boʻlib, asosan qayerda, qanday va kimlar bilan joylashgani, yaralanganlar haqida qisqacha bayon etilgan. Baʼzan esa faqatgina tibbiy punkt joylashtirilgan hududlar nomi keltiriladi.

Ular ichida quyidagi yozuv bor: *“23-aprel 1944-yil. Petrenovo. Tarnopoldan 3 km.damiz. Oʻrmon yoqasida yashayapmiz... Bahorni shu yerda qarshiladik. Qulupnay koʻp. Iskander keldi. Lvov uchun janglar boshlandi”*.

Darhaqiqat, 1944-yilning bahorida Lvovni ozod qilish uchun boshlangan janglar borayotgan bir vaqtda, aka-singil Anvara va Iskander urushda uchrashdilar. Urush davomida qon kechib, necha oʻlimdan omon qolgan ikki jigarbandning uchrashuvi ikkovlari uchun ham qanchalik quvonchli voqea boʻlganini tasavvur qilish mumkin.

Bu katta voqea haqida Anvara Abdulayevnaning urush kundaligida esa faqat ikki soʻz bilan belgilangan: *“Iskander keldi”*.

Bu Anvara Muharramovanning – urush tufayli har kuni oʻlim bilan roʻbaroʻ kelgan, yaradorlarning jarohatini davolab, ularni yana jangga, balki oʻlimga yoʻllashga majbur boʻlgan hali yosh va navqiron qizning qalbi ortiqcha hissiyotlardan holi, naqadar vazminlashgan va kamgap boʻlib qolganidan dalolatdir balki.






Qozon qishlog'i. Qishloq yoqib yuborilgan... Dahshatli sovuq...

1943-yil 25-yanvar

Nemis mudofaasi yorib o'tildi. Yaralanganlar har doimgidan ko'p.

1943-yil 26-yanvar



26/01/43. Копеечки  
 Брат, как дела? Как настроение?  
 Я пишу тебе, потому что очень скучаю по тебе.  
 Ты же знаешь, как тяжело сейчас.  
 Но я надеюсь, что ты тоже выживешь.  
 Люблю тебя, брат.

26/01/43. Копеечки  
 Брат, как дела? Как настроение?  
 Я пишу тебе, потому что очень скучаю по тебе.  
 Ты же знаешь, как тяжело сейчас.  
 Но я надеюсь, что ты тоже выживешь.  
 Люблю тебя, брат.

4/1/43. Копеечки  
 Брат, как дела? Как настроение?  
 Я пишу тебе, потому что очень скучаю по тебе.  
 Ты же знаешь, как тяжело сейчас.  
 Но я надеюсь, что ты тоже выживешь.  
 Люблю тебя, брат.

10/01/43. Копеечки  
 Брат, как дела? Как настроение?  
 Я пишу тебе, потому что очень скучаю по тебе.  
 Ты же знаешь, как тяжело сейчас.  
 Но я надеюсь, что ты тоже выживешь.  
 Люблю тебя, брат.



Anvara Muharramova keyinchalik frontdosh do'stlari bilan muntazam xat yozishib turgan. Ular orasida urush xotiralarini e'lon qilib turgan N.K. Sokolovning xatlari saqlangan bo'lib, u maqolalari yuzasidan A. Muharramovadan maslahatlar so'rab turgan.

U bir maqolasida Anvara Muharramovani "jussasi kichkina, biroq nihoyatda irodali qiz" deb ta'riflaydi va urush tafsilotlaridan bir epizodni keltiradi.

1945-yil aprel oyining o'rtalarida Chexoslovakiyaning Polsha bilan chegarasida uzoq kutilgan hujumga tayyorgarlik ketayotgan bir vaqtda, diviziyaning shaxsiy tarkibi, ayniqsa, o'qchi batalyonlarining tarkibini to'ldirish

vazifasi qo'yilgan edi. Bu ishni davolanyotgan jangchilar hisobiga bajarish uchun diviziya komandiri o'z o'rinbosari Melkadzeni tibbiy punktga yuboradi.

Tekshiruv haqida N. Sokolov tuzalayotganlar komandasiga mas'ul Anvara Muharramovaga xabar berganida, u shaxdamlik bilan: "Kelaversin, ularga yaradorlar qanaqligini ko'rsataman", degan.

Melkadze kelgach esa, uni bog'lov xonasiga yaradorlarning jarohatini yaxshi ko'rib turishi mumkin qilib o'tqizadi (albatta, yaradorlarga uning kimligi aytilmaydi). Anvara Muharramova yaradorlarni birma-bir chaqirib, jarohatini qayta bog'laydi va bu jarayon vaqtida,



ularning aksariyati odatda og'riqdan baqirib yuborishar, “qattiq soʻzlar”ni ham eslashardi.

Anvara Muharramova har bir yaradorning jarohatini ochar ekan, Melkadzega koʻrsatib, “*Shu bemorni tuzalayotganlar komandasidan vipiska qilish mumkinmi?*” deb soʻrar, tekshiruvchi esa shosha-pisha “Yoʻq” deb javob berardi.

Melkadze 10–15 yaradorning jarohatini bogʻlash vaqtida ishtirok etib, soʻngra ketishga taraddudlanadi. Vaholanki, tuzalayotganlar guruhidagi askarlar 200 kishidan kam emas edi. Ketish oldidan esa vrachlar oʻzlari lozim topgan askarlarni shtab diviziyasining kadrlar boʻlimiga yuborishlarini buyruq emas, iltimos ohangida soʻraydi.

Gʻalabadan soʻng, A. Muharramova shifokorlik faoliyatini oʻziga qadrdon boʻlgan Toshkent davlat tibbiyot institutining asab kasalliklari klinikasida ordinator boʻlib davom ettirgan. Keyinchalik asab kasalliklari kafedrasi assistenti lavozimida u oʻzining

boy bilimi va frontda orttirgan tajribasini yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida amaliyotga qoʻlladi. Oʻz faoliyati bilan nevrologiya ilmi rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshdi.

1957-yilning 27-oktabr kuni professor L.Y. Shargorodskiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1964–1974-yillarda Toshkent davlat tibbiyot instituti asab kasalliklari kafedrasida dotsent lavozimida pedagogik, ilmiy va davolash ishlari boʻyicha faoliyat yuritdi.

1970-yillarda frontda olgan eski jarohatlar va yurak xastaligi bezovta qila boshlagach, 3-guruh nogironligi bilan nafaqaga chiqdi. Lekin oʻzining shifokorlik faoliyatini 1982-yilga qadar vrach-nevropatolog sifatida Pediatriya institutida, hozirgi Buyuk Ipak yoʻli koʻchasidagi Markaziy statsionarda davom ettirdi.

Anvara Muharramova 2009-yilda 90 yoshida vafot etdi.

**Sevara POʻLATOVA,**  
*tarix fanlar nomzodi, dotsent*

## AKA-UKA SHIFOKORLAR



Toshkent shahrining Olmazor mahallasi-da (hozirgi “Tashkent city” o‘rnida) yashagan, xonadonida sharq tillaridagi turli kitoblardan iborat boy kutubxona bo‘lgan va o‘zi ham bir necha tilni bilgan Komiljon Hakimboy o‘g‘li to‘rt farzandning otasi bo‘lib, savdo ishlari bilan shug‘ullanar edi.

Oilaning to‘ng‘ich farzandi Is‘hoq Komilov 1909-yilda Toshkent shahrida dunyoga keladi. Ta‘limni dastlab Toshkentning Ko‘kaldosh madrasasida boshlab, keyin tuzem maktabi va tibbiyot texnikumida davom ettiradi. Texnikumda o‘qish davomida shahar tez tibbiy yordam bo‘limida feldsher bo‘lib ishlaydi. 1927-yilda Is‘hoq O‘rta Osiyo davlat universitetining tibbiyot fakultetiga

o‘qishga kirib, uni 1932-yilda a‘lo baholar bilan bitiradi.

Ish faoliyatini yangi tashkil etilgan Toshkent tibbiyot institutida boshlagan Is‘hoq Komilov 1940-yilda respublikada birinchilardan bo‘lib farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Bu davrda professor I.I. Markelovning “Farmakologiya” darsligini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Toshkent farmatsevtika institutini tashkil etishda ham faol qatnashadi.

Oilaning kenja o‘g‘li Habibulla Komilov (1920-yilda tug‘ilgan) ham o‘z akasining izidan borib, 1938-yilda Tibbiyot instituti talabasi bo‘ldi.

1941-yil iyunida boshlangan urush oilaning osuda hayotiga nuqta qo‘ydi. 1941-yilning avgustida Is‘hoq Komilov frontga safarbar etildi. Urush boshlanganda 3-bosqich talabasi bo‘lgan ukasi Habibulla ham Vatanni himoya qilish, akasi kabi frontga ketishni orzu qilardi. 1942-yil iyulida Habibulla bir guruh talabalar bilan ikki yillik ta‘lim dasturini qisqa muddatda o‘zlashtirib, diplom oldi. 1942-yil avgustida esa frontga otlandi. Shunday qilib, Komiljon ota va Nisoxon ona oilasidan ikki o‘g‘il, ikki shifokor – Is‘hoq va Habibulla frontga ketishdi.

1941-yilda Is‘hoq Komilov Turkmanistonning Kushka shahrida tezkor harbiy tayyorgarlik kurslarini o‘tadi. 1941-yil oxirida 91-alohida o‘qchi brigadasi tarkibida frontga jo‘natildi. Eshelon 1942-yilning yanvar oyi oxirida Kuybishev, hozirgi Samara shahriga yetib bordi.



*Dala hospitalining operatsiya-bog'lov bloki.  
1943-yil. I. Komilov olgan surat*

Eshelonga komendaturadan kelgan kishilar kapitan Komilovga ular bilan birga yurishni buyuradilar. Komendaturadagilar uni Kuybishev Harbiy-tibbiyot akademiyasi boshlig'i, general V.V. Zakusov oldiga olib borishadi. Sababi, akademiya rahbariyati Is'hoq Komilovning farmatsevtika ixtisosligi bo'yicha tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent ekanligidan xabar topgan edi.

Is'hoq Komilov akademiya pedagogik faoliyat olib boradi. 1942-yil iyun oyi boshlarida akademiya professor-o'qituvchilari harbiy xizmatdan bo'shatilishi (demobilizatsiya) munosabati bilan Is'hoq Komilov frontga safarbar etiladi.

Is'hoq Komilovning yuqori malakali mutaxassis ekani inobatga olinib, uni toksikolog shifokor sifatida ish faoliyati kuchaytirilgan 72-alohida tibbiyot rotasiga jo'natishadi. 1942-yil noyabrgacha rotada o'quv mashg'ulotlari olib borilib, so'ng uni Xarkov yaqinidagi Chuguyev shaharchasidagi gospitalga yuborishadi.

1943-yilning mart oyida Xarkov atrofida bo'lgan jangda dushman bombardimonchilari gospitalga tegishli transport vositalarini yo'q qildi. Tibbiyot xodimlari dushman

qurshovi va o'q yomg'iri ostida ikki mingdan ortiq yaradorlarni evakuatsiya qilish ishlarini tashkil etib, ularning hayotini saqlab qolishdi. Shunga qaramay, bombalar ostida yaradorlar, ko'plab shifokorlar va hamshiralar halok bo'ldi. Yo'lda ham yaradorlar va shifokorlar kolonnasiga beto'xtov ravishda samolyotlar hujum qilardi.

Uch kun davomida kolonna Donetsk daryosiga yetib borib, to'rtinchi kun deganda holsizlangan yaradorlar shifokorlar yordamida bir amallab daryodan o'tib oldilar.

Yaradorlar va shifokorlar ayanchli ahvolda edi: kimdir muzlagan, och, boshqasining yaralari yiringlagan, shifokorlar esa ruhiy va jismoniy bosimlardan o'ta toliqqan edi. Bu vaqtda Is'hoq Komilov angina bilan kasallangan, oyoqlari shishib ketib yurishga qiynalardi. Lekin burch va matonat unga kuch berib, yo'lni davom ettirdi.


Urush yillarida Is'hoq Komilov harbiy-dala shifokorlarini tayyorlash, o'z guruhi faoliyat hududida aholi va harbiylar orasida yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, eng asosiysi, gospitalda jangchilarni davolash ishlari bilan shug'ullandi. Janglar avjiga chiqqan vaqtlarda u 7-10 kun davomida muttasil 20 soatdan yaradorlarni davolar edi. Shuningdek, u kimyoviy razvedka ishlarida qatnashib, ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirdi.

Is'hoq Komilov Belorussiya, Polsha, Germaniya chegaralarini kesib o'tdi va G'alabani Berlinda kutib oldi.

1945-yilda mayor Komilov 72-toksikologik-terapevtik guruh boshlig'i etib tayinlandi. So'ng Vena (Avstriya)ga borib, farmatsevtika va toksikologiya sohasi bo'yicha eng ilg'or tajribalarni o'rgandi.

Is'hoq Komilov Qizil Yulduz ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlandi.





1942-yilning avgust oyida harbiy xizmatga chaqirilgan Habibulla Komilov Sibir tomoniga jo'nadi. Poyezd manzili Tomsk shahri edi. Tomskda harbiy shifokorlikka tayyorlash kurslari boshlandi. Barcha harbiylar kabi shifokorlar o'z kasbiy mahoratlarini oshirishdan tashqari, jismoniy tayyorgarlik va boshqa bilimlarni egallashardi.

Bu yerda Habibulla shifokor va harbiy-shifokor o'rtasida katta farq borligini tushunib yetdi. Tabiatan mehnatkash, qiziquvchan va yangi bilimlarga chanqoq bo'lgan Habibullani kurs boshlig'i, podpolkovnik Xusnullin o'ziga yordamchi etib tayyorladi.

Ma'lum tajriba va bilimlarni egallagan Habibulla 1151-o'qchi polkiga safarbar etildi. Birinchi bor jang maydonidagi yo'qotishlarni Rjev-Vyazemsk yo'nalishidagi Qizil Armiyaning hujum operatsiyasi ketayotgan vaqtda ko'rdi.

Uning gospitali frontdan 20 kilometr uzoqlikda joylashgandi. Turli kalibrdagi bomba va snaryadlarning portlashi shun-doq eshitilib turardi. Og'ir jangdan so'ng yuzlab yarador askarlar gospitalga oqib kela boshladi. Yaradorlarning og'riqli nolishlari, odamlar va otlar jasadlari, qon, baqiriq hamda snaryadlar portlashi, "messer"lar hujumi kishini gangitib qo'yardi. Hamma narsa aralashib ketdi. Faqat soatlab ish, operatsiyalar miyadan yomon xayollarni uzoqlashtirar edi.

O'n kun davom etgan janglardan so'ng portlashlar tovushi uzoqlasha boshladi. Endi o'ziga kelish, o'tgan voqealarni fikrlash imkoni tug'ildi. Dastlabki jangdan so'ng Habibulla akasiga xat yozar ekan, urushning dahshatlarini endi anglaganini bildiradi. Endi akasiga "avvalgi" Habibulla emas, balki urush ko'rgan haqiqiy er kishi xat yozardi.

Janglar, qon, yaradorlar, operatsiya, qisqa muddat jimjitlik, gospitalning frontga yaqinlashuvi va yana hamma narsa qaytadan boshlanardi.

1943–1945-yillarda Habibulla Belorussiya, Polshani bosib o'tib, G'alabani Kyonigsbergda kutib oldi. Habibulla Kyonigsbergni alohida eslar edi. 9-aprelgacha davom etgan janglarda Habibullaning harbiy gospitali bo'lgan 343-o'qchi diviziya ham ishtirok etdi.

*"Shaharda to'qnashuvlar oqibatida katta yong'in yuzaga keldi, hatto, qal'a devorlari ham yonardi"*, deb eslaydi Habibulla Komilov. Kyonigsberg uchun janglarda yuzlab jangchilar kuyib, ularni davolash ancha murakkab kechdi.

Kyonigsbergda urush tugashi haqidagi xabar barcha askarlar, ofitserlar, shu jumladan, Habibullaga ham katta quvonch keltir-







di. Lekin diviziya uchun urush tugaganini hali ular bilmas edilar...

1945-yil may oyi o'rtalarida harbiy qism vagonlarga ortilib, noma'lum yo'nalishga jo'nadi. Eshelon o'n ming chaqiriqdagi Uzoq Sharqqa jo'nadi. Amur daryosi bo'yida joylashtirilgan qism daryoning narigi tarafida turgan Yaponiyaning Kvantun armiyasi bilan jang qilishi kerak edi.

Jang boshlanishidan avval ham harbiy shifokorlar uchun juda ko'p yumushlar



*Asirlikka olingan fashistlar.  
1945-yil 2-may. I. Komilov olgan surat*

topildi. Askarlar ensefalit (shollik) keltirib chiqaruvchi kanalar va bezgak tarqatuvchi chivinlardan aziyat chekardilar. Shu vaziyatda Habibulla vaqtinchalik infeksiyonist bo'lib faoliyat olib bordi.

1945-yil 8-avgustda Qizil Armiya Kvantun armiyasiga qarshi hujumga o'tdi. Askarlar jangdan kimyoviy kuyishlar ham olishardi. 1945-yil 15-avgustda Yaponiyaning taslim bo'lishi janglarni to'xtatdi.

Shu yili 23-avgustda Habibullaning harbiy qismi Port-Arturda edi. U bu yerda yana bir necha yil xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi aka-uka shifokorlar, Is'hoq va Habibulla Komilovlar uchun katta sinov bo'ldi. Hayot sinovlari, urush aka-ukalar o'rtasidagi mehr-oqibat tuyg'ularini yanada mustahkamladi. Og'ir vaziyatlarda ular xat orqali bo'lsa-da, birodarlik tuyg'ulari bilan bir-birlariga dalda bo'ldilar.

**Hasan BOBOJONOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*







## BIR AVLOD MISOLIDAGI ULKAN

Ikkinchi jahon urushi boshlanganida Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xatak qishlog'ida usta Bobonazar o'g'li Turobnazar bobo avlodlari bir ovul bo'lib, o'ttizdan ortiq o'tovda yashashar edi.

Turobnazar boboning nevara, chevare va evaralaridan 22 nafari urushga yuborilgan bo'lib, ularning 15 nafari qaytib kelmadi.

Turobnazar boboning nevarasi usta Murod Xolpo'lat o'g'li 6 nafar farzandning otasi edi. Uning 2 nafar o'g'li va 9 nevarasi urushga yuborildi. Frontdan faqat 2 nevara qaytdi.

Usta Murodning o'g'li **Hidoyatullo Murodov** (arxiv hujjatlarida Hida Murodov, 1901–1942) 1941-yili tuhmatga uchrab, qamoqqa olinadi.

Sovet hukumati mahbuslarga murojaat qilib, urushga borganlarning gunohidan o'tilishi hamda oila a'zolaridan xalq dushmani degan tamg'a olib tashlanishini ma'lum qilganidan keyin, u 1942-yili ixtiyoriy ravishda frontga jo'naydi. Uni jarima batalyoniga yuborishadi. U dastlab uyiga bir necha bor xat yo'llaydi. Shu bilan jangchidan xat kelishi to'xtab qoladi. H. Murodov Stalingrad ostonalaridagi janglardan birida halok bo'ladi.

Usta Murodning kenja o'g'li **Ismoil Murodov** (1906–1945) 1942-yili ixtiyoriy ravishda frontga ketib, Rjev uchun bo'lgan janglarda, Minsk, Varshavani ozod qilishda qatnashdi. 1945-yil 9-may kuni Berlin yaqinida fashistlarning so'nggi hujumida halok bo'ldi. Germaniyaning Vernoyxen tumani Xirshfeld qishlog'ida dafn etilgan.

Usta Murodning to'ng'ichi Safar Murodovning (1887–1953) ikki o'g'li urushga ketgan. Ulardan biri **Abdurauf Safarov** (1915-yilda tug'ilgan) 1944-yildagi janglardan birida asirlikka olingan. Keyinchalik



*Abduhofiz Safarov, 1942-yil*

yaqinlari qidirganida G'arbiy Germaniyada yashayotganligi ma'lum bo'lgan. So'nggi xat 1987-yili kelgan. **Abduhofiz Safarov** (1918–1978) 1942-yil 20-may kuni Leningrad frontida bomba portlashi natijasida yarador bo'lgan va qo'lga tushgan. Uni halok bo'lgan deb o'ylashib, uyiga qoraxat jo'natilgan va Visokaya qishlog'ida dafn etilgani ma'lum qilingan.

Urush tugagach, ozodlikka chiqqan A. Safarov NKVD chig'irig'idan o'tkazilgan va Donbassdagi temiryo'l deposiga ishga yuborilgan. 1948-yilgi suratda uning harbiy kiyimda, 1950-yilgi suratda temir yo'lchi kiyimida tushgani aks etgan. 1953-yilda uyiga qaytgan va jamoa xo'jaligida traktorchiilik qilgan.

## YO‘QOTISHLAR, FOJIALI TAQDIRLAR



*Urushga 5 farzandini yuborgan  
Qizlargul momo Murodova*

Usta Murodning o‘g‘li Berdi Murodovning katta o‘g‘li **G‘affor Berdiyev** (1919–1944) urushda bedarak yo‘qolgan. Ikkinchi o‘g‘li **Omon Berdiyev (yoki Murotov)** (1923–1945) ham urushdan qaytmagan.

Usta Murodning farzandi Qizlargul Murodova (1885–1981) Jo‘ra so‘fi Norpo‘latovning (1881–1946) umr yo‘ldoshi bo‘lgan. 1939-yili oilada o‘n birinchi farzand, kichik qiz Oynaxol tug‘ilganidan keyin Qizlargul momoni Sherobodga chaqirishib, unga Qahramon ona unvoni hujjatlarini tantanali topshirishgan.

Ular 5 farzandlarini urushga jo‘natishdi. Bular:



*Qizlargul momo Murodovanning o‘g‘li  
G‘oyibnazar Jo‘rayev*

**Nazariddin Jo‘rayev** (1910–1943) – jangda halok bo‘lgan. Donetskning Slavyanskiy tumani, Prishib qishlog‘ida dafn etilgan.

**G‘oyibnazar Jo‘rayev** (1911–2001) – Stalingrad jangida snaryad portlashi oqibatida og‘ir yaralanib, tuproq ostiga ko‘milib qolgan. Baxtli tasodif tufayli, ya‘ni shineli yer yuzasiga chiqib qolgani bois, uning tirikligi aniqlangan. Oilada birgina u urushdan nogiron bo‘lib qaytgan.

**Abdunazar Jo‘rayev** (1915–1941) – ham 1941-yilda bedarak yo‘qolgan.

**Hamdamqul Jo‘rayev** (1916–1941) 1941-yilda bedarak yo‘qolgan.



**Anvar Jo'rayev** (1918–1945) – 1945-yilning 30-yanvarida Vengriyaning Shomodshard qishlog'ida halok bo'lgan va shu yerda dafn etilgan. Usta Xolpo'latning uchinchi o'g'li usta Allaberdingning ikki farzandi frontga yuboriladi:

**Sayfullo Allayev (1915–1943)** – 1943-yil 3-sentabrda Krasnodar shahrida qahramonlarcha halok bo'lgan va shu yerda dafn etilgan.

**G'ofir Aminqulov** (1925–2017) – urushdan qaytib kelgan.

Usta Xolpo'latning to'rtinchi o'g'li mulla Qurbonmurod aminning uch o'g'li urushga ketdi. Bular:

**Allanazar Qurbonov** (1920–1943) – Xatak qishlog'ida tug'ilgan. 1943-yil 5-fevralda qahramonlarcha halok bo'lgan va Voroshilovgrad viloyati Lisichansk tumani Ustinovka qishlog'ida dafn etilgan.

**Hoshim Qurbonov (1916–1943)** – Xatak qishlog'ida tug'ilgan. Stalingrad jangida bedarak yo'qolgan.

**Musa Qurbonov (1912–1984)** – Xatak qishlog'ida tug'ilgan. 1942-yildan frontda bo'lgan. Urushdan so'ng uyiga qaytib kelgan va xalq xo'jaligida xizmat qilgan.

Usta Xolpo'latning kenja o'g'li **Xudoyberdi Turopov** ham frontga ketgan bo'lib, jang vaqtida yaralanib qo'lga tushgan. Urush tugagach, surgun qilinib, 1953-yilga qadar Rossiyada lagerda saqlangan.

Turobnazar boboning nevarasi Hamroqul oqsoqol ham bir o'g'lini – **Toshpo'lat Hamroyevni** frontga jo'natdi. Ukraina uchun bo'lgan janglarda u og'ir yaralandi va front ortiga qaytarib yuborildi.

Turobnazar boboning uchinchi o'g'li Eshpo'lat boboning farzandi Juma oqsoqolning ikki o'g'li frontga jo'natilgan:

**Karim Jumayev** – 1913-yilda tug'ilgan. 1943-yilda qahramonlarcha halok bo'lgan. Ukrainaning Poltava viloyati Zaichentsi qishlog'ida dafn etilgan.

**Qayum Jumayev** – tug'ilgan yili noma'lum. 1942-yil 11-sentabrda halok bo'lgan. Stalingrad viloyati Dubov tumani, Tomilino qishlog'ida dafn etilgan.



**Qo'ng'iro't Choriyev**

Eshpo'lat boboning to'rtinchi o'g'li Chori polvonning ikki o'g'li ham urushga yuborildi:

**Salom Choriyev** (1915–1945) – jang maydonlarida halok bo'ldi.

**Qo'ng'iro't Choriyev** (1920–2015) – urushdan qaytib keldi. Mustaqillik yillarda Haj ziyoratiga muyassar bo'ldi.

Front oldi hududlaridan kam bo'lmagan holda, yurtimiz qishloqlari qanchalar huvillab qolgani, katta yo'qotishlar, fojiaiy taqdirlar bir avlod misolida mana shunday namoyon bo'ladi...

---

---

## Ismoil MURODOV

(1906–1945)

1942-yili Ismoil Murodov jiyani Abdurauf Safarovning Stalingrad ostonasidagi qattiq janglardan birida halok bo'lganini eshitib, dushmandan qasos olishga qaror qiladi.

Ketish oldidan akasi usta Safarga: *“Aka, men endi bu yerda turolmayman, nemis-fashistlarga qarshi jang qilayotgan akam Hidoyatullo, inilarim Abduhofiz, Abdug‘ofir, Nazariddin, G‘oyibnazar, Abdunazar, Anvariddin, Allanazar, Abdug‘affolar bilan birlashib, ukam Abduraufni o‘ldirgan fashistlarni o‘z uyasiga – Berlingacha quvib borib qirib tashlayman. Agar shunday qilmasam, usta Murod o‘g‘li emasman”*, deganicha frontga jo‘naydi.

Urush yillarida xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan mutaxassislar armiyaga olinmas edi. Shu tufayli harbiy komissariatdagilar uning iltimosini rad etishadi. Lekin u qat‘iy talabi bilan o‘z maqsadiga erishadi.

1942–1943-yillarda Qizil Armiya Moskvadan g‘arbda joylashgan muhim punkt: Rjev uchun kurash olib borayotgan edi. Ismoil Murodov urushni ana shu yerdan boshladi. Qattiq janglardan keyin dushman chekina boshladi. U 1-Belorussiya fronti qo‘shinlari safida bo‘lib, quroldoshlari bilan ko‘p shaharlarni, shu jumladan, Minsk va Varshavani ozod etishda qatnashdi.

Uning qismi Germaniya hududiga kirar ekan, akasiga xat yozib: *“Aka, bizning qismimiz fashistlar hududiga kirdi. Ularni batamom yakson qilish vaqti keldi”*, degan edi.

1945-yilning 17-apreldagi xatida: *“Bizning qismimiz Berlinga tobora yaqinlashib borayotir”*, deb yozgandi. 1945-yil 8-mayida yozgan xatida: *“Aka, o‘z so‘zimning ustidan chiq-*



*dim. Fashistlarni o‘z uyasida tor-mor keltirdik. Ukamning o‘chini oldim. Nemislarning hammasi ham fashist emas ekan. Xayrixoh, yaxshi odamlari ko‘p ekan. Yaqin kunlarda ko‘rishguncha, xayr”*, deb so‘zini tamomlagan edi. Bu uning oxirgi xati bo‘ldi.

1945-yil 9-may kuni hamma harbiy qismlar dam olayotgan edi. Germaniyaning so‘zsiz taslim bo‘lishi haqidagi aktdan bexabar fashist qoldiqlaridan bir to‘dasi qo‘qqisdan harbiy guruhga hujum qiladi. Qisqa muddatli jangda ko‘p talafot bo‘ladi. Kelib tushgan snaryad parchasi Ismoil Murodovning chap qo‘lini yelkasidan uzib ketadi. Yaradorni harbiy hospitalga olib kelishadi.

Ismoil Murodovning ahvoli og‘ir edi. U bir o‘ziga keladi-yu, ko‘zini ochib: *“G‘alabaga erishdik”*, deydi, xolos.

Qahramon jangchi Berlin chekkasidagi qabristonga dafn etildi.



---

---

## Anvar JO'RAYEV

(1918–1945)



**1918-yil.** Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani Qo'shqaloq qishlog'i.

Bu qishloq Quduq ham deb atalardi. Bu yerda chuqurligi 40 gaz keladigan quduq bor edi. Shu qishloqda Anvar Jo'rayev tug'ilganida otalari quduq boshiga bir tup tut ekan edi.

1939-yili Anvar akalari Abdunazar va Hamdamqul bilan birga armiya safiga chaqirildi. Uch og'a-ini botirlar xizmatni bir yerda – Bessarabiyada boshlashdi. Urushni esa, Sevastopolda kutib olishdi.

Anvar shu yerda serjantlik unvonini oldi. Qizil armiya Simferopolga chekinganida ham, aka-ukalar birga edilar. Simferopoldan Anvar ofitserlar tayyorlash kursiga ketdi va aka-ukalar shu yerda ajralishdi.

**1943-yil 17-fevral.** “Ilg'or Surxon uchun” gazetasida 1767-dala pochta, 211-qismdan gvardiya katta leytenanti Anvariddin Jo'rayevning Surxondaryo viloyati mehnatkashlariga yo'llagan xati bosilib chiqdi. Unda muallif o'z rotasida rus, o'zbek, tojik va boshqa millat vakillarining bir tan, bir jon bo'lib, makkor dushmani tezroq tor-mor keltirish uchun qizg'in kurash olib borayotganliklari, o'zbek jangchilarining mardliklari haqida hikoya qiladi.

Maktubda front ortida mehnat qilayotgan kishilarga qarata shunday deyilgan edi: *“Dushmanga berilayotgan yangidan yangi qaqshatqich zarbalar birgina jangchilarning mardlik va mahoratiga bog'liq bo'lmay, siz front orti mehnatkashlarining frontga bera-yotgan ko'plab yordamingiz va mehnat unumini misli ko'rilmagan darajaga ko'tarishdagi fidokorligingizning ham natijasidir. Ana shuning uchun dushman ustidan uzil-kesil g'alaba soatlarini yaqinlashtirish maqsadida mehnat unumini tobora yuksaltirish bilan qishloq xo'jaligida yuqori hosilni ta'minlab, armiyaga yanada ko'proq yordam berishingiz zarurdir”.*

A. Jo'rayevning maktubi natijasida Tangidevondagi jamoa xo'jaligidan 117 ming rubl, “Yangi yo'l” jamoa xo'jaligi a'zolari 400 ming rubl, tuman bo'yicha o'qituvchilar 80 ming rubl pullarini front uchun jo'natdilar.

Anvar Jo'rayevning xatiga javoban Surxon vohasi mehnatkashlari fidokorona mehnat sur'atini yanada oshirdilar. Natijada voha mehnatkashlari front uchun ishlash oyligida 192 traktor, 660 plug, 25 seyalka va boshqa



qishloq xo'jalik asboblari ta'mirladilar, 129 ming rubl hajmida har xil ehtiyot qismlarini to'pladilar.

Anvar Jo'rayev janglarda toblandi. Doimo urushning oldingi saflarida yurdi. Uning jasorati bir qancha jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi.

**1945-yil yanvar oyi.** Anvar Jo'rayev xatida o'zi komandirlik qilayotgan tank rotasi dushman marrasini yorib o'tib, Vengriyaning katta bir shahrini ozod qilganligi va bu jangdagi qahramonligi uchun u va rotaning boshqa jangchilari hukumatning mukofotlariga taqdim etilganini bildiradi. Bu uning so'nggi xati edi...

**1945-yil 30-yanvar.** Anvar Jo'rayev Vengriya uchun bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi va Vengriyaning Shomod viloyatidagi Shomodshard qishlog'i shimolida dafn etildi. Shu jangda ko'rsatgan qahramonligi uchun Anvar Jo'rayev o'limidan so'ng 64-Dunay o'qchi korpusining 1945-yil 26-fevraldagi 010/n raqamli buyrug'i bilan II darajali Vatan urushi ordeni bilan mukofotlandi.

**1945-yil 10-sentabr.** Orden Sherobod tumani harbiy komissari tomonidan A. Jo'rayevning otasi Jo'ra Norpo'latovga topshirildi. Unga Anvarning yangigina harbiy parad libosi, kamari, bosh kiyimi, orden va medallari ham topshirildi. Shu bilan birga, ota-onasi umrining oxirigacha o'g'li tufayli pensiya puli bilan ta'minlandi.

Bu yo'qotish ota uchun og'ir bo'ldi. Chunki u bundan oldin ham uchta qora xat olib, madori qurigan edi.

Bu noxush xabardan gangib qolgan Jo'ra ota bog'langan otini ham qoldirib, 60 chaqirim uzoqlikdagi Xatakka piyoda ketadi. Ertasi choshgoh vaqtida uyga kira turib, umr yo'ldoshi Qizlargul momoga qarab: "Anvar..." deydi-yu yiqiladi.

G'am-qayg'u og'ushida qolgan ota 1946-yilning 22-iyulida 65 yoshida vafot etdi.

Qo'shqaloq qishlog'ida ekilgan tut esa hali ham bor. U xalq orasida "Anvarning tuti" deb aytiladi.



---

---

## G'ofir AMINQULOV (1925–2017)

### Urush faxriysi G'ofir Aminqulov xotiralaridan:

– Meni 1942-yilda armiya xizmatiga chaqirishdi. Avval bizni tayyorgarlikdan o'tkazish uchun Olmaota shahriga, so'ngra Novosibirsk, Petropavlovsk, Akmolinskga jo'natishdi. Keyin bir o'rmonga olib kelishdi.

Mingdan ortiq yigit bor edi. Komandir hammani safga tizib, “Orangizda usta bormi?” deb so'radi. “Men!” deb javob berdim. Yana bir yigit ham oldinga chiqdi.

O'rmon ichida askarlar uchun yog'ochdan uy qurishimiz kerak ekan. Komandir bizni ustaxonaga olib borib, qo'limizga arra berdi. Ota-bobom usta bo'lganligi va o'zim ham qishloqda ustachilik qilib yurganim uchun 15 ta yigitga bosh bo'lib, ustaxona ishlarini yuritdim. Ishlarimizni ko'rib xursand bo'lgan komandir “barakalla” dedi.

Frontga kelgach, veterinar ekanimni eshitgan komandir meni sanitariya bo'limiga jo'natdi. Bir hafta sanitarlikka o'qidik. Yarador jangchilarga qanday qilib birinchi yordam ko'rsatish va ularni jang maydonidan olib chiqib ketishni o'rgatishdi.

Shundan so'ng bizni Ukrainaga tashlashdi, Dnepr daryosi bo'yidagi bir qishloqqa kirib kelayotganimizda, nemislar bizni artilleriyadan o'qqa tutishdi. Bombardimon vaqtida hamma yashirinib, o'zini panaga oldi, sigirlar, echkilar ham jon saqlash umidida o'zini turli tomonga otar, hatto tovuqlar ham qaqag'lab daraxtma-daraxt uchib jon saqlar edi.

Nemislarning bombardimoni tugagach, ko'p o'tmay bizning “kатыusha”lar ishga tushdi.



Uning snaryadlari ustimizdan “vaulab” uchib, nemislar turgan joyni bombardimon qildi.

Qishloqqa kirganimizda dahshatli manzaraning guvohi bo'ldik. Nemislar chekinayotib pionerlar va komsomollarni yog'ochga mixlab otib tashlashgan, bir necha kunlab qolib ketgani uchun jasadlar shishib, kuchli hid chiqarar, umuman yaqinlashib bo'lmas edi.

Fashistlar shunchalik ablah ekanki, o'z askarlarini ko'mib, biznikilarni shundaygina tashlab ketishgan. Biz nemislarga o'xshab ish qilmasdik. Halok bo'lgan jangchilarimizning hujjatlarini olib, keyin dafn etardik, nemislarni ham alohida qilib ko'mgan edik. Jangchilarning parchalangan bo'laklarini olib, halok bo'lganlar bilan birga qo'shib ko'mardik.

Dneprning narigi sohilida biznikilar platsdarmni egallab olganlarida, biz sanitarlarni

*o'sha yoqqa yuborishdi. Ertalab tuman vaqti-  
da Dneprni boshqa soldatlar bilan birga solda  
kechib o'tayotgan vaqtimizda nemislar sezib  
qolib, bombardimon qilishdi. Bir nechta sol  
ustiga bomba tushib, ag'dar-to'ntar bo'ldi.  
Daryo usti qip-qizil qon bilan qoplangan,  
o'liklar, burdalangan a'zolar suv yuzasiga chi-  
qib qolgan edi.*

*Bir amallab qirg'oqqa tushdik. Jang may-  
doni o'lganlar va yaradorlarga to'lib ketgan  
ekan. Yaradorlarni otishma bo'layotgan may-  
donlardan olib chiqishga to'g'ri keldi. Yara-  
dorlar ingragancha, hamma o'z tilida "ona"  
der edi. Dushman pulemyotchilari yarador-  
lardan ko'ra ko'proq ularni olib chiqayotgan  
sanitalarni o'qqa tutar, ko'zlariga ko'rinma-  
gan hollarda minomyotdan otishar edi. Ayniq-  
sa, nemis snayperlari ish boshlaganda biron  
ish qilib bo'lmas edi.*

*Dushman o'qiga duch kelmaslik uchun  
emaklab harakat qilishga to'g'ri kelardi. Ana  
shunday og'ir ahvolda har kuni o'nlab askar-  
larning yaralarini bog'lab, jang maydonidan  
olib chiqar va daryo sohilidagi sollarda bizni  
kutib turgan jangchilarga topshirar edik. Shun-  
da ham baxti chopganlargina daryodan kechib  
o'tib omon qolar, omadi kelmaganlar bom-  
bardimon vaqtida cho'kib ketardi.*

*Bir kuni yaradorlarning oldiga borayotga-  
nimda, dushman meni sezib qolib, rosa o'qqa  
tutdi. Haliyam boshimdagi kaskam meni saqlab  
qoldi. Daydi o'q kaskamning o'ng yonboshi-  
dan teshib, peshonamni salgina "yalab" o'tdi.*

*Snaryad portlashidan hosil bo'lgan chuqurda  
yashirindim. Yaramni bog'layotganimda, bax-  
tinga bizning artilleriya dushmanning ovozini  
o'chirdi.*

*Dnepr bo'yidagi platsdarm egallanganidan  
so'ng, daryoga ko'prik qurildi. Bizni ko'prik to-  
mon yuborishdi. Ko'prikka yaqinlashganimiz-  
da, dushman diversantlari yashirincha dar-  
yodan suzib kelib, ko'prikni portlatdi. Hamma  
o'zini panaga olgan, yaradorlarning ingrashi  
butun atrofga eshitilib turar edi. Tezda yara-  
dorlarni olib chiqishga kirishdik. Bir necha soat  
davomida ko'prik yana ta'mirlandi va qatnov  
yo'lga qo'yildi.*

*Shundan keyin bizni yana bir jang maydoni-  
ga yuborishdi. Bir yarador jangchini maydon-  
dan olib chiqayotganimda, meni minomyotdan  
o'qqa tutishdi. Keyin...*

*Hushimga kelganimda, gospitalda yotgan  
ekanman. Yonimda portlagan mina oyoqla-  
rimni majaqlab tashlabdi.*

*Meni Moskvadagi Sokolniki gospitaliga  
jo'natishdi. O'sha yerda bir yil davolandim,  
keyin urush nogironi sifatida uyimga qaytarib  
yuborishdi.*

*G'ofir Aminqulov urushda ko'rsatgan ja-  
soratlar uchun I darajali Vatan urushi or-  
deni bilan mukofotlangan. Urush tugagach,  
tug'ilgan qishlog'iga qaytib keldi. Qishloqda  
veterinar vrach sifatida xizmat qildi.*

*U 2017-yilning iyunida Sherobod tuma-  
nidagi Xatak qishlog'ida vafot etdi.*

rakatida aholining barcha qatlami faol qatnashdi.

Pul va boshqa boyliklar davlat organlari, turli tashkilot va muassasalar tomonidan markazlashgan holda to'plangan bo'lsa-da, odamlar bu fondlarga o'z ixtiyori bilan nar-salarini topshirganlar.

Bu haqda 1931-yilda tug'ilgan Saidanvar Saidakbarov shunday eslaydi: *"Frontga nar-salarni maktabda yig'ishgan. Uyingizda nima ortiqcha kiyimmi, tuflimi bo'lsa, olib kelib topshiringlar, deyishgan. O'zim ham olib borib topshirganman. Ixtiyoriy olib borardik"*.

Aholi mablag'larini budjetga jalb qilishning yana bir shakli – pul-buyum lotoreyalari bo'lgan. Ushbu moliya mexanizmi orqali ham anchagina mablag' yig'ishga erishilgan.

Masalan, 1941-yil noyabrdan boshlab Moliya Xalq Komissarligi pul va buyumlik lotoreya chiqara boshlagan. Lotoreyadan tushgan daromad hammasi urushga bog'liq ishlarga sarflangan. Lotoreyaning umumiy mablag'i 1 mlrd rubl bo'lib, 200 ming rublik mablag' yutuq sifatida o'ynalgan.

Urush, eng avvalo, ulkan mablag', inson va tabiiy resurslarni talab etuvchi jarayondir. Davlatlar odatda urush xarajatlarini yopish maqsadida aholiga solinadigan soliqlar miqdorini oshiradilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida ham turli soliq va to'lovlarning oshirilishi aholi turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo o'zbek xalqi vatanparvarlik tuyg'ularini namoyon etib, ixtiyoriy ravishda ko'plab fondlarni tashkil etishda faolligi bilan ham g'alabaga unutilmas hissa qo'shdi.

**Командировочное удостоверение**

Выдано тов. ИСЛАМОВУ Х.  
(фамилия, имя и отчество, должность)  
Представитель Ташгориэподкома  
Совнарком УзССР  
(наименование органа, выдавшего удостоверение)

командированному в Москву  
(пункты назначения)

Срок командировки 30 \* дней по 7 \* июля  
1943 г. № 484

Основание: Приказ \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_  
194 г. № \_\_\_\_\_

Действительно по предъявлении паспорта сер. № \_\_\_\_\_

Печать  Абдураманов  
Председатель Совнаркома  
Узбекской ССР (А. Абдураманов)

**Узбекистон Совет Социалети Республикаси**  
**ХАЛҚ КОМИССАРЛАР СОВЕТИ**  
Узбекская Советская Социалистическая Республика  
**СОВЕТ НАРОДНЫХ КОМИССАРОВ**  
7 \* июля 1943 г.  
№ Уз-4  
Ташкент, Ташкент.

Отметки о прибытии в пункты назначения и убытии из них:

Прибыл в <u>Москва</u> <u>14</u> * июля 1943 г. Печать  Подпись <u>Аманов</u>	Убыл из <u>Москва</u> <u>26</u> * июля 1943 г. Печать  Подпись <u>Аманов</u>
Прибыл в _____ _____ * _____ 194 г. Печать _____ Подпись _____	Убыл из _____ _____ * _____ 194 г. Печать _____ Подпись _____
Прибыл в _____ _____ * _____ 194 г. Печать _____ Подпись _____	Убыл из _____ _____ * _____ 194 г. Печать _____ Подпись _____

Примечание. При выезде в несколько пунктов, отметки о прибытии и убытии делаются отдельно в каждом из них.

Т. Упр. Делами СНК УзССР Зак. № 1064-409-42 г.

*Toshkent shahri Ijroq'om vakili Hasan ota Islomovga berilgan xizmat safari guvohtonmasi. 1943-yil*





*Hasan ota Islomov 1942–1950-yillarda Faxriy oqsoqollar uyida raislik qilganligi haqidagi ma'lumotnoma. 1950-yil*





## G'ALABA QANOTLARI:

### *O'zbekistonda aviasozlik sanoatining barpo etilishi*

Fashistlar armiyasining Moskva ostona-sida paydo bo'lishi front chizig'iga yaqin hududda samolyot ishlab chiqarishni xavf ostiga qo'ydi. Shu sababli SSSR Davlat Mudofaa komitetining 1941-yil 15-oktabrdagi qarori asosida zavodni zudlik bilan Toshkentga ko'chirish boshlandi. Zavodning evakuatsiyasiga direktor Afanasiy Yarunin boshchilik qildi.

1941-yil 18-oktabrda ishlab chiqarish butunlay to'xtatiladi va mingga yaqin vagon-dan iborat 17 ta eshelon Toshkentga yo'l oladi. Vagonlarga 812 ta qurilma-uskuna, xom-ashyo tovarlari va materiallar ortilgan bo'lib, zavodning 4880 nafar ishchisi ham oilasi bilan Toshkentga keltiriladi. Yo'lda o'ninchi eshelonga dushman havo kuchlari va askarlari hujum qilib, vagonlarga katta talafot yetkazadi.

Urushning boshlang'ich davrida SSSR ixtiyorida desant samolyotlari deyarli yo'q edi. Armiyaning ta'minoti, qo'shinlar va harbiy yuk tashishni amalga oshirishda aynan PS-84 rusumli samolyotlarni tezlikda ishlab chiqarish zarur edi.

Korxonada evakuatsiyasini tashkil etish 13-noyabrda yakun topadi. Uskunalar va odamlar joylangan birinchi eshelon Toshkentga 1941-yilning 20-noyabrda kirib keladi. Qisqa muddatda evakuatsiya qilingan va mahalliy mutaxassislar yordamida Toshkentda PS-84 samolyotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

1942-yilning 7-yanvarda Toshkentda birinchi marta Ximki shahridan keltirilgan tex-



*B.P. Lisunov*

nik qurilmalardan "PS-84" samolyoti yig'ildi. Zavod ishchilari yanvarda umumiy oltita samolyotni topshirishga muvaffaq bo'ldi.

Zavodning 1942-yil 11-sentabrdagi 695-sonli qaroriga muvofiq, PS-84 rusumli samolyotiga zavodning bosh injeneri Boris Pavlovich Lisunovning nomi berildi.

Shu vaqtdan boshlab samolyotlar LI-2 (LISUNOV-2) nomini oladi.

1941-yil oxiridan boshlab PS-84 samolyotlari Harbiy havo kuchlariga yetkazib berila boshlandi hamda ushbu turdagi samolyotlar asosida maxsus aviaguruhlar tuzildi. Ular asosan sobiq fuqarolik aviatsiyasi uchuvchilaridan iborat bo'lib, guruhlar PS-84 samolyotlarida front chizig'iga harbiy tex-





# ГОСУДАРСТВЕННЫЙ КОМИТЕТ ОБОРОНЫ

ПОСТАНОВЛЕНИЕ № ГОКО-1340сс

от 24 февраля 1942 г. Москва, Кремль.

Об увеличении выпуска самолетов ПС-84 ("ДУГЛАС")  
на заводе № 84 в г.Ташкенте.

Государственный Комитет Оборонь постановляет:

1. Обязать Наркомавиапром т.Шахурина обеспечить выпуск самолетов ПС-84 по плану:

в марте 1942 года	-	30	самолетов
в апреле	"-	40	"-
в мае	"-	50	"-
в июне	"-	60	"-

2. Утвердить об'ем капиталовложений по заводу № 84 НКАП на 1942 год в сумме 40 млн. рублей, из них на жилищное и коммунальное строительство 11 млн. рублей.

3. Утвердить мероприятия по обеспечению выпуска самолетов ПС-84 (см.приложение).



ПРЕДСЕДАТЕЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО  
КОМИТЕТА ОБОРОНЫ И.СТАЛИН

Выписки посланы: т.т.Шахурину, Ярунину, Маленкову,  
Зигареву; ЦК КП(б)Узбекистана-все;  
Наркомам, облисполкомам, СНК Союз-  
ных республик - соответственно.

6-мт

*SSSR Davlat Mudofaa komitetining Toshkent shahridagi 84-son zavodida  
PS-84 ("Duglas") samolyotlari ishlab chiqarilishini ko'paytirish haqidagi qarori.  
1942-yil 24-fevral*

nika, qurol-yarogʻ, dori-darmon, oziq-ovqat va boshqa muhim mahsulotlarni yetkazib berdilar.

PS-84 fuqarolik samolyoti boʻlgani bois dastlabki vaqtlarda undan frontda foydalanish katta talafotlar keltirdi. Urushning dastlabki uch oyida Moskvaning “Vnukovo” aeroportida tuzilgan aviapolk jami 27 ta PS-84 samolyotini yoʻqotdi. Katta va nisbatan sekin uchuvchi samolyotni passiv himoyalash ham yetarli natija bermadi. Dushmanning qiruvchi samolyotlari bu samolyotga 15–20 metrga yaqinlashish va shu masofada aniq oʻt ochish imkoniga ega boʻldi.

Vaziyat tezlikda samolyotlarda faol himoyani qoʻllashni talab etdi. Shundan soʻng

ushbu samolyotlarga dastlab qoʻlbola, keyinchalik aviaqismlarda qurollar oʻrnatila boshlandi. Toshkentda ishlab chiqarilgan samolyotlar himoyalash tizimiga ega boʻldi.

Avvaliga MV-3 (keyinchalik UTK-1 rusumli turellariga almashtiriladi) rusumli samolyotning yuqori qismidagi tuynuk, bort va burun qismlari pulemyotlar bilan qurollandi. Samolyot uchuvchisining zirhli himoyasi kuchaytirildi hamda samolyotning turli joylariga qoʻshimcha pulemyotlar oʻrnatildi.

Natijada PS-84 pulemyotchilari bir necha qiruvchi samolyotlarni urib tushirishga erishdilar. 1942-yildan bu samolyotdan tungi bombardimonchi sifatida foydalanish boshlanib, uning tashqi qismiga umu-



*Oʻzbekiston kolxozchilari mablagʻi hisobiga ishlab chiqarilgan samolyot*





*Frezerchi Zokir Samikov, 1942-yil*



*Parchinlovchi Muazzam Aliyeva, 1943-yil*

miy 1000 kg og'irlikdagi aviabombalar ham o'rnatildi. Buning uchun Toshkentda Golubkov boshchiligida samolyotning Li-2NB modifikatsiyasi yaratildi.

Umuman, 84-sonli zavod Toshkentdagi faoliyati davomida ishlab chiqarish ko'lamini tiklab qolmasdan, balki mahsulot ishlab chiqarishni bir necha barobar oshirishga erishdi. Urush yillarida Toshkentda jami 2258 dona samolyot ishlab chiqarildi. Ular 19 ta aviapolkka yetkazib berildi.

Zavodning ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan tashkiliy va moliyaviy muammo-


lar respublika rahbariyati tomonidan imkon boricha hal qilindi.

Urush oxiriga kelib PS-84 (Li-2) samolyoti o'zining chidamliligi va yuqori texnik ko'rsatkichlari bilan harbiy transport aviatsiyasining eng ommaviy samolyotiga aylandi.

DS-3-PS-84-Li-2 samolyoti Ikkinchi jahon urushi yillarida G'alaba ramzlaridan biri sifatida avlodlar xotirasida saqlanib qoldi.

Hozirgi kunda LI-2 samolyotining O'zbekistondagi yagona namunasi G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi ekspozitsiyasidan o'rin olgan.


**PS-84K tajriba o'tkazish uchun ikkinchi namunasi davlat sinovida, 1940-y.**



**Maxsus aviaguruh uchun qurollangan PS-84. Xvoynoy aerodromi, 1941-y.**



**LI-2 (UTK-1 tureli bilan) vaqtinchalik qishki kamuflyaj rangida. Melitopol tumani, 1943-y.**



**Uzoq masofaga harakatlanuvchi 62-aviadiviziyaning LI-2 tungi bombardimonchisi, 1943-y.**



**1-gvardiyachi aviapolkining 1-eskadrilyasini uzoq masofaga harakatlanuvchi LI-2 samolyoti, Leningrad fronti, 1944-y.**



---

---

## IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON TIBBIYOT TIZIMI

1941-yilda urushning boshlanishi boshqa sohalar kabi tibbiyot tizimiga ham katta zarar yetkazdi. Okkupatsiya qilingan va harbiy harakatlar olib borilgan hududlarda 40 mingga yaqin turli tibbiyot muassasalari (shifoxonalar, klinikalar, minglab poliklinikalar, dispanserlar, tibbiyot o‘quv yurtlari va b.) vayron etildi.

Urush yillarida O‘zbekistonga millionlab aholi va yuzlab korxonalar bilan birga harbiy gospitallar ham ko‘chirildi. Gospitallarni binolarga joylashtirish, ularni oziq-ovqat, dori-darmon hamda kadrlar bilan ta‘minlash katta moddiy va tashkiliy resurslarni talab etdi. O‘zbekistonning turli yirik shaharlarida ko‘chirilgan gospitallar uchun kerakli sharoitlar yaratildi. 1942-yilning oxiriga kelib, O‘zbekiston hududlarida jami 39 ming 140 o‘ringa ega bo‘lgan 129 ta evakuatsiya gospitallari joylashtirildi.

O‘zbekistonga ko‘chirilgan gospitallarni to‘liq ixtisoslashgan tibbiyot muassasalarida joylashtirishning imkoni yo‘qligini inobatga olgan holda, ular uchun shaharlar tashqarisi yoki shahardagi park zonalariga ega binolar berildi. Jumladan, gospitallar uchun Temiryo‘lchilar va Tekstil kombinati madaniyat saroylari, sanatoriyalar, dam olish uylari ajratildi. Shuningdek, ko‘plab ta‘lim muassasalari binolari ham gospitallarni qabul qilish uchun qayta jihozlandi.

Toshkent va Samarqandda joylashtirilgan gospitallarda davolash sifatini oshirish maqsadida ixtisoslashuv amalga oshirildi. Jumladan, ixtisoslashgan gospitallarda murakab neyrojarrohlik operatsiyalari ham yo‘lga qo‘yildi.

Evakuatsiya qilingan gospitallar moddiy ta‘minoti doimo respublika rahbariyatining e‘tiborida bo‘ldi.

Evakuatsiya qilingan gospitallarning moddiy holati va oziq-ovqat ta‘minotini yaxshilash maqsadida, ularni 1 ming 500 dan ortiq mehnat jamoalari otaliqqa oldilar. Jumladan, ular ichida Toshkent aviatsiya zavodi, O‘rta Osiyo davlat universitetining jamoalari bor edi.

Gospitallarni otaliqqa olish ishlarida na faqat yirik korxonalar va tashkilotlarning mehnat jamoalari, ayni paytda, qishloqlar aholisi ham faol qatnashdi. Masalan, Buxoro shahrida joylashtirilgan gospitallarning birini Vobkent tumani mehnatkashlari otaliqqa oldilar. Tuman aholisi yordami bilan gospitalda donorlik punkti tashkil etildi. Ushbu punkt doimiy ravishda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab turildi. Tuman mehnatkashlari gospital binosini ta‘mirlash ishlarida ham ishtirok etdi.

Urush yillarida sog‘liqni saqlash tizimi armiyani harbiy-dala shifokorlari va hamshiralari bilan ta‘minlashi kerak edi. Shuningdek, epidemiologik vaziyat keskin og‘irlashuvini inobatga olgan holda, fuqarolik tibbiyot tizimining kadrlarini saqlab qolish vazifasi ham turardi. Shuning uchun ma‘lum ma‘noda sifatga salbiy ta‘sir ko‘rsatsa-da, kadrlar tayyorlash jarayoni tezlashtirildi. 1941–1942-o‘quv yilida tibbiyot ta‘lim institutlari va texnikumlari talabalari qisqartirilgan o‘quv rejalari asosida ta‘lim oldilar. Bitiruvchilar tezlikda frontga yoki gospitallarga safarbar etildi.

Bevosita frontda yoki gospitallarda faoliyat olib borishi mumkin bo‘lgan tibbiyot mutaxassislarini tezlikda tayyorlashda malaka oshirish

kurslari yordam berdi. Bunda turli ixtisoslikdagi shifokorlarni harbiy-dala jarrohlari, infeksiyalar kabi mutaxassisliklarga qayta o'qitish muhim ahamiyat kasb etdi.

1941-yilning 10-avgustidan to 20-oktabrigacha davom etgan mashg'ulotlarda 1489 turli ixtisoslik shifokorlari harbiy-dala jarrohlik kurslarida qayta tayyorlandi. Shuningdek, 1941-yil 10-avgustidan to 1942-yil 1-yanvrigacha davom etgan qayta tayyorlash kurslarida 3671 nafar feldsher va hamshiralar o'qib chiqdi.

Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi miqdoriy

o'sishga erishdi. 1941-yilda O'zbekistonda 368 ta kasalxona va 19 ming 498 ta davolash o'rinlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 1945-yilga kelib shifoxonalar 481 ta, davolash o'rinlari 24 ming 848 taga, shifokorlar soni esa 2 ming 561 nafardan 2 ming 984 nafarga ortdi.

1941-yil oktabridan to 1945-yilning 1-iyuligacha qadar 164 ming 382 nafar askarlar O'zbekistonga keltirilib, ulardan 143 ming 101 nafari, ya'ni 87 foizi davolanib chiqdi.

Ayni vaqtda frontga safarbar etilgan tibbiyot xodimlari har tomonlama murakkab sharoitlarda minglab askarlar hayotini saqlab qolib, dardlarini yengillashtirdilar.

**Hasan BOBOJONOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*



## URUSH YILLARIDA DIN ISHLARI

1943-yili O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkil etilganidan keyin, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qarori bilan din namoyandalarning maqbaralari boshqarma tasarrufiga o'tkazildi.

Bu davrda bir qancha masjidlar ochildi va yangilari qurildi.

Quyidagi arxiv hujjatlari shu haqda ma'lumot beradi.







СССР ХАЛҚ КОМИССАРЛАРИ  
СОВЕТИ ҚОШИДАГИ  
ДИН ИШЛАР КЕНГАШИНИНГ  
ЎЗБЕКИСТОН ССР ДАГИ  
ВАКИЛИ  
ПОЛНОМОЧЕННЫЙ  
СОВЕТА ПО ДЕЛАМ  
РЕЛИГИОЗНЫХ КУЛЬТОВ  
СНК СССР по УЗБЕКСКОЙ ССР

24. 11. 1946 г.  
№ 112с  
г. Ташкент, г. Ташкент

Махфия

Ўзбекистон Тошқи Ишлар Халқ Комиссары  
Уртоқ БУУБ АЛИЕВГА

СССР Халқ Комиссарлари Совети қошидаги  
дин ишлар кенгашининг Ўзбекистондаги вакили  
Сизга маълум қилади. Урта Осиё ва Қозоғис-  
тон мусулмонлар назорати диния идорасининг  
талабига кўра Ўзбекистоннинг қўшни давлат-  
ларидан Эронistonни Машиат шаҳридаги авлиё-  
лардан Мусбали Ризо, Мусоли Қозим Эроннинг  
Тегрон шаҳрида Юсуф Хамадонӣ, Абдуқодир Не-  
лонӣ сингари буюк мусулмон авлиёларининг  
зиёратгоҳ қойларини бориб зиёрат қилишни  
талаб қиладилар. Зиёратка боришни сураган  
11 кишини руҳхатини Сизга юбориб, маъқурларни  
талабини қондириш орасидан тегишли чора-қурб  
рухсат олиб беришингизни сўралади.

СССР Халқ Комиссарлар Совети  
қошидаги Дин ишлар кенгашининг  
Ўзбекистон вакили

(ШОДОВ) 8

21/11-441  
w 82c

4/8

Секретно:

ПРЕДСЕДАТЕЛЮ ТАШКЕНТСКОГО ЮРИСПСДБСМА  
г. ХУСАИНОВУ.

Для Вашего сведения сообщая, что согласно ходатайства верующих мусульман г. Ташкента и духовного Управления мусульман Ср. Азии и Казахстана СНК УзССР разрешено общине верующих мусульман открыть в гор. Ташкенте мечеть "Мирза Юсуф", которая находится в махалля Бадамзар Кировского района.

Оформление открытия мечети "Мирза Юсуф" будет проводить духовное Управление, о чем оно даст соответствующее указание своему представителю.

Управляющий делами  
СНК УзССР

(Ф.Таджиев)

300  
Симон



---

---

## O‘ZBEKISTON MUZEYLARI URUSH DAVRIDA

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va davlat asosiy resurslarining harbiy xarajatlarga qaratilishi mudofaa bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarni moliyalashtirishni qisqartirishga olib keldi. Bu esa bevosita madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatiga ham jiddiy ta‘sir o‘tkazdi.

Jumladan, 1941-yilning oxirida O‘zbekistonda muzeylar soni 17 tadan 11 taga kamaydi. Lekin iqtisodiy qiyinchiliklar va muzeylar sonining qisqarishi muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonining kamayishiga olib kelmadi. Urush yillarida muzeylar axborot va targ‘ibot markazlariga aylangani bois, urush boshlanishi bilan O‘zbekistondagi kutubxona va muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni oyiga o‘rtacha 10 mingdan 13 mingtagacha ortdi.

Bunday natijaga erishish uchun muzey xodimlari tomonidan aholini qiziqtirgan urush mavzusi bo‘yicha alohida ekspozitsiya va bo‘limlar tashkil etildi.

O‘zbekiston tarixi muzeyi turli korxonalar va tashkilotlar xodimlari uchun ko‘chma ko‘rgazmalar, sanoat korxonalar va muassasalarda, qurilishlar va gospitallarda turli tarixiy mavzular bo‘yicha davra suhbatlari va ma‘ruzalar tashkil etdilar.

Murakkab sharoitga qaramasdan, urush yillarida O‘zbekiston muzeylari ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishga alohida e‘tibor qaratdi. Jumladan, Surxondaryo viloyati muzeyida avvalgi ekspeditsiyalarda olib kelingan ashyolarni ilmiy o‘rganish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Samarqand muzeyi

xodimlari esa “Samarqand tarixi va uning madaniy obidalarini”, “Samarqand viloyatining etnografik tasnifi”, “Oqsaroy – dunyo madaniyati obidasi sifatida” mavzularida tadqiqotlar olib bordi.

1942-yilda O‘zbekiston muzeylarining 224 xodimidan 73 nafarni ilmiy xodimlar tashkil etardi.

1943-yilda O‘zbekiston tarix va san‘at muzeyining ikki alohida muassasaga, ya‘ni Davlat tarixi muzeyi va Davlat san‘at muzeyiga ajratilishi respublikada muzeysunoslikni rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Tarix muzeyi va Tabiat muzeyi shu yili tashkil etilgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibiga kiritildi. Qo‘qonda esa O‘lkashunoslik muzeyi tashkil etildi.

Urushning so‘nggi yillarida O‘zbekistonda muzeylar faoliyati, birinchi navbatda, ularni moliyalashtirish masalasi yaxshilandi. Jumladan, 1944-yilda respublika muzeylariga ajratilgan mablag‘ miqdori o‘rtacha ikki barobar ko‘paydi. Aynan shu davrdan boshlab O‘zbekiston muzeylari Ikkinchi jahon urushi mavzusi bo‘yicha ma‘lumotlarni yig‘ishni boshlab, ularni ilmiy tavsiflash ishini tashkil etdilar.

Shunday qilib, respublika muzey xodimlarining fidokorona mehnati, o‘z kasbiga sodiqligi tufayli urush yillarida muzey ishi rivojlanib bordi.

Eng asosiysi, muzeylar milliy tariximizni o‘rganish va vatanparvarlik tuyg‘ularini aholi orasida keng targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

**Hasan BOBOJONOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*



## QALAM QILICHGA AYLANGANDA

1941-yil sentabr oyida O‘zTAG (O‘zbekiston telegraf agentligi) oynasi dastlab Toshkentda, keyinroq uning filiallari Samarqand, Buxoro va Farg‘ona shaharlarida tashkil etildi. Endilikda plakatlar mazmuni front ma‘lumotlari bilan bog‘liq chiqarila boshlandi.

Posterlarda fashist agressorlarining makkorona niyatlarini fosh qilishga, o‘zbek di-



*Usta Nabi Hofizov. Nayza bilan o‘rgan yovni yanchishga. 1942-yil*

viziyalarining tashkil etilishiga taalluqli, front ortidagi safarbarlik, zavod va dalalarda ish jarayonini kuchaytirish, evakuatsiya qilingan aholiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va yetim bolalarni tarbiyaga olish kabi mavzular yoritilgan.



*A.A. Aleksandrov, V.V. Volchek  
Vatanni himoya qilishni o‘rgan. 1941-yil*

Ulardagi tasvirlar kayfiyatni ko‘tarib, front ortidagi mehnatkashlarning g‘ayratini oshirish va frontda jangovar ruhiyatni ko‘tarishga xizmat qilgan. Urush mavzusiga oid eng yangi plakatlar front chizig‘iga transport orqali yetkazilgan.

Urush davri Sovet Ittifoqi plakatlarida dushman tasviri asosiy o‘rinni egallaydi. Umumiy xususiyatlarga ko‘ra, dushman ko‘rimsiz, nasliy patologik, karikatura ko‘rinishida, ko‘pincha ilon yoki yovvoyi hayvon obrazida tasvirlangan.

Front va front orti birligi, g‘alabaga erishish uchun xalq mehnatining hissasi muhimligi 1941-yilning yoz-kuz mavsumi plakatlari uchun asosiy mavzuga aylanadi. O‘zbek xotin-qizlarining ijtimoiy hayoti va ularni yanada faol mehnat qilishga da‘vat etuvchi plakatlar ko‘pgina rassomlar ijodida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Nadejda Kashinaning O‘zTAG nashriyatida 86 seriya bilan chop etilgan plakati buning yaqqol misolidir.

Agitplakatning markazida ishchi ayol obrazini vatan himoyasida jang olib borayotgan





*N. Kashina. 1941-yil*

erlari uchun barcha ayollar nomidan ommaviy ishga chiqishni da'vat etmoqda. Shuningdek, Usto Mo'min (A. Nikolayev) tomonidan ishlangan "Leningrad O'zbekiston shefligida" deb nomlangan plakatda ham front ortida mehnat qilayotgan zahmatkash ayol gavdalaniadi. Urush yillarida zavod va fabrikalar, kolxozlarda nozik xilqat vakillari asosiy mehnat kuchini tashkil etgan va bu vazifani ular a'lo darajada uddalashgan.

Moskva ostonasidagi g'alabadan so'ng harbiy plakatlarning mavzusi nemis bosqinchilaridan qasos olishga chorlovchi kompozitsiyalar bilan boyitiladi. Urushning ilk yillaridagi vazminlik xarakteridagi chaqiriqlar o'rnini keskinlik va oshkoralik egalladi.



*Usto Mo'min. Leningrad O'zbekiston shefligida. 1941-yil*



*M.A. Nesterova-Berzina. Front uchun san nima berding? 1943-yil*






*B. Jukov. Qasos oling birodarlar! 1943-yil*

Ularning shiori “Qonga qon – jonga jon” deya yangray boshladi.

Qasoskorlar sifatida partizanlar va maxfiy uyushmalar asosiy planga chiqdi. 1943-yilda yaratilgan, B. Jukov qalamiga mansub “Qasos oling birodarlar” deb nomlangan plakat gitlerchilarga nisbatan nafratni va ulardan intiqom olishni targʻib qiladi.

**Alisher EGAMOV,**  
*tadqiqotchi*



---

---

## UNUTILMAS SIYMOLAR

### Sodiq HUSAINOV

(1907–1976)

Sodiq Husainov 1907-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Dastlab o'z faoliyatini ishchi sifatida boshlab, tirishqoqligi va mehnatsevarligi tufayli o'zi ishlagan muassasa va tashkilotlarda yuqori natijalarga erishgan.

Sodiq Husainov quruvchi sifatida shu davrda O'zbekistonda bir necha yirik sanoat obyektlarini barpo etishda ishtirok etdi. Jumladan, 1929–1930-yillarda "Tashselmash" zavodi qurilishida qatnashdi. U 1930–1932-yillarda "Xlopstroy" tresti qoshida tashkil etilgan ikki yillik quruvchilar kursini tamomladi.

O'qishni tugatgach, u respublikada o'zini bilimli quruvchi va talabchan tashkilotchi-rahbar sifatida ko'rsata oldi. 1937-yilda Tekstil kombinati, 1939-yilda Toshkentda ko'l va park qurilishida faol ishtiroki uchun hukumat faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

Sodiq Husainov 1938–1940-yillarda Toshkent shahri Frunze (hozirgi Yakkasaroy) tumanida Kengash raisi o'rinbosari hamda rais lavozimlarida faoliyat yuritdi.

1940-yilda dastlab Toshkent shahri ijroqo'mi raisi o'rinbosari, 1941-yil 23-apreldan Toshkent shahri Kengashi ijroqo'mi raisi lavozimida 1951-yil 11-yanvargacha faoliyat olib bordi.

Urush yillarida Toshkent shahri hayoti Sodiq Husainovning rahbarlik faoliyati bilan bog'liq holda kechdi.

Bu yillarda sobiq Ittifoq miqyosida Toshkent shahrining roli va ahamiyati beqiyos bo'ldi.



Birinchi navbatda, Toshkent shahri respublikaning asosiy sanoat markazi sifatida butun imkoniyatlarini frontga mahsulot yetkazib berishga qaratdi. 1941-yil dekabr-ga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxonaga va respublikadagi boshqa 230 ta korxonaga mudofaa mahsulotlari bera boshladi.

Shuningdek, urush yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan 170 ga yaqin korxonaning asosiy qismi Toshkent shahriga joylashtirilgan edi. Toshkent shahrida harbiy mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish, sanoat korxonalarini uchun inshootlar topish, ko'chirilgan aholini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda uy-joy bilan ta'minlash murakkab jarayon edi.



СВЕДЕНИЯ О РАБОТЕ						
№ записи	Дата			Сведения о приеме на работу и увольнении	работу, перемещениях по (с указанием причин)	На основании чего внесена запись (документ, его дата и номер)
	Год	Месяц	Число			
1	2	3	4	5	6	7
				<u>Шаангористов Н.И.</u>		
4	1940	I	10	Назначен заместителем председателя Шаангористовского	член Шаангористовского	Выписка из протокол. 12 сессии Шаангористовского от 9/1-41
5	1941	II	23	Назначен председателем Шаангористовского	член Шаангористовского городского совета	Выписка из протокол. 23/II-41 сессии от 30/II-41
6	1951	I	11	В связи с переводом на другую работу, освобожден от должности секретаря Шаангористовского	член Шаангористовского городского совета	Решение I сессии Шаангористовского городского совета от 10/1-51. (Усманова)

Respublikaning boshqa rahbarlari bilan bir qatorda, Sodiq Husainov bevosita ushbu murakkab jarayonlar ichida yurib, ularni amalga oshirish tashkilotchilaridan bo'ldi.

Shu davrda ko'chirib keltirilgan korxonalarni elektr bilan ta'minlash muhim vazifa hisoblanardi. Sababi, yetarli elektr ta'minotisiz shahardagi korxonalar faoliyati to'xtab qolar edi.

S. Husainov Toshkent shahrini elektr bilan ta'minlovchi Salor GES qurilishida, shuningdek, shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashini yaxshilovchi, Toshkent viloyati qishloq xo'jalik yerlarini suv bilan ta'minlovchi Toshkent kanali qurilishida faol qatnashdi.

Ma'lumki, urush yillarida Toshkent tom ma'noda O'rta Osiyoning ilmiy va madaniy markaziga aylangan edi. Bu davrda respublikaga evakuatsiya qilingan Ittifoq Fanlar akademiyasining institutlari va madaniyat xodimlari o'zbek olimlari hamda madaniyat xodimlari bilan hamkorlikda samarali mehnat qilishdi.

Sodiq Husainov madaniyat xodimlariga sharoit yaratish, aholining madaniy-ma'rifiy darajasini oshirishga e'tibor qaratib, Toshkent shahrida yangi teatr binosi qurilishida ham jonbozlik ko'rsatdi.

Sodiq Husainovich Husainov samarali va fidokorona mehnatlari uchun Mehnat Qizil Bayrog'i ordeni hamda "1941-1945-yil-

МОСКВЫ 1197 47 20/3 04 45-

КОПИЯ

ПРАВИТЕЛЬСТВЕННАЯ ДВА АДРЕСА

ТАШКЕНТ

СЕКРЕТАРЬ ТАШКЕНТСКОГО ГОРОДСКОГО КОМИТЕТА КП /б/

УЗБЕКИСТАНА ТОВАРИЩУ ЕМЦОВУ

КОПИЯ ПРЕДСЕДАТЕЛЮ ИСПОЛКОМА ГОРСОВЕТА ДЕПУТАТОВ

ТРУДЯЩИМСЯ ТОВАРИЩУ ХУСАИНОВУ

Передайте трудящимся города Ташкента и  
собранным 34210000 рублей на строительство танков и  
боевых самолетов ит тире мой братский привет благодар  
Красной армии ГЧК

СТАЛИН

Копия верна:

*Toshkent shahri aholisi tomonidan tanklar va samolyotlar qurilishiga  
34 mln 210 ming rubl to'plangani uchun minnatdorlik telegrammasi nusxasi.  
1945-yil 3-aprel*

lar Ulug' Vatan urushida shavkatli mehnati  
uchun" medali bilan taqdirlandi.

1951-yildan keyingi yillarda u respubli-  
kada turli vazirlik, tashkilot va korxonalarda  
rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bordi.

Sodiq Husainov 1976-yil 19-martda vafot  
etdi.

**Hasan BOBOJONOV,**  
*falsafa doktori (PhD)*





---

---

## Matluba ESHONXO‘JAYEVA

(1916–1994)

Urushda qozoniladigan g‘alabaning asosiy omillaridan biri, bu — mustahkam front ortidir. Janggohlardan ming-minglab yaradorlarni o‘z bag‘riga olgan, ularni davolab, qaytadan frontga kuzatgan Toshkent o‘zining Matluba Eshonxo‘jayeva kabi mehrshafqat hamshiralari borligi bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Urush yillarida shahardagi 46-sonli o‘rta maktabda tashkil etilgan gospitalda yaradorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatgan Matluba Eshonxo‘jayeva ular dardiga o‘zining samimiyligi, mehribonligi, shirinso‘zligi bilan malham bo‘ldi.

U bemorlarga qo‘lidan kelgan yordamini ayamagan, qaysidir bir yarador askarning iltimosi bilan bir enlik xat yozib, uning oila a‘zolariga umid baxsh eta olgan bo‘lsa, yana birining og‘ziga bir ho‘plam suv tutib najot farishtasiga aylangan edi. Necha o‘nlab yaradorlarga qon berib, ularni hayotga qaytardi. Chetdan qaralganda oddiy bo‘lib ko‘ringan, lekin zamirida ulkan odamiylik, matonat va ulkan sabr-bardosh yotgan ana shunday mashaqqatli mehnati bilan Matluba Eshonxo‘jayeva buyuk G‘alaba kunlarini yaqinlashtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Urushdan keyingi yillarda u 4-sonli bolalar poliklinikasida hamshira bo‘lib ish faoliyatini davom ettirdi. Farzandlari bu samimiy inson qo‘lidan shifo topgan onaxonlar Matluba Eshonxo‘jayeva nomini hozirgacha minnatdorchilik bilan eslashadi.



Ayniqsa, 1966-yilgi Toshkent zilzilasi paytida Matluba Eshonxo‘jayevaning oliyjanob fazilatlari yana bir bor namoyon bo‘ldi. O‘sha qayg‘uli kunlarda u kecha-yu kunduz o‘z xizmat joyida bo‘ldi, zilziladan jabr ko‘rganlarga tibbiy yordam ko‘rsatdi.

Ana shunday qiyin sharoitda to‘qqiz kishidan iborat boshpanasiz qolgan oilani o‘z uyiga joylashtirib, ularga ham moddiy, ham ma‘naviy tomondan yordam berdi.

O‘z ishiga vijdonan yondashish, kasbiga bo‘lgan sadoqat Matluba Eshonxo‘jayevani shu kabi fidoyilik va muruvvat ko‘rsatishga undagan bo‘lsa, ne ajab.

El-yurt e‘zoziga sazovor bo‘lgan, pir-u badavlat bir oilaning kamtarin bekasi va



nabiralarning sevikli buvijonisi Matluba Eshonxo‘jayeva sobiq Ittifoq miqyosida tan olingan donor edi. U zarurat tug‘ilganda, hech ikkilanmasdan, o‘z qoni bilan o‘nlab bolajonlarning hayotini asrab qolgan.

Uning bolajonligi, bemorlar dardiga butun vujudi bilan malham bo‘lish xislatlari aynan 4-sonli bolalar poliklinikasida 40 yildan ortiq mehnat qilishiga sabab bo‘ldi. Bir vaqtlar mehribon hamshiradan shifo topgan bolakaylarning o‘zlari keyinchalik farzandlarining salomatligini unga ishonib topshirishdi.

1971-yilning 12-may kuni Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasining Jenevada o‘tkazgan tantanali tadbirida o‘zbek ayolining matonati, fidoyiligi, mehr-oqibati va bolajonligi birinchi bor e’tirof etildi.

Ayni shu marosimda Matluba Eshonxo‘jayeva nomi dunyo tan olgan mehr-shafqat hamshirasi sifatida jarangladi hamda insonparvarlik va fidoyilikda ibrat ko‘rsatgani uchun Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi tomonidan ta‘sis etilgan Florens Naytingeyl xalqaro oltin medali bilan taqdirlandi.

Bu xalqaro mukofotga xoh jang maydonlarida bo‘lsin, xoh front ortida yoki biror bir tabiiy ofatlar ro‘y bergan hududda bo‘lsin, eng avvalo, o‘zining jasorati, insonparvarligi, jabrlanganlar dardiga darmon bo‘lib mehr-shafqat ko‘rsatgan tibbiyot hamshiralari sazovor bo‘lishadi. Ayni paytda, bu ezgu e’tirofga sazovor bo‘lganlar juda sanoqlidir...

Hozirgi kunda Toshkent shahri Olmazor tumanida barpo etilgan G‘alaba bog‘i yodgorlik majmuasi tarkibidagi “Shon-



sharaf” davlat muzeyi fondida Matluba Eshonxo‘jayevaning shaxsiy arxividan ayrim buyumlari saqlanmoqda. Ashyolar orasida bir fotosurat kishi e‘tiborini o‘ziga jalb etadi.

Bu fotosurat 1971-yilda tasvirga olingan. Unda dasturxon atrofida o‘tirgan oddiy o‘zbek xonadoni aks etgan. Matluba opaning yonida boshiga o‘zbek do‘ppisini qo‘ndirib olgan chet ellik mehmon bir piyola choy ustida xonadon sohiblari bilan qizg‘in suhbat

qurmoqda. Bu o‘sha, xalqaro Florens Naytingeyl nomidagi medalni o‘z qo‘li bilan topshirish uchun xonadonga tashrif buyurgan Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasining vakilidir.

Matluba Eshonxo‘jayevaning suratlariga boqar ekansiz, uning mehr taratayotgan ko‘zlari e‘tiboringizni tortadi. Siz ulardagi mehr taftini, samimiyatni his etasiz va beixtiyor: **“Odamzodga baxsh etadi jon, Odamlarning mehr quyoshi”** degan satrlar xayolingizga keladi.

**Zebo XOLBOYEVA,**  
*“Shon-sharaf” muzeyi xodimi*



---

---

## O'ZBEK XALQINING BAG'RIKENGLIGI

Urushning dastlabki oylarida front hududlaridan tinch aholini zudlik bilan xavfsiz hududlarga ko'chirish jarayonlari amalga oshirildi. Bunda O'rta Osiyoda joylashgan respublikalar, shu jumladan, O'zbekistonga ko'plab insonlar hamda xalq xo'jaligi obyektlari evakuatsiya qilindi.

Mahalliy aholi tomonidan ko'chirib kelingan odamlarga ko'rsatilgan e'tibor, mehr-oqibat, birdamlik va xayrixohlik ularning bu yerda yashab, mehnat qilishlari uchun katta yordam bo'ldi.

O'zbekiston KP(b) Markaziy komiteti va Respublika hukumatining qaroriga asosan, Qo'qon, Samarqand, Kogon shaharlarida va Vrevskiyda (hozirgi Chinoz tumani Olmazor MFY) har biri sutkasiga 1500 kishini qabul qila oladigan to'rtta evakopunkt tashkil qilindi. Bu punktlarning har birida 30 kishi ishladi.

Ko'chirib keltirilgan aholiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish, ular o'rtasida keng sanitariya va targ'ibot ishlari olib borish zarur edi. Ularni qabul qilish va joylashtirishda Qizil yarim oy jamiyati hamda sanitariya drujinalari faollari ham qatnashdilar.

Evakuatsiya qilingan insonlar uchun respublika Qizil yarim oy jamiyati sanitariya faollari Toshkent, Aris, Ursatevskaya, Samarqand, Andijon va boshqa temiryo'l stansiyalarida maxsus brigadalarni tashkil etdi.

Toshkent temiryo'l stansiyasining Qizil yarim oy jamiyati faollari 73 bolani o'z tarbiyasiga oldi.

Umuman, 1942-yilga qadar O'zbekiston Qizil yarim oy jamiyati tomonidan 3 ming 269 kishi evakuatsiya qilingan aholi bilan ishlash uchun jalb qilingan edi.



## MUDHISH URUSH XOTIRALARI

Ma'lumki, front oldi hududlaridan avvalo bolalar, ayollar va qariyalar tezkor ko'chirib olib kelingan edi.

Fashist bosqinchilari ko'plab insonlarni qiynab, o'ldirib, qolgan qismini esa konslagerlarga yuborar edi. Bunday dahshatli voqealar guvohi bo'lgan insonlar, ayniqsa,

bolalar ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan qattiq azoblandi.

O'zbekistonda ularning hayotini saqlab qolish va osoyishta turmush kechirishi uchun sharoitlar yaratildi. Biroq urushning mudhish, qonli manzaralari ularning xotirasida abadiy qoldi.



---

---

## UCHINCHI PORTLASH

*Atrofdan sirenalarning baland ovozlari eshitilib, ular hamma yerdan – fabrika, zavod, poyezdlardan g‘uvillab kelardi. Shahar osmonini fashistlar samolyotlari qoplab oldi.*

*Men uyda yolg‘iz edim. Qo‘rqib Dnepr tomonga yugurdim, uning qoyali qirg‘oqlarida bekinib olmoqchi bo‘ldim. Qarasam, ko‘chani narigi tomonidan onam men tomon chopib kelyapti. Shu payt oramizda birdaniga bomba portladi. Onam yerga yiqilib tushdi,*

*ammo yana turib men tomon yugurdi. Uning yonida yana ikkita bomba portladi. Onam yana yiqildi va bu safar yaralandi: yuzlari va biqinlaridan qon oqardi. Lekin u yana turib chopdi. Menga yaqin qolganida, nimadir deb menga gapirdi.*

*Shunda uchinchi portlash ro‘y berdi. Men ham, onam ham yiqildik. Keyin onamning oldiga bordim... Onam endi jonsiz yotardi.*

**Petya Konyayev,  
13 yosh, Mogilyovdan.  
(Toshkent shahar 1-sonli Bolalar uyida  
1942-yil 10-fevralda yozib olingan)**





## ONAM O'TIRGAN VAGON

*Konotopga yaqinlashganimizda fashistlar bulut kabi ustimizga yopirildi, birdaniga o'n uchta samolyot. Kunduzi edi. Quyosh charaq-lab turgandi.*

*Onam menga: "Sen toza havoda o'tirgin, men tushlik ovqat pishiraman", degandi.*

*Onam esa vagon ichida ovqat pishirib, kir yuvib, yana boshqa ishlar bilan band edi. Men vagonimiz yaqinida bir joyda kitob o'qib o'tir-gandim. Birdaniga yana dushman samolyotlari yopirilib keldi. Odamlar tezda vagonlarning tagiga yashirindilar. Samolyot esa yerga juda yaqin uchib, odam bo'yi bilan tenglashib,*

*vagonlarning tagiga, odamlarga qaratib pu- lemyotdan o'qqa tutdi.*

*Men dahshatdan qo'rqib, dala tomonga yugurib ketdim. Tinimsiz bombalar otila bosh- landi, bu safar bomba vagon ustiga tushdi. Vagonlar yona boshladi.*

*Men dala bo'ylab chopdim. Dala juda bepo- yon edi. Bug'doy o'rilgan ekan. U to'p-to'p qilib yig'ilgandi. Men bug'doy to'plari orasiga ya- shirindim.*

*Asta mo'ralab qaragam, poyezd yonayotgan edi, onam o'tirgan vagon ham olov qurshovida qolgandi.*

**Tanya Ayzenberg,  
13 yosh, Kiyevdan.**

*(Toshkent shahar 9-sonli Bolalar uyida  
1942-yil 13-fevralda yozib olingan)*



## SARIQ SUMKALAR

Ular erkaklardan: “Qizil askarlar qayerda joylashgan?” – deb so‘rashdi. Biroq erkaklar indamasdi. Biz ham jim turdik. Shunda ular bizning to‘damizdan kattaroq o‘g‘il bolalarni tanlab olib, erkaklar to‘dasiga qo‘shdi. Ulardan hujjatlarni talab qildi: “Hujjatni ber!” Barcha: “Yo‘q, uyda qolibdi”, javob berardi. Shunda ular cho‘ntaklarni titishni boshlashdi. Bir erkakni oldinroqqa itarib chiqarishdi. Cho‘ntagidagi qog‘ozni olib o‘qishdi. Keyin uni otib tashlashdi.

Ayollar yig‘lab yuborishdi, bolalar qo‘ruqvdan yerga yotib olishdi. Shu tariqa, ular ko‘p erkaklarni otib o‘ldirishdi. Ularning hujjatlarini esa o‘zlarining yelkalariga ilib olgan sariq sumkalariga solib qo‘yishardi. Sumkalarini hujjatlarga to‘ldirishdi. O‘ldirilmay qolgan erkaklarni o‘rmonga quvib ketishdi. O‘g‘il bolalarni ham. Onalari ularning ketidan chopishardi, biroq nemislar onalarni miltiq bilan itarib, nariga uloqtirib tashlashardi...

Nemislar hamma erkaklarni quvib ketishgandi. Biz, ayollar va bolalar, chamasi qirq kishi edik. Hammamiz yig‘lab ketardik, qayerga borishni ham bilmasdik. Bir payt yana o‘q ovozlari eshitildi. Chap tarafimizdan o‘qqa tutishdi. Nemislar ko‘rinmas, lekin o‘q otildirdi. Bir ayol bolasi bilan yiqildi. Uni o‘ldirishgandi. Uning bolasini boshqa ayol ko‘tarib oldi. Biz qochib

o‘zimizni qutqarib qolishni hatto o‘ylamay ham qo‘ydik.

Bir bolaning qalpog‘ini o‘q teshib o‘tib ketdi. Omadi bor ekan, o‘lmay qoldi. Mening ko‘ylagim yengini o‘q teshdi, bir parcha mato yirtilib uzilib ketdi. Yaxshi ko‘rgan ko‘ylagim edi: burmalar bilan bezatib tikilgandi. Uni onam menga tikib bergandi.

Biz yugurishda davom etardik, o‘limizni kutib, tez orada o‘zimiznikilarni uchratishimiz xayolimizga ham kelmasdi. Birdaniga o‘tlar orasidan pulemyotni ko‘rib qoldik, yana nemislar, deb o‘yladik. Va pulemyotdan qochishga tushdik. Shu paytda bizga kimdir: “Qo‘rqmanglar!” – deb baqirdi.

Qarasak, daraxtlar ortidan yuk mashinasi chiqdi, unda qizil armiyachilar va kolxozchilar o‘tirishardi. Bu o‘rmondagi partizanlar ekan. Ularning hammalari mashinadan sakrab tushib, mashinaga yosh bolasi bor ayollarni chiqarishdi. Haydovchining kabinkasi ham bolalarga to‘ldi. Bizga: “Sizlar birmuncha kattaroqsizlar, bolalaringiz ham yo‘q yoningizda, shuning uchun biroz kutasizlar”, deyishdi.

Biz o‘rmonda ikki kun qoldik. Keyin ular qizil bayroq bilan ishora qilib poyezdni to‘xtatishdi, unga bizni o‘tqazishdi va: “Oq yo‘l!” – deb biz bilan xayrlashishdi.

**Dusya Semyonova,  
14 yosh, Kiyevdan.**

(Toshkent shahar 9-sonli Bolalar uyida  
1942-yil 13-martda yozib olingan)

---

---

## ENDI ULAR MEHR OG‘USHIDA

Front oldi hududlaridan evakuatsiya qilingan bolalar urushda ko‘rgan dahshatli fojialardan chuqur iztirobga tushganlar.

Anya Lebelning ko‘zlariga hali ham kichkina qizchanning barmoqlari uzilib, o‘t ustida yotgani ko‘rinadi.

Donya Xayenko otasini uyg‘otishga rosa urinib, uni o‘rnidan turg‘iza olmaganidan so‘ng, yuk tashuvchi poyezd orqasidan yig‘lab chopganini hech qachon unuta olmaydi.

Lyuba Vatnik onasining qo‘lidan birdaniga qo‘li chiqib ketib, yolg‘iz o‘zi bombardimon ichida qolib ketganini abadiy esidan chiqarmaydi.

Biroq bu bolalarning hikoyalari barisi yaxshi yakun topgan va u bir jumlada o‘z ifodasini topgan: **“Bolalar uyi. Toshkent”**. Bu jumlaning ma‘nosi shundaki, bolalar ularning ortidan quvib borgan dushman o‘qlaridan halok bo‘lmaganlar...

Ularga boshpana berilib, ustilarini but, qorinlarini to‘q qilishgan. O‘zbekiston front oldi hududlaridan keltirilgan bolalarni mehmondo‘stlik bilan kutib olgan. Bir qancha minglab yetim qolgan, yo‘qolib qolgan bolalarga respublikaning shahar va kolxozlarida boshpana berilgan.

Borya Voronin Toshkentga olib kelingan, u ortiga, urushga qaytmoqchi, darslarni esa urush tugagach o‘qishini aytadi. *“Hozir barcha urushmog‘i lozim”*, deydi u. Ammo unga bolalar o‘qishi zarur, deb tushuntirishadi.

Valya Matsyupchenko urush tufayli to‘xtab qolgan balet mashqlarini tez kunlarda davom ettirishga kirishadi.

Yemelyan Umanskiyning musiqaga qobiliyati borligi aniqlandi. Endi u musiqa maktabi libosida g‘ururlanib yuribdi.

Rokxa Ozer zavodda frezerlik kasbini egallamoqda.

Lyuba Vatnik dushmanlar biznikilarni qiynashganini ko‘rgan, Dunya Semenova-ning oq ko‘ylagini dushman o‘qi teshib o‘tgan, Lyuba Bulgakova fashistlar cherkovga ayollarni qamab yoqib yuborishganda, ayollar faryodini eshitgan, boshqa bolalar ham urushning dahshatli voqealarini boshidan kechirib azoblanganlar.

Biroq endi ular O‘zbekiston o‘lkasida, fashist o‘qlaridan yiroqda, ular yana maktab o‘quvchilari, qoldirilgan darslarini o‘qib, tahsil olmoqdalar.

Tanechka Ayzenberg esa ancha omadli va baxtli. Uning onasi yonib ketgan vagonda qolib ketgandi, lekin u tirik ekan. Ona omon qolibdi, gazetada Tanyaning hikoyasini o‘qib, Toshkentga kelib qizalog‘ini izlab topdi va ular yana birga!

Biroq, agarda o‘z onalari topilmasa, yangi onalar topilishi mumkin. Bolalar uyiga borsangiz, *“Bizdagi qizni (yoki bolani) farzandlikka olib ketishdi”*, degan gaplar ko‘p uchraydi. O‘zbekistondagi ko‘plab fidoyi insonlar yetim qolgan turli millatga mansub bolalarga o‘z oilalaridan boshpana berib, ularni o‘zlariga farzand qilib oldilar.

O‘qituvchi Tohir Sultonov oilasi o‘n yoshli bolani boqib oldi. Tohir Sultonov yigirma to‘rt yildan beri o‘qituvchilik qiladi. Uning besh nafar farzandi bor. Endi esa ular olti-

ta bo'lishdi. U shunday dedi: *“Besh kishining qorni to'ygan uyda oltinchisining ham qorni to'yadi, deb biz ayolim Oyto'ra bilan bola boqib oldik. Maktabda ham, bu mening yangi farzandim, unga tezroq darslarni o'zlashtirib olishida yordam beringlar, deb aytdim”.*

Hovlida, shiypon ostida Pavlik sakrab o'ynab yuribdi. Uning ismi endi Komil. O'ziga bu ism juda yoqadi. Maktab daftarlarida u chiroyli qilib *“Tohirov Komil”* deb ismini yozgan. *“Mening yaqinlarimni dushmanlar o'ldirishdi, – deydi u. – Endi mening otam va onam mana bular. Yangi aka-ukalarimdan men eng ko'p Kamolni yaxshi ko'raman. Biz bog'ga chiqqanimizda, u menga hushtakchalar yasab beradi. U menga o'zbekcha gapiradi. Men ba'zida tushunaman, ba'zida esa – yo'q. Men o'zbekcha sanashni ozroq o'rgandim: bir, ikki, uch...”*

Yangi oilalarida bolalar asta-sekin o'zlariga kelishyapti, ba'zilari uzoq vaqt davomida, ba'zilari esa tezroq, avvalgidek, bolalarga xos beg'uborlikka qaytishyapti.

Mayka Lipatova bog'da iris gullarini ekdi. *“Menga bu yer, O'zbekiston, juda yoqadi – deydi u. – To'g'ri, bizning shimolda ham yaxshi, lekin u yerda baribir bu yerdagidek katta va qalin gullar yo'q-da”.*

Maykaning yangi dadasi etikdo'z. *“Men yo'ldan kelganimdan keyin kasalxonada yotgandim, – deya eslaydi u. – Nemislar meni pulemyotdan otib, oyog'imni yaralashdi. Kasalxonada yotib, bir kuni tushlikni kuta-yotgandim. Shunda hamshira kelib, meni olib ketishga otam va onam kelishganini aytdi. Bular yangisi edi. Avvaliga shifokor meni uyga qo'yib yuborgisi kelmadi va yangi ota-onamga bir haftadan keyin kelishlarini aytdi. Ammo ular shifokorni ko'ndirishdi va men uyda tez kunda tuzaldim. Hozir endi hatto arqonda ham sakray olaman”.*

Shunday qilib Maykani farzandlikka olishdi. Ushbu kundan boshlab Maykaning fashistlar bombasidan so'ng yo'qolgan bolaligi yangi oilada qayta boshlandi.

**L. Chukovskaya, L. Jukova,**  
*“So'z bolalarga beriladi...”* kitobidan.  
Toshkent, 1942



---

---

## “SEN YETIM EMASSAN...”

O‘zbekiston aholisi Respublika hukumati boshchiligida evakuatsiya qilingan bolalarga boshpana berib, ularni kiyintirib, qorini to‘ydirib, hayoti va o‘qishi uchun sharoit yaratib berdi.

Respublika bolalar evakopunkti ham katta ishlar qildi. Uning asosiy vazifasi – qarovsiz bolalarni aniqlash va to‘plash hamda ularni tegishli muassasalarga joylashtirib, ovqat bilan ta‘minlashdan iborat edi. Evakopunkt ko‘chirib keltirilgan bolalarni qabul qilib, tegishli yordam ko‘rsatdi va ularni bolalar uylariga joylashtirdi.

Korxonalar qoshida internatlar, bolalar uyi filiallari tashkil qilinib, ularga ishchi-

lar o‘z maoshlaridan bir qismini berdilar va oralaridan tarbiyachilar ajratdilar.

Toshkentdagi 110-maktab direksiyasi bolalar uchun alohida xona tashkil qildi. Ota-onalar tomonidan bolalarning ta‘minoti uchun har oyda ma‘lum miqdorda pul berib turildi. Qo‘qon tumanidagi “Pravda” jamoa xo‘jaligida 50 o‘rinli bolalar uyi tashkil etildi. Tumandagi to‘qqiz jamoa xo‘jaligi 1942-yilning mart oyigacha ko‘chirib keltirilgan 108 bolani o‘z quchog‘iga oldi.

Bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish – umum-xalq ishi, butun O‘zbekiston aholisining ishi bo‘lib qoldi. Minglab kishilar yetim qolgan bolalarni o‘z tarbiyasiga oldilar.

**Xayriya BO‘RIYEVA,**  
*tarix fanlari nomzodi, dotsent*




## ARXIV HUJJATLARIDA AKS ETGAN TARIX

Ikkinchi jahon urushi vaqtida Moskva, Leningrad, Odessa, Kirovograd, Stalingrad, Ukraina, Belorussiya va boshqa urush o'chog'iga aylangan joylardan O'zbekistonga 30 dan ortiq millat vakillari, jumladan, ispanlar ham evakuatsiya qilingan.

Toshkent shahar markaziy davlat arxivi saqlovidagi 330-jamg'armada Toshkent

shahriga aholini evakuatsiya qilish boshqarmasining hujjatlari mavjud bo'lib, unda evakuatsiya qilingan fuqarolar ro'yxati, ularning soni, qaysi shahardan jo'natilgani, ularning poyezdda shaharlarga taqsimlangani haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan.



С П И С О К

27

Испанских политических эмигрантов, эвакуированных  
из г. Драматорова.

Кремль, Москва

1. Вега Франциско Сончес
2. Мария Сан-Хосе Коррас - жена
3. Леини Вега Хосе - 6 лет
4. Мария Вега СанХосе - 2 лет
5. Серано Анхел Сан-Валентин
6. Луиса Коррочер - жена
7. Анхел Серано Коррочер - 4 лет
8. Луис Серано Коррочер - 2 лет
9. Климент Хосе Пастор
10. Марселис Агилар - жена
11. Хосефина Пастор Буска - мать
12. Энварно Климент Пастор - сестра
13. Виолета Климент Агулар - 4 лет
14. Хораль Климент Агулар - 1 год
15. Гарсия Хосе Монтерубио
16. Кармен Терес - жена
17. Кармен Гарсия Терес - дочь
18. Иглесиас Андриано
19. Хосефа Фернандес - жена
20. Рехина Иглесиас Фернандес - дочь

Зав. отделом И.  
МОИР УзССР.

*Рубин*

Вла. Рубин

*Kramatorsk shahridan evakuatsiya qilingan  
ispan siyosiy migrantlari ro'yxati. 1942-yil*





## MEHRIDARYO ONA

Urush yillarida kolxozlar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarish bilan birga, kolxozchilarning umumiy yig'ilishlari qarorlari bilan Vatan mudofaasiga pul, don, meva, kiyim-bosh yuborib turdilar.

1941-yil 3-dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti evakuatsiya qilingan fuqarolarni qabul qilish va joylashtirish yuzasidan maxsus qaror chiqaradi.

Samarqandlik urush faxriylarining xotinalariga qaraganda, Chkalov qishloq soveti qoshidagi kolxozlarga 100 xo'jalikka yaqin, Yangiravot qishloq soveti qoshidagi kolxozlarga 70 ga yaqin, Motrid qishloq soveti qoshidagi kolxozlarda 150 ga yaqin va Bog'ibaland qishloq soveti qoshidagi kolxozlarga 100 dan ko'proq xo'jaliklar ko'chirib keltirilgan.

Evakuatsiya qilingan xo'jaliklar kolxozning umumiy binolariga va kolxozchilarning uylariga joylashtirilgan.

1941-yilning oktabr-dekabr oylarida Samarqand rayoniga ko'chirib keltirilayotganlar ayniqsa ko'payib ketgan. Engels nomli kolxoz mehnatkashlari ham urush hududlaridan evakuatsiya qilingan odamlarga uylarining eshiklarini ochib qo'ydilar. Yangiravot qishloq soveti qoshidagi Engels nomli kolxozga evakuatsiya qilinganlarga kundalik umumiy ovqatlanishini yaxshilash uchun 1-2- va 3-4-brigadalarda bittadan, 5-6-7-8-9-brigadalarda ikkita – hammasi bo'lib 4 ta oshxona ochiladi.

Birgina Engels nomli kolxozda har kuni evakuatsiya qilinganlarga 300 kilogramm



non yetkazib berilgan. Kolxozchilardan Xudoyberdiyeva, Fotima Qosimova, Shirinova va boshqalar yetim qolgan bolalarni olib boqib, katta qilishdi.

Dehqon Fotima Qosimova (1923–1975) o'zining olti bolasidan tashqari o'z qaromog'iga olgan yetimlar soni bo'yicha turli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bir joyda bolalar 10, qayerdadir 12, yana boshqa bir manbada 14 nafar deb ko'rsatiladi.

F. Qosimova tomonidan yozilgan tarjimai holda quyidagi qayd mavjud:







*“Turmush o‘rtog‘im Ibrohim Jo‘rayevni armiyaga, ya‘ni urushga jo‘natib, og‘irchilik, qiyinchiliklarga bardosh berib ishladim va shu yillarda 10 ta, yana 6 ta, jami 16 ta ota-onasiz qolgan bolalarni o‘z tarbiyamga oldim...*

*O‘zimning 6 ta farzandimni ham tarbiya qildim”.*

Materiallardan birida F. Qosimova urush yillarida 10 ta, urushdan keyin 6 ta bolani qaramog‘iga olgani ma‘lum bo‘ldi. Shu sababdan, tarjimayi holida ham F. Qosimova “yana 6 ta”ni alohida ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

U haqda gazetada o‘qib, 1969-yili Germaniyadan qidirib kelgan jurnalist Ulrix Fyolkel Fotima Qosimova bilan uchrashadi.

Suhbatda Fotima opa berilgan savolga shunday javob bergan:

*“O‘zim yetim o‘sganman. Shuning uchunmi, urushda ota-onasiz qolgan bolalarni ko‘rib, yurak-bag‘rim ezildi.*

*Erim bilan maslahatlashdik-da, har xil millat bolalaridan bunday go‘daklarni qanotimizga oldik. Bularni o‘n to‘rt yoshgacha – o‘zlari o‘zlari eplaydigan bo‘lgunlarigacha boqdik, yuvib-taradik. Ularning yonida o‘zimning ham olti bolam bor edi.*

*Hozir endi bu farzandlarimiz o‘qib, hunar orttirib voyaga yetishdi. Uyli-joyli, ota-ona bo‘lishdi.*

*Biz allaqachon buvi bo‘lib qoldik. Nevaralarimiz soni oltmish to‘rttaga yetibdi”.*

Jami 22 nafar farzandga onalik qilgan Fotima Qosimova 1954-yildan 1972-yilgacha kolxozda raislik qildi. Uning jamoa xo‘jaligi



1. Автобиография / Ростомов  
Ростомов  
 1923-й йилда ақшай ҳафтадан охири  
 сизга туғилди: 9-й йилда ақшай  
 йилда. 1930-й йилда н.б. ҳафтадан  
 маълум 5-сентябрда туғилди. 1936-й йил  
 йилда, н.б. ҳафтадан маълум 10-сентябрда  
 туғилди. 1941-й йилда  
 йилда келиши ҳафтадан Раб-  
 фанда келиб туғилди. Шу ҳафтадан  
 йилда билди билди ҳафтадан 1938-й йил  
 йилдан қарқорда шайи билди ҳафтадан  
 то 1945-й йилга қарқор ҳафтадан шай-  
 ҳафтадан шайи. Шунда шайи ҳафтадан  
 ҳафтадан шайи, туғилди йилдан шайи  
 келиши билди ҳафтадан шайи ҳафтадан  
 келиши билди, ҳафтадан шайи ҳафтадан  
 ҳафтадан шайи, шайи ҳафтадан шайи  
 йилдан шайи 10-й йил билди ҳафтадан  
 16-й йил билди ҳафтадан билди ҳафтадан

Fotima Qosimova tomonidan yozilgan tarjimayi hol. 1973-yil



<sup>2</sup> / <sup>2</sup> / мағбұлаға ақыл, мағбұлаға қасиет.  
16 ма қазың. Қолдан бағаларымен  
мағбұлаға қасиет. Ұжымның 6 ма қазы  
заңдармен қасиет мағбұлаға қасиет  
1946 жыл ақпарты 1951 жылғы қазың  
қазыңғы бағаларымен қазыңғы  
мағбұлаға қазыңғы 2 жыл мағбұлаға  
қазыңғы бағаларымен.

1951-1954 жылғы бағаларымен бағаларымен  
қазыңғы бағаларымен бағаларымен.

1954 жылғы мағбұлаға қазыңғы  
18 жылғы бағаларымен қазыңғы  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен.  
1957 жылғы бағаларымен бағаларымен  
мағбұлаға қазыңғы бағаларымен, 1962 жыл  
жылғы бағаларымен. 1966 жылғы  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен.  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен  
бағаларымен бағаларымен бағаларымен



16 ма етіеле баһарда ба бтас із  
 фарзанди билаи худди 22 -  
 нофар фарзанд (анаман), онда  
 шилок.

Тағтир ҳаҷраи шилок маҳ-  
 шукӯраи из бақтида бақасиб  
 қаманимеле қуш иу фарзанди  
 2 маҳта амӣ совети ҳаҷраи  
 бӯди.

1) Оғди Ленин.

2) Оғди Ҷаҳраи зина.

3) 2 ма Оғди меҳри ба бӯди  
 хӯшамел вақасибда 12 ма  
 меҳри амӣ ба сазови бӯди.  
 Вақасиб тағтир ҳаҷраи  
 маҳта ибодат.

1954-1972 йилга ҳаҷраи маҳта  
 вақасибда маҳта қасиб,

bogʻdorchilik va uzumchilik sohasida katta muvaffaqiyatlarni qoʻlga kiritgan edi. Oʻzi ham sobiq Ittifoq miqyosida oʻtkazilgan Xalq xoʻjaligi yutuqlari koʻrgazmasida oltin medal bilan taqdirlangan edi.

Xalq deputatlari Chkalov qishloq kengashi ijroiya komitetining 1992-yil 26-fevraldagi “Fotima Qosimova xotirasini abadiylashtirish toʻgʻrisida”gi 7/2-son qarori bilan Engels nomli jamoa xoʻjaligi aholisining

talab-istaklari asosida oʻzgartirilib, unga Fotima Qosimova nomi berildi.

Xuddi shunday mazmundagi qaror Samarqand rayon hokimi tomonidan 1992-yil 28-aprel kuni 20b/4k-son bilan chiqarilgan.

Ha, oʻzbek xalqi Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy harakatlar qurshovida qolgan hududlar aholisini qabul qildi. Evakuatsiya qilinganlar boshpana topdi. Oilasini, ota-onasini, vatanini topdi.

**Anvarjon ALIYEV,**  
*“Oʻzarxiv” agentligi masʼul xodimi*

**Dilshod QODIROV,**  
*Samarqand tumani  
davlat arxivi direktori*





# XALQIMIZNING ABADIY YODIDA

Qayerda uzildi, uzildi joni,  
Qaysi tuproqlarga to'kildi qoni?  
Qaysi makonlardan qabringni izlay,  
Urushdan qaytmagan yurtim o'g'loni?

Aqshagul TO'LAGENOVA



---

---

## 101 VATANDOSH IZIDAN

1941-yilning kuzida asirga olinib, Niderlandiya hududidagi “Amersfort” konslageriga keltirilgan hamda shu yerda qurbon boʻlgan 101 nafar oʻzbekistonlikdan hech birining ismi maʼlum emas edi. Bir mahbus tomonidan chizilgan 9 portretidan ikkitasida “Hotam Qodirov” va “Zoyir Murodov” degan qaydlar bor.

Shu mavzuda izlanishlar olib borayotgan tarixchi Remko Reyding shunday deydi:

*“Meni nega bu askarlarning hammasi oʻldirilgani, nemislar ularga nima sababdan juda qoʻpol munosabatda boʻlgani qiziqtirardi.*

*Maqsadim esa 101 askarning shaxsini aniqlash, yaqinlarini topish va askarlarning qarindoshlariga ularning otasi yoki bobosi ortiq bedarak emasligini, Niderlandiya yerlariga koʻmilganini aytishdan iborat edi.*

*Askarlarning shaxsini aniqlash uchun juda koʻp harakat qildim. Niderlandiya, Rossiya va Oʻzbekistonda tadqiqotlar olib bordim. Va yaqinda biz 7 nafar askarning shaxsini aniqlash imkonini beradigan faktlarni topdik. Ularning aksari – Oʻzbekistondan. Askarlarning qarindoshlari topilishidan va ularga bobolari haqida maʼlumot berishdan umidvormiz”.*

Dastlab, 2 nafar askarning chizmasi bor edi. Oʻsha chizma asosida askarlarning yaqinlarini izlash olib borilayotgan edi.

2021-yilning oʻrtalariga kelib, 101 askardan birining qarindoshlariga xat yozish maqsadida ism-familiya va adresini yozgan qogʻoz topildi. Ayni mana shu qogʻoz asosida askarning qarindoshlari Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidan topildi.

Rayim Salomov – 101 nomaʼlum askar guruhidagi shaxsi aniqlangan ilk askar. U 1922-yili Navoiy viloyati Xatirchi tumanida tugʻilgan. Urush boshlangunga qadar oʻqituvchilik qilgan. 1941-yilda frontga joʻnatiladi va bedarak ketadi.

Urush boshlanganda Rayim Salomov va uning rafiqasi Musharram bor-yoʻgʻi 3 oylik kelin-kuyovlar edi. Keyinchalik Musharram aya erini bir umr kutadi, eri urushga ketgandan soʻng tugʻilgan qizining ismini ham, otasi urushdan kelsa, koʻrib xursand boʻlsin, deya Xursand qoʻyadi.

Lekin Rayim Salomov urushdan qaytmadi, 80 yil oʻtgach, unga tegishli bir parcha qogʻoz qaytib keldi, xolos. Otasini kutib katta boʻlgan Xursand aya ham bundan 2 yil oldin vafot etgan. Biroq Xursand momodan 9 farzand, bir etak nabira qolgan.

Remko Reyding hozircha jami 7 nafar askarning shaxsini aniqlash imkonini beradigan ehtimoliy dalillar mavjudligini qayd etdi. Rayim Salomov – ana shunday dalillar asosida shaxsi aniqlangan birinchi askar. Qolgan askarlarga tegishli maʼlumotlar ham oʻrganilyapti.

*“Asosiy qismi oʻzbeklar boʻlgan 101 askarning shaxsini aniqlashda Ikkinchi jahon urushida asir olinganlar haqida Oʻzbekistonda saqlanayotgan maʼlumotlarni oʻrganish asosiy ahamiyatga ega boʻlishi mumkin.*

*Tadqiqotni davom ettirish uchun qoʻlimizdan kelgancha harakat qilamiz. Katta ehtimol bilan, DNK testlarini oʻtkazishimizga toʻgʻri keladi. Buni oldingi bosqichlarda ham amal-*






ga oshirdik va natija juda ijobiy bo'ldi, bundan keyingi bosqichlarda ham DNK testlari ish berishiga ishonchim komil", dedi Remko Reyding.

"101 vatandosh izidan" loyihasi ham ma'lumotlarni doimiy o'rganishda davom etadi.

**Zilola G'AYBULLAYEVA,**  
*jurnalist*



*101 askardan biri Rayim Salomovga tegishli yozuv*



---

---

## BEDARAK KETGAN OTA VA O'G'IL



*Abdug'ani polvon Hakimov o'g'li Abdurahim bilan birga*

Ikkinchi jahon urushida frontga bir oiladan ham ota, ham o'g'il ketgan holatlar ko'p bo'lgan. Ular orasida XX asr boshlarida kurash bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, qolaversa, qo'shni respublikalarda ham tanilgan Abdug'ani Hakimov ham bor.

1897-yili tug'ilgan Abdug'ani polvon bolalikda otasi Abduhakim chavandozdan uloq chopishni o'rgangan. U ham otasi kabi kurashdan topgan yutuqlarini muhtojlarga tarqatardi va el-yurt oldida yelkasi yerga tegmagan polvon, saxiy inson sifatida nom qozongan edi. Shu sababdan, uni o'zi yashaydigan Alisher Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligiga rais etib saylashadi.

Qisqa muddatda odamlarning turmush tarzi yaxshilangani, jamoa belgilangan rejalarini oshig'i bilan bajargani uchun A. Hakimovni Bekobod tumanidagi qoloq xo'jalikka rahbar qilib yuborishadi. Keyinchalik yana o'z jamoasiga rahbar bo'lib qaytib keladi.

Urush boshlangan paytda u rahbariyat yo'llanmasi bilan Sirdaryo tumaniga qarashli Ilyich kolxozi iqtisodiyotini ko'tarishga safarbar qilinadi. Kolxozdan qariyb yuz kishi urushga chaqirilganida, Abdug'ani polvon ham o'z ixtiyori bilan frontga o'tlanadi.

Uni o'z ish joyida qoldirishga qanchalik urinishmasin rozi bo'lmaydi. *"Mening jamoam urushga ketayotgan bo'lsa, qanday qilib qolishim mumkin? Ulardan ajralib qolish nomardning ishi bo'ladi"*, deydi.

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi ma'lumotlari bilan tanishish jarayonida, uning nomi hujjatlarda Gani Xakimov tarzida qayd etilgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, Abdug'ani polvon umr yo'l-doshi Maston Hakimovaga yozgan xatida gospitalga yaradorlarni yetkazadigan sanitar mashinada xizmat qilayotgani qayd etilgan, uning xatlari 1943-yil noyabridan keyin to'xtab qolgan. Mana shu xat asosida A. Hakimov 1943-yil dekabr oyidan boshlab bedarak yo'qolgan deb hisoblanadi.

Abdug'ani polvonning farzandi Abdurahim Hakimov ham urushga ketgan bo'lib, ular haqida qarindoshlarda yetarli ma'lumot yo'q edi. Bu insonning nomini xotira kitobida ham uchratmadik.

Masalani o'rganish jarayonida hujjatda uning nomi Raksimbay Xakimov tarzida yozilgani, u 1917-yili tug'ilgani hamda 226-o'qchi diviziyada Stalingrad uchun janglarda qatnashib, 1942-yil 24-oktabrda halok bo'lgani aniqlandi.

Hujjatda dastlabki dafn etilgan joyi Stalingrad oblasti Gorodishenskiy rayoni Yertzovka qishlog'idagi 137,8-balandlik deb qayd etilgan...

Bir vatandoshimiz taqdiriga oid ma'lumot topildi. Abdug'ani polvon bo'yicha qidiruv ishlari esa davom etmoqda.

**Faxriddin USMONOV,**  
*tadqiqotchi*



## QIDIRUV

Ikkinchi jahon urushi yillarida 538 mingdan ziyod o'zbekistonliklar halok bo'ldi. Bundan tashqari, 158 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz jang maydonlarida bedarak yo'qolgan hisoblanadi.

Janggohlardan qaytmagan vatandoshlarimizni qidirish ishlarida O'zbekiston "Prometey" vatanparvarlik qidiruv ekspeditsiyasining alohida o'rni bor. 1984-yildan boshlab, ekspeditsiya a'zolari arxivlarda ishlab, o'n minglab yurtdoshlarimizning qabrlari haqida ma'lumotlarni to'plashdi.

1986–1994-yillar davomida ekspeditsiya Rossiya, Belarus Respublikasi va Ukrainada jang bo'lgan joylarga 72 marta borib, qidiruv ishlarida bevosita ishtirok etdi. Qazish jarayonida topilgan noma'lum askarlarning suyaklari dafn etildi. Ular bedarak yo'qolganlar safidan chiqarilib, halok bo'lgan yurtdoshlarimiz ro'yxatiga kiritildi, ularning nomlari ko'p jildli Xotira kitoblaridan o'rin oldi.

Ekspeditsiya boshqa mamlakatlardagi qidiruv tashkilotlari tomonidan yuborilayotgan ro'yxatlar, murojaatlar bilan ham ish olib

## DAVOM ETADI

borib, yuzlab o'zbekistonliklarning yaqinlari topilishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Natijada qarindoshlar uzoq yillar bedarak hisoblangan yaqinlarining dafn etish marosimida ishtirok etmoqda, xorijdagi qabrlarini borib ziyorat qilib kelmoqda.

Darhaqiqat, ekspeditsiya faoliyati tufayli qanchadan qancha farzandlar, nevaralar o'z otalari va buvalari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Shu bilan birga, hali yuz minglab bedarak yo'qolganlarning taqdirlari nomalum turibdi.

Ayni vaqtda Mudofaa vazirligi, hududiy hokimliklar, G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi, O'zbekistonning eng yangi tarixi markazi bilan hamkorlik qilib kelayotgan ekspeditsiya yuzlab yurtdoshlarimizning murojaatlari bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Bu yildan boshlab an'anaviy tarzda chop etilayotgan mazkur kitob-albomda ham hali qidirilayotgan o'zbekistonlik jangchilarning suratlarini e'lon qilib borishni maqsad qildik. Shoyad, bedarak yo'qolgan yurtdoshlarimizning ruhlari shod bo'lgay.





**Sa'dulla MIRSOLIHOV,**  
1908-yilda tug'ilgan,  
1942-yil mayida bedarak yo'qolgan,  
Toshkent viloyati



**Omonali KELDIYEV,**  
1940-yil harbiy xizmatga chaqirilgan,  
bedarak yo'qolgan,  
Namangan viloyati



**Po'lat INOG'OMOV,**  
1912-yilda tug'ilgan,  
1944-yil dekabrda bedarak yo'qolgan,  
Toshkent shahri



**Axmatfayz SHAMSUTDINOV,**  
1919-yilda tug'ilgan, katta leytenant,  
1942-yil fevralida bedarak yo'qolgan,  
Toshkent shahri



**Ibrohim YUNUSOV,**  
1912-yilda tug'ilgan,  
1942-yil sentabrda bedarak yo'qolgan,  
Toshkent viloyati



**Doniyor RO'ZIQULOV,**  
1939-yil harbiy xizmatga chaqirilgan,  
bedarak yo'qolgan,  
Samarqand viloyati



**Salim XIDIROV,**  
1918-yilda tug'ilgan, 1941-yil noyabrda  
bedarak yo'qolgan,  
Toshkent shahri

Поисковые  
г. Ташкент

1. Фамилия, имя и отчество  
вонна

РТОЧКА  
РОЗЫО  
Рахманов

Год и место рождения

Каким военкоматом  
призван

Сведения о гибели  
или нет)

Дополнительные данные  
и сведения: да или нет)

О родных и близких

Чиракмин. Р.В.

Чиракмин. Р.В.

Составил: [Handwritten]



**Joldas AMANOV,**  
1917-yilda tug'ilgan,  
bedarak yo'qolgan,  
Toshkent viloyati



**Xasan AMINOV,**  
1915-yilda tug'ilgan,  
1942-yil iyunida bedarak yo'qolgan,  
Toshkent shahri



**Arab SHARIPOV,**  
1920-yilda tug'ilgan,  
bedarak yo'qolgan,  
Buxoro viloyati



**Saidjon QORABOYEV,**  
1918-yilda tug'ilgan, bedarak  
yo'qolgan,  
Toshkent viloyati



**Murodulla SHOMIRZAYEV,**  
bedarak yo'qolgan,  
Namangan viloyati



**Ismoil BOYMATOV,**  
1920-yilda tug'ilgan,  
1943-yil martida bedarak yo'qolgan,  
Toshkent viloyati



**Nosir G'YOSOV,**  
1921-yilda tug'ilgan,  
1942-yil fevralida bedarak yo'qolgan,  
Toshkent shahri

русская  
иностранцев  
Инженерский РМ

19... г.  
1945 г.

9. Примечание: поиск завер-  
шен, поиск прекращен.  
поиск продолжается.  
Полученные сведения

Руководитель клуба «Прометей»  
З. ЕШИМІРЗАЕВА

Т. Ср. Чир. Ангрен ТНПО М...

...дан  
...еттай  
...аки  
...ан. ...  
...НИНГ  
...МИЗ.  
...та кай...  
...он, кимлар...  
...а ёзлб ёборинг.  
...ат билан кутамиз,  
...а отангиз хақида бирор  
...тонасиз.  
...дан келгунча ҳаракат  
...қилемиз.  
...саломат бўлинг.  
...урмат билан  
...ометей" клубининг  
...рахбара  
...мирзаева





FRONT UCHUN TO'PLANGAN ISSIQ KIYIM  
COLLECTING AND SUBMITTING

# G'ALABA

## BOG'I



## G'ALABA BOG'I HAMISHA GAVJUM



G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi va uning tarkibidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi tomonidan O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga qo'shgan hissasini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha bir qator muhim ishlar olib borilmoqda.

Bu yerda urush mavzusi bilan bog'liq respublika va xalqaro konferensiyalar, ilmiy seminarlar, kitoblarning taqdimotlarini o'tkazish an'anaga aylandi. Jumladan, majmua O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Markaziy Osiyo xalqaro instituti bilan hamkorlikda 2021-yil 30-aprel kuni **"Markaziy Osiyo**





**xalqlari tarixi va xotirasida Ikkinchi jahon urushi: voqealar, ishtirokchilar, ramzlar”** mavzusunda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani tashkil etdi. Unda Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Polsha, Fransiya, Italiya, Quvayt, Indoneziya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi xorijiy mamlakatlarning diploma-

tik korpus vakillari, harbiy attashelari ishtirok etdi.

Majmuada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda boshqa vazirliklar, tashkilotlar tomonidan ham qator seminarlar va tadbirlar o‘tkazib borilmoqda.





O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan **“Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat**

**qilganlarni e‘zozlash – O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri”** mavzusidagi seminar ishtirokchilarga manzur bo‘ldi.

*2021-yil 4-may*





Majmuada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida tashkil etilgan **“Xotira bor ekan – mil-**

**lat barhayot”** mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirda yoshlar faol qatnashdi.

*2021-yil 6-may*





“Shon-sharaf” davlat muzeyi bo‘lim mudiri Z. Xolboyeva Moskva shahrida o‘tkazilgan **“Судьба солдата: теория и практика**

**архивных исследований”** mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

*2021-yil 26-noyabr*





O'zbekistonning eng yangi tarixi markazi, G'alaba bog'i, "O'zarxiv" agentligi, O'zbekiston "Prometey" vatanparvarlik-qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan tashkil etilgan **"Ikkinchi jahon**

**urushi va O'zbekiston xalqi: tadqiqotlar"** mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi samarali kechdi.

*2021-yil 29-noyabr*



Majmuada **"Воспоминания детей великой Победы"** kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

*2021-yil 9-aprel*









Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 76 yilligiga bag'ishlab chop etilgan **“O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida”** kitob-albomining taqdimotidan lavhalar.

*2021-yil 7-may*





G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi tomonidan chop etilgan **“Xotiralardan o‘rin olgan tarix”** kitobi taqdimoti ishtirokchilarda qizg‘in taassurot qoldirdi.

*2021-yil 1-iyun*





O'zbekistonning eng yangi tarixi markazi tomonidan chop etilgan **“Ikkinchi jahon**

**urushi va O'zbekiston xalqi”** kitobi taqdimot ishtirokchilariga manzur bo'ldi.

*2021-yil 9-sentabr*



O'tgan davr mobaynida majmuada Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, 2021-yil 21-iyun

kuni Ikkinchi jahon urushi boshlanganining 80 yilligi munosabati bilan videokonferensiya shaklida xalqaro teleko'prik uyushtirildi.







Shuningdek, ushbu xalqaro hamkorlik doirasida o'zbekistonlik Ikkinchi jahon urushi

qatnashchilarining xotiralari asosida hujjatli film suratga olindi.



O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar, ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar doirasida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan delegatsiyalar, davlat va jamoat arboblarning G'alaba bog'i majmuasiga tashriflari tashkil etilmoqda. Jum-

ladan, 2021-yil 24-iyun kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar mudofaa vazirliklari shaxsiy tarkibi bilan ishlash bo'yicha idora rahbarlari boshchiligidagi delegatsiya majmuaga tashrif buyurdi.





“ArMI–2021” xalqaro armiya o‘yinlari doirasida O‘zbekiston mezbonlik qilgan harbiy-tibbiy estafeta va dala oshxonasi muso-

baqalari ishtirokchilari majmua bilan tanishdilar.

*2021-yil 3-sentabr*



Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlar Qurolli Kuchlari metrologiya xizmatlarini muvofiqlashtirish qo‘mitasining

yig‘ilishi ishtirokchilari majmuaga tashrif buyurdi.

*2021-yil 17-noyabr*





Chexiya Respublikasining O'zbekistonda-  
gi elchisi o'rinbosari Roman Krasniski bosh-  
chiligidagi delegatsiyaning tashrifidan lavha.

*2021-yil 16-iyun*







O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi doirasida yurtimizga kelgan ko'plab xorijlik mehmonlar majmuaga tashrif buyurishdi.





Turkiya Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshligʻi, armiya generali Yashar Guler rahbarligidagi delegatsiya tashrifidan lavha.

*2021-yil 23-mart*



AQSH Qurolli Kuchlarining bir guruh mutaxassislari majmuaga tashrif buyurdilar.

*2021-yil 10-sentabr*





Koreya Milliy politsiya universiteti prezidenti Li Chyol Gu tashrifidan lavha.

*2021-yil 20-noyabr*



Rossiya Federatsiyasi Milliy Mudofaa boshqarmasi markazi ofitserlarining majmuaga tashrifi.

*2021-yil 22-noyabr*





Isroillik tadqiqotchi David Kalontarov tashrifidan lavha.

*2021-yil 6-yanvar*



Buxoro yahudiylari xalqaro kongressi vakillarining majmuaga tashrifi.

*2021-yil 6-iyun*





Gdansk Ikkinchi jahon urushi muzeyi direktori Karol Navrotskiy boshchiligidagi Polsha delegatsiyasining majmuaga tashrifi doirasida “Shon-sharaf” davlat muzeyi va Gdansk shahridagi Ikkinchi jahon urushi davlat muzeyi o’rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

*2021-yil 8-iyul*



## AKA-UKA JANGCHILAR HAQIDA YANGI MA'LUMOTLAR



“O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi” kitob-albomida mashhur Zulfiya aya Zokirova-ning farzandlari singari besh farzandi urushdan qaytmagan Ibrohimovlar oilasi haqida ma’lumot berilgan edi. Biroq aka-uka Ibrohimovlar, ularning oilasi haqida ma’lumot kam edi.

Shu sababli, kitob-albomni tayyorlash bo‘yicha tuzilgan ishchi guruh tomonidan bu haqda ijtimoiy tarmoq orqali e’lon berildi. Natijada “Tashpoisk” guruhi va moldovalik qidiruv bo‘yicha mutaxassis Vasiliy Senkovskiy tomonidan oilaning katta o‘g‘li

Rahim Ibrohimovning dafn etilgan joyi haqida ma’lumot olindi.

Shuningdek, R. Ibrohimov 1944-yil 15-martda Kirovograd oblasti Maryanopol qishlog‘i atrofidagi jangda ko‘rsatgan jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangani ma’lum bo‘ldi.




№ п/п	Фамилия, имя, отчество	Дата рождения	Дата смерти	Место захоронения
1	Ибрагимов Рахим	1920	1944	Молдавия
2	Ибрагимов Зулфи	1925	1944	Молдавия
3	Ибрагимов Абду	1930	1944	Молдавия
4	Ибрагимов Хасан	1935	1944	Молдавия
5	Ибрагимов Саид	1940	1944	Молдавия

№ п/п	Фамилия, имя, отчество	Дата рождения	Дата смерти	Место захоронения
1	Ибрагимов Рахим	1920	1944	Молдавия
2	Ибрагимов Зулфи	1925	1944	Молдавия
3	Ибрагимов Абду	1930	1944	Молдавия
4	Ибрагимов Хасан	1935	1944	Молдавия
5	Ибрагимов Саид	1940	1944	Молдавия

“O‘zarxiv” agentligi tomonidan urushdan avval R. Ibrohimov Moskva mo‘ynachilik fabrikasining Buxoro qorako‘lchilik zavodida direktor bo‘lib ishlagani, unga Hurmat belgisi ordeni berilganligi aniqlandi.

Yaqinda aka-uka Ibrohimovlar bo‘yicha qidiruv ishlari tiklandi. O‘zbekiston Res-

publikasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi so‘rovi asosida Rossiya Federatsiyasi Markaziy arxividan Rahim Ibrohimov haqida arxiv ma‘lumoti olindi.

  
МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ  
РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ  
(МИНОБОРОНЫ РОССИИ)  
ФЕДЕРАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ  
КАЗЕННОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ  
«ЦЕНТРАЛЬНЫЙ АРХИВ  
МИНИСТЕРСТВА ОБОРОНЫ  
РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ»  
г. Подольск, Московская обл., 147100

Начальнику Центрального архива  
Министерства обороны  
Республики Узбекистан  
ул. Мирзо-Улугбека, д. 100,  
г. Ташкент, 100000

№ 10 - *редакция 2011 г. № 21200947*  
На № *988 от 8.11.2021*

**АРХИВНАЯ СПРАВКА**

В послужных картах младшего лейтенанта Ибрагимова Рахима Хусайновича, 1909 г.р., уроженца г. Самарканд Узбекской ССР, о службе записано:

«08.1941 г. призван в КА из г. Термез;  
с 23.08.1941 г. командир отделения 68 гв. стрелковой дивизии;  
с 11.1941 г. див. фотограф клуба 68 гв. стрелковой дивизии;  
с 04.1942 г. чертежник-топограф 1 отд. штаба 68. стрелковой дивизии;  
с 25.03.1943 г. курсант ОКМЛ САВО;  
приказом 290 сп (так в документе) № 01 от 1.08.1944 г. назначен на должность командира пулеметного взвода 290 гв. стрелкового полка 95 гв. стрелковой дивизии;  
04.05.1944 г. убит в бою». Воинское звание, отчество, место рождения, сокращения - так в документе.



Основание: ЦА МО, картотека учета офицерского состава.  
Выписка дана с соблюдением текста оригинала документов.  
В картотеке персонального учета награжденных имеется учетная карточка, в которой значится: «Гв. мл. лейт-нт Ибрагимов Рахим Хусайнович, ком. роты 290 гсп 95 гед, награжден:  
орденом «Красной Звезды», приказом 95гед № 011/н от 8.4.44 г.  
Других сведений о наградах не имеется. Имеется пометка «убит в бою 4.5.44 г. Исключен пр. ГУК № 02721944 г.». Отчество, сокращения - так в документе.

Основание: ЦА МО РФ, картотека учета награжденных.  
В книге учета офицерского состава 292 гвардейского стрелкового полка 95 гвардейской стрелковой дивизии за 1943-1944 гг. значится:  
«Мл. л-т Ибрагимов Рахим Хусайнович, 1909 г.р., призван в августе 1941 г. (точная дата призыва не указан) Термезским РВК Узбек. ССР, прибыл из 37 офиц. полка 1.2.44 г., убит 4.5.44 г.». Отчество, сокращения - так в документе.

Основание: ЦА МО, фонд 6816, опись 313741с, дело 1, лист 70.  
290 гвардейский стрелковый полк 95 гвардейской стрелковой дивизии с 4 мая 1943 г. по 11 мая 1945 г. входил в состав Действующей армии.

Основание: ДГШ-8 от 2 апреля 1998 г.  
(дополнение в Перечень № 5, страница 195).

Заведующий архивохранилищем

  
*Chel*  


---

---

## TAASSUROTLARGA BOY UCHRASHUVLAR

Aytish kerakki, o'tgan yillar davomida yo'qolib ketgan ma'lumotlar katta sa'y-harakatlar bilan topilmoqda hamda ular kelajak avlod uchun saqlab qolinmoqda.

Ayni paytda, "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" shiori ostida uch avlod uchrashuvlari, ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun sayyor dars va mashg'ulotlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Majmuada o'tayotgan umumta'lim maktablarining "Yosh Temurbeklar" guruhlari a'zolarining tantanali qasamyod marosimlari ham taassurotlarga boy bo'lmoqda.

Bu kabi tadbirlar yaqin tarixda ota-bobolarimiz ko'rsatgan qahramonliklar misolida yosh avlod qalbida xalqimiz matonati va jasoratiga bo'lgan ehtirom tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qiladi.







Majmuuda “Veteran” jangchi-faxriylar va nogironlar birlashmasi ham muntazam tadbirlar o‘tkazib kelmoqda.



Majmuada Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'pmillatli O'zbekiston xalqining buyuk G'alabaga qo'shgan munosib hissasi, uning jasorati, matonati va qahramonliklarini yoshlar o'rtasida targ'ib etish bo'yicha qator ommaviy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, 2021-yil 20-aprel kuni urush yillarida front va uning ortida g'alabaga o'z hissasini qo'shgan hamda vafot etgan yurtdoshlarimizning

xotirasiga bag'ishlab **“Shon-sharaf” respublika harbiy festivali** bo'lib o'tdi.

Festivalda jamoatchilik va harbiylar tomonidan “Matonat madhiyasi” monumenti po'yiga gul qo'yish marosimi hamda O'zbekiston Qurolli kuchlari tarkibidagi vazirliklar va xizmatlarning kursantlari tomonidan harbiy parad yurishlari o'tkazildi.





2021-yilning aprel-may oylarida “Shonsharaf” davlat muzeyida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi bilan hamkorlikda **“Urush noming o‘chsin jahonda!”** mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rgazmasi, “O‘zarxiv” agentligi, Shanxay hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi bilan **“Tarix sahi-**

**falari”** nomli yuzga yaqin foto arxiv hujjatlari ko‘rgazmasini tashkil etdi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi tomonidan **“Urush xotiralarda”** ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi o‘tkazilib, uning g‘oliblari munosib taqdirlandi.



2021-yil 9-may oqshomida buyuk G'alabaning 76 yilligi munosabati bilan G'alaba bog'i yodgorlik majmuasida 3D-Mapping hamda chiroqlar shousi tashkil etildi.







“Musaffo osmon” shiori ostida 6 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijodiy ishlar ko‘rik-tan-

lovi ishtirokchilar uchun unutilmas voqealarga boy bo‘ldi.

2021-yil 10-iyun





Dunyoning 42 davlati ishtirok etgan “ArMI–2021” Xalqaro armiya o‘yinlarida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 24 jamoasi munosib ishtirok etib, umumjamoa hisobida faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi. G‘alaba bog‘i yodgorlik majmuasida o‘tkazilayotgan

tantanali marosimda faxrli o‘rinni egallagan va rekord natijalarni qayd etgan harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan qo‘l soati va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

*2021-yil 11-sentabr*



2021-yil 15-mart kuni G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi hududida Slovakiyaning O'zbekistondagi elchisi Yan Bori Millatlar-

aro munosabatlar hamda xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi rahbariyati bilan birgalikda "Tinchlik daraxti"ni o'tqazdi.





2021-yil 11-dekabr kuni G'alaba bog'i yodgorlik majmuasiga kirish hududida pandemiya bilan kurash davomida jonini fido qilgan tibbiyot xodimlari xotirasiga bag'ishlab,

yashil xiyobon tashkil etildi. Shu kuni Xotira xiyoboniga jami 61 ta chinor, qayrag'och va akatsiya daraxtlari ekildi.



Umuman, majmuaga respublikaning turli hududlaridan bolajonlardan tortib nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, mehnat jamoalari, harbiylar tashrif buyurib, yurtimiz ozodligi va tinchligi uchun kurashgan mard va jasur vatandoshlarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan eksponatlar va muzey ekspozitsiyasi bilan tanishmoqda. Ular o'z xonadonlarida

ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ajdodlari haqidagi ma'lumotlarni, fotosuratlar va hujjatlarni muzey fondiga topshirmoqda. Shu tariqa ular o'z oilasi misolida Vatan o'tmishiga daxldorlik tuyg'usi va xalq jasurati haqidagi hikoyalarni avloddan avlodga yetkazishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.








Экуманиа  
Лезгиан элелери  
узун аманлыгы  
баран мога  
нана чыга  
санганды  
карачак чыгарма  
болгон. 683 нн  
буна. 683 нн  
экуманиа  
баран мога  
нана чыга  
санганды  
карачак чыгарма  
болгон. 683 нн  
буна. 683 нн  
экуманиа

Аманат Пангинанын Ашуганы  
Келиш Ашуганын Ашуганы  
Аманат Пангинанын Ашуганы  
Келиш Ашуганын Ашуганы  
Аманат Пангинанын Ашуганы  
Келиш Ашуганын Ашуганы  
Аманат Пангинанын Ашуганы  
Келиш Ашуганын Ашуганы

# MINNATDORLIK

## TUYG'ULARI



5-  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Биз эмайлар Фароона Вилоят,  
ноҳиядан Фароона шаҳрига шахура  
назар ташлаб юзга кайта муҳорра  
заминавий сўз ва кўра наққорга  
фрактиб, айдиқча қисақтан шайхорига  
шимаринизга қисақтан шайхорига  
юзга кайта муҳорра шаҳрига  
эма бар бер қисақтан шайхорига  
шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!  
Шухратдан Шавкат Ширинбойев!

SHON-SHARAF MUZEYI  
FAXRIY MEHMONLAR  
KITOBI

## SAMIMIY

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevga

Farg'ona shahrida yashovchi  
pensioner To'lqin Zohidovdan

### MINNATDORCHILIK XATI



Assalomu alaykum, muhtaram Shavkat Miromonovich!

Bugun Sizning rahnamoligingizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ruhlangan holda, butun xalqimiz qatori oilamizning har bir a'zosi ham g'urur-iftixor va mas'uliyatni his etib, mazkur tarixiy jarayonlarga bevosita daxldor bo'lib, fidokorona mehnat qilishga harakat qilmoqdamiz.

Fursatdan foydalanib, Sizga G'alaba bog'i yodgorlik majmuasini bunyod etganingiz uchun samimiy minnatdorchilik bil-

dirmoqchiman. Bu muhtasham majmua o'zining chuqur ma'no-mazmuni va mohiyati bilan aholi, ayniqsa, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bebaho ahamiyat kasb etib, yurtimizdagi muqaddas ziyoratgohlardan biriga aylanib ulgurdi.

Majmuadagi "Shon-sharaf" muzeyida bizning mehribon va suyukli otamiz, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Leningrad blokadasining ishtirokchisi, ko'plab jangovar orden va medallar sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, marhum To'xtasinhoji Zohidov (1918–2011) xotirasiga bag'ishlangan alohida ko'rgazma ekspozitsiya tashkil qilganini ko'rib, behad minnatdor bo'ldik. Ko'zlarimizga yosh olib, boshimiz osmonga yetdi.

Ajdodlarimiz xotirasini e'zozlashga qaratilgan mana shunday xayrli ishlaringiz uchun Sizga yana bir bor tashakkur aytamiz.

Ilohim, O'zbekistonimizni jahon miqyosidagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish maqsadida bosayotgan zabardast qadamlaringizga Alloh madad qilsin!

Sizga cheksiz hurmat bilan,

**To'lqinjon ZOHIDOV,**  
Farg'ona shahri



## IZHORLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga  
Samarqand viloyati Ishtixon tumani Mitan qo‘rg‘onida yashagan  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi,  
partizan Luqmon O‘roqov farzandlari nomidan*

### MINNATDORCHILIK XATI

Assalomu alaykum, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

Avvalo, xalqimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlarida va front ortida ko‘rsatgan yuksak jasorati va matonatini tarix sahifalarida muhrlash, xotirlash va munosib qadrlash maqsadida G‘alaba bog‘i deb atalgan betakror va muhtasham majmua barpo etilgani hamda shu mavzuda “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” kitob-albomi chop etilgani uchun Sizga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Bizning otamiz Luqmon O‘roqov ham urushda qatnashgan.

1941-yilda otam xizmat qilayotgan bo‘linma kuchli hujumga duch keladi. Qaqshatqich janglardan so‘ng Luqmon O‘roqov bir qancha quroldoshlari bilan asirga tushib qoladi. Ammo Germaniyaga olib ketilayotgan eshlonlar Belorussiya hududidan o‘tayotganda, bitta vagondagi asirlar o‘zlari o‘tirgan vagonni teshib qochishga muvaffaq bo‘lishadi. Ular orasida otam ham bor edi.

Bir necha kun o‘rmonda yurgan asirlar, nihoyat, Brest shahrida tashkil etilgan partizanlar otradiga borib qo‘shiladi. Otrad komissari Lukash Timoshenko jang maydonlarida yara-dor do‘stlarini tashlab ketmaydigan va to‘g‘ri qaror qabul qiladigan Luqmon O‘roqovning



mardligini yoqtirib qoladi. Janglardan birida komissar halok bo‘lgach, uning xotirasiga partizanlar otamizni “Lukash botir” deb chaqira boshlaydilar.

Yozuvchi Nazir Safarov va Yazdon Xudoyqulov otam haqida “Lukash botir” dramasi yozganlar, bu asar 1974-yili hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan.

Biz otam Luqmon O‘roqovga tegishli bo‘lgan suratlar, kiyim va buyumlarni “Shonsharaf” muzeyiga topshirishga qaror qildik. Bu ashyolarning muzeyga topshirilishi ular kelgusi avlod uchun bobolar jasoratidan so‘zlovchi unutilmas xotira bo‘lib qolishiga ishonchimiz komil. Zero, jasorat va ezgu ishlar hamisha mangudir.

**Marhabo LUQMONOVA,**  
Samarqand viloyati



Шавкат Миромонов!



Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizning tashabbusingiz bilan boshlangan savobli ishlar tufayli Ikkinchi jahon urushi qahramonlari nomi qayta tiklanmoqda. O'zbek qahramonlari orasida tog'am G'anitoy Toshniyozovning ham Vatan tinchligi uchun ko'rsatgan jasoratlari hech qachon unutilmaydi...

G'anitoy Toshniyozov ko'rsatgan jasoratlari uchun 1943-yil 29-mayda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga loyiq deb topilgan. Ammo Belorussiyadan Moskvaga yuborilgan hujjatlar yetib bormagan, samolyot yo'lda dushman tomonidan urib tushirilgan. Garchi hujjatlar o'z manziliga yetib bormagan bo'lsa-da, tog'am G'anitoy Toshniyozov barcha o'zbek qahramonlari singari "Shon-sharaf" davlat muzeyidan o'rin egalladi. Men O'zbekistonning oddiy bir fuqarosi sifatida Sizning bunday savobli ishlaringizdan juda ham mamnunman va minnatdorman.


Hurmatli Shavkat Miromonovich, doim sog'-salomat bo'ling. Siz uchun biz har doim duodamiz.

**Rustam TADJIYEV,**

*G'anitoy Toshniyozovning jiyani-nevarasi*







Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Sizning tashabbusingiz bilan pandemiya sharoitida G'alaba bog'i va "Shon-sharaf" muzeyi bunyod etildi, "O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida" kitob-albomi nashr qilindi. Uni varaqlab, tog'amiz Fayzulla Norxo'jayev haqidagi maqola bilan tanishib, nihoyatda ta'sirlandim.

Munavvarxon hoji onamning tog'asi Fayzulla Norxo'jayev urush tugagandan so'ng ham qaytib kelmagan. 1952-yili u kishi hayot ekanligi haqida Polshadan xabar kelgan.

O'zbekiston rahbari Sharof Rashidovning tashabbusi tufayli 1964-yili Fayzulla Norxo'jayev O'zbekistonda yashash huquqiga ega bo'ladi. Shundan so'ng u kishi Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni N. Lyashchenkoga o'rinbosar etib tayinlangan. Bir necha yil shu lavozimda ishlab, birinchi bo'lib o'zbek harbiylari ichida general-leytenant unvoniga sazovor bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushida qatnashgan otobobolarimizning jasoratlari abadiylashtirilyotganidan qarindoshlarimiz bilan birga juda xursand bo'ldik.

Mamlakatimizni rivojlantirish yo'lida olib borayotgan ishlaringizga ulkan muvaffaqiyatlar tilab,

**Nasrullo ABDULLOH o'g'li,**

*Fayzulla Norxo'jayevning jiyan-nevarasi*



Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizning tashabbusingiz bilan barpo etilgan G'alaba bog'i majmuasida xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan mardonavor jasorati keng yoritib berildi.

Siz tufayli qahramonlarimiz nomlari qayta tiklanmoqda. O'zbek xalqining frontda va front ortida kecha-yu kunduz, tinim bilmay, zahmat chekib ko'rsatgan xizmatlari tarixda o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Mening buvim, gvardiya serjanti, saninstruktur Rixsi Mo'minova ham Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lib, harbiy-dala gospitalarida yarador jangchilarni jangovar safga qaytarish yo'lida ko'p xizmatlar qilgan. Ko'p janglarda faol ishtirok etib, bir necha bor og'ir yaralangan. O'z hayotini xavf ostiga qo'yib, ayol bo'lishiga qaramasdan, jang maydonlaridan 80 dan ortiq soldat va ofitserlarni olib chiqqan. Urushdan keyin ham meditsina sohasida o'z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilgan.

Buvim urush va tinchlik davrlarida ko'rsatgan xizmatlari uchun ko'pgina orden, medallar va boshqa davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Ular orasida qadrlilaridan biri Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasining eng oliy mukofoti – Florens Naytingeyl medalidir.

Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda va front ortida xizmat ko'rsatgan ko'plab qahramon yurtdoshlarimiz bilan birgalikda bu-



vim Rixsi Mo'minovaning nomi ham "Shonsharaf" muzeyidan joy olgani men uchun katta sharaf.

Buning uchun, muhtaram Prezident, Sizga o'z minnatdorchiligimni bildiraman va tashakkur aytaman. Alloh Sizni bunday xayrli ishlarda qo'llab-quvvatlasin. Doim sog'-salomat bo'ling!

Sizga cheksiz hurmat bilan,

**Husniddin MUXAMADJONOV,**  
*Rixsi Mo'minovaning nevarasi*





Men chuqur hayratdaman. Buyuk G'alabaning 75 yilligi munosabati bilan bu yerda juda katta ishlar amalga oshirilibdi. O'zbekiston


Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromono-  
vich Mirziyoyev va mazkur ulug'vor majmua-  
ning barcha quruvchilari, tashkilotchi va xo-  
dimlariga katta rahmat.

G'alaba bog'i majmuasi va bu yerdagi muzey  
hozirgi va kelajak avlodlarni tarbiyalashda juda  
muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yaratgan-  
dan shuni so'raymanki, insonlar urush qiyinchi-  
liklari, azob-uqubatlari, dahshatlarini anglab  
yetsin va boshqa urush bo'lmasligi uchun bor  
kuchlari bilan harakat qilishsin. Urush qat-  
nashchilari va front orti mehnatkashlari ha-  
qidagi xotira asrlar davomida saqlab qolinishi  
kerak va bu majmua ham shuning uchun bun-  
yod etilgan.

Qahramonlarcha, fidoyilarcha, jonini aya-  
masdan g'alabani ta'minlagan urush qahra-  
monlari, urush qatnashchilari va front orti  
mehnatkashlariga shon-sharaflar bo'lsin!

Chuqur ehtirom va minnatdorchilik bilan,

**VIKENTIY,**  
O'rta Osiyo okrugining  
Toshkent va O'zbekiston mitropoliti







## MUNDARIJA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori .....	4
So‘zboshi .....	14
Mangu jasorat namoyoni .....	17
Askar xatlari .....	183
Yangi arxiv hujjatlari .....	193
Front ortidagi matonat .....	241
Xalqimizning abadiy yodida .....	295
G‘alaba bog‘i .....	305
Minnatdorlik tuyg‘ulari .....	341

Kitob-albom “O‘zarxiv” agentligi, O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi, Toshkent shahar markaziy davlat arxivi, Davlat xizmatlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi FHDYO arxivi, Samarqand tumani davlat arxivi, G‘alaba bog‘i yodgorlik majmuasi va uning tarkibidagi “Shon-sharaf” davlat muzeyi, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston “Prometey” vatanparvarlik-qidiruv ekspeditsiyasi hamda urush qatnashchilari oilalarida saqlanayotgan noyob tarixiy materiallar asosida tayyorlandi. Shuningdek, kitobga Rossiya Federatsiyasining Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi, Fransiya Milliy arxivi, Fransiya Respublikasi Mudofaa vazirligi tarixiy xizmati Arxivlar tarixiy markazidagi tarixiy hujjatlar kiritildi.

Nashrni tayyorlashda olimlarimiz M. Raximov, R. Shigabdinov, M. Darmonova taqdim etgan hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan materiallardan foydalanildi.

Ushbu kitob-albomni tayyorlashda hamkorlik qilgan vazirlik va idoralar, muzey va arxivlar, olimlar va mutaxassislar, urush qatnashchilari va ularning oilalariga alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Kitob-albom O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining O‘zR FA O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” mavzusidagi ALM-202106002 raqamli maqsadli amaliy loyiha doirasida tayyorlandi.

# O‘ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA

*Uchinchi kitob-albom*

Nashr uchun mas’ul *X. Sultonov*

Tuzuvchilar:

*S. Saidolimov, K. Sa’dullayev, H. Bobojonov, D. Aberkulov*

Muharrir *I. Bo‘riboyev*

She’r tarjimoni: *Humoyun*

Fotosuratchilar: *S. O‘rmonov, B. Abdurahimov, S. Zayniyev*

Nashriyot muharriri *L. Fattoyeva*

Rassom-dizayner *Sh. Mirfayozov*

Kompyuter dizayneri *B. Tuxtarov*

Texnik muharrir *Y. Tolochko*

Kichik muharrir *Z. Mahkamova*

Musahhih *M. Ismoilova*

Litsenziya raqami № 4642. 22.07.2020. Bosishga 2022-yil 6-mayda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/8. Melovlangan qog‘oz. “PT Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 56,76. Nashr tabog‘i 88,49. Adadi 2 000 nusxa. Shartnoma № 18-1/22.  
Buyurtma № \_\_\_\_\_

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30. Telefon: (71) 244-34-38. Faks: (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

UO‘K 94(575.1)“1939/1945”

KBK 63.3(5O‘zb)62

O‘ 24

O‘ 24 O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida [Albom]: kitob-albom/nashr uchun mas’ul  
X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, K. Sa’dullayev, H. Bobojonov, D. Aberkulov. –  
Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, – 2022. – 352 b.  
ISBN 978-9943-7952-5-9

UO‘K 94(575.1)“1939/1945”  
KBK 63.3(5O‘zb)62

ISBN 978-9943-7952-5-9

© S. Saidolimov va boshq., 2022  
© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022